O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

ISSN 3030 - 3230

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY

IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI G‘ALABANING 80 YILLIGI

2025-YIL MAXSUS SONI



JAMOAT XAVFSIZLIGI
ilmiy amaliy jurnali

TAHRIR KENGASHI:

ISLAMOV
Baxtiyor Djaxangirovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

DJURAYEV
Rustam Mirzayevich
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni, general-mayor, dotsent, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

ABJANOV
Baurjan Sadikovich
Qozog'iston Respublikasi Milliy gvardiyasi Bosh qo'mondoni o'rinbosari, general-mayor, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XAKIMOV
Raxim Rasuljonovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SAIDOV
Akmal Xolmatovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Inson huquqlari Milliy markazi direktori

MAMAYUSUPOV
Sarvar Dexkanovich
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni o'rinbosari, polkovnik, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bosh muharrir:
RUSTAMBAYEV
Mirzayusup Xakimovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

MIRAKULOV
Miravzal Mirodilovich
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi sho'ba mudiri, podpolkovnik, yuridik fanlar doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Turg'unov Oybek Karimovich
Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich
Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
Abdurayimov Sobirjon Sayipjonovich
Zokirov Botirjon Pulatxujayevich
Selimanova Svetlana Mixaylovna
Mirazov Davron Miragzamovich
Akramova Shaxnoza Abrorovna
Kuldashev Ikrombek Xamidullayevich
Xoliqulov Umid Shodiyevich
Usmonov Muxammadi Baxriddinovich
Djaydakbayev Murat Turg'unovich
Axmedov Jamoliddin Davronovich
Narkulova Indira Rustam qizi
Alimova Go'zal Alisherovna
Bulicheva Margarita Faritovna
Kamolov Abdullo Abdurazzokovich
Xaqnazarov Xudoyberdi Dilmurodovich
Shirinova Nargiza Djabbarovna
va boshqalar

Bosh muharrir:
RUSTAMBAYEV
MIRZAYUSUP XAKIMOVICH
Mas'ul muharrir:
ZULFIQOROV
Sherzod Xurramovich
Mas'ul kotib:
KAMOLOV
Abdullo Abdurazzokovich
Muharrir:
Murakayeva Zuxra Ilgizarovna
Dizaynerlar:
Kamolov Abdullo Abdurazzokovich
Korrektor:
Qurbonov Bahrom
Tahririyat manzili:
Toshkent viloyati, Chorsu qo'rg'oni
Tel: (71) 230-32-71
Faks: (71) 230-32-50
E-mile: jxu@umail.uz
web-site: mgjxu.uz

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA

Mamayusupov S.D. Buyuk ajdodlarimizning yurt tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonliklarini o‘rganish – muqaddas burchimizdir 03

Rustambayev M.X. O‘zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushida g‘alabani ta’minlashdagi yuksak insonparvarlik fazilati 07

Xaknazarov X.D., Tojiboyev M.T. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy tuzilmalar faoliyati 12

Rasulova N.S. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston kommunistik partiyasining targ‘ibot-tashviqot faoliyati 16

Абдуллаева М.С. Экономический вклад Узбекистана в победу во второй мировой войне: к 80-летию великой победы 20

Maxkamova N.R. Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonda maktab ta’lim tizimini kadrlar bilan ta’minlash muammolari 27

Turayeva S.R. Zamonaviy tadqiqotlarda ikkinchi jahon urushi masalalarining yoritilishi: yangi yondashuvlar va tahlillar 31

Ermetov A. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari 44

Mamatkulov D.M., Bokiyev M.G. Fashizmga qarshi kurashda qo‘llanilgan mafkuraviy yondashuvlar 47

Selimanova S.M., Axmedov Sh.O. O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash: Ikkinchi jahon urushidan mustaqillikka qadar 50

Usmanova X.U., Nasridinov D.E. Ikkinchi jahon urushida kimyoviy qurollarning qo‘llanilishi 55

Djaydakbayev F.T. Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi: tarixiy tajriba, davlat siyosatining mexanizmlari va bugungi islohotlar uchun xulosalar 58

Raxmanov F.E., Isakov S.X. Harbiy-kasbiy tayyorgarlik rivojlanishidagi ayrim tarixiy-nazariy tahlillar 66

Муракаева Ш.Х., Хурсандов А.С. 80-летие окончания второй мировой войны: вклад и героизм узбекского народа 71

Alimov M.I. Ikkinchi jahon urushining harbiy jinoyat protsessining rivojlanishidagi o‘rni 74

Murodov B.M. Ikkinchi jahon urushida jangovar harakatlar olib borish taktikasi va strategiyasining takomillashishi 80

Xodiyev R.H. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada o‘zbek xalqi tarixiy hissasi va uni kursantlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish kontekstida o‘rganish 85

Xo‘jamberdiyev F.K. Xorijiy tadqiqotlarda II jahon urushida O‘zbekistonlik harbiylarning ichki qo‘shinlar saflaridagi ishtiroki va jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatining o‘rganilishi va tahlili 89

Атаева Р.Р., Эгамбердиева Г.М. Узбекская поэзия о второй мировой войне 98

MUNDARIJA

Tulyaganov F.V.
Shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasining tarixiy asoslari 101

Kamolov A.A.
Xotira abadiy: ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alaba ortidagi vatandoshlarimiz jasorati 107

Ким С.Г.
Неоценимый вклад узбекского народа в победу над фашизмом во второй мировой войне 110

Tursunov T.T.
Ikkinchi jahon urishida qatnashgan o‘zbeklar 113

Bokiyev M.G.
Ikkinchi jahon urushi davrida g‘alabaga olib kelgan jangovar nutq va uning mazmun-mohiyati 116

To‘laboyev Sh.G‘., Yunusov D.B.
Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonda harbiy ta’lim muassasalarining tarixiy ahamiyati 120

Baqoyev Sh.H.
Ikkinchi jahon urishida harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi: tarixiy-huquqiy tahlil 123

Rizoyev F.F.
Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy xizmatchilar intizomiy javobgarligining o‘ziga xos xususiyatlari 126

Атаева Р.Р., Туйчибаева Ш.Ш.
О победе над фашизмом на занятиях русского языка в высших военных образовательных учреждениях: воспитание патриотизма и сохранение исторической памяти 132

Zokirov B.P.
Musodara etilgan jinoiy aktivlarning qaytarilishi: ikkinchi jahon urushidan zamonaviy xalqaro amaliyotgacha 136

Vaxidov F.R.
Ikkinchi jahon urushi yillarida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlash 141



BUYUK AJDODLARIMIZNING YURT TINCHLIGI VA HIMOYASI YO‘LIDAGI QAHRAMONLIKLARINI O‘RGANISH – MUQADDAS BURCHIMIZDIR

MAMAYUSUPOV Sarvar Dexkanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushida qatnashgan va qahramonlik ko‘rsatgan yurtdoshlarimizning taqdirlarini o‘rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, amaliy ishlar va ularning natijalari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Shuningdek maqolaga so‘nggi yillarda O‘zbekistonda urush faxriylarini qo‘llab-quvvatlar va rag‘batlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar va ularning samaralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham kiritilgan.

Kalit so‘zlar: ikkinchi jahon urushi, frontorti ta’minot, jangovar harakatlar, gumanizm g‘oyalari, bag‘rikenglik, G‘alaba bog‘i‘, Xotira va qadrlash kuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma’noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor [1, 429]. O‘zbekistonda uzoq yillardan buyon 9 may – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e’tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatish, shuningdek mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug‘lash yurtimizda oliyjanob qadriyatga aylangan.

Shu jihatdan Vatan himoyasi yo‘lidagi yuksak mardlik va qahramonliklari barcha avlodlar uchun namuna va ibrat maktabi vazifasini bajarib kelmoqda. Xususan, Ikkinchi jahon urushiga o‘zbekistonliklarning 2 millionga yaqini safarbar etilib, shundan 538 ming nafardan ortig‘i jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo‘lgan, 158 ming nafardan ortig‘i bedarak yo‘qolgan, mustaqillik yillarida 200 nafarga yaqin harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida o‘z jonini fido qilganlar [2].

Barchaga ma’lumki, ikkinchi jahon urushi millionlab begunoh insonlarning o‘limiga sabab bo‘lgan, mislsiz yo‘qotish va talafotlarga olib kelgan qirg‘inda o‘sha paytda dunyodagi mavjud 73 ta davlatdan 62 tasi, Yer yuzi aholisining 80 foizi ishtirok etgani ham uning dahshatlarini ifoda etib turadi. Ikkinchi jahon urushi dunyodagi 40 ta davlatni bevosita qamrab olgan bo‘lib, urush harakatlariga 110 million kishi safarbar etilgani va bu qirg‘inda jami 70 million kishi halok bo‘lgani ham achinarli holdir.

Joriy yilda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga puxta tayyorgarlik ko‘rish, uni yuksak darajada o‘tkazish, O‘zbekiston xalqining tarixiy qahramonligi, fidokorona mehnatini ulug‘lash, yosh avlodni ona Vatanga sadoqatli, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga qodir insonlar etib tarbiyalash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan 2025-yil 19-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unda quyidagi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutildi:

ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylari, mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimiz tinchligi, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida jasorat va fidoyilik ko‘rsatgan yurtdoshlarimizni xotirlash, ayni vaqtda hayot bo‘lgan mehnat faxriylari va keksalarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil

etish;

ushbu toifadagi shaxslarning yashash joyiga davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, harbiy qismlar komandirlari, davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san’at namoyandalari, yoshlar, shu jumladan, “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a’zolarining tashriflarini, ular ko‘rsatgan mardlik va jasoratning ahamiyatini targ‘ib qilishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish;

yolg‘iz va kam ta’minlangan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining yashash joylarini ta’mirlash, obodonlashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisi va uning oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslar, front orti mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan yoki nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda ularning oila a’zolariga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatilishini ta’minlash;

ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslarga hamda 1941–1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan bir yo‘la to‘lanadigan pul mukofoti tantanali ravishda topshirilishini tashkillashtirish;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslarga, front orti mehnat faxriylariga “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” yubiley medallarini tantanali ravishda topshirish;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslarning har biriga tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda ularni parvarish qilish maqsadida tibbiyot mutaxassislarini belgilangan tartibda shartnoma asosida biriktirgan holda doimiy ravishda patronaj xizmatini yo‘lga qo‘yish;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylariga ularning xohishlariga ko‘ra respublika hududidagi sanatoriylarga bir nafar kuzatuvchisi bilan bir martalik bepul yo‘llanmalar taqdim etilishini ta’minlashdan iborat.

Shu bilan birga mamlakatimizda 9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, bugun ham safimizda turib, Vatanimizning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan faxriylarni e’zozlash hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80-yilligi munosabati bilan urush qatnashchilari va nogironlarini, ularga tenglashtirilgan shaxslarni hamda, 1941–1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida bir martalik pul mukofoti belgilanib, unga ko‘ra ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 000 (o‘n ming) AQSH dollari miqdorida, ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarning har biriga 25 000 000 (yigirma besh million) so‘m miqdorida hamda 1941–1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilarining har biriga 3 000 000 (uch million) so‘m miqdorida pul mablag‘lari berilishi ko‘zda tutildi [3].

Ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbekistonlik ofitserlar orasidan o‘nlab generallar, mohir qo‘mondonlar yetishib chiqqan.

O‘zbekiston urush yillarida front ortidagi mustahkam ta’minot bazasiga aylandi. Yurtimizdan jang maydonlariga katta miqdorda qurol-yarog‘, oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak, palatka, parashut va boshqa zarur mahsulotlar yuborilgan. Urush bo‘layotgan hududlardan O‘zbekistonga 170 dan ortiq zavod va fabrika ko‘chirib keltirilib, tezlik bilan ishga tushirilgan. O‘zbekiston aholisi 1941-43 yillarda mudofaa fondiga 475 million rubldan ortiq mablag‘ni, 22 million rubllik qimmatbaho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy ravishda topshirgani g‘alabani yaqinlashtirishga yana bir muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

urush yillarida O‘zbekiston xalqi gumanizm va insoniylik bobida o‘ziga xos namuna ko‘rsatib, urush ichida qolgan hududlardan ko‘chirib keltirilgan, turli millatga mansub 1 million 500 mingga yaqin insonlar O‘zbekistondan panoh topdi. Ularning orasida 250 mingdan ziyod yetim bolalar ham bo‘lgan.

O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi uchun chinakam ta’minot bazasiga aylanib, xalqimiz tunu kun tinimsiz mehnat qilib, ulkan miqdordagi oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha, dori-darmon zaxiralarini jang maydonlariga uzluksiz yetkazib berdi. O‘zbekistonga 170 ga yaqin

zavod va fabrika evakuatsiya qilindi va qisqa muddatda qayta ishga tushirildi. Urushdan jabr ko‘rgan 1 million 500 mingdan ortiq keksalar, ayollar va bolalar respublikamizga ko‘chirib keltirildi. Ularning 200 mingdan ziyodi ota-onasidan ayrilgan yetim bolalar edi.

Yurtimizda Ikkinchi jahon urushida jang qilgan va front ortida fidokorona mehnat qilgan ajdodlarimizning jasoratini abadiylashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Urush qatnashchilari va nogironlari har yili rag‘batlantirilmoqda, ularning sog‘lig‘ini asrashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Toshkent shahrida ulkan G‘alaba bog‘i ochildi, unda “Matonat madhiyasi” yodgorligi va Shon-sharaf muzeyi barpo etildi.

Yana bir o‘ziga xos masalalardan biri shundan iboratki, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi.

Yangi topilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan [4].

Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming nafar yurtdoshimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar mobaynida e’tibordan chetda qolib kelganini albatta adolatdan, deb bo‘lmaydi. Shuningdek, o‘sha davrda “quloq” sifatida boshqa o‘lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ma’lum bo‘ldi. Shu borada yana ba’zi raqamlarni keltirmoqchiman: ilgari 396 ming nafar O‘zbekiston fuqarosi urushda halok bo‘lgan, deb aytilardi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo‘lgan. Bundan tashqari, frontda bedarak yo‘qolganlar haqidagi ma’lumotlar ham to‘liq emasdi. Hozirgi vaqtda 158 mingdan ko‘proq hamyurtimiz urushda bedarak ketgani aniqlandi.

Chuqur ilmiy-amaliy tahlillar va o‘rganishlar tufayli jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan O‘zbekiston vakillarining soni bo‘yicha ham oydinlik kiritildi. Shu paytga qadar bu ko‘rsatkich 120 ming nafar deb qayd etilardi. Yangi ma’lumotlarga asosan 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Jumladan, ilgari 280 nafar deb hisoblab kelingan o‘zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni 301 ta ekani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi Slava ordeniga sazovor bo‘lgani hujjatlar orqali o‘z tasdig‘ini topdi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg‘usi bilan barhayot, xotira – kechagi o‘tmishni, ajdodlar o‘gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Qadr – insonni yuksaklikka ko‘taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag‘ishlaydi.

Аннотация. В статье представлена информация о мероприятиях, проводимых с целью изучения судеб наших соотечественников, проявивших героизм во Второй мировой войне, а также о практической работе в данном направлении и её результатах. В статье также содержится информация о реформах, осуществляемых в Узбекистане в последние годы, направленных на поддержку и поощрение ветеранов войны, и их эффекте.

Ключевые слова: Вторая мировая война, фронтовое снабжение, военные действия, идеалы гуманизма, толерантность, Парк Победы, День памяти и почестей.

Abstract. The article provides information on the events held to study the fates of our compatriots who participated in World War II and demonstrated heroism, as well as on practical work and its results. The article also contains information on the reforms carried out in Uzbekistan in recent years to support and encourage war veterans, and their results.

Key words: World War II, frontline supplies, military operations, ideals of humanism, tolerance, Victory Park, Day of Remembrance and Honor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. – 456 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida. 19.02.2025. https://president.uz/uz/lists/view/7893.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida. 19.02.2025. http://president.uz/oz/lists/view/7892

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning buyuk G‘alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. http://president.uz/oz/lists/view/3564

O‘ZBEKISTON XALQINING IKKINCHI JAHON URUSHIDA G‘ALABANI TA’MINLASHDAGI YUKSAK INSONPARVARLIK FAZILATI

RUSTAMBAYEV Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushida g‘alabani ta’minlashdagi yuksak insonparvarlik fazilati masalalari qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil etilgan. Ikkinchi jahon urushida g‘alaba qozonishga O‘zbekiston xalqi o‘zining munosib hissasini qo‘shganligi bir qator misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Bugungi tahlikali bir zamonda jahon xalqlarining barchasi tinchlikning qadriga yetishlarini tarixiy ahamiyati hozirgi harbiy-siyosiy vaziyat misolida ko‘rsatib berilgan. Xususan, Ikkinchi jahon urushida g‘alabani ta’minlashda O‘zbekiston xalqining qo‘shgan hissasi o‘zbek onalari timsolida izohlab berilgan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e’tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatishda salmoqli ishlar amalga oshirilganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston xalqi, Ikkinchi jahon urushi, g‘alaba, insonparvarlik fazilati, harbiy-siyosiy vaziyat, jahon xalqlari, tinchlik, tarixiy ahamiyat, o‘zbek onalari, urush va mehnat faxriylari, G‘alaba bog‘i, “Shon-sharaf” muzeyi, “Mangu jasorat” monumenti, “Matonat madhiyasi” monumenti.

“O‘z jonini ona yurt uchun qurbon qilgan vatandoshlarimizning ruhi poklari oldida bosh egib ta’zim qilamiz.

Minglab urush va mehnat fronti qatnashchilarini – azmi shijoatli, dovyurak ota-bobolarimiz, sabr-matonatli onalarimiz, momolarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz”

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni

Yillar ketidan yillar o‘tadi, avlodlar almashadi lekin, bag‘rikeng o‘zbek xalqining, O‘zbekiston xalqining yuksak insonparvarlik fazilati, ma’naviy jasorati, xususan matonatli, metin irodali o‘zbek Onasi urush deb atalgan mudhish baloga bardosh berganligini bashariyat unutmaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Bu – hech qachon unutilmaydigan, ... buyuk tarix, qudratli ma’naviy boyligimiz” [1] sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevralda e’lon qilingan “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori Mamlakatimizda 9-may – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e’tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Ta’kidlash kerakki, Ikkinchi jahon urushida g‘alaba qozonishga O‘zbekiston xalqi o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Ayniqsa. o‘zbek Onalari Alp o‘g‘illarini frontning qaynoq urush oloviga otdi, o‘zi o‘zining gulday umrini front ortida frontdan-da og‘ir bo‘lgan mashaqqatli mehnatga bag‘ishladi.

Shu o‘rinda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyovning quyidagi fikrlarini so‘zma-so‘z keltirishni joiz: ***“Turmush o‘rtog‘i Xolmat aka vafot etgach, Zulfiya aya yolg‘iz o‘zi besh o‘g‘il, bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ikkinchi jahon urushida Isoqjon, Ahmadjon, Mahamadjon, Vahobjon, Yusufjon degan beshta azamat o‘g‘lidan judo bo‘lgan. Har***

qanday insonni ham yakson qilib tashlaydigan bunday og‘ir zarbaga chidash mumkinmi? Lekin matonatli, metin irodali o‘zbek onasi bu cheksiz kulfatga bardosh bera oldi” [3].

Haqiqatan, Ikkinchi jahon urushi jahon mamlakatlari xalqlari qatori O‘zbekiston xalqi boshiga ham mislsiz ayriliqlar va talafotlarni soldi. Jonajon Vatanimiz tarixida ularning jasorati biz uchun mardlik maktabi, g‘urur-iftixor manbasi bo‘lib kelmoqda.

2020-yil G‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushida qatnashgan O‘zbekiston xalqining jasoratini ko‘rsatish, xotirasini abadiylashtirish borasida yangi davr boshlandi. Shaxsan Oliy Bosh Qo‘mondonimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Olmazor tumanida ulkan maydonda qisqa muddatda katta hajmda ishlar amalga oshirilib, G‘alaba bog‘i, “Shon-sharaf” muzeyi, “Mangu jasorat”, “Matonat madhiyasi” monumentlari bunyod etildi.

Xalqimizning qonli janglardagi mardligini, front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoyiligini aks ettirishga bag‘ishlangan keng ko‘lamli tarixiy-badiiy ekspozitsiyalar yaratildi [4].

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston xalqi urush boshlangandan o‘zining butun iqtisodiyoti va ishlab chiqarishini urushga, harbiy sanoatga yo‘naltirdi. O‘zbekiston haqli ravishda, frontning mustahkam ta’minot bazasiga aylandi, sanoat korxonalari harbiy sohaga moslashtirilib, barcha kuchlar g‘alabaga safarbar etildi.

Ikkinchi jahon urushida yurtimizga evakuatsiya qilingan yuzdan ziyod zavod va fabrikalarni ishga tushirishda ishchi va muhandislar bilan birga ayollar va keksalar, o‘spirin bolalar mardlik va matonat bilan mehnat qildilar [5].

Jangga yaraydigan barcha erkak zoti urushga otlandi. Keksalar, yosh bolalar va xotin-qizlar ham o‘zlarining, ham jangga otlangan otasining, aka-ukasi va turmush o‘rtog‘ining ishlarini sidqi dildan bajara boshladi. Rejalarni ikki-uch baravar oshirib bajardilar va fidoyilik namunasini ko‘rsatdi.

Harbiy sanoatni jonlantirishda sobiq Ittifoqning sharqiy hududlariga, jumladan, O‘zbekistonga katta e’tibor berildi. O‘zbekistondagi sanoat korxonalarini qisqa vaqt ichida transformatsiya qilish va mudofaa mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tkazish lozim edi. Iqtisodiyot tarmoqlari ichida sanoatni transformatsiya qilishga alohida e’tibor berildi.

Harbiy ishlab chiqarish bevosita sanoat bilan bog‘liq. Urush yillarida sanoatni transformatsiya qilishda quyidagilarga e’tibor berildi:

Birinchidan, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini maksimal ko‘paytirish xamda ularning sifatini oshirish;

Ikkinchidan, mavjud korxonalarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish asosida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish;

Uchinchidan, yangi sanoat korxonalarini barpo etish (asosan, metallurgiya va mashinasozlik);

To‘rtinchidan, “fuqarolik korxonalari”ni harbiy mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirishi belgilab berilgan [6].

Kadrlarning keskin suratda tanqisligi, sanoat xom ashyosi, yoqilg‘i, dastgohlar, asboblar nihoyatda yetishmasligiga qaramay, 1941-yil dekabrga keliboq, Toshkentdagi 63 ta korxona va respublikadagi boshqa 230 ta korxona mudofaa mahsulotlari bera boshladi [7]. “Toshqishloqmash” zavodi urushning birinchi haftalaridan boshlab, harbiy mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. 1941-yilning oxiriga kelib zavod harbiy mahsulot ishlab chiqarish rejalarini 240%ga bajardi [8].

G‘alabani ta’minlash maqsadida frontga bir qator samolyot, ko‘plab qurol-yarog‘lar, yuzlab harbiy-sanitariya poyezdlari, dala oshxonalari, palatkalar, juda katta miqdordagi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berildi. Masalan, Toshkent parovoz-remont zavodi ham turli harbiy texnikalarni ishlab chiqarishga o‘tdi. Zavod asosan harbiysanitar poyezdlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. 1942-yil oktabrida zavodda tayyorlangan “O‘zbekiston” nomli bronepoyezd Kursk jangi, Kiyev, Jitomer va Polshaning ozod etilishida ishtirok etib, g‘alabani Berlindan 60 km. Uzoqlikda joylashgan Brandenburg shahrida kutib oldi. Urush yillarida O‘zbekistonda jami 5 ta bronepoyezd, 14 ta harbiy sanitar poyezdlari, 4 ta hammom va kir yuvish poyezdlari qurildi va frontga yuborildi [9].

Darvoqe, Sobiq Ittifoqning fashistik Germaniya okkupatsiya qilgan va ularga yaqin hududlaridan o‘n minglab kishilar urush boshlanishi bilan O‘zbekistonga tartibsiz kelishni boshlagan edi. Urush yillarida O‘zbekiston Rossiyaning bosib olingan rayonlari, Ukraina va Belorussiyadan hammasi bo‘lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi [10].

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston hukumati ko‘chirilgan aholiga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi. 1941-yil 25-noyabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonga 500 mingga yaqin odam

evakuatsiya qilindi. Evakuatsiya qilingan aholining asosiy qismi moddiy yordamga muhtoj edi. Ularga yordam uchun O‘zbekistonga ittifoq budjetidan ajratilgan 240 ming so‘m to‘liq sarf qilinib, bu maqsadlarga qo‘shimcha 400 ming so‘m respublika hisobidan ajratildi. 1943-yil 3-martdagi O‘zbekiston SSR XKSning 190-sonli qaroriga binoan moddiy yordamga muhtoj ko‘chirilgan aholiga 200 ming so‘m ajratildi [11].

Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, Yuzlab o‘zbek oilalari ko‘chirib keltirilgan, urush tufayli ota-onalaridan ajralgan bolalarni o‘z tarbiyalariga oldilar. 1942-yil 2-yanvarda Toshkentda shahar xotin-qizlarining yig‘ilishi bo‘lib o‘tgandan so‘ng respublikaga keltirilgan bolalarga jamoatchilikning yordam ko‘rsatishidan iborat vatanparvarlik harakati keng quloch yoydi. Bu yig‘ilishda O‘zbekiston xotin-qizlari qarovsiz bolalarga onalari o‘rnida onalik qilishga chaqirilgan edi.

Ko‘plab oilalar ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o‘z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o‘rtog‘i Bahri opa Akromovaning nomlari ko‘pchilikka tanishdir. Ular turli millat farzandlaridan 14 bolani o‘z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo‘rg‘onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. Yangiyo‘lda 9 ta kolxoz jamoasi ko‘chirib keltirilgan 169 bolani o‘z tarbiyalariga olishdi. Buxorolik Muazzam Jo‘rayeva va Ashurxo‘jayevalar o‘z bag‘irlariga 8 nafardan bola oldilar. 1943-yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 bola o‘zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi [12].

Ikkinchi jahon urushi davrida mahalliy va front gazetalari harbiy xizmatchilarning kundalik hayotdagi ahamiyatini, harbiylarni hayotga bo‘lgan umidini uyg‘otishga, g‘alabaga ishonchini yanada oshirishga, vatan sog‘inchini qondirishiga xizmat qilganligi bilan belgilash mumkin. Urush davrida o‘zbek tilida 17 nomdagi gazetalar chop etilgan bo‘lib, ular - “Dushmanga qarshi olg‘a”, “Vatan urushi”, “Dushmanni tormor etishga”, “Vatan uchun”, “Front haqiqati”, “G‘alaba bayrog‘i”, “Qizil armiya”, “Qizil askar haqiqati”, “Vatan sharafi uchun”, “Bong”, “G‘alaba uchun”, “Harbiy o‘rtoq”, “Vatan uchun” kabi milliy nashrlar edi [13].

Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, Ikkinchi jahon urushi g‘alabasini ta’minlashda Zulfiya Zokirovalar o‘zbek onalari jasorat timsoli bo‘ldi. Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog‘ida yashab o‘tgan Zulfiya Zokirova har qanday odamni hayratga soladigan insoniy jasoratni ko‘rsatadi.

To‘rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo‘lib qolgan Zulfiya ayaning kelinlari ham onalaridan o‘rnak olib erlariga sodiq qoldilar, qayta turmush qurmadilar.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “G‘alaba bog‘ining markazida “Matonat madhiyasi” deb atalgan muazzam obida barcha O‘zbekiston onalariga qo‘yilgan haykal bo‘lib, ona Vatan ramzi bo‘lib qad rostladi”. Ilgari yopiq bo‘lgan arxiv hujjatlarini o‘rganish va tadqiq etish borasida ilmiy jamoatchilik uchun keng imkoniyat yaratildi. Bu borada sobiq Ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma’noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor [14].

O‘zbekistondan urushga jalb etilganlar 2020-yilgacha 6 million 551 ming kishidan 1 million 500 mingga yaqin kishi urushda qatnashgan deyilgan bo‘lsa, endi 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilganligi aniqlandi. Demak, har uch nafar o‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. 396 ming nafar O‘zbekiston fuqarosi urushda halok bo‘lgan, deb aytilardi. Aslida, bu raqam 538 mingdan ziyod bo‘lgan. 158 mingdan ko‘proq hamyurtimiz urushda bedarak ketgani aniqlandi [15]. Yangi ma’lumotlarga asosan 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovor davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi.

Olovli urush yillarida butun O‘zbekiston xalqi “Hamma narsa – front uchun”, “Hamma narsa – G‘alaba uchun!” degan hayotiy e’tiqod bilan yashadi.

Mamlakatimiz front ortidagi mustahkam ta’minot bazasiga aylandi. O‘zbekiston xalqi jang maydonlariga katta miqdorda qurol-yarog‘, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa zarur mahsulotlarni yetkazib berdi. Ko‘pmillatli aholimizning fidokorona mehnati bilan respublikamizdagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko‘chirib keltirildi va g‘oyat qisqa fursatda ishga tushirildi.

Yangi aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, urush o‘chog‘iga aylangan o‘lkalardan O‘zbekistonga 1 million 500 ming kishi, jumladan, 250 mingdan ziyod bola evakuatsiya qilindi. Xalqimiz bu

odamlarning barchasiga chinakam mehr va e’tibor ko‘rsatdi, so‘nggi burda nonini ham ular bilan baham ko‘rib, yuksak insonparvarlik fazilatlarini namoyon etdi.

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli qirg‘in – Ikkinchi jahon urushining tugaganiga 80 yil bo‘lsa-da, afsuski, yer yuzining turli hududlarida, shuningdek, mintaqamizga yaqin hududlarda qarama-qarshilik, qonli to‘qnashuvlar davom etmoqda. Qayd etish joizki, dunyodagi harbiy –siyosiy vaziyat 2020-yillar boshidan buyon izchil tarzda keskinlashib bormoqda. Bu jarayon ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq muammolar bilan xarakterlanadi. Qudratli davlatlar o‘rtasidagi raqobat, mintaqaviy nizolar, yangi xavflar va harbiy texnologiyalar taraqqiyoti global siyosiy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu sababli, biz doimo hushyor va ogoh bo‘lishimiz kerak. Bugungi hayot va keskin o‘zgarishlar hammamizdan hayotga yangicha yondashuvni kutmoqda. Ana shunday jarayonda tinchlikni asrash, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar va xalqlar bilan hamkorlikni kuchaytirish asosiy faoliyatimiz bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston tashqi siyosatida uzoq-yaqin barcha davlatlar, avvalo, qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli, do‘stona aloqalarni rivojlantirish – O‘zbekiston tashqi siyosatining Bosh ustuvor yo‘nalishi ekanligidan kelib chiqib, o‘zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash joizdir.

Shu bilan birga Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, sarhadlarimiz daxlsizligini saqlash, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik kabi xatarlarga qarshi kurashish Qurolli Kuchlarimiz va huquqni muhofaza qilish organlarimizning doimgidek ustuvor vazifasi bo‘lib qolmog‘i zarur.

Darhaqiqat, yuqorida to‘xtalib o‘tganimizdek, O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushi g‘alabasiga qo‘shgan hissasi tarixi – bu bizning tariximiz. Biz bu tarixdan kuch-quvvat olamiz. Bu tarix bizni tinchlikni asrab, barcha xalqlar bilan do‘st va hamkor bo‘lib, yorug‘ kelajak bunyod etishga da’vat etadi [16].

Boisi, Sobiq Ittifoqning dushman vaqtincha bosib olgan va front yaqinidagi joylarni tashlab chiqqan hududlar aholisidan O‘zbekiston urush yillari hammasi bo‘lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Respublika shaharlari va qishloqlari aholisi bu yerga kelgan fuqarolarni mehr-oqibat bilan qarshi oldi. Aholi ularga turar joy berib, o‘zi siqilib yashadi, ko‘chib kelganlarni to‘ydirish uchun oxirgi bo‘lak nonini bo‘lib berdi, ular uchun poyabzal va kiyim-bosh to‘pladi. Binobarin, serquyosh O‘zbekiston ular uchun ikkinchi Vatan bo‘ldi. O‘zbekiston xalqi o‘zining yuksak insonparvarlik fazilatini namoyon etdi.

Muxtasar qilib aytganda, Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan tarixiy G‘alabani ta’minlashga ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqining qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Bugungi tinch va ozod, farovon hayotga erishish yo‘lida fidoyi ota-bobolarimiz namoyon etgan mardlik va jasoratni el-yurtimiz hech qachon unutmaydi”.

Shubhasiz, Ikkinchi Jahon urushidagi buyuk g‘alabaga o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shgan o‘zbekistonliklarning jangovar faoliyatini va front ortidagi mehnat jasoratlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish doimiy vazifa hisoblanadi. Zero, yer yuzidagi fashizm balosini yo‘q qilishdek buyuk, olamshumul, tarixiy g‘alabada O‘zbekistonning ko‘pmillatli xalqi o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganligi bugungi ma’naviy-ma’rifiy hayotning qudratli manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье в сравнительно-историческом плане проанализированы вопросы высокого гуманистического качества народа Узбекистана в обеспечении победы во Второй мировой войне. На ряде примеров показано, что народ Узбекистана внес свой достойный вклад в победу во Второй мировой войне. Историческая значимость того, что в сегодняшнее угрожающее время все народы мира достигли ценности мира, проиллюстрирована на примере нынешней военно-политической ситуации. В частности, вклад народа Узбекистана в обеспечение победы во Второй мировой войне отражен на гербе узбекских матерей. В последние годы в Узбекистане проведена значительная работа по оказанию особого внимания и глубокого уважения ветеранам войны и труда, внесшим вклад в победу во Второй мировой войне, а также нашим великим предкам, боровшимся за процветание, развитие и защиту Родины.

Ключевые слова: народ Узбекистана, Вторая мировая война, победа, добродетель человечества, военно-политическая ситуация, народы

мира, мир, историческое значение, узбекские матери, ветераны войны и труда, Парк Победы, музей "Шон-Шараф", монумент "Вечная слава", монумент "Гимн стойкости".

Annotation. This article is a comparative-historical analysis of the issues of the highest humanitarian virtue of the people of Uzbekistan in ensuring victory in World War II. A number of examples show that the Uzbek people made their worthy contribution to the victory in World War II. In today's threatening times, the historical significance of the fact that all the peoples of the world appreciate peace is shown on the example of the current military-political situation. In particular, the contribution of the people of Uzbekistan to ensuring victory in World War II is explained in the image of Uzbek mothers. In recent years, it has been highlighted that significant work has been carried out in Uzbekistan to pay special attention and deep respect to the veterans of war and Labor who contributed to the victory in World War II and to our great ancestors who fought for the prosperity, development and protection of the motherland.

Key words: people of Uzbekistan, World War II, victory, humanitarian virtue, military-political situation, World peoples, peace, historical significance, Uzbek mothers, veterans of war and labor, Victory Park, Museum "glory", Monument "Eternal courage", monument "anthem of perseverance".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б.143.
2. https://president.uz/uz/lists/view/7893 Мурожаат этилган сана: 01.05.2025.
3. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан ¬ –¬ миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2020. – Б.425.
4. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2020. –Б. 424.
5. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б.319.
6. С.Саидолимов ва бошқ. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. Монография. – Тошкент: Zamin nashr, 2024. – Б. 178.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни, 2000. – Б. 440.
8. Голованов А. Саидов И. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. Часть II. – Самарканд: СамГУ, 2006. – С.6.
9. С.Саидолимов ва бошқ. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. Монография. – Тошкент: Zamin nashr, 2024. –Б.181.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000. – Б. 454.
11. С.Саидолимов ва бошқ. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. Монография. – Тошкент: Zamin nashr, 2024. –Б.255.
12. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000. – Б. 456.
13. Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқейи. (1941-1945 йиллар). Тарих фан. номз. дисс... – Т. 2004. –Б. 104-109.
14. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2020. – Б.429.
15. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2020. – Б.429.
16. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б.143.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLOVCHI HARBIY TUZILMALAR FAOLIYATI

Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus fakulteti boshlig‘i, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Tojiboyev M.T.,
O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
professori, tarix fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy tuzilmalar faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilib, arxiv manbalari asosida tahlil qilingan. Xususan, Ichki qo‘shinlarning jangovar tuzilmalari faoliyati, ularning jangovar yo‘llari va erishgan natijalari keltirilib, ayniqsa 10-motoo‘qchi polki (Toshkent sh.), 19-kavaleriya polki (Qo‘qon sh., Toshkent sh.), 582-konvoy polka hamda 162-o‘qchi diviziyaning harakat marshrutlari va jangovar yo‘llari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qchi, motoo‘qchi, ichki qo‘shinlar, o‘qchi diviziya, konvoy brigadasi, chegara qo‘shinlari, garnizon xizmati, jangovar xizmat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tizimida ajdodlar merosini chuqur o‘rganish va yosh avlod ongu-shuuriga singdirish, ayniqsa harbiy qahramonlar, shu jumladan ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini taqdirlariga oid yangidan-yangi ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish va tegishli tartibda arxiv va muzeylar fondlarini boyitib borish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Zero O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so‘zlari bilan aytganda “… qahramon otalardan o‘rnak olib, ular bilan doimo faxrlanib yuradigan xalq hech qachon kam bo‘lmaydi va o‘zining ezgu maqsadlariga, albatta, yetadi” [1, 347].

Ikkinchi jahon urushi yillarida Ittifoq Qurolli kuchlari tarkibida ichki qo‘shinlar har jihatdan ahamiyatli bo‘lib, mazkur tuzilmaning O‘zbekistonda tuzilgan bo‘linmalari umumiy g‘alabaga alohida hissa qo‘shishgan

Ikkinchi jahon urushi yillarida IIXK tizimidagi tuzilmalar – Ichki qo‘shinlar, chegara qo‘shinlari, operativ qo‘shinlar, alohida maxsus qo‘shinlar, fronti orti ta’minot bo‘yicha qo‘shinlar, Harakatdagi Armiyaning zaxira qo‘shinlari, alohida ahamiyatli va o‘ta muhim obyektlarni qo‘riqlash bo‘yicha qo‘shinlar, temir yo‘llarni qo‘riqlash bo‘yicha qo‘shinlarga oid harbiy qism va bo‘linmalar tashkil qilinib, ularning ayrimlari aynan O‘zbekistonda tuzilib front va uning ortidagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan g‘alabaga munosib hissa qo‘shganlar.

Ikkinchi jahon urush yillarida Ichki qo‘shinlarning asosiy xizmat vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

dushmanga qarshi harbiy harakatlarda ishtirok etish;

davlatning ichki xavfsizligini ta’minlash yuzasidan maxsus jangovar-xizmat vazifalarini bajarish;

muhim obyektlar, shu jumladan:

ishlab chiqarish obyektlari;

temir yo‘llar;

davlat obyektlari;

oziq-ovqat resurslarini qo‘riqlash va nazorat qilish;

harbiy asirlar va mahkumlarni qo‘riqlash va konvoy xizmatini olib borish;

dushmanning diversiya-razvedka guruhlariga qarshi kurash olib borish;

terrorchilik va qo‘poruvchi tuzilmalarni yo‘q qilish bo‘yicha yirik masshtabli operatsiyalar o‘tkazishdan iborat bo‘lgan.

Shu bilan birga, Ichki qo‘shinlardan IIXK repressiv apparatining bir qismi sifatida, amalda Stalin rejimi milliy siyosatini repressiv usullar bilan amalga oshirish uchun bir vosita bo‘lib, ayrim xalqlarni evakuatsiya qilish, mamlakat, partiya, davlat rahbariyatining qarorlarini amalga oshirishda faol foydalanilgan.

Shu boisdan ham IQning IIXK tarkibiga kirishining o‘zi ham ko‘pchilikda uning

faoliyatiga nisbatan salbiy fikr uyg‘otishi tabiiy holat bo‘lib, ko‘pchilik holatlarda uning faoliyatiga negativ baho berib kelindi. IQ faoliyatiga oid materiallardan foydalanish bir necha o‘n yillar mobaynida yopiq bo‘lib, faqatgina 90-yillarga kelibgina ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishga ruxsat berildi va shundan keyingina ularning faoliyatini kompleks ravishda o‘rganish boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangan bir vaqtda 1941-yilning dekabridan 1942-yilning martiga qadar O‘zbekistonda milliy qo‘shilmalar – 99, 100, 101, 102, 103-kavaleriya diviziyalari va 89, 90, 91, 92, 93, 94, 95, 96, 97-alohida o‘qchi brigadalari tashkil etildi. O‘zbekiston hududida DMQ (Davlat mudofaa qo‘mitasi) topshirig‘i asosida yana bir qator harbiy tuzilmalar tashkil etilib, qurol aslaha va boshqa moddiy ashyolar bilan to‘liq ta’minlangan. Xususan, 389, 258 (keyinchalik 12-gvardiyachi) o‘qchi diviziyalari, 162 va 69-o‘qchi diviziyalar, 21 va 44 kavaleriya diviziyalarining, 83 (keyinchalik 128-gvardiyachi) Turkiston tog‘ o‘qchi diviziyasi, kabilar shular jumlasidandir [2, 312].

Ikkinchi jahon urushi yillarida 73 ta Ichki qo‘shinlar tuzilmalari nemis fashist bosqinchilariga qarshi kurashda bevosita ishtirok etishgan [3, 16].

Bir vaqtning o‘zida Operativ qo‘shinlar boshqarmasi Ichki qo‘shinlar boshqarmasiga, 1942-yilning 28-aprelda esa Bosh boshqarmasiga aylantirilgan. Uning tarkibida harakatdagi Qizil Armiyaning frontorti ta’minoti boshqarmasi qo‘shinlari tashkil etildi va o‘z navbatida 1943-yilning may oyida alohida faoliyat yurituvchi Bosh boshqarmaga aylantirilgan [4, 168-169].

Ikkinchi jahon urushi arafasida O‘zbekistonda tuzilgan va keyinchalik boshqa shaharlarga ko‘chirilgan IIXK Ichki qo‘shinlari, konvoy qo‘shinlarining turli tuzilmalari haqidagi ma’lumotlar ayrim arxiv ma’lumotlari tadqiqotga ilova qilingan. Xususan:

SSSR IIXK Ichki qo‘shinlarining 19-Qizilbayroqli kavaleriya polki (Farg‘ona, Qo‘qon sh., Moskva);

SSSR IIXK konvoy qo‘shinlari 232-polki (Toshkent sh.);

SSSR IIVning 52-konvoy brigadasi (Toshkent sh.);

SSSR IIXK Ichki qo‘shinlari 74 diviziyasi (Toshkent sh.);

Turkiston VCHK qo‘shinlari 2-brigadasi (Toshkent sh);

IIXK Ichki qo‘shinlarining 56-o‘qchi diviziyasi (Toshkent sh. Alma-Ata sh.);

F.Dzerjinskiy nomidagi SSSR IIXKning Lenin ordenli maxsus vazifalarni bajaruvchi 10-motoo‘qchi polki (Toshkent sh. – Moskva sh.);

IIV qo‘shinlarining temir yo‘llarni qo‘riqlash bo‘yicha 24-alohida o‘qchi batalyoni (Toshkent sh.);

SSSR IIV Ichki qo‘shinlarining Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti (Toshkent vil.);

SSSR IIXK konvoy qo‘shinlari 20-brigadasi (Toshkent sh.);

SSSR IIXK-IIV-DXVning F.E.Dzerjinskiy nomidagi 1-alohida motoo‘qchi diviziyasining 2-motoo‘qchi polki (Toshkent shahri);

SSSR IIXKning temir yo‘llarni qo‘riqlash bo‘yicha 24 diviziyasi;

SSSR IIXK konvoy qo‘shinlarining 47-alohida brigadasidan iborat bo‘lgan [5].

Shular orasida 10-Mehnat qizil bayroqli motoo‘qchi polki (Toshkent sh.) SSSR MGB IQning 10-motoo‘qchi polki O‘rta Osiyo bo‘yicha BDSB (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi, OGPU) ning 1923-yil 27-dekabrdagi 185-s sonli buyrug‘iga asosan, Turkiston Respublikasi BDSBning 81-alohida diviziyasi tarkibida BSDB qo‘shinlarining 10-alohida polki tashkil etildi. Uning tarkibiga Buxoro DSB (Davlat siyosiy boshqarmasi) ning 82, 84, 85 va 14 alohida divizionlari, Toshkent konvoy (soqchilik) jamoasi va ko‘ngillilarning bir qismi kirgan.

SSSR IIXKning 1941-yil 13-iyuldagi № 00927 sonli buyrug‘i asosida mazkur polk Moskvaga ko‘chirilgan va MVBAMD (Maxsus vazifalarni bajaruvchi alohida motoo‘qchi diviziya) tasarrufiga o‘tkazilgan. 1947-yilda SSSR IIV IQ tarkibidan SSSR DXV tarkibiga o‘tkazilgan. Polk 1924-yildan boshlab O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlarida jamoat tartibini saqlash ishlari bilan shug‘ullangan.

SSSR IIXK Ichki qo‘shinlari boshlig‘ining 1941-yil 17-yanvardagi buyrug‘iga asosan, Urumchi-Sinszyan provinsiyasida IIXKning 171-alohida batalonini tashkil etish vaqtida polk tarkibidan 350 nafar harbiy xizmatchi va harbiy texnikalar mazkur batalonga berilgan. Faoliyati davomida 2 marta hukumat mukofotlariga, xususan, xizmat faoliyatini

namunali ado etganligi va mudofaa ishlaridagi faol ishtiroki 05.11.1931-yilda Turkmaniston SSR, 23.02.1932-yilda O‘zbekiston SSR hukumatining Qizil bayroqli mehnat ordeniga sazovor bo‘lgan [6, 46].

19- qizil bayroqli kavaleriya polki (Qo‘qon sh., Toshkent sh.) dastlab SSSR BDSB qo‘shinlarining 82-Samarqand kavaleriya divizioni sifatida tashkil etilgan. BDSBning 1932-yilgi buyrug‘iga binoan divizion BDSB qo‘shinlarining

19-Farg‘ona kavaleriya polkiga aylantirilgan va Qo‘qon shahriga joylashtirilgan [7].

SSSR MIQ Prezidiumining 1934-yil 25-noyabrdagi Qarori asosida IIXKning 1935-yil 22-iyundagi buyrug‘iga muvofiq, “Qizil bayroq” ordeni bilan taqdirlangan. 1941-yil mazkur polk IIXK operativ qo‘shinlarining 19-Qizil bayroqli motoo‘qchi polki etib qayta tashkil etildi va 1942-yilda Toshkent shahriga ko‘chirildi.

1943-yilda 194-Toshkent Qizil bayroqli o‘qchi polki etib qayta tashkil qilindi. Polk shaxsiy tarkibi ikkinchi jahon urushidagi harbiy harakatlarda faol ishtirok etgan. Polk nemis bosqinchilariga qarshi kurashdagi jasoratlari va qahramonliklari uchun 3-darajali Suvorov va Kutuzov ordenlari bilan taqdirlangan. Urush yillarida shaxsiy tarkibi 1115 nafardan 2201 nafarga yetgan.

SSSR IIXK konvoy qo‘shinlari 20-brigadasi komandirining shaxsiy ko‘rsatmasiga asosan, pulemyot rotasi 2 ta vzvodi Karelsk okrugi IIXK chegara qo‘shinlari boshlig‘i ixtiyoriga Petrozavodsk shahriga yuborildi. Bu yerda 232-konvoy polki pulemyotchilari Kalevalsk chegara otryadiga yordamlashgan bo‘lib, ayni otryad sovet-fin urushida ishtirok etayotgan edi [8, 8-21].

232-konvoy polki xo‘jalik qurilish ishlarida ham faol ishtirok etishgan. Dastlab Toshkent viloyatining “Sanoat” kolxoziga homiylik qilishgan. 1941-yilda polk kolxozning paxta terimiga ko‘maklashgan. Jami 6 marta shanbaliklar tashkil qilinib, ularning har birida 150-200 dan ortiq shaxsiy tarkib a’zolari ishtirok etgan. Shaxsiy tarkib jami 3,5 tonna paxta terishgan bo‘lsa piyoz terish bo‘yicha ham shanbaliklar tashkil etilib, jami 2,5 gektar hududdan piyoz yig‘ib olingan.

Ikkinchi jahon urushining birinchi kunlaridan boshlab jamoat tartibini saqlash ishlari asosiy masalalardan biri bo‘lgan. SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining “Harbiy holat to‘g‘risida”gi Farmoni asosida harbiy holat e’lon qilingan hududlarda mudofaa sohasidagi barcha davlat organlari, jamoat tartibini va davlat xavfsizligini saqlash ishlari frontlar, armiya va harbiy okruglardagi harbiy kengashlar tomonidan hal etilgan bo‘lib, harbiy kengash bo‘lmagan harbiy bo‘linma qo‘mondonligi tomonidan tashkil etilgan [9].

Ikkinchi jahon urushi yillarida tuzilgan va harbiy harakatlar va jamoat xavfsizligini ta’minlash ishlarida faol ishtirok etgan, urushdan keyingi yillarda ham faoliyatini davom ettirgan tuzilmalardan yana biri IIXK Ichki qo‘shinlarining 285-o‘qchi polki hisoblanadi.

IIXKning 1942-yil 13-yanvardagi № 00754-sonli buyrug‘i bilan IIXK Ichki qo‘shinlarining 285-o‘qchi polki tashkil etilishi boshlangan. Mayor F.S. Xoroshev polk komandiri, A.A. Shvesov batalon komissari etib tayinlangan. Tuzilma Qoplonbek lageri (Toshkent shahridan 28 km shimolda)da joylashgan. Polk shaxsiy tarkibi: qo‘mondonlik tarkibi-152, oddiy askarlar tarkibi 1347 nafardan iborat bo‘lgan. Polkni kadrlar bilan butlash 1942-yilning 1-iyuliga qadar nihoyasiga yetkazilgan (RGVA. F. 39026. Op. 1. D. 840. L. 1.).

Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan bir vaqtda SSSR IIXK Ichki qo‘shinlari bosh boshqarmasi boshlig‘ining 1942-yilning 5-noyabridagi telefon orqali ko‘rsatmasiga asosan polk tarkibidan 550 nafar qizilarmiyachi va kichik komandirlar SSSR IIXK Ichki qo‘shinlarining 10-o‘qchi diviziyasi tarkibiga yuborildi. Ularning barchasi Stalingrad jangida ishtirok etgan va katta qismi urushda halok bo‘lgan (RGVA. F. 39026. Op. 1. D. 840. L. 2.).

1942-yil Toshkentda IIXK Ichki qo‘shinlarining 162-o‘qchi diviziyasi tashkil etilgan. Diviziya 18 ta tuzilmani o‘z ichiga olib, Ikkinchi jahon urushi yillarida SSSR 3-gvardiya armiyasi, 6, 13, 65, 70-armiyalari tarkibida Markaziy, Belorussiya, 1-Ukraina, 2-Belorussiya frontlaridagi janglarda ishtirok etishgan.

Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi dastlabki yillarda SSSRning boshqa hududlari qatori O‘zbekistonda ham nemis harbiy asirlarining lagerlari joylashtirilgan. Xususan. Toshkent shahrida (46, 386) Andijon viloyati Izboskan tumani Chuama qishlog‘ida (26), Jalaquduq tumani Janubiy Olamushuk shaharchasida (446), Toshkent viloyati Yangiyo‘l

tumanida (372), Oxangaron tumanida (385), Angren (438), Oxangaron. Chirchiq (360), Shirin (288), shaharlarida, Gvardiyachi va Zaparojye shaharchalari (288) da, Bekobod (45), Chinoz tumanlarida, shuningdek Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida (44, 387) lagerlari joylashgan bo‘lib, ularning faoliyati 1945-yilda yo‘lga qo‘yilib eng oxirgilari 1949-yilda faoliyatini tugatgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ikkinchi jahon urushi arafasida va bevosita urush yillarida O‘zbekistonda IIXK Ichki qo‘shinlarining o‘ndan ortiq harbiy tuzilmalari tashkil etilgan bo‘lib, mazkur tuzilmalar tarkibida o‘zbekistonlik harbiy xizmatchilar ham o‘z xizmat vazifalarini munosib o‘tagan holda g‘alabaga katta hissa qo‘shganlar. Shuningdek, urush -yillarida O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilib, ichki tartibni saqlash eng muhim vazifalardan bo‘lgan.

Аннотация. В статье на основе архивных источников представлена информация о деятельности военных структур, обеспечивавших общественную безопасность в годы Второй мировой войны. В частности, представлена деятельность боевых формирований Внутренних войск, их боевые маршруты и достигнутые результаты, в частности, дана информация о маршрутах движения и боевых путях 10-го мотострелкового полка (Ташкент), 19-го кавалерийского полка (Коканд, Ташкент), 582-го конвойного полка, 162-й стрелковой дивизии.

Ключевые слова: стрелок, мотострелок, внутренние войска, стрелковая дивизия, конвойная бригада, пограничные войска, гарнизонная служба, боевая служба.

Annotation. The article, based on archival sources, presents information on the activities of military structures that ensure public safety during the Second World War. In particular, it presents the activities of combat formations of the Internal Troops, their combat routes and the results achieved, in particular, information is given on the routes of movement and combat paths of the 10th motorized rifle regiment (Tashkent), the 19th cavalry regiment (Kokand, Tashkent), the 582nd convoy regiment, and the 162nd rifle division.

Key words: rifleman, motorized rifleman, internal troops, rifle division, escort brigade, border troops, garrison service, combat service.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2023. – 408 b.
2. Узбекская ССР в годы Великой отечественной войны (1941-1945 гг.) Том I. Узбекистан в период Великой отечественной войны (1941 – ноябр 1942 гг.). // Ред. кол. М.А. Ахунова, С.Е. Белоножка, Т.Д. Джураев, Х.З. Зияев и др. Т.: «Фан». 1981. С. 312.
3. Хозяинов В.П. Обеспечение внутренней безопасности СССР в годы Великой Отечественной войны: на материалах внутренних войск. дисс. канд. истр. наук. СбП. 2005. С. 16.
4. Войска называются внутренними. Краткий исторический очерк. Москва. Ордена «Знак почета» Издательство ДОСААФ СССР. 1982. С. 168-169.
5. Rossiya davlat harbiy arxivining 39026, 38068, 40979, 18304, 38679, 41095, 38734 fondlari ma’lumotlari.
6. От внутренней стражи российской империи к войскам Национальной гвардии Российской Федерации. 2-е изд. (Под общ. ред. ген.арм. В.В.Золотова), Авт. кол: ген.май. Я.А.Марценюк, п-к А.С. Беркутов и др. – М.: Ред. журнала «На боевом посту», 2019. – С. 46.
7. РГВА. Ф. 39026. Оп. 1. Д. 874. – Исторический формуляр части.
8. Советско-финляндская война. 1939-1940. Бои на Карельском перешейке. Фотоальбом. – М.: Новалис, 2015. С. 8-21.
9. Указ Президиума Верховного Совета союза ССР. 22 июня 1941 года «О военном положении». Война: 1941-1945. Вестник Архива Президента Российской Федерации. Москва, «Родина» 2010. – С. 29. ГАРФ. Ф. 3. Оп. 50. Д. 415. Л. 67-71

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON KOMMUNISTIK PARTIYASINING TARG‘IBOT-TASHVIQOT FAOLIYATI

Rasulova Nodira Sardarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston kommunistik partiyasining Ikkinchi jahon urushi yillarida aholi orasida olib borgan targ‘ibot-tashviqot ishlari va yo‘nalishlari, o‘tilgan ma’ruzalar holati hamda xotin-qizlarning respublikadagi barcha ishlarga keng jalb qilinishi masalalari birlamchi manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: urush, kommunistik partiya, targ‘ibot, tashviqot, kadrlar, nomenklatura, safarbarlik, ma’ruzalar.

1941-yil Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan jismoniy va iqtisodiy omillar front ehtiyojlari uchun safarbar etildi. Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zKP MQ va respublika partiya tashkilotlari O‘zbekiston aholisi orasida ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirib yuborganliklari, buning uchun odamlarni g‘alabaga sidqidildan ishontirish, qiyinchiliklarni yengishga, Moskva himoyachilariga har taraflama yordam berishga safarbar qilish, O‘zbekiston KP MQ va mahalliy partiya tashkilotlari tez sur’atlar bilan ko‘plab qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar ishlab chiqarish dushmanni yakson qilishni tezlashtirish garovi ekanligini tushuntirib bordilar [1, 9].

Ikkinchi jahon urushi yillarida keksa avlodga mansub bo‘lganlar, mehnat faxriylari, frontdagilarning ota-onalari tomonidan aholi orasida olib borilayotgan targ‘ibot ishlari O‘zbekiston sharoitida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublika shaharlarida va bir qancha tuman markazlarida maxsus qariyalar choyxonalari tashkil etildi. Bu choyxonalar o‘ziga xos targ‘ibot maskanlari vazifasini o‘tadi. Chunonchi, Toshkentning Oktabr tumanida faoliyat yuritayotgan qariyalar “qizil” choyxonasida gazetalarni ovoz chiqarib o‘qish, radio xabarlarini jamoa bo‘lib tinglash maqsadida kutubxona ochildi. Bu yerda har kuni 200–250 nafar keksa targ‘ibotchi to‘planardi. Ular korxonalar, mahallalar, shifoxonalar va chaqiruv maskanlarida faol ish olib borardilar [2, 153].

Ikkinchi jahon urushi yillarining dastlabki davrida ham tashviqot va targ‘ibot ishlari to‘xtab qolmadi. Endi targ‘ibotchilar “Mafkuraviy front” xodimlarini jangga da’vat etishlari, shu bilan birga, jamiyatda sog‘lom axloqiy-psixologik muhit, g‘alabaga ishonchni mustahkamlash, yangi ekstremal sharoitlarga moslashishda ko‘mak berilishini ta’minlashlari lozim edi. Hukumat partiya tashkilotlariga har bir kishi Sovet davlatining hayot-mamot masalasi jangda hal bo‘lishini bilib olishiga erishish vazifasini qo‘ydi. Aholiga urush yillari ularning vazifalarini tushuntirishda suhbatlar, ma’ruzalar, chiqishlar, radioeshittirishlar, kinofilmlar, varaqalar va shiorlar, plakatlar — siyosiy tashviqotning har xil shakl va vositalaridan foydalanish vazifasini yukladi. Harbiy sharoitda tashviqotchilarga talablar kuchaytirildi: “Har bir tashviqotchi o‘z tinglovchilariga havo hujumiga qarshi va kimyoviy himoya vositalaridan foydalanishni o‘rgatishi, to‘pponcha, miltiq va granatadan foydalanishni o‘zi ham bilishi, boshqalarga ham o‘rgatishi shart. Tashviqotchi dushman samolyotlarining tanib olish belgilarini, tuzilishi va qurollarini bilishi kerak”.

Urush yillari shahar qo‘mitalarining partiya idorasi shahar targ‘ibot markaziga aylantirildi, yagona partiya hukmronligiga asoslangan tizim nafaqat tinchlik, balki urush davrida ham targ‘ibot ishlari hamda partiyaga a’zolarni jalb qilish yuzasidan tinmay ish olib bordi. Shu maqsadda barcha tashviqot va targ‘ibot, badiiy va teatr kuchlari bir yerga to‘plandi. Shahar targ‘ibot idorasi mahalliy korxona va muassasalarni shior va plakatlar, sayyor kinoproektorlar bilan ta’minladi.

Tashkilotda uchta brigada — lektorlik, badiiy-teatr va tashviqot brigadalari — tashkil etildi. Ma’ruza mavzulari urush yillari tubdan o‘zgardi. Mahalliy millat vakillariga yot bo‘lsa-da, jangovar va mudofaa mavzularida “1812

yilgi Vatan urushi”, “Yetti yillik urushda ruslar tomonidan Prussiya armiyasining mag‘lubiyatga uchratilishi”, “Sovet xalqining nemis fashizmiga qarshi Ulug‘ Vatan urushi” kabi mavzularda ma’ruzalar o‘qildi [3, 90-92]. Respublika partiya tashkilotlari aholini g‘alabaga sidqidildan ishontirish, fuqarolarni qiyinchiliklarni bartaraf qilishga, Moskva himoyachilariga har taraflama yordam berishga safarbar etish kabi vazifalarni tushuntirib bordi.

Bu ishlarga xotin-qizlarni ham safarbar etish belgilangan edi. Biroq, ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan xotin-qizlarni asosan xalq xo‘jaligiga jalb qilish masalalari dolzarb bo‘lib qoldi.

1941-yil 5-iyul kuni Toshkent shahrida Oktabr tuman partiya qo‘mitasi 15 ming kishilik miting tashkil qildi. Unda tuman ayollarining O‘zbekistondagi barcha ayollarga murojaati qabul qilindi. Murojaatda uy bekalariga sanoat, transport, muassasalar, maktablar uchun zarur bo‘lgan kasblarni o‘rganish taklif etildi. Xususan, tokarlar, chilangarlar, konchilar, haydovchilar hamda mashinistlarning xotinlari va opa-singillari ishlab chiqarish korxonalarida ishlashlari lozim edi. Ana shu maqsadda ayollar orasida suhbatlar o‘tkazish, ma’ruzalar o‘qish uchun O‘zKP(b) MQning targ‘ibot va tashviqot bo‘limi tomonidan viloyatlarga 14 nafar xodim xizmat safariga yuborilgan, yana 17 kishi tanlab olingan [4]. O‘zbekiston kompartiyasi ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatladi. Oktabr tumanidagi ayollarning tashabbuslari namuna sifatida ko‘rsatildi. Natijada 1941-yilning iyul-avgust oylarida ishlab chiqarish korxonalarida ishlash uchun Toshkentda 10 mingdan ziyod, Chirchiqda 694 nafar, Samarqandda esa 2672 nafar ayol keldi [5, 10].

Urush yillari tuman partiya qo‘mitalari boshlang‘ich partiya tashkilotlari kotiblarining, targ‘ibotchi va agitpunkt (tashviqot maskanlari) mudirlarining kengashlari o‘tkazib turildi. Ularda aholi o‘rtasida tashviqot ishlarining yo‘lga qo‘yilishi, korxona va muassasalar huzuridagi tashviqotchi jamoalarning vazifalari, Qizil Armiya uchun issiq kiyim-boshlar to‘plash va ularni frontga jo‘natish ishlarini tashkil qilish, ishchilarga harbiy ta’lim berish kabi masalalar muhokama qilindi. Bu kengashlar tezkor tarzda, qisqa qilib o‘tkazildi, ularda eng asosiy masalalargina ko‘rildi.


Shahardagi tashviqot maskanlari ham katta tashviqot-ommaviy ishlarni kuchaytirib yubordi. Bu ishlarga ma’ruza o‘qish borasida tayyorgarligi bor kishilar jalb qilindi. Tashviqot maskanlari qizil askarlarning oilalariga yordam berib, ular nimaga muhtojligini aniqlar, ular nafaqa olishlari uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda, ularning farzandlarini yasli va bolalar bog‘chasiga joylashtirishda, ayollarini ishga joylashtirishda yordam berardi. Hatto, tungi smenalarda siyosiy-ommaviy ishlarni olib borish uchun maxsus navbatchi tashviqotchilar ajratildi [6].

Partiyaning tashkiliy-siyosiy ishini kuchaytirish masalasi 1941-yil dekabrdagi O‘zKP(b) Markaziy qo‘mitasining V Plenumida ko‘rib chiqildi. Unda partiya tashkilotlariga partiyaviy va siyosiy ishlarga nafaqat partiyaviy targ‘ibot xodimlarini, balki barcha ilg‘or ziyolilar — rassomlar, yozuvchilar, olimlar, rassomlar va boshqalarni — jalb qilish vazifasi yuklandi.


Urush yillari partiya, sovet, komsomol kadrlarini tayyorlash ishlari ham to‘xtamadi. Ko‘plab partiya a’zolari frontga ketdi, 1941–1943 yillarning o‘zida O‘zKP(b) MQ nomenklatura xodimlarining 20 foizini tashkil etgan 1000 nafardan ortiq kishi Qizil Armiya saflarida xizmatga chaqirildi. Ularning o‘rniga yangi kadrlar tayyorlash ishlari yanada kuchaytirildi. Endi partiyaning siyosiy tashviqot ishlariga tuman faollari, sovet ziyolilari, boshlang‘ich partiya tashkilotlarining kotiblari, qishloq sovetlari va kolxozlarning raislari, brigada va zveno boshliqlari, “yuzsentnerchilar”, “o‘nbeshmingchi” terimchilar va “25 gektarchilar” jalb etildi. O‘zKP(b) MQ Madaniyat va maorif kadrlari sho‘basining 1941 yil iyundan 1943-yil 1-yanvargacha amalga oshirgan faoliyati to‘g‘risidagi hisobotda keltirilishicha, urush vaqtida Qizil Armiya saflariga ketgan rahbarlar lavozimlariga yangi kadrlarni ko‘rsatish bo‘yicha jiddiy ish olib borildi [7]. Bo‘sh lavozimlarni to‘ldirishda faol xotin-qizlardan keng foydalanildi.

1943 yil 1 iyulda O‘zKP(b) MQ qoshidagi Respublika ayollar kengashi (viloyat, shahar, tuman partiya ayol kotiblari)ning yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda ta’kidlanishicha, 1943 yil iyun oyida tashkil etilgan ushbu kengash a’zosi hisoblangan viloyat, shahar, tuman partiya qo‘mitalarining kotibalari faol ish olib borganlar. Namangan viloyati viloyat partiya qo‘mitasining kotibi Muxitdinova, Toshkentdagi Stalin tumani partiya qo‘mitasining kotibi Muxamedova, Samarqand viloyat partiya qo‘mitasining kotibi J. Omanova [8] frontdagi askarlaring oilalariga yordam

berishda alohida jonbozlik ko‘rsatganlar. 1941–1944 yillar davomida nomenklatura xodimlari tarkibida ayollarning ulushi quyidagicha edi.



Nomenklatura xodimlari tarkibida ayollar [9]



1925–1978-yillarda O‘zKP a’zolari orasida ayollar ulushining o‘zgarib borishi [10]

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan sovet hukumati asosiy e’tiborini tashviqot-targ‘ibot ishlarini kuchaytirish bilan birga omma orasida urushga qarshi targ‘ibot, frontga yordam berish masalalariga qaratdi. 1941 yil 8 avgustda O‘zKP(b) MQ byurosi “Urush sharoitida respublikada siyosiy tashviqot va targ‘ibotni kuchaytirish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Shu yilning 5-7 dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan O‘zKP(b) MQning V plenumida partiya, sovet, komsomol, xo‘jalik va boshqa tashkilotlarning barcha rahbar xodimlari zimmasiga tashviqot ishlarini kuchaytirish vazifasi yuklatildi [11].

O‘zKP(b) MQning 1941-yil 8-avgustdagi qaroriga muvofiq respublikaning barcha partiya tashkilotlari qoshida tashviqot jamoalari (agitbrigadalar) tashkil qilindi. Masalan, Farg‘ona viloyatining deyarli barcha tumanlarida 12 ta tashviqot maskanlari va 48 ta tashviqot jamoalarida 168 nafar xodim faoliyat ko‘rsatdi. Namangan viloyat qishloqlarida 69 ta tashviqot maskani (ularda 518 nafar tashviqotchi ishlagan), Farg‘ona shahridagi korxona va muassasalar qoshida 41 ta tashviqot jamoasi tashkil qilindi [12]. Ayni paytda Samarqand shahridagi tashviqot jamoalarining 38 tasi, shuningdek tashviqot-targ‘ibotga xizmat qiluvchi 75 ta maskanning 40 tasi ishlamadi. Buxoro shahrida esa 43 ta

tashviqot jamoalarining atigi 14 tasi ishladi [13].

Bu vazifalarning bajarilmasligi e’tiborsizlik natijasi emas edi. Farzandi, boquvchisi frontga ketib, oilalarning xo‘jalik ishlari, kolxozlardagi vazifalar asosan ayollarga qolgani, urushning noxush xabarlari tarqalgan vaqtlarda kelajakda qurilajak “jamiyat” haqidagi quruq va’zlardan iborat tashviqotlarni, tabiiyki, mahalliy aholi umuman qabul qilmadi. Lekin hujjatlar tumanlarda jamoalar xalq orasida emas, balki ulardan uzilgan holda ishlaganligi, markaziy tashviqot maskanlari va ularning boshliqlari o‘z vazifalarini juda tor ma’noda tushunganliklari, ular asosiy vazifa partiya kabinetlarini ertalab ochib, kechqurun yopishdangina iborat deb bilganliklari [14] qayd qilib borildi. Shunday bo‘lsa-da, marksizm-leninizm klassiklarining asarlari, “VKP(b) tarixi bo‘yicha qisqacha kurs”ni o‘rganish bo‘yicha ko‘p tarqalgan to‘garaklarda bu kurslarni o‘qitish kamayib, tashviqotlar ko‘proq “Vatan urushining vazifalari” haqidagi suhbatlarga qaratildi. To‘garaklarda Stalin va Molotovning radio orqali berilgan nutqlari tinglandi, “Qizil O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka”, “Stalin haqiqati” gazetalarida bosilgan materiallar o‘qib tushuntirildi.

Shunday qilib, Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatdagi barcha kuch va vositalar urushda g‘alaba qozonish harakatlariga qaratildi. Ayniqsa kommunistik partiya o‘z targ‘ibot-tashviqot faoliyatini mamlakatning barcha aholisini turli yo‘llar bilan urushda g‘alaba qozonishga yo‘naltirdi.

Аннотация. В статье на основе первоисточников анализируется пропагандистская и агитационная работа Коммунистической партии Узбекистана среди населения в годы Великой Отечественной войны, состояние читаемых лекций, а также вопросы широкого привлечения женщин ко всем сферам деятельности в республике.

Ключевые слова: война, коммунистическая партия, пропаганда, агитация, кадры, номенклатура, мобилизация, отчеты.

Annotation. The article, based on primary sources, analyzes the propaganda and agitation work of the Communist Party of Uzbekistan among the population during the Great Patriotic War, the state of lectures given and the wide involvement of women in all events in the republic.

Key words: war, communist party, propaganda, agitation, personnel, nomenclature, mobilization, reports.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев Т. Ўзбекистон Коммунистик партияси — Москва шаҳрининг қаҳрамон ҳимоячиларига республика меҳнаткашлари ёрдамини уюштирувчи (1941 йил). — Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” нашриёти, 1961.
2. Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. Т. 4 (1938–1965 йй.) — Тошкент: “Фан”, 1971.
3. Королева Л. А. Агитация и пропаганда в СССР в начальный период Великой Оте¬чественной войны (по материалам Пензенской области) // Известия высших учебных заведений. Повольжский регион. Гуманитарные науки. – 2018. – № 3 (47).
4. O‘zR PAA, 58-fond, 18-ro‘yxat, 856-ish, 4-varaq.
5. Ким П.Г., Хаитбаев Э.К. В авангарде борбы и побед. — Ташкент: “Узбекистан”, 1976.
6. Нишонбоев Ш. Агитация ишларини уруш шароитига мослаб қайта қурдик // Қизил Ўзбекистон. 1941 йил 14 август.
7. O‘zR PAA, 58-fond, 22-ro‘yxat, 859-ish, 2-varaq.
8. O‘zR PAA, 58-fond, 19-ro‘yxat, 194-ish, 1, 11, 16-varaq.
9. O‘zR PAA, 58-fond, 19-ro‘yxat, 894-ish, 69-varaq.
10. Коммунистическая партия Ўзбекистана в цифрах (Сборник стат. материалов. 1924–1977 гг.). — Ташкент, 1979.
11. Ўзбекистон Коммунистик партияси тарихининг очерклари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1964.
12. O‘zR PAA, 58-fond, 18-ro‘yxat, 856-ish, 3-varaq.
13. O‘zR PAA, 58-fond, 19-ro‘yxat, 933-ish, 49, 62-varaq.
14. O‘zR PAA, 58-fond, 19-ro‘yxat, 940-ish, 7-varaq.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ВКЛАД УЗБЕКИСТАНА В ПОБЕДУ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ: к 80-ЛЕТИЮ ВЕЛИКОЙ ПОБЕДЫ

Абдуллаева Мавлюда Садыковна,
Профессор Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. Статья посвящена анализу экономического вклада Узбекской Советской Социалистической Республики в достижение Победы во Второй мировой войне. На основе архивных данных и научных исследований раскрывается комплексная роль Узбекистана как одного из ключевых промышленных и продовольственных центров советского тыла. Особое внимание уделено вопросам мобилизации промышленных и сельскохозяйственных ресурсов, приёму эвакуированного населения, развитию текстильной промышленности и подготовке квалифицированных кадров. Подчёркивается значимость организованных усилий республики в укреплении обороноспособности страны, а также роль научных и образовательных инициатив в поддержании экономики в условиях войны. Актуальность темы обосновывается необходимостью сохранения исторической памяти о вкладе союзных республик в общую Победу, особенно в контексте 80-летия Великой Победы, и осмысления их экономического и трудового подвига для воспитания патриотизма и укрепления национального единства.

Ключевые слова: Узбекистан, Вторая мировая война, экономический вклад, промышленность, сельское хозяйство, эвакуация населения, текстильная промышленность, научный потенциал, трудовой подвиг, историческая память.

Введение

80-летие Победы во Второй мировой войне является значимым поводом для глубокого осмысления вклада народов СССР в общую победу над фашизмом. Узбекская Советская Социалистическая Республика сыграла важнейшую роль в обеспечении экономической устойчивости тыла, мобилизации ресурсов и моральной поддержке фронта [1]. В условиях тяжелейших испытаний Узбекистан превратился в один из главных промышленных и продовольственных центров, способствовавших достижению стратегических целей войны [1].

Экономический вклад республики носил комплексный характер. Уже в первые месяцы войны в Узбекистан было эвакуировано более 100 крупных промышленных предприятий из прифронтовых районов, благодаря чему промышленное производство увеличилось в 2,5 раза по сравнению с довоенным уровнем [2]. Республика наладила выпуск более 200 видов военной продукции, включая авиационные двигатели, боеприпасы, взрывчатые вещества и обмундирование [1]. К примеру, Чирчикский электрохимический комбинат покрывал до 20% потребностей фронта в порохе [2], а Ташкентский авиационный завод обеспечивал производство критически важных деталей для самолётов [1].

В сельском хозяйстве Узбекистан стал ведущим поставщиком хлопка, пшеницы, риса и овощей для армии и тыла [3]. За годы войны урожай хлопка превысил 1,3 млн тонн ежегодно, покрывая до 70% всех потребностей текстильной промышленности СССР [3]. Поставки продовольствия с территории республики стабильно превышали плановые задания на 110 - 115%, что сыграло ключевую роль в снабжении фронта [3].

Наряду с промышленным и сельскохозяйственным вкладом, республика приняла более 1,5 миллионов эвакуированных граждан, включая 250 тысяч детей [5], и обеспечила их жильем, образованием и трудоустройством. Строительство временных поселков, развитие транспортной инфраструктуры и организация социальных учреждений стали важной частью экономического усилия республики в годы

войны [5].

Помимо материального обеспечения, трудовой подвиг узбекского народа внёс вклад в укрепление морального духа советского общества [1]. Культура взаимопомощи, высокая степень самоотверженности, патриотизм и интернациональная солидарность проявились в наиболее сложные моменты войны [1]. Эти особенности позволили Узбекской ССР не только выполнить возложенные на неё задачи, но и превзойти многие плановые показатели.

Изучение вклада Узбекистана в Победу приобретает сегодня особую актуальность: это не только дань исторической памяти, но и важный элемент воспитания патриотизма, уважения к прошлому и единства поколений.

Анализ экономической деятельности республики в годы войны позволяет лучше понять, как сплочённость, упорный труд и взаимовыручка становятся решающими факторами в судьбоносные моменты истории [1].

Основная часть

1. Промышленное расширение: локализация новых производств и их специфика.

Одним из ключевых достижений Узбекской ССР в годы войны стало не только размещение эвакуированных предприятий, но и их успешная интеграция в экономику региона. Уже в 1942 году на территории республики функционировали 112 эвакуированных заводов и фабрик, включая предприятия оборонной, текстильной, химической и машиностроительной отраслей [1], из которых 48 предприятий были полностью переведены на выпуск продукции военного назначения [2]. Производственные мощности увеличились за счёт ускоренного строительства промышленных зданий, расширения энергетической инфраструктуры и перепрофилирования существующих предприятий [1].

К числу крупнейших эвакуированных объектов относились:

- **Ташкентский авиационный завод №84**, прибывший из Воронежа,

наладил производство авиадвигателей для фронта [2].

- **Чирчикский электрохимический комбинат**, строительство которого

ускоренными темпами завершили к 1942 году, стал одним из основных поставщиков взрывчатых веществ для Красной армии, производя до *20% пороха* для нужд фронта [2].

- **Ташкентский текстильный комбинат** обеспечивал армию

обмундированием, выпускав до *2,5 млн метров ткани* ежегодно [1].

- **Завод сельскохозяйственного машиностроения в Самарканде**,

специализировавшийся на ремонте и выпуске бронетехники и артиллерийских установок [2].

В результате релокации предприятий промышленный потенциал республики значительно вырос. Промышленное производство в Узбекской ССР за 1941–1945 гг. увеличилось в *2,5 раза* по сравнению с довоенным уровнем [2];

производство электроэнергии увеличилось на *70%* благодаря строительству и запуску новых объектов [1]; доля оборонной продукции в общем объёме промышленного выпуска достигла *до 55%* в 1943 году [2].

Особое внимание уделялось быстрой адаптации предприятий:

- в течение первых *3 месяцев* после прибытия заводов более *80%*

эвакуированных предприятий полностью восстановили производственные циклы [2];

- для размещения предприятий и рабочих было построено более 1,2 млн кв.

метров временного жилья и промышленных помещений [3].

Ташкент стал одним из крупнейших центров оборонной промышленности Средней Азии, а Чирчик - базовым городом химической индустрии. Благодаря самоотверженному труду рабочих и инженеров, большинство новых производств достигли довоенного уровня производительности в течение одного года [2].

Работа в три смены без выходных стала нормой на предприятиях. Трудовые коллективы формировались за счёт женщин, подростков и эвакуированных специалистов. К 1944 году женщины составляли *до 52%* промышленного персонала республики [1].

2. Текстильная отрасль как стратегическая база снабжения армии

Особое место в экономическом вкладе Узбекской ССР в годы Второй мировой войны занимала текстильная отрасль, ставшая стратегической базой для обеспечения фронта обмундированием, санитарным и хозяйственным имуществом

[1]. С первых месяцев войны текстильные и швейные предприятия республики были перепрофилированы на выпуск военной продукции.

В структуре Народного комиссариата лёгкой промышленности Узбекской ССР действовали производственные объединения «Текстильшвейсоюза», которые координировали деятельность крупных комбинатов и швейных артелей в Ташкенте, Самарканде, Бухаре, Фергане, Андижане и других городах [1]. Только в 1943 году текстильные предприятия республики произвели - свыше *3,8 миллионов единиц обмундирования* (шинелей, гимнастёрок, брюк, белья) [2]; около *1,2 миллионов комплектов постельного белья* для госпиталей и армейских частей [2]; более *650 тысяч санитарных перевязочных комплектов* и палаточного

полотна [2].

Производство по ключевым центрам:

- **Ташкент** - Ташкентский текстильный комбинат и несколько швейных

фабрик обеспечивали выпуск основной массы хлопчатобумажных тканей, гимнастёрок и шинелей. В 1942 году на текстильных предприятиях Ташкента ежедневно производилось до *15 тысяч единиц военного обмундирования* [1].

- **Самарканд** - на швейной фабрике №1 было организовано производство

тёплой одежды для военнослужащих, включая валенки, ватные куртки и брюки. Предприятие ежемесячно отправляло на фронт около *40 тысяч комплектов зимней формы* [2].

- **Бухара** - в городе работали швейные артели, объединённые в систему

«Текстильшвейсоюза», специализировавшиеся на изготовлении санитарного белья, перевязочных материалов и летних комплектов обмундирования. В 1943–1944 годах бухарские предприятия произвели около *250 тысяч единиц санитарной одежды* для фронтовых госпиталей [2].

- **Фергана и Андижан** - текстильные мастерские этих регионов активно

изготавливали палатки, покрывала, мешочные ткани, необходимые для нужд армейских подразделений и военных лагерей [1].

Повсеместно развернулось движение «Тыл - фронту»: предприятия брали на себя обязательства досрочно выполнять плановые задания, отправляя на фронт сверхплановые партии обмундирования [1]. В швейных артелях активно внедрялись бригадные формы труда и стахановские методы повышения производительности.

Параллельно с выпуском одежды текстильная отрасль обеспечивала фронт санитарными принадлежностями. В Узбекистане было произведено более *100 тысяч санитарных носилок* для эвакуации раненых [2]; выпущено свыше *2 миллионов метров перевязочной марли* [2].

Таким образом, текстильная промышленность Узбекской ССР в годы Великой Отечественной войны выступила одной из важнейших опор материального обеспечения армии, внесла решающий вклад в укрепление обороноспособности страны и стала символом трудового героизма узбекского народа.

3. Сельское хозяйство и продовольственное обеспечение фронта

В годы Второй мировой войны сельское хозяйство Узбекской ССР стало важнейшим элементом продовольственного обеспечения Красной армии и советского тыла [1]. Несмотря на мобилизацию значительной части мужского населения на фронт, республика не только сохранила сельскохозяйственное производство, но и добилась его существенного увеличения за счёт вовлечения в трудовые процессы женщин, подростков и эвакуированных граждан [1].

Ключевыми результатами сельского хозяйства Узбекской ССР в годы войны стали:

- ежегодное производство свыше *1,3 миллиона тонн хлопка-сырца,* что

покрывало *до 70% потребностей текстильной промышленности Советского Союза* [2];

- увеличение валового сбора зерновых культур на *18%* по сравнению с

довоенным уровнем: в 1943 году валовой сбор пшеницы достиг *650 тысяч тонн* [2];

- стабильно высокие показатели по сбору риса, особенно в Ферганской

долине, где в 1944 году было произведено *48 тысяч тонн риса,* что более чем вдвое превышало довоенные объёмы. [2]

Сельхозпродукция Узбекской ССР систематически направлялась на нужды фронта. В 1942 году республика поставила фронту свыше *120 тысяч тонн муки,* более *90 тысяч тонн картофеля и овощей,* около

25 тысяч тонн фруктов и сухофруктов, 10 тысяч тонн мясных консервов [2].

Государственные заготовительные планы выполнялись с перевыполнением на уровне *110–115%* ежегодно [2].

Организация труда и мобилизация ресурсов.

В условиях нехватки трудовых ресурсов на селе были широко развёрнуты следующие меры:

- массовое привлечение женщин и подростков - к 1944 году их доля в сельскохозяйственном производстве составляла около *72%* [3];
- создание фронтовых совхозов - специализированных хозяйств, ориентированных на производство продукции для снабжения армейских частей и госпиталей [3];
- организация полевых бригад из эвакуированных граждан, прибывших в республику из западных областей СССР [3].

Для повышения эффективности земледелия активно внедрялись агротехнические новшества:

- использование уплотнённых посевов хлопчатника, что позволило увеличить урожайность на *15–18%* [4];
- механизация полевых работ за счёт переоборудования тракторов и оборудования, прибывших вместе с эвакуированными промышленными предприятиями [4];
- применение систем капельного и канального орошения на хлопковых плантациях Ферганы и Карши [4].

Особое внимание уделялось выращиванию технических культур, необходимых для фронта: сахарная свёкла, для производства которой создавались новые плантации в Самаркандской и Кашкадарьинской областях [2]. Конопля и лен для производства тканей и технических материалов [2].

Кооперация и помощь фронту.

Сельские махалли и кооперативы активно включались в добровольное движение по сбору продовольствия для фронта. Только в 1943 году махаллинскими комитетами было собрано и отправлено на фронт более *6 тысяч тонн* дополнительных поставок продовольствия сверх государственных обязательств [5]. Широкое распространение получили так называемые «фронтовые обозы» - добровольные караваны из десятков махаллей, доставлявшие продукты, тёплую одежду и письма солдатам [5].

Сельское хозяйство Узбекской ССР в годы войны стало стратегическим тылом армии. Превосходя плановые задания, республика обеспечивала не только внутренние потребности, но и значительную часть общего снабжения фронта, внося неоценимый вклад в Победу.

4. Гуманитарная миссия: приём эвакуированных и экономические последствия

Одним из важных направлений вклада Узбекской ССР в общую Победу стало участие республики в масштабной программе эвакуации населения и предприятий из прифронтовых районов [5]. С началом войны на территорию Узбекистана было эвакуировано более *1,5 миллионов человек,* включая рабочих, инженеров, деятелей науки, культуры, а также женщин, детей и стариков [5].

Экономическое значение эвакуации для Узбекистана.

Приём эвакуированных потребовал колоссальной мобилизации местных ресурсов и имел значительное влияние на развитие экономики региона:

- **Развитие жилищной и социальной инфраструктуры**: для размещения эвакуированных было построено или реконструировано более *400 тысяч кв. метров жилья* [5], в том числе временные поселки, общежития, домовые хозяйства при промышленных предприятиях. Это стимулировало развитие строительной отрасли и сопутствующих производств [3].
- **Расширение трудовых ресурсов**: около *320 тысяч эвакуированных специалистов* были задействованы на промышленных, сельскохозяйственных и строительных объектах республики. Инженеры, рабочие и медики внесли непосредственный вклад в повышение производительности на заводах, фабриках, в колхозах и совхозах [4].
- **Создание новых рабочих мест**: в результате приёма эвакуированных возникла необходимость в увеличении производственных мощностей, открытии новых цехов, швейных мастерских, хозяйственных объектов, что обеспечило занятость для местного населения и прибывших граждан [3].

• **Поддержка аграрного сектора**: значительная часть эвакуированных была направлена для работы в сельском хозяйстве, где острая нехватка трудовых ресурсов компенсировалась их участием в полевых работах, сборе урожая и организации фронтовых совхозов [4].

• **Развитие сферы услуг и кооперации**: для обеспечения базовых потребностей эвакуированных развивалась сеть потребительских кооперативов, торговых лавок, пекарен, швейных и сапожных мастерских, что способствовало развитию местной экономики [3].

Особая роль в приёме детей-сирот.

Узбекистан сыграл исключительную роль в приёме детей, эвакуированных из блокадного Ленинграда и других прифронтовых зон. В республике было организовано более *350 детских домов и интернатов,* значительная часть которых финансировалась за счёт местных хозяйств, махаллей и промышленных предприятий [5].

Экономическое значение этой гуманитарной миссии заключалось не только в спасении жизней, но и в формировании новых кадровых резервов. Многие воспитанники детских домов впоследствии становились работниками промышленных предприятий и сельскохозяйственных кооперативов, продолжая вносить вклад в экономику республики уже в послевоенные годы. Так, по данным Государственного архива Узбекской ССР, к 1950 году более *65% выпускников детских домов Ташкента, Самарканда и Бухары* были трудоустроены на текстильных фабриках, в машиностроительных цехах и совхозах. Например, выпускники Ташкентского детского дома №7 в 1949 году сформировали отдельную производственную бригаду на Ташкентском текстильном комбинате, где изготавливались хлопчатобумажные ткани для гражданских и оборонных нужд.

Организация добровольной помощи.

Жители Узбекистана активно включились в движение добровольной помощи фронту и эвакуированным. Только в 1943 году местными инициативами было собрано более *6 тысяч тонн* продовольствия для эвакуированных граждан и госпиталей; около **150 тысяч комплектов одежды и обуви;** тысячи единиц сельскохозяйственного инвентаря и предметов быта.

Эти мероприятия не только укрепляли социальную стабильность в тылу, но и стимулировали развитие местного кустарного и кооперативного производства.

5. Научный и образовательный вклад Узбекистана в годы войны

В годы Второй мировой войны развитие науки и образования в Узбекской ССР имело не только гуманитарное, но и прямое экономическое значение, так как способствовало подготовке квалифицированных кадров для промышленности, сельского хозяйства, медицины и обороны [1].

Развитие системы высшего образования.

С первых месяцев войны вузовская система республики была адаптирована к потребностям фронта и тыла. Уже в 1942 году в Узбекской ССР действовало *16 высших учебных заведений*, включая Ташкентский государственный университет, Ташкентский медицинский институт, Среднеазиатский индустриальный институт, Самаркандский государственный университет [3]. За 1941-1945 годы в вузах республики было подготовлено более *10 500 специалистов*, в том числе инженеров, врачей, агрономов, педагогов, технологов текстильной промышленности.

Специально были открыты ускоренные курсы подготовки инженерно-технических кадров, рассчитанные на 1-1,5 года, что позволяло быстрее восполнять дефицит специалистов на заводах, в строительно-монтажных организациях, в транспортной инфраструктуре [3].

Ташкентский медицинский институт стал одним из ключевых центров подготовки врачей и медицинских сестёр для фронта. За годы войны институт выпустил более *3 000 врачей* [3], многие из которых были сразу направлены в госпитали и на эвакуационные пункты.

Эвакуация научных учреждений и их интеграция в экономику республики.

Большую роль сыграла эвакуация в Узбекистан ряда ведущих научных учреждений из западных регионов СССР. в город Ташкент были переведены части институтов Академии наук СССР, Московского энергетического института, Украинской академии сельскохозяйственных наук [1]. В 1943 году в Ташкенте был открыт филиал Академии наук СССР - будущая

Академия наук Узбекской ССР [1].

Эти научные центры занимались исследованиями, имеющими непосредственное прикладное значение для экономики:

- разработка новых методов орошения хлопковых плантаций [4];
- внедрение прогрессивных агротехнических технологий [4];
- медицинские исследования по лечению ранений и инфекций, что снижало потери боеспособного контингента [4].

К примеру, работы узбекских учёных в области хлопководства, таких как **Аюб Орипов**[1] и **Саидмурат Саидов**[2], позволили в 1944 году увеличить среднюю урожайность хлопчатника на *12%* [4]. Их исследования в области селекции высокоурожайных и устойчивых к засухе сортов хлопка сыграли решающую роль в обеспечении текстильной промышленности стратегическим сырьём.

Культурно-просветительская деятельность как фактор экономической мобилизации.

Театральные коллективы, литераторы, художники, эвакуированные в Узбекистан, активно работали на укрепление морального духа тыла, что опосредованно способствовало поддержанию высокой производственной дисциплины на предприятиях и в сельском хозяйстве.

Ташкентский театр имени Вахтангова, Государственная консерватория СССР и другие коллективы организовали сотни концертов, спектаклей и выездных мероприятий для рабочих заводов, колхозников и военных госпиталей.

Таким образом, научный и образовательный вклад Узбекской ССР в годы войны имел ярко выраженное экономическое измерение. Подготовка специалистов, развитие научных исследований и просветительская работа способствовали не только укреплению промышленного и аграрного производства, но и общей мобилизации сил общества на достижение Победы.

Заключение

Экономический вклад Узбекской Советской Социалистической Республики в Победу во Второй мировой войне является ярким примером того, как самоотверженность, сплочённость и трудовой героизм способны стать решающими факторами в судьбоносные моменты истории. Республика превратилась в мощный промышленный и продовольственный центр, сыгравший ключевую роль в обеспечении советского фронта ресурсами, техникой, продовольствием и кадрами.

Эвакуация более ста промышленных предприятий, быстрое восстановление производственных мощностей, увеличение выпуска оборонной продукции, а также масштабное развитие текстильной отрасли позволили Узбекской ССР стать надёжной опорой советской экономики. Рост сельскохозяйственного производства, стабильно высокие показатели поставок продовольствия для армии, внедрение агротехнических инноваций в тяжелейших условиях войны свидетельствуют о высокой степени организованности и экономической мобилизации республики.

Гуманитарная миссия по приёму более полутора миллионов эвакуированных, включая сотни тысяч детей, внесла не только социальный, но и весомый экономический вклад, способствуя развитию инфраструктуры, расширению трудовых ресурсов и созданию новых производственных мощностей.

Научные исследования, образовательные программы и подготовка специалистов в годы войны обеспечили промышленность, сельское хозяйство и здравоохранение необходимыми квалифицированными кадрами, что позволило не только выдержать удар войны, но и заложить основы послевоенного восстановления и развития экономики республики.

Таким образом, экономическая роль Узбекистана в Победе была всесторонней и глубокой. Подвиг узбекского народа в тылу стал неотъемлемой частью общей Победы народов Советского Союза над фашизмом. Особую актуальность в год 80-летия Победы приобретает задача сохранения исторической памяти о вкладе союзных республик, таких как Узбекская ССР, в достижение Великой Победы. Осмысление этого подвига, в том числе экономического, служит важным основанием для воспитания патриотизма, укрепления национального единства и формирования уважения к героическому прошлому у современных поколений.

1 видный узбекский агроном и учёный-хлопковод, внёсший вклад в развитие агротехники хлопчатника, работал над улучшением систем орошения и сортов хлопка в годы войны.

2 известный агроном-селекционер, участвовал в разработке методов повышения урожайности хлопчатника и рационального водопользования в условиях Средней Азии.

Annotatsiya. Maqola O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining ikkinchi jahon urushida g‘alaba qozonishga qo‘shgan iqtisodiy hissasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Arxiv ma’lumotlari va ilmiy tadqiqotlar asosida O‘zbekistonning sovet orqa qismidagi asosiy sanoat va oziq-ovqat markazlaridan biri sifatidagi kompleks roli ochib berildi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi resurslarini safarbar qilish, evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish, to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Respublikaning mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashdagi uyushgan sa’y-harakatlari, shuningdek, urush sharoitida iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashda ilmiy va ta’lim tashabbuslarining ahamiyati ta’kidlandi. Mavzuning dolzarbligi ittifoq respublikalarining umumiy g‘alabaga qo‘shgan hissasi, ayniqsa Buyuk G‘alabaning 80 yilligi kontekstida tarixiy xotirani saqlash va vatanparvarlikni tarbiyalash va milliy birlikni mustahkamlash uchun ularning iqtisodiy va mehnat ekspluatatsiyasini tushunish zarurati bilan asoslanadi.
Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ikkinchi jahon urushi, iqtisodiy hissa, sanoat, qishloq xo‘jaligi, aholini evakuatsiya qilish, to‘qimachilik sanoati, ilmiy salohiyat, mehnat jasorati, tarixiy xotira.

Annotation. The article is devoted to the analysis of the economic contribution of the Uzbek Soviet Socialist Republic to the achievement of Victory in the Second World War. Based on archival data and scientific research, the complex role of Uzbekistan as one of the key industrial and food centers of the Soviet rear is revealed. Special attention is paid to the mobilization of industrial and agricultural resources, the reception of the evacuated population, the development of the textile industry and the training of qualified personnel. The importance of the republic’s organized efforts in strengthening the country’s defense capability, as well as the role of scientific and educational initiatives in maintaining the economy during the war, is emphasized. The relevance of the topic is justified by the need to preserve the historical memory of the contribution of the Union republics to the common Victory, especially in the context of the 80th anniversary of the Great Victory, and to reflect on their economic and labor feats to foster patriotism and strengthen national unity.
Key words: Uzbekistan, World War II, economic contribution, industry, agriculture, evacuation of the population, textile industry, scientific potential, labor feat, historical memory.

Список использованной литературы:

1. История Узбекской ССР. В трёх томах. Том 3. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг. - Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1967. - 632 с.
2. Великая Отечественная война 1941-1945: Энциклопедия / Под ред. М.М. Козлова. - Москва: Советская энциклопедия, 1985. - 707 с.
3. Народное хозяйство Узбекской ССР за 40 лет. Статистический сборник. – Ташкент: Госстатиздат УзССР, 1960. - 320 с.
4. История хлопководства в Узбекистане. - Ташкент: Фан, 1971. - 412 с.
5. Документы Государственного архива Республики Узбекистан о приёме эвакуированных граждан и развитии социальной инфраструктуры (Фонд Р-1345). - Ташкент: Архивное управление Республики Узбекистан, 1941-1945 гг.

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA’LIM TIZIMINI KADRLAR BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI

Maxkamova N.R.,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
tarix fanlari doktori, professor

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс подготовки педагогических кадров для системы народного образования в Узбекистане в годы Второй мировой войны. Острая нехватка кадров в общеобразовательных школах ощутилась с первых месяцев войны. Это было вызвано тем, что значительная часть педагогических работников, преимущественно мужчин, была мобилизована на фронт. Несмотря на возникшие трудности, проблема решалась путем привлечения к преподаванию женщин, эвакуированных учителей, а также организации сети краткосрочных курсов для подготовки молодых девушек. В целом, в годы Второй мировой войны были предприняты значительные усилия для обеспечения системы школьного образования педагогическими кадрами.

Ключевые слова: Вторая мировая война, педагогические кадры, учителя, школьное образование, эвакуированные учителя, краткосрочные курсы, дефицит кадров.

Нападение в июне 1941 года гитлеровской Германии на Советский Союз, частью которого являлся Узбекистан, коренным образом изменило ситуацию в республике. Безусловно, изменения коснулись и системы школьного образования. Государству нужно было принимать меры для того, чтобы сохранить школьную сеть и продолжить в условиях военного времени обязательное семилетнее обучение в городах, всеобщее начальное обучение в сельской местности, а также максимально расширять там семилетнее образование. При этом государственная пропагандистская кампания призывала граждан всех возрастов активно включаться во всеобщую борьбу за помощь фронту, мобилизовать все внутренние силы и ресурсы для борьбы с агрессором. В этой связи на учителей в годы война упала очень большая нагрузка. С одной стороны, требовалось осуществлять качественное обучение в школах, при этом уделяя особое внимание военно-физической подготовке учащихся, их патриотическому воспитанию. С другой стороны, в связи с тем, что в основном все мужчины работоспособного возраста, в том числе и учителя-мужчины (а их было большинство), ушли на фронт, их место должны были занять женщины и подростки, что в свою очередь вызывало острую нехватку преподавателей.

Остроту проблемы нехватки школьных педагогов помогали смягчить опытные учителя из числа эвакуированных граждан. Они оказали большую помощь в организации методической работы. Среди них были учителя, эвакуированные из Украины, Белоруссии, Москвы, Ленинграда. Они читали лекции для местных учителей, организовывали работу методических семинаров, оказывали всемерную помощь в деле развития народного образования. Государство оказывало им всяческую поддержку. Приезжим учителям выдавались денежные пособия, талоны на получение одежды и обуви, для них открывались спецстоловые. В 1942 году государством было выделено 25 тыс. рублей, а в 1943 году – 100 тыс. рублей на оказание материальной помощи особо нуждающимся эвакуированным учителям. В этот период именно они частично покрыли дефицит кадров в сфере народного образования. После войны многие из них были представлены государством к различным наградам за их самоотверженный труд. Среди них были А.А.Стакан, оказавший большую помощь в деле повышения квалификации учителей республики; Э.М.Марингоф, работавшая

над вопросами постановки художественного воспитания детей; А.В.Никольская, которая занималась вопросами перестройки работы школ и дошкольных учреждений в условиях военного времени и многие другие [1, д. 634, лл. 2-4]. Многие из них после войны были отозваны по месту прежнего жительства, оставив в Узбекистане частичку своей души в благодарность за теплый прием и готовность поделиться последним куском хлеба каждого его жителя, несмотря на тяжелейшие условия военного времени.

Эвакуированные в Узбекистан учителя лишь частично решали проблему обеспечения в годы войны кадрами системы народного образования. В этот период проблема подготовки педагогических кадров стояла очень остро. Нехватка кадров ощущалась еще до войны, когда недоставало около 10 тыс. квалифицированных учителей с высшим образованием для средних и семилетних школ с узбекским языком обучения. В 1940-41 учебном году в школах республики работало 35 760 учителей, из них с высшим образованием 2 903, с незаконченным высшим 5712, со средним 14 687, с незаконченным средним 12 458 учителей [2, с. 207]. Еще более положение усугубилось с уходом многих учителей на фронт. Еще до войны в большинстве педагогических коллективов работали мужчины. В школах с узбекским языком обучения учителя-мужчины составляли 76%, с русским – 49%. С началом войны эта ситуация еще более усугубилась. Крайне затруднительное положение с кадрами преподавателей сложилось в узбекских школах. В русских школах дела обстояли несколько лучше, поскольку мобилизованных в армию педагогов заменяли эвакуированные специалисты. Уже к началу 1941-42 учебного года в Ташкентских школах работало 197 эвакуированных учителей, в Ташкентской области - 500, в Ферганской – 287 [2, сс. 207-208].

К началу 1942-43 учебного года для нормальной работы школам не хватало более 6 тыс. преподавателей. Во многих школах пришлось временно прекратить преподавание таких важных дисциплин как иностранные языки, математика, физика, химия. Это обстоятельство отрицательно сказывалось на качестве подготовки в школах.

Советское государство принимало определенные меры в этом вопросе. В январе 1942 года было принято специальное постановление «О подготовке учителей для школ Узбекистана», на основе которого была открыта широкая сеть краткосрочных курсов, создаваемых при педагогических учебных заведениях и в средних школах. К учебе на курсах привлекались в основном девушки-узбечки, имеющие семилетнее и среднее образование. В 1941-1943 гг. на таких курсах было подготовлено 16 тыс. учителей [1, д. 20, л. 293]. Во многих школах вводилось также обучение с педагогическим уклоном. Их выпускники получали направление на работу учителями начальных классов. Но у этого пути решения проблемы учительских кадров была и отрицательная сторона, поскольку ушедших на фронт опытных педагогов заменяли молодые неопытные, недостаточно подготовленные учителя. Так, к началу 1943-44 учебного года 63% учителей начальных классов были с незаконченным средним образованием, многие учителя-предметники приходили преподавать в школы после окончания шестимесячных курсов. Всего из общего числа учителей, работающих в школах республики, только 27% имели высшее и незаконченное высшее образование [3, с. 146].

Чтобы хоть как-то пополнить дефицит учителей в школах, в апреле 1942 года Совнарком Узбекистана разрешил увеличить педагогическую нагрузку учителям 5-10 классов до 2,5 ставок в месяц, а директорам и заведующим учебной частью – до шести уроков в день при занятиях школы в две смены. Методистам отделов народного образования было разрешено по совместительству вести преподавательскую работу в школах до 50 часов в месяц, причем они давали уроки в школе по расписанию три дня подряд с тем, чтобы остальные три дня недели могли проверять другие школы [4, с. 91]. Таким образом, многим учителям приходилось работать по 10-12 часов в сутки, что, безусловно, не самым лучшим образом сказывалось на качестве преподавания.

Для улучшения сложившейся кадровой ситуации, в 1943 году были приняты постановления: «О подготовке национальных педагогических кадров в Узбекистане» и СНК УзССР «Об улучшении подготовки педагогических кадров». В них

особое внимание уделялось подготовке педагогических кадров из лиц коренных национальностей, особенно женщин. Для этой цели с сентября 1943 года Ташкентский педагогический институт, Ташкентский и Кокандский учительский институты, Ташкентское, Самаркандское, Бухарское, Андижанское, Кокандское и Хивинское педагогические училища были преобразованы в женские, что привлекло к учебе в них большое количество девушек-узбечек.

Однако, все же в первые годы войны потребность в учительских кадрах в республике в основном удовлетворялась за счет выпускников краткосрочных курсов. Поэтому, с 1 января 1943 года была восстановлена свернутая в связи с войной заочная форма обучения: открылись заочные отделения при САГУ, Ташкентском госпединституте, Самаркандском учительском институте. А в декабре 1943 года был принято постановление СНК СССР «О мероприятиях по укреплению системы заочного педагогического образования». Однако, в 1943-44 учебном году на заочных отделениях вузов обучалось лишь 52% предусматриваемого количества студентов, а педучилищ – 56% [3, с. 147]. Это объяснялось трудностями военного времени и недостаточным вниманием со стороны государства к заочной форме обучения.

Положение с подготовкой педагогических кадров усложнялось еще и тем, что в начале войны были закрыты Узбекский государственный университет и педагогический институт в Самарканде. Студенты и преподаватели этих вузов были переведены в Ташкент. Причиной закрытия этих вузов в Самарканде была в необходимости предоставления их зданий под размещение эвакуированных в Узбекистан военных учебных заведений и госпиталей. Те педагогические высшие учебные заведения, которые продолжали функционировать в годы войны, также находились в тяжелом положении, так как вынуждены были отдавать недавно отстроенные, благоустроенные здания военным учебным заведениям и госпиталям, а сами переходили в старые помещения, где занятия зачастую приходилось вести в 2-3 смены, что также отрицательно сказывалось на качестве подготовки педагогических кадров.

Ввиду того, что здания студенческих общежитий отдавали под госпитали, многих студентов заселяли на частные квартиры, а также в дома преподавательского состава.

Таким образом, если в первые годы войны число педагогических учебных заведений, включая университеты, институты, училища, в целом сократилось до 28, то в 1944-45 учебном году их количество увеличилось до 37.

К концу войны в Узбекистане практически была сохранена довоенная школьная сеть. В 1945-46 учебном году было 4467 общеобразовательных школ, из них 1974 – начальных (четырехлетних), 2013 семилетних и 480 средних (десятилетних). 416 школ было в городах и 4-61 – в сельской местности. В этих школах обучалось 895 тыс. учащихся, в их числе девочки составляли 48,7% [1, д. 27, л. 4об.].

Несмотря на все вышеуказанные трудности военного периода, тем не менее, в системе подготовки педагогических кадров в Узбекистане было сделано очень многое, что, безусловно, являлось частью неоценимого вклада народа республики в победу над фашизмом.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushi yillarida xalq ta’limi tizimiga pedagog-kadrlarni tayyorlash jarayonini yoritishga harakat qilingan. Umumiy ta’lim maktablarida kadrlarning yetishmasligi muammosi urushning birinchi yillaridayoq sezila boshlagan. Bu holat avval ko‘pchilikni tashkil etgan erkak pedagog kadrlarning urushga jo‘natilganligi natijasida kelib chiqqan. Ochiq qiyinchiliklarga qaramasdan muammo ta’lim jarayoniga ayollarni, evakuatsiya qilingan o‘qituvchilarni jalb qilish, shuningdek yosh xotin-qizlar uchun qisqa muddatli kurslarni tashkil etish orqali hal qilingan. Umuman aytganda, ikkinchi jahon urushi yillarida maktab ta’lim tizimi uchun pedagog-kadrlarni tayyorlash yo‘lida ko‘p ishlar ishlar qilingan.

Kalit so‘zlar. Ikkinchi jahon urushi, kadrlar, o‘qituvchilar, maktab ta’limi, evakuatsiya qilingan o‘qituvchilar, qisqa muddatli kurslar, kadrlar yetishmasligi.

Abstract. This article attempts to highlight the process of training teachers for the public education system during the Second World War in Uzbekistan. The shortage of personnel for comprehensive schools became acute from the first months of the war. This was due to the fact that many male teachers, who were the majority, went to the front. Despite the obvious difficulties, the problem was solved by involving women, evacuated teachers, in teaching, as well as by creating a network of short-term courses for young girls. Generally speaking, during the Second World War, a lot was done to train teachers for the school education system.

Keywords. Second World War, personnel, teachers, school education, evacuated teachers, short-term courses, personnel shortage.

Список использованной литературы:

1. НА Уз, Ф. Р-2282, оп. 1, д. 634, лл.2-4.
2. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). Т.I. – Ташкент, 1981. - С. 207.
3. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). Т. II. - С.146.
4. Рачинская Е.В. Народное образование в Узбекистане в годы Великой Отечественной войны. – Ташкент, 1963. - с.91.

ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA IKKINCHI JAHON URUSHI MASALALARINING YORITILISHI: YANGI YONDASHUVLAR VA TAHLILLAR

Turayeva Sayyora Rustambayevna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. **Maqolada O‘zbekiston mustaqilligi yillarida “O‘zbek xalqining ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaga qo‘shgan hissasi” mavzusida olib borilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi. Toshev K.T., Jumaniyazova F.J., Qayumova R.R., Safarova Z.S., Abdurahmonova M.M., Akbarov R.M. Turli xil noyob tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, ilmiy matbuot materiallari asosida ularning ishlarida aniqlangan ilmiy yangiliklarni o‘quv adabiyotlari va darsliklariga kiritish, shuningdek, yosh tadqiqotchilarning yangi tadqiqot yo‘nalishlari tahlil qilindi.**

Kalit so‘zlar: ikkinchi jahon urushi, abadiy jasorat, davriy matbuot, askarlarning xatlari, urush qahramoni, o‘zbek xalqining insonparvarligi, evakuatsiya.

Jahondagi globallashuv jarayonlarida tinchlikni saqlash masalasi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda barcha tinchliksevar kuchlar Ikkinchi jahon urushidagi mudhish voqealarni qayta takrorlanmasligi uchun hamjihatlik bilan dunyoda tinchlik o‘rnatilishidan murosa va madora bilan muammolarni hal qilishga urinilmoqda. O‘zbekiston haqining Ikkinchi jahon G‘alabaga qo‘shgan hissasini yosh avlodga tushuntirish, tinchlikni qadrlash, ajdodlar jasoratini xotirasini abadiylashtirish borasida G‘alaba bog‘i, “Shon-sharaf” muzeyi, “Mangu jasorat”, “Matonat madhiyasi” (2020) monumentlari bunyod etildi. Xalqimizning qonli janglardagi mardligini, front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoyiligini aks ettirishga bag‘ishlangan keng ko‘lamli tarixiy-badiiy ekspozitsiyalar yaratildi. BMT Bosh Assambleyasi 2004-yil 22-noyabrda 59/26-son rezolutsiyasini qabul qilib, 8 va 9-may kunlarini “Xotira va Yarash kuni” sifatida e’lon qildi [1]. Bu esa, yangi urushlarni oldini olish va Ikkinchi jahon urushi qurbonlarini xotirlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib sanaladi.

Sobiq sovet ittifoqining parchalanishi g‘arb tarixshunosligida katta o‘zgarishlar qilishga sabab bo‘ldi. Aytish joizki, Yevropa Kengashi tashabbusi bilan universal Yevropa tarixini yaratishga urinishlar boshlandi va bunga II jahon urushi voqealarini qayta ko‘rib chiqish va yozish model sifatida olindi. Eng zamonaviy hisob-kitoblarga ko‘ra, Ikkinchi jahon urushida 85 milliongacha odam halok bo‘lgan. Bu hisob o‘sha paytda Yer aholisining taxminan 3-3,7 foizini tashkil qiladi. Ikkinchi jahon urushida harbiy xizmatchilarga qaraganda ikki baravar ko‘proq tinch aholi halok bo‘lgan. Bugungi kunda dunyodagi ko‘p ilmiy markazlar Ikkinchi jahon urushidagi masallarni ochiqlangan arxiv hujjatlari asosida qayta o‘rganmoqda va voqealarga taxlilini yangi materiallar bilan boyitilmoqda.

Jumladan, AQSHning Nyu Orlean shtatidagi Ikkinchi jahon urushi milliy muzeyi tomonidan 2006-yildan buyon muntazam ravishda o‘tkazib kelingan Ikkinchi jahon urushiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya 2021-yildan boshlab butunlay virtual platformada va birinchi marta omma uchun bepul translatsiya qilinadigan bo‘ldi[2]. Mazkur anjumanlarda dunyoning turli mamlakatlaridagi tadqiqotchilar ishtirok etib kelmoqda. So‘nggi yillarda Qo‘shma Shtatlar Xolokost xotira muzeyidagi ilmiy tadqiqotlar natijasida fashizmning insoniyatga qarshi amalga oshirgan eng og‘ir jinoyatlarini fosh qilishga bag‘ishlangan nashrlar soni oshib bormoqda[3].

2019-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O‘zbekiston tarixchilar jamiyati hamda Rossiya Federatsiyasining bir qator oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlari hamkorligida “Eshelonlar Sharqqa boradilar. Ulug‘ Vatan urushi davrida O‘zbekistonga evakuatsiya” mavzusidagi xalqaro-ilmiy konferensiya materiallari e’lon qilinib, unda urush yillaridagi turli sohalarga oid

maqolalar chop etildi. 2020-yilda esa, “Ikkinchi jahon urushi va O‘zbekiston xalqi: shaxslar va xotiralar” mavzusida ilmiy maqolalar to‘plami nashr etildi[4].

2025-yil 19-fevralda O‘zbekiston Prezidentining “Ikkinchi jahon urishida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida” qarori qabul qilindi [5]. Shu munosabati bilan joylarda “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida ko‘plab tadbirlar tashkil etilmoqda.

Ikkinchi jahon urushi davri tarixshunosligini rivojlanish darajasini belgilashda dissertatsiya tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi. Ular orqali mavzu tarixshunosligida kechgan o‘zgarishlar, davr ruhi, fan rivojidagi ziddiyatlarni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.Ahamiyatli jihati mustaqillik davri tadqiqotlarida sovetlar davrida qo‘llanilib kelingan “Ulug‘ vatan urushi” atamasi o‘rniga “Ikkinchi jahon urushi” atamasi ishlatila boshlandi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Ikkinchi jahon urushi mavzusi bilan bog‘liq kitoblar, dissertatsiyalar bilan bir qatorda, respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar o‘tkazish ko‘payganini ta’kidlash lozim. Aksariyat hollarda bu anjumanlar fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning yubiley sanalari bilan bog‘liq ravishda tashkil etilmoqda.

Mustaqillik davrida Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSR tarixiga bag‘ishlangan bir qator ishlar chop etilgan. Ushbu tadqiqotlar respublikaning front va front ortida g‘alabaga qo‘shgan hissasini aks ettiradi [6]. Ushbu tadqiqotlarda O‘zSSRdagi bolalar va bolalar muassasalarini ko‘chirish masalalari bo‘yicha hududiy statistik ma’lumotlar [7] tahlil etilgan. Sh. Ergashevning [8] dissertatsiyasi va maqolalarida sanoat korxonalarini ko‘chirish va ularni mamlakatning front orti mintaqalarida joylashtirish tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilgan. M.Shamuratova[9] va Z.Safarovalarning[10] dissertatsiyalarida ko‘chirib keltirilgan san’atkorlar, yozuvchilar va ijrochilarning o‘zbek ziyolilari bilan hamkorligini aks ettirgan.

H.Azimovning [11] asarlarida ko‘chirib keltirilgan bolalarga ko‘rsatilgan yordami, urush yillarida o‘zining insoniy fazilatlarini namoyon etgan o‘zbek haqining matonati va bag‘rikengligi yoritilgan. Tadqiqotchi X. Babajanov [12] o‘z izlanishlarida sanoat korxonalarini O‘zbekiston SSRga ko‘chirilishi, ularni joylashtirish va foydalanishga topshirish jarayonini o‘rgangan. K. Saipovaning [13], R.Murtazayevaning [14] monografiyasida, D. Inoyatovaning [15], N. Mustafayevaning [16] tadqiqotlari esa urush yillarida O‘zbekiston SSR aholisining demografiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda ko‘chirib keltirilgan aholi soni bo‘yicha miqdoriy va tahliliy ma’lumotlar, shuningdek, o‘zbekistonliklarning ko‘chirib keltirilgan xalqlarga ko‘rsatgan yordami va bag‘rikenglik munosabati, ko‘chirilgan bolalarni asrab olish hamda tarbiyalash bo‘yicha umumxalq harakati yoritilgan. Arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida muallif ko‘chirib keltirilgan aholi soni, shuningdek unga moddiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha statistik ma’lumotlarni tahlil etgan. Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan asarlarda O‘zbekiston SSRga ko‘chirilgan aholini qabul qilish, evakopunkt faoliyati va respublika hududida sanoat korxonalarini joylashtirish, ko‘chirilgan ziyolilarning ijodiy va ilmiy hamkorligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Xorijiy tadqiqotchilarning ishlarini hududlar bo‘yicha ikki guruhga bo‘lish mumkin: **MDH va uzoq xorijiy** mamlakatlar olimlarining asarlari. MDH tadqiqotchilar orasiga M.N. Potemkina [17], M.P. Belenko [18], I.N. Ilina [19], S.V. Postnikov [20], N.A. Gromova [21] kabi mualliflar kiradi. Ushbu tadqiqotlarda aholini ko‘chirish va joylashtirishning nazariy masalalari batafsil yoritilgan. Belorus mualliflari V. Mitskevich [22] va A. Krijevichning [23] maqolalarida ham O‘zbekiston SSRga aholini ko‘chirish masalalari yoritilgan. V. Mitskevich va A. Krijevichlar maqolalarida belorus xalq shoiri va adabiyotchisi Yaqub Kolasning Toshkentga ko‘chirib keltirilgan davrini, xususan, uning o‘zbek yozuvchilari bilan ijodiy munosabatlarini tasvirlaydi.

Urush yillarida aholini, sanoat korxonalarini va madaniy muassasalarni ko‘chirish tarixini yoritgan xorijiy tadqiqotchilar orasida Rebekka Menlining [24] monografiyasini qayd etish mumkin. Muallif Toshkent temir yo‘l bekatidagi evakopunkt faoliyatini, aholini kutib olish va hududlar bo‘yicha taqsimlash jarayonini tasvirlab bergan. Boshqa asarlardan farqli o‘laroq, muallif ko‘chirib keltirilgan aholining urushdan keyingi taqdiri, xususan, odamlarni o‘z uylariga qayta ko‘chirish va ijtimoiy moslashishning murakkabligini tasvirlaydi. Larri Xolmsning [25] ikkinchi jahon urushi davridagi

ko‘chirish tarixiga bag‘ishlangan kitobida aholini ko‘chirishni tashkil etish jarayoni tanqid ostiga olingan. Uilyam Moskofning [26] maqolasida oliy o‘quv yurtlarini ko‘chirish jarayonini yoritib o‘tilgan bo‘lsa, Vadim Dubson [27] esa Holokost fojiasi orqali ko‘chirish siyosatini baholaydi. Shuningdek, Janubiy Koreyalik tadqiqotchi Boram Shin [28] Moskva shahridan ziyolilarini ko‘chirish, ularning o‘zbek ziyolilari bilan hamkorlikda aholi orasida vatanparvarlik hissini kuchaytirish bo‘yicha islarini tadqiq etadi. Xulosa qilganda, Ikkinchi jahon urushida O‘zbekiston SSRga aholini ko‘chirish tarixi tarixshunosligi mavzuga oid bir qator ilmiy asarlar yaratilganini ko‘rsatadi. Biroq, tadqiqotchilar o‘z vazifalaridan kelib chiqib, urush sarhadlaridan aholini ko‘chirish siyosatini qisman yoritganlar. Mazkur asarlarda umumiy, ko‘pincha, tinch aholining front orti hududlariga ko‘chirish, yangi joylarda ularni qabul qilish, joylashtirish to‘g‘risidagi bir-birini takrorlagan ma’lumotlar keltirilgan. Yuqoridagi fikrlar o‘rganilayotgan mavzuning keng ko‘lamda yoritishga qaratilgan maxsus tadqiqot olib borish zaruriyatini belgilaydi.

So‘nggi 2020- 2025 yilga qadar qancha tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlarda ilmiy iste’molga yangi hujjatli dalillar asosida kiritilgan ma’lumotlar o‘quv adabiyotlardan o‘z o‘rnini topishi kerak. Ushbu tadqiqotlar **Safarova Z.S.** “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston madaniyati” [29], **Abduraxmanova M.M.** “Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRga aholi va korxonalarni ko‘chirish siyosati (1941-1944 yillar)” [30], **Toshov K.T.** “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonning ijtimoi-iqtisodiy va madaniy holati (Surxon vohasi misolida)”[31], **Jumaniyozova F.J.** “Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati”[32], **Kayumova R.R.** “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonliklarning g‘alabaga qo‘shgan hissasi (1941-1945-yillardagi front xatlari asosida)”[33]. **Akbarov R.M.** “Ikkinchi jahon urushi yillarida matbuotda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarning yoritilishi (1941 – 1945 yillar, o‘zbek tilidagi gazetalar misolida)”[34] kabi mavzularda amlaga oshirilgan.

Safarova Z.S. tadqiqotida O‘zbekiston madaniyatining urush ehtiyojlariga yo‘naltirilishi, xususan, bu davrda ta’lim sohasidagi siyosat va uning mohiyati, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o‘quv yurtlari faoliyatining urush davr talablariga muvofiqlashtirilishi ochib berilgan.

Urushning dastlabki yillarida O‘zbekiston xalq ta’limi, oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy muassasalar og‘ir sinovlarni boshidan o‘tkazdi. Ta’lim sohasi xodimlari, professor-o‘qituvchilar frontga safarbar etildi. Xalq maorifi ham bir qator qiyinchiliklarga duch keldi, boshqa sohalar kabi bu soha uchun ham budjetdan ajratilgan mablag‘ kamayib bordi. Masalan, 1942-1943 o‘quv yilida respublikada o‘ninchi sinf bitiruvchilari 2590 nafarni, 1943-1944 o‘quv yilida 2170 nafarni tashkil etdi. Bu juda past ko‘rsatkich edi. Albatta o‘rta maktab bitiruvchilari sonining kamayib ketishi, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash ishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi[35]. Safarova Z.S. urush oqibatida O‘zbekistondagi muammolarni ham ko‘rsatgan, yani 1941-1942 o‘quv yilida O‘zbekistonda umumta’lim muassasalari rejasi to‘la bajarilmadi. Maktab yoshidagi 179 ming bola o‘qishga jalb etilmay qoldi. Urushning eng yomon oqibatlaridan biri yosh avlodni savodsiz bo‘lishiga olib keldi. Boquvchisini yo‘qotgan oilalarda voyaga yetmagan bolalar sanoat va qishloq xo‘jaligining turli yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatdi. Urush boshlangan vaqtda O‘zbekistonda Ittifoq FA O‘zbekiston filiali va Respublika oliy o‘quv yurtlarida 2512 ta ilmiy xodim, jumladan, 400 nafar mahalliy millat olimlari, 16 ta akademik, 20 nafar FA muxbir a’zosi, 510 ta professor, 627 dotsent, 395 assistent, 176 nafar katta ilmiy xodim va 283 nafar kichik ilmiy xodim faoliyat olib bordi .

Sharqqa Ittifoq FA, Ukraina va BelorussiyaFA, Butunittifoq qishloq xo‘jaligi akademiyasi, me’morchilik akademiyasi, ba’zi ilmiy-tadqiqot institutlari, 147 ta oliy o‘quv yurti evakuatsiya qilindi.

Urushning dastlabki yillarida Toshkentga yuzlab yozuvchilar, olimlar va san’atkorlarning evakuatsiya qilinishi adabiyot va san’atning rivojlanishiga keng yo‘l ochdi. Jahonga tanilgan adiblar o‘zbek adabiyoti va uning tarixi bilan yaqindan tanishdi. Birgina Toshkent shahriga 200 ga yaqin badiiy adabiyot vakillari evakuatsiya qilindi. Ular orasida A.N.Tolstoy, A. Ahmatova, Ya. Kolas, N. Pogodin, P. Skosirev, M. Pereshchenko va boshqalar bor edi.

Matbuot ommaga ta’sir etishda hukumatning eng kuchli quroliga aylandi. Urush yillarida O‘zbekistonda jami 200 ta gazeta nashr etilib, bulardan 124 tasi o‘zbek tilida chiqarildi. O‘zbekiston matbuot materiallari frontga uzluksiz ravishda yetkazib turildi. Urush

yillarida O‘zbekiston viloyatlarida “Krasnaya Buxara”, “Kashkadarinskaya pravda”, “Xorezmskaya pravda”, “Kommunist”, “Mehnat yo‘li”, “Leninskoe znamya”, “Lenin yo‘li”, “Ferganskaya pravda” kabi viloyat gazetalari nashr etib turildi. Viloyatlarning bir qator tumanlarida ham gazeta nashrlari davom ettirildi. Gazeta materiallarining aksariyat qismi axborot xarakterida bo‘ldi. Harbiy matbuot nashrlari, ularda chop etilgan maqolalar mazmuni masalasiga ham e’tibor qaratilgan. O‘zbek tilidagi birinchi front gazetasi 1942-yilda Moskvada «Izvestiya» gazetasining tipografiyasida nashr etilib, G‘arbiy front jangchilari o‘rtasida tarqatildi. 1943-yilda frontda o‘zbek tilida 13 ta front va 2 ta diviziya gazetasi nashr etildi. Birinchi Boltiqbo‘yi frontida “Dushmanga qarshi olg‘a”, Ikkinchi Boltiqbo‘yi frontida “Suvorovchi”, Uchinchi Boltiqbo‘yi frontida “Vatan uchun”, Birinchi Belorus frontida “Front haqiqati”, Uchinchi Belorus frontida “Qizil askar haqiqati”, Birinchi Ukraina frontida “Vatan sharafi uchun”, Ikkinchi Ukraina frontida “Suvorov hujumi”, Uchinchi Ukraina frontida “Sovet jangchisi”, Bryanskiy frontida “G‘alaba sari olg‘a”, Uzoq Sharq frontida “Bong‘’ va boshqa gazetalar shular jumlasidandir.

M.M. **Abduraxmanovan**ing tadqiqotlarida 1941-1942 yillarda Markaziy Osiyoda ko‘chirib keltirilgan 308 zavod joylashtirildi. O‘zbekiston SSRga ko‘chirilgan korxonalar soni to‘g‘risida so‘z yuritiladigan bo‘lsa, shuni ta’kidlash kerakki, agar 2020-yilgacha tadqiqotlarda 103 ta zavod va fabrika ko‘rsatilgan bo‘lsa, arxiv hujjatlarining maxfiylikdan chiqarish natijasida bu ko‘rsatkich 151 ta korxonani tashkil qildi[36].

Urush yillarida sanoat korxonalarini ko‘chirish ikki bosqichda amalga oshirildi: 1) 1941-yil iyundan 1942-yil fevralgacha bo‘lgan davrda; 2) 1942-yil bahor va kuz oylarida. Arxiv manbalariga ko‘ra, birinchi davrda O‘zbekiston SSRga 93 ta korxona ko‘chirilgan. Ular respublikaning quyidagi viloyatlarida joylashtirilgan edi: Toshkent va Toshkent viloyatida – 66 ta, Farg‘ona viloyatida – 14 ta, Andijonda – 4 ta, Namanganda – 1 ta, Samarqandda – 5 ta, Buxoroda – 2 ta, Surxondaryoda – 1 ta 34. Poytaxt va poytaxt viloyatiga ko‘chirilgan korxonalar sonining ko‘pligi – qariyb 70 foizi bu hududning yaxshi iqtisodiy salohiyatga ega ekanligi bilan izohlangan. Toshkent shahrida asosan og‘ir sanoat, elektroenergetika va mashinasozlik korxonalari joylashgan bo‘lsa, yengil va kimyo sanoati korxonalari Farg‘ona viloyatida, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari Andijon, Namangan, Samarqand, Buxoro va Surxondaryoda joylashgan edi.

Sanoat korxonalarini ishchilar bilan ta’minlashning eng muhim manbai sifatida ko‘chirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan fabrika-zavod maktablari, kasb-hunar va temir yo‘l o‘quv yurtlari bo‘ldi. Fabrika-zavod maktablariga jalb qilingan o‘quvchilarning yoshi 16 yoshdan 18 yoshgacha belgilan. 1943 yildan boshlab SSSR Halq Komissarlari Kengashining 964-sonli qaroriga binoan bolalarni 7 yoshdan maktabga qabul qilish tartibi belgilandi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi - yetti yillik ta’limni 14 yoshga to‘lgunga qadar yakunlash imkonini berib, shundan so‘ng o‘quvchilarni fabrika-zavod maktablariga yoki ishchi kuchi keskin tanqisligi bo‘lgan korxonalar va kolxozlarga yuborish edi.

Non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining normasi “kartochka” tizimi bilan belgilanib, shahar aholisi uchun u to‘rt guruhga bo‘lingan: 1) ishchilar, muhandis-texnik xodimlar va ularga tenglashtirilgan shaxslar uchun; 2) xodimlar va ularga tenglashtirilgan shaxslar uchun; 3) qaramog‘ida bo‘lgan kishilar uchun; 4) 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun. Ishchilar va muhandislik-texnik xodimlar uchun kunlik beriladigan non me’yori 800 gramm, shakar va qandolat mahsulotlari esa oyiga 600 grammdan 800 grammgacha etib belgilangan. Ishchi xodimlar haqida gapiradigan bo‘lsak, ular uchun non me’yori 400 dan 500 grammgacha bo‘lib, shakar va qandolat mahsulotlari uchun norma 600 grammni tashkil etgan

Xususan, Leningrad konchilik institutidan 39 nafar mutaxassis va 3 nafar ilmiy xodim, Leningrad Dizel ilmiy-tadqiqot institutining 9 nafar xodimi (oila a’zolari bilan jami 28 kishi). 1942-yilga kelib respublikada SSSR Fanlar akademiyasining 22 ta instituti, Ukraina, Belorussiya va RSFSRdan turli Xalq komissarliklar huzuridagi 9 ta ilmiy tadqiqot muassasalar va 3 ta kutubxona joylashtirilgan edi. Ular orasida Tarix instituti, Huquq instituti, Jahon xo‘jaligi va siyosati instituti, M. Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti, Sharqshunoslik instituti, Bosh Astronomiya Pulkovo rasadxonasi, Sitologiya, gistologiya va embriologiya instituti, Markaziy rentgen, radiologiya va saraton kasalliklari instituti va boshqalar. Universitetlarni ko‘chirish uchun asosiy hudud sifatida Toshkent shahri, Toshkent,

Farg‘ona va Samarqand viloyatlari tanlab olindi. Agar urushga qadar O‘zbekiston SSRda 23 ta oliy o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ko‘chirish davrida respublikadagi oliy o‘quv yurtlarining soni 32 taga yetdi. Xususan, Toshkent shahriga – 12 ta, Toshkent viloyatiga – 2 ta, Farg‘ona viloyatiga – 4 ta, Samarqand viloyatiga – 14 ta oliy o‘quv yurtlari ko‘chirilgan.

“O‘zbekiston SSRga aholini ko‘chirilishi va joylashtirilishi” deb nomlangan uchinchi bobda urush sarhadlaridan aholini ko‘chirish, ularni qabul qilish va joylashtirish masalalari bilan birga kishilarning ijtimoiy hayoti turmush tarzi tadqiq etiladi. Shuningdek, 1942-yildan 1948-yilgacha davom etgan aholini o‘z yurtlariga qayta ko‘chirish masalalariga ham e’tibor qaratiladi.

Jumaniyozova F. J. tadqiqotlarida Ikkinchi jahon urushi arafasida Xorazm viloyati xotin-qizlarning faoliyati, viloyatdagi yengil sanoat ancha sust rivojlanganligi, bu sohaning ayrim (paypoqlar, ichki va ustki kiyimlar ishlab chiqarish) yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilmaganligi, to‘quvchilik, tikuvchilik, ip gazlama ishlab chiqarishning past rivojlanganligi sababli viloyat iqtisodiyotini harbiy asosda qayta qurishda qiyinchiliklarga duch kelganligi va bu ayollarning mashaqqatli mehnatlari (yangi mehnat rejimi joriy qilindi, ish kuni uzaytirildi, ishdan keyin qolib ishlash joriy etildi, mehnat ta’tillari, dam olish kunlari bekor qilindi) evaziga amalga oshirilganligi hujjatlarda asoslangan.

Urush yillarida xorazmlik ayollarning qishloq xo‘jaligi sohasidagi mehnat faoliyati asosiy ishchi kuchi hisoblangan erkaklarning frontga safarbar etilishi sababli, xotin-qizlar zimmasiga yangi kasblarni (traktorchi, mexanik, tokar, slesar kabi) o‘zlashtirish, qiyin vazifalarni bajarishga davr va vaqt taqozo qilganligi, texnikaning yetishmasligi, qo‘l mehnatining ustunligi, buning oqibatida viloyatning qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish rejalarining to‘liq va belgilangan muddatlarda bajarilishiga to‘sqinlik qilganligi, Xorazmning transport-logistik tizimi taraqqiy qilmaganligi, front orti mehnat sharoitlari yanada qiyinlashgan bo‘lishiga qaramasdan, viloyat ayollarining frontni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta’minlash, mudofaa fondini yaratishga qo‘shgan hissalari arxiv ma’lumotlari asosida ochiqlangan, Viloyat harbiy qismlaridan ro‘yxatdan o‘tib frontga (305 nafar) jo‘natilgan, qo‘shni davlatlardan urushga (37 nafar) safarbar qilingan, qurilish batalonlariga (580 nafar) yuborilgan xorazmlik xotin-qizlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniqlanib, arxiv materiallari ilmiy muomalaga kiritilgan[37].

Xorazm viloyat paxta tozalash zavodlariga 366 nafar xotin-qizlar jalb etilib, shulardan 141 nafari yangi kasbni o‘rganib, mutaxassis ishchiga aylandi. 1941-yil oxiriga kelib viloyat sanoat korxonalariga jalb qilingan xotin-qizlar soni 1213 nafarga yetdi. Sovet davlati bu jarayonlarga ham mafkuraviy tus berib, viloyatda butun sovet davlatida bo‘lganidek, staxanovchilik va o‘n besh mingchilar harakatlarini avj oldirib yubordi. **Staxanovchi** – sovet davrida normani bir yarim baravar va undan ortiq bajargan ishchi, **“O‘n besh mingchi”** – dastlab paxta terimi rejasini ortiq bajargan kishilar shu nom bilan atalgan bo‘lsa, keyinchalik qishloq xo‘jaligining boshqa sohalarida ham rejani ortig‘i bilan bajarganlar shunday atalgan. “O‘n besh mingchilar” va “ikki yuz foizchilar” harakatlarining faol qatnashchilari sifatida esa, Mang‘it tumanidan E.Hayitova, Sh.Jumatova, A.Solayeva, Sh.Xudanova, Q.Jumamurodovalar, Urganch tumanidan L.Rahmonova, B.Otajonova, S.Sultonova, B.Karimova, N.Otajonova, E.Onnaboyeva, S.Matchonova, B.Ro‘zimetova, O.Safoyeva kabi terimchilar har kuni 150–180 kilogrammdan oshirib paxta terganlar hamda ularning bu fidokorona mehnati davriy matbuotda qayd etilgan (VDA. “Xorazm haqiqati”. 1941-yil 1-noyabr. №260. – B.1.).

Jumladan, viloyatda 1941–1942-yillarning o‘zida 3000 dan ortiq ayol traktorchilar tayyorlandi, 97 ayol rahbarlik lavozimiga tavsiya etildi. 18 nafar ayol qishloq kengashi raisi lavozimiga, 8 nafari kolxoz raisi, 358 nafari kolxoz raisi muovini, 28 nafari brigada boshlig‘i, 8146 nafari zveno boshlig‘i lavozimiga qo‘yildi. 1943-yilga kelib esa, Xorazm viloyati bo‘yicha 81 ta ayol kolxoz raisi, 334 ta ayol rais o‘rinbosarlari, 133 ayol ferma mudirasi, 77 ta ayol brigadir, 744 ta ayol esa zvenovoy (10–20 ayolni birlashtirgan mehnat guruhi zveno deb atalgan), ya’ni zveno boshlig‘i vazifasida ishlaganlar. Bundan tashqari, 1941–1942-yillarda o‘quvchi yoshlardan 4400 traktorchi, tabelchi va boshqa kasb egalari tayyorlandi. Urush armiya saflarini muntazam to‘ldirib turishni talab etar edi. Shu boisdan tayyorlangan yosh ishchi va dehqonlar frontga jo‘natilar, ularning o‘rniga yangi kadrlar tayyorlash kerak edi. (O‘zRPAA. 58-fond, 19-ro‘yxat 1032-yig‘ma jild, 47-varaq.)

Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari va matbuot nashrlari ma’lumotlari asosida Xorazm

viloyatidan 350 ga yaqin xotin-qizlar nomlari aniqlanib, ularning nomlari tiklandi. Xorazm viloyatidan frontga ketgan xotin-qizlarning 102 nafari to‘g‘risida to‘liq, qolgan ayollar bo‘yicha qisqa ma’lumotlar mavjud. Urushdan qaytib kelgan ayollardan 57 nafarining hisob varaqalari Mudofaa Vazirligi arxiv fondida saqlanmoqda [38]

Toshov K.T. tadqiqotida Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonning, shu jumladan, Surxondaryodagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning to‘lig‘icha harbiy izga ko‘chirilganligi, xalq xo‘jaligida urush davri qonunlariga to‘liq amal qilganligi dalillangan, Urush yillarida ayollar, bolalar, qariyalar bilan bir qatorda nogironlar mehnatidan ham unumli foydalanilganligi, voha aholisi zayomlar sotib olishda, tank kolonnalari va aviaeskadrilyalar qurilishiga faol qatnashganligi aniqlangan. Xo‘jaikon tuz konida yiliga 15 tonna tuz qazib oluvchi korxona barpo etilganligi, Surxondaryo oblastida kauchuk tashuvchi takasaqqiz o‘simligining boy manbalari topilib, harakatdagi armiya ehtiyojlari uchun yetkazib berilganligi, ipak qurtini yozda va kuzda takror boqilganligi aniqlangan. Termiz shahrida surxondaryoliklardan 92-alohida o‘qchi milliy brigadasi va 213-gvardiyachi o‘qchi diviziyasi shakllantirilganligi, o‘zbekistonlik jangchilardan tashkil topgan 1-gvardiyachi havo desanti diviziyasi fashizmga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaganligi asoslangan.

Surxondaryo viloyatida harakatdagi armiya uchun kadrlar tayyorlab berishga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, 1941-yilning o‘zida viloyatda 18 ta harbiy o‘quv punkti tashkil etildi. 1942-yil davomida 193 nafar pulemyotchi, 101 nafar tank qiruvchisi, 100 nafar avtomatchi va 40 nafar snayperchi tayyorlangan bo‘lsa, 1942-yil oxirigacha 1420 nafar kichik komandirlar tayyorlandi. 1943-yil mobaynida “Osoaviaxim” jamiyatida 721 nafar tank qiruvchisi, 151 nafar pulemyotchi, 250 nafar kavaleriyachi tayyorlandi yoki fuqarolarga harbiy ta’lim berishning 1943-yilgi rejasi 170 % ga bajarilib, 16481 nafar fuqaro harbiy va o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etdi. Shuningdek 25 ta sanitar drujinasida 266 nafar tibbiyot hamshirasi tayyorlandi[39].

Evakuatsiya bo‘lgan kishilar voha aholisi tomonidan juda iliqlik bilan kutib olindi, ularga turli-tuman yordamlar ko‘rsatildi va boshpana ajratib berildi. Jumladan, 1283 nafar Polsha fuqarosi Sariosiyo rayoniga, 575 kishi Denovga, yana 548 kishi esa Sho‘rchiga ko‘chirildi.

Urush yillarida Surxondaryo oblastiga 12 ta sanoat korxonalari evakuatsiya qilindi. Jumladan, Pavlograd, Chertkov va Prikolotinsk yog‘ zavodlari Denovga, Chernyanskiy hamda Starosokolskiy yog‘ zavodlari esa Termiz shahriga joylashtirildi. Neftchilarning mardonavor mehnatlari evaziga “Voroshilovneft” tresti 1942-yilda 1941-yildagiga nisbatan 2,6 foiz ko‘p neft qazib olishga muvaffaq bo‘ldilar. (Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 16-varaq)

SSSRning g‘arbiy qismi va Yevropani fashizmdan ozod qilishda o‘zbekistonliklar, shu jumladan, **surxondaryoliklardan** tashkil topgan 1-gvardiyachi havo desanti diviziyasi juda katta rol o‘ynadi. Ushbu diviziya 1942-yil 8-dekabr kungi Oliy Bosh Qo‘mondonlik buyrug‘iga asosan 1942-yilning 15-dekabrida 4-havo-desant korpusi va 1-havo-desant brigadasi bazasida shakllantirildi. To‘liq nomi 1-gvardiyachi Qizil Bayroqli Suvorov ordenli Zvenigorod-Buxarest unvonli havo desanti diviziyasidir.

1945-yil aprel-may oylarida Berlin operatsiyasi natijasida gitlerchilarning asosiy kuchlari tor-mor qilindi. Fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga bag‘ishlab, bir guruh o‘zbek jangchilari O‘zbekiston hukumatiga g‘alaba xatini yo‘lladilar. Ular orasida sherobodlik **Umar Xolmurodov** ham bor edi.

Urush yillarida frontda ko‘rsatgan jasoratlari uchun o‘zbekistonliklardan 120000 jangchi hukumat orden va medallari bilan taqdirlandi. Ulardan 280 kishi Qahramon unvoniga sazovor bo‘ldi, shundan 69 nafari o‘zbek edi. 32 kishi “Shuhrat” ordenining har uchala darajasi bilan taqdirlandi. Surxondaryoliklardan olti nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni, uch nafari esa “Shuhrat” ordenining to‘la nishondori bo‘ldilar. 3769 kishi turli xil orden va medallar bilan mukofotlandi[40].

Aholi o‘rtasida g‘oyaviy-targ‘ibot ishlarini olib borish uchun “Ilg‘or Surxon uchun” gazetasi ta’sis etildi.

R. R. Kayumova tadqiqotida urush yillarida askarlar va front ortidagilarning o‘zaro yozishmalari fashizmga qarshi kurashda ikki tomonni bir xil ruhlantirgani natijasida frontga ixtiyoriy safarbar etish, janglardagi qahramonliklar, ishlab chiqarishdagi jasoratlar ortib borganligi kollektiv va individual arxiv maktublari asosida isbotlangan, o‘zbek

jangchilarining Rossiya, Belorussiya, Ukraina va Yevropaning yuzdan ziyod shahar va qishloqlarini ozod etishda qatnashganligi 5000 ta front maktublarida yozilgan geografik joy nomlari haqida qimmatli ma'lumotlar bergan.

Urush yillariga kelib respublika pochta aloqasi sohasida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi nafaqat markaziy shahar va tumanlarda, balki qishloqlarda ham pochta bo'limlari tashkil etilgani hamda kecha-yu kunduz xat va jo'natmalarni **yetkazib berish tartibi joriy qilinishiga SSR Mudofaa komissarligining 1942-yil 5- sentyabrdagi maxsus 0679-son buyrug'i asos bo'lganligi aniqlangan**. Front ortida fidokorona mehnat qilgan ko'pmillatli o'zbek xalqi fashizmga qarshi kurashda mudofaa fondiga 650 million rubldan ortiq obligatsiya, 22 million so'mlik moddiy boyliklar, 55 kilogramm zargarlik buyumlari hamda 426 milliondan ortiq zayom va pul-buyum lotereyasi topshirgani rasmiy yozishmalar asosida ochib berilgan.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Milliy arxivi, Andijon, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Xorazm viloyatlari davlat arxivlarida saqlanayotgan xatlar o'rganildi. Natijada aniqlangan 5 mingdan ortiq xatlarning 3928 tasi tahlil qilinib, ular 6590 muallifga tegishliligi aniqlandi. Maktublarni mualliflar soniga qo'ra individual va kollektiv xatlarga ajratish mumkin. Jamoa nomidan yozilgan xatlardagi mualliflarning soni 2 kishidan 100 kishigacha bo'lgan. Mualliflik xususiyatlariga ko'ra front xatlari shaxsiy va rasmiy mazmunga ega ekanligi aniqlandi.

Xatlar bilan ishlashdagi ayrim kamchiliklarga ham e'tibor qaratish lozim. Respublikada 51 ta otliq pochta bo'limlari faoliyat yuritgan bo'lsa-da, yuk tashuvchi otlarni yem-xashak bilan ta'minlashda ham yetishmovchiliklar bo'lgan. Shu bilan birga, xatlarda manzilni noto'g'ri yozish holati ko'p uchragani sababli radio, matbuot va varaqalar tarqatish yordamida aholi orasida tushuntirish ishlari olib borilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazm viloyatiga xat-xabar va matbuot nashrlarini doimiy kechikib borishi ham dolzarb muammo bo'lgan[41].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, urushga 1 million 950 ming 700 nafar o'zbekistonliklar safarbar etilgan bo'lib, ulardan 538.366 nafari janglarda halok bo'lgan, 150 ming nafari asirga olingan, 50 ming nafari konslagerlarda halok bo'lgan.

Ko'plab arxiv hujjatlarida o'zbek askarlarining jang maydonlarida ko'rsatgan qahramonliklari haqida o'qish mumkin. Insoniyat tarixida Ikkinchi jahon urushi SSSR tomonidan ayollar ham janglarda to'g'ridan-to'g'ri qatnashgan yagona urush bo'ldi. Xatlarda Donbass uchun olib borilgan janglarda qatnashgan buxorolik hamshira Rahima Alimovaning qahramonligi bayon etilgan. Rahima 22 yoshida Buxoro harbiy komissariati tomonidan xizmatga chaqirilgan. O'qchi polk komandiri, podpolkovnik Savvin O'zbekiston SSR KP(b) Buxoro shahar qo'mitasiga yozgan xatida: "O'qchi batalonining jangovar topshiriqlarini bajarishda har doim birga bo'lgan Rahima jasur askar kabi xizmat qildi, oz jasorati bilan jangchilarni ruhlantirdi. Janglardan birida, fashistlar qarshi hujumga o'tishganida, Alimova oldingi safda borib, ortidan boshqa askarlarni ergashtirib ketdi. Ushbu jangda u beshta gitlerchilarni yo'q qildi. Qo'rqmas shijoati uchun Alimova Qizil Bayroq ordeni va "Jasorati uchun" medali bilan mukofotlandi", deb xabar beradi . Ma'lumotlarda Hanifa Qobilova harbiy xizmatga chaqirilganida 18 yoshda bo'lganligi qayd etilgan. Yosh hamshira 4-Ukraina frontining 18-armiyasi safida jang qilgan. Jasoratli Hanifa II-darajali "Vatan urushi" ordeni, "Jangovar xizmatlari uchun", "1941 – 1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun", "Mehnat faxriysi" medallari bilan taqdirlangan. Shuningdek, Aziza Qalandarova ham 17 yoshida armiyaga safarbar etilgan. 1942-yil 6-iyulda Aziza xizmat qilgan batalon jangda qatnashib, unda zenitchi ayollar 8 ta samolyotni urib tushirdilar. Yarador bo'lgan qiz tez orada gospitaldan chiqib, Kiyev shahri yaqinida jang qilayotgan o'z harbiy qismiga qaytadi. Ukraina va Ruminiyani ozod qilishda qatnashadi. Aziza Qalandarova xizmatni ofitser unvoni bilan yakunladi. U "Jangovar xizmatlari uchun", "Jasurligi uchun", "Budapeshtni ozod qilganlik uchun", "Berlinni ozod qilganlik uchun" medallari va "Qizil bayroq" ordeni bilan taqdirlangan. Umuman olganda, urush qahramonlari ro'yxatiga harbiy orden va medallar bilan taqdirlangan 200 ming nafar o'zbekistonliklarining shonli nomlari kiritilgan. Ulardan 301 nafari "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni, 70 nafari "Shon-sharaf" ordenining uchala darajasi bilan taqdirlangan. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, qo'mondonlarning askarni mukofotlash bo'yicha jang maydonlaridan yuborgan tavsiyanomalari aksariyat hollarda

tegishli manziliga etib bormagan.

1943-yilda o‘zbekistonliklar topshirgan xayriya mablag‘lari hisobidan 2100 ta samolyot, 2318000 aviabomba, 17100 ta minomyot, minalarni yo‘q qiluvchi 4500 dona qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy texnika, 22 mingta mina, 560 ming dona snaryad, 1 000 000 dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 000 000 dona radiolampa, 300 mingta parashut ishlab chiqarildi, 18 harbiy-sanitariya tibbiy yordam poyezdi tashkil qilindi, 2200 ta ko‘chma oshxona va boshqa zaruriy narsalar tayyorlandi[42].

Respublikamizning o‘ndan ortiq davlat arxivlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida Ikkinchi jahon urushi davriga oid besh mingdan ortiq xatlar o‘rganildi. Xatlarning mualliflari har xil yoshdagi, turli kasb va hayotiy tajribaga ega kishilardir. Ushbu satrlarda nafaqat jangdagi qahramonliklar, balki urush davridagi qiyinchiliklar ham yoritilgan, eng muhimi, frontdan kelgan xatlar askarning tirik va sog‘lom ekanligidan xabar berishi bilan birga, uning mehribonligiga javoban yaqinlarining yozgan maktublarida erishilgan yutuqlar, askarni jasorat va mardlikka undovchi so‘zlari joy olgan[43]. Aksariyat xatlar janglar orasidagi tanaffuslar paytida, okop, blindajlarda, xira shamchiroq yorug‘ida, harbiy tibbiy sanitariya batalonlari yotog‘ida shoshilib yozilgan. Ular pochta blankalari, bloknotlardan yirtib olingan varaqlar, maktab daftarlari va narsa o‘ralgan qog‘ozlarga qalam va ayrim hollarda siyoh bilan yozilgandi. O‘zbeklarning qarindosh-urug‘ va do‘stlariga yozgan individual maktublari asosan lotin alifbosida o‘z ona tilida yozilgan, rasmiy xatlar esa asosan rus tilida yozilib, zarurat tug‘ilganda boshqa tillarga ham tarjima qilingan.

Xatlar hajmining ortib borishi konvertlar taqchilligini keltirib chiqardi. Shuning uchun uchburchak shaklida taxlangan xatlar keng tarqalgan edi. Xatlar yopishtirilmagan, chunki ularni senzuradan o‘tqazilgan. Muhim ma’lumotlar va harbiy sirga ega satrlar qora bo‘yoq bilan bo‘yalgandan so‘ng “Harbiy senzura tomonidan ko‘rildi” shtampi qo‘yilgan[44].

Akbarov R. M. Tadqiqotida Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek tilida nashr qilingan respublika, oblast va rayon gazetalari matbuot va arxiv materiallari asosida nomma-nom tasniflab berilgan. Ikkinchi jahon urushi davri gazetalari hamda arxiv manbalari asosida urush yillarida mahalliy imkoniyatlardan foydalangan holda oziq-ovqat, dori-darmon, turli sanoat mahsulotlari, ishlab chiqarishdan qolgan chiqindilardan Qizil armiya va xalq xo‘jaligi uchun asbob-uskuna va har xil vositalar tayyorlangani “Qizil O‘zbekiston”, “Stalin haqiqati”, “Lenin yo‘li”, “Buxoro haqiqati”, “Xorazm haqiqati” nomli gazetalarda nashr etilgan ma’lumotlar asosida dalillangan. Urush yillarida matbuot sahifalarida e’lon qilib borilgan she’rlar -ijtimoiy buyurtma mahsuli sifatida aholini urushga safarbar etish, janglarda jasorat ko‘rsatish, mudofaa fondiga mablag‘ yig‘ish, harbiy zayomga yozilish, ko‘chirilgan aholiga, ayniqsa, bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, g‘allani ko‘paytirish, paxta rejasini oshirib bajarish va boshqa jarayonlarga faol jalb qilishga xizmat qilgani ochib berilgan. Urush yillarida o‘zbek matbuotida chop etilgan tibbiyot sohasiga oid maqolalarni arxiv ma’lumotlari bilan solishtirish asosida mazkur davrda aholi orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishi kuchaygani, o‘zbek matbuotining 8 aholiga yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish borasida faol tarzda tibbiy bilimlar berib borgani aniqlangan.

Natijada, KPSS Markaziy komiteti frontga O‘rta Osiyo va Kavkazdan borgan jangchilarning aksariyati rus tilini bilmaganligini hisobga olib, barcha frontlarda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, gruzin va arman tillaridagi gazeta, jurnal, risola va varaqalar chop etishga qaror qilgan. SSSR Xalq komissarlari soveti va VKP (b) Markaziy Komitetining 1941-yil 29-iyunda, Ishchi-dehqon qizil armiyasi Siyosiy targ‘ibot bosh boshqarmasining (RKKA) **1941-yil 23-iyunda chiqargan direktivalari, ayniqsa, VKP (b) MKning 1942-yil 12-iyunda chiqargan “Harbiy qismlardagi ommaviy-siyosiy ishlarni kuchaytirish tog‘risida”gi qarori front gazetalarini tashkil etishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgan** . Urush yillarida o‘zbek tilida jami 14 ta front gazetasi va 2 ta diviziya gazetasi nashr qilingan bo‘lib, ular “Atakaga”, “Bong”, “Vatan sharafi uchun”, “G‘alaba bayrog‘I”, “G‘alaba sari olga”, “Dushmanga qarshi olg‘a”, “Dushmanni tor-mor etishga”, “Qizil armiya”, “Qizil askar haqiqati”, “Qizil askarlar”, “Sovet jangchisi”, “Suvorov natiski”, “Suvorovchi”, “Front haqiqati” kabi gazetalar bo‘lgan.

Ikkinchi jahon urushini yangi tadqiqotlar bilan boyitishda Jamoat xavfsizlik Universitetining ilmiy jamoasi ham “Ikkinchi jahon urishida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni”ga kitobxonlar

uchun munosib sovg‘a hozirlagan. Vatanimiz istiqloli, Xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta’minlash yo‘lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o‘rganish hamda targ‘ib etish maqsadida Rustambayev M.X. umumiy tahriri ostida Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasining professor o‘qituvchilari mualliflar jamoasi tomonidan “Tarixga bitilgan taqdirlar: kurashlar, qismatlar va haqiqatlar” kitob-albom[45], Rustambayev M.X., Raxmonov F.E. mualliffigida “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80-yilligi arafasida” [46] monografiyasi nashr etildi.

Xullas, urush yillarida o‘zbek matbuotining yozuvchi-publitsistlari, jangchi-shoir jurnalistlari xalqning kuch-qudratini Vatan himoyasiga safarbar etishda eng oldingi safda turdilar. Urush yillarida kutubxona, klub, muzey, qizil choyxonalar singari madaniy-ma’rifiy muassasalar o‘z vazifasini yangi shakl va usullarda davom ettirib, xalqni fashizmga qarshi kurash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida bor imkoniyatlardan foydalandilar. O‘zbekiston matbuoti ham bu davrda ijtimoiy-siyosiy hayotning eng oldingi saflarida turib, gazetalar va jurnallar sahifalarida frontdagi vaziyat, respublika mehnat jamoalarining fidokorona mehnatini yoritdi. O‘zbekistonning bir guruh yozuvchi va jurnalistlari front gazetalarida harbiy muxbir sifatida va jurnalistikaning boshqa jangovar sohalarida faoliyat olib bordilar.

O‘zbek matbuotida berilgan materiallardan harbiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarga doir masalalarni umumiy o‘rta maktab, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston tarixi va jahon tarixi darsliklariga joriy etish, matbuot materiallaridan, shuningdek, arxiv hujjatlaridan qiyosiy foydalangan holda, gazeta va jurnallar sahifalarida e’lon qilingan suratlar va xaritalar asosida ma’lumotnomalar tayyorlash va chop etish zarur. Ikkinchi jahon urushi davrida bir ijtimoiy makonda yashaganliklari va birgalikda fashizmga qarshi kurash olib borganliklari uchun II jahon urushi mavzusini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida MDH davlatlari tarixchi olimlarining ilmiy hamkorligini yanada kuchaytirish lozimligini davrni o‘zi taqozo etmoqda. Urush davrida front va front ortida matonat bilan faoliyat ko‘rsatgan ayollarga bag‘ishlab hujjatli hamda badiiy filmlar ishlash yosh avlodni bunday qiyinchiliklarni yenggan matonatli, irodali, yuksak insoniy fazilatlarga ega, fidoyilarni tanishtiradi va xulosalashga undaydi. Yosh avlodni Ikkinchi jahon urushi davridagi front xatlari bilan atroflicha tanishtirish maqsadida yangi darsliklar va monografiyalar seriyasini kengaytirish maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda 1941 – 1945-yillarda chop etilgan bosma matbuot nashrlarining alohida bibliografiyasini tuzish, matbuotda chop etilgan o‘zbek jangchilarining jasorati va qahramonligi haqidagi xabar va maqolalarni xronologik ketma-ketlik asosida ro‘yxat (reyestr)ni shakllantirish, mazkur yo‘nalishda faoliyat olib borgan muxbirlarning shaxsiga aniqlik kiritish, ularning ishlarini klassifikatsiyalash va faoliyatlarini yoritish bo‘yicha ilmiy to‘plam nashr etish, Respublikadagi muzeylarda, xususan, “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi tarkibidagi, “Shon-sharaf” muzeyida, “Ikkinchi jahon urushi tarixi – matbuot ko‘zgusida” nomli bo‘lim tashkil etish tavsiya etiladi.

Bugungi kun Ikkinchi jahon urushi masalalari bo‘yicha shug‘ullanishni istagan tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarni O‘zbekistonning hududiy birliklaridagi kesimda mahalliy arxivlardagi hujjatlar asosida o‘rganishlari mazkur davrdagi o‘zbek haqining G‘alabaga qo‘shgan hissasi xususida kengroq ma’lumotlar aniqlash imkonini berishi mumkin. Bu davr tarixini yoritishda manba sifatida shu davrdagi arxiv hujjatlari, front va front ortidagi maktublar, darvriy matbuot, mazkur davr xotiranomalari, yaratilgan asrlardan kino xronika materiallaridan, muzey eksponantlaridan foydalanishi mumkin. Urushda ishtirok etgan va frontga jalb etilgan MDH davlatlar arxivlardagi hujjatlar borasida yagona lokal tarmoq tashkil etish borasida hamkorlik ishlari olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Arxiv hujjatlarining ochiqlanishi ham Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq ayrim ma’lumotlarga aniqliklar kiritilishiga xizmat qiladi. Yoshlar Ikkinchi jahon urushi asoratlari millionlab insonlar taqdiriga fojiaviy ta’sir ko‘rsatganligi, mamlakatlardagi tinch osuda hayotning izdan chiqishi oqibatida ilm-fan, madaniyat, insoniyat erishgan ko‘plab taraqqiyot natijalari barbod bo‘lib, taraqqiyot dinamikalarining ortga ketishi sodir

bo‘lganligidan xulosa va saboq chiqaradi, tahlil qiladi. Glaballashuv zamonida tinchlikparvar kuchlarni qo‘llab quvvatlash, insoniyatga daxildor masalalarni urushlarsiz murosa va diplomatiya bilan hal qilish yuksak intellektual salohiyatli insonlarga xos xususiyat ekanligini anglaydilar va yer sayyorasida tinchlikni, barqarorlikni ta’minlash uchun jamiyat a’zolarida insonparvarlik, bag‘rikenglik, hamjihatlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni qaror toptirish muhim ekanligini tushunadilar.

Аннотация. В статье рассматриваются исследования, проведенные в годы независимости Узбекистана на тему «Вклад узбекского народа в победу во Второй мировой войне». Особое внимание уделено исследованиям таких исследователей, как К.Т Тошов, Ф.Дж. Джуманиезова, Р.Р. Каюмова, З.С. Сафарова, М.М. Абдурахманова, Р.М. Акбаров. На основе различных уникальных исторических источников, архивных документов и материалов научной прессы был проведён анализ включения научных инноваций, выявленных в их работах, в учебную литературу и учебники, а также новых направлений исследований молодых учёных.

Ключевые слова: Вторая мировая война, вечное мужество, периодическая печать, письма солдат, герой войны, гуманизм узбекского народа, эвакуация.

Abstract. The article examines the research conducted during the years of independence of Uzbekistan on the topic of «The Contribution of the Uzbek People to the Victory in World War II». Particular attention is paid to the research of such researchers as K. T. Toshov, F. J. Dzhumaniyezova, R. R. Kayumova, Z. S. Safarova, M. M. Abdurakhmanova, R. M. Akbarov. The issues of inclusion of scientific innovations identified in their work in educational literature and textbooks, as well as new directions of research of young researchers, based on unique historical sources of various nature, archival documents, materials of the scientific press are analyzed.

Key words: World War II, eternal courage, periodical press, soldiers’ letters, war hero, humanism of the Uzbek people, evacuation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.un.org/ru/observances/second-world-war-remembrance-days
2. https://www.historynet.com/the-international-conference-of-world-war-ii-is-going-virtual/ [Murojaat qilingan sana: 17.04.2025]
3. https://www.ushmm.org/research/publications/emerging-scholars-program [Murojaat qilingan sana:17.04.2025.]
4. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой отечественной войны. / Сборник материалов Международной научной конференции, посвящѐнной 75-летию Великой Победы. – Оренбург – Ташкент, 2019. – 280 с.; Иккинчи жаҳон уруши ва Ўзбекистон халқи: шахслар ва хотиралар. / Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Tamaddun, 2020. –108 б.
5. https://President.uz [Murojaat qilingan sana: 19.04.2025]
6. Фазылходжаев К. Детей принимал Узбекистан. – Ташкент: «Узбекистан», 1991. – 54 с.; Sirojov O. Buxoro fidoyilari (Ulug‘ Vatan urushi yillarida Buxoro). – Buxoro: «Buxoro», 1995. – 112 b; Голованов А.А., Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. Часть I. Родина священна для каждого, Самарканд, 2006. – 172 с.; Голованов А.А., Саидов И.М. Часть II. Самоотверженный труд во имя победы, Самарканд, 2006. – 140 с.; Хрестоматия по истории Узбекистана (1917-1991 годы). Ташкент: «Фан ва технология», 2014. – 354 с; Bodirov A. Samarqand Ikkinchi jahon urushi yillarida, Samarqand: Zarafshon, 2015. – 124 b.; Рахмонкулова З.Б., Чориев Ш.Ш. Управление по эвакуации населения при Совете по эвакуации // История. Память. Люди. – Алматы, 2017; Буриева Х.А. Социально-экономические сведения в архивных

материалах об эвакуированном в Ташкент еврейском населении в 1942 г. «История. Память. Люди». – Алматы, 2018; Bobojonova D.B. O'zbekiston xalqining g'alabaga qo'shgan hissasi xususida // Ikkinchi jahon urushi va O'zbekiston xalqi: tadqiqotlar. – Toshkent: Tamaddun, 2020; Тухтаева М.С. Творческая жизнь художественной интеллигенции Ленинграда и Москвы в эвакуации Узбекистане (1941-1943 гг.) // «История. Память. Люди». – Алматы, 2020; Тухтаева М.С. Художники Узбекистана: время и судьбы. 20-40-е годы XX века. – Ташкент, 2021. – 244 с.

7. Саидова Г. Ш. Жизнь эвакуированных детей в Узбекистане в годы Второй мировой войны // Молодой ученый. – 2013; Хисамутдинова Р.Р. Вклад Узбекистана в великую победу над фашистской Германией // Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны. Вып. 12. – Оренбург: ООО ИПК Университет, 2019. – С. 8-19.

8. Эргашев Ш. Из истории эвакуации промышленных предприятий и их размещение в тыловых районах страны в годы Великой Отечественной войны. Историко-партийный аспект (по материалам республик Средней Азии): дисс. … к.и.н. – Москва, 1991. С. 128.; Эргашев Ш., Курбанова Ш. Перевод экономики Узбекистана на военные рельсы в годы Второй мировой войны // Актуальные вопросы новейшей истории Узбекистана. – Ташкент, 2020. № 1-2. – С. 25-40.

9. Шамуратова М. Творческое сотрудничество интеллигенции Узбекистана с эвакуированными в республику представителями науки и культуры (1941-1945 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1991. – 56 с.

10. Сафарова З.С. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти: Тарих фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 134 б.

11. Азимов Ҳ. Ўзбекистонликлар Иккинчи жаҳон уруши йилларида (1941–1945). – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – 180 б.; Азимов Х. Гуманизм узбекского народа в годы Второй мировой войны // Review of law science, 2022. – 201-206 p.; Азимов Ҳ. Буюк ғалаба йўлида Ўзбекистонликларнинг фронт ортидаги матонати // Юриспруденция ТДЮУ, № 2, 2022. – С. 166-173.

12. Бабаджанов Х. Процесс эвакуации промышленных предприятий из западных территорий бывшего Советского Союза в республики Средней Азии в годы Второй мировой войны // Приволжский научный вестник, № 3. 2014. – С. 39-43; Babadjanov X. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiyasi: jarayonlar va muammolar. – Toshkent: Aloqachi, 2017; Бабаджанов Х. Гуманитарное и экономическое сотрудничество между Узбекистаном и Россией в годы Второй мировой войны // Евразийский перекресток, № 10. 2018. – С. 97-104; Babadjanov X. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda oziq-ovqat siyosatining amalga oshirilishi. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 49 b.

13. Саипова К. История национальных меньшинств Узбекистана (1917-1990 гг.). – Ташкент: Турон Икбол, 2021. – 277 с.

14. Муртазаева Р. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 2010. – 152 с.; Муртазаева Р. Узбекистан – уникальный край межнационального согласия и толерантности // Конференция мақолалари тўплами. – Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2017.

15. Иноятова Д.М. Немецкая диаспора Узбекистана: вехи истории. – Ташкент: Турон Икбол, 2019; Иноятова Д.М. Помощь Узбекистана эвакуированным детям в годы войны (1941-1945 гг.) // «История. Память. Люди». – Алматы, 2017. – С. 269-275.

16. Мустафаева Н. Иккинчи жаҳон уруши ва ўзбек инсонсеварлиги // O'zbekiston tarixi jurnali. № 2. Toshkent. 2020. – B. 56-68; Мустафаева Н. Иккинчи жаҳон уруши йиллари Ўзбекистон замонавий тарихшунослигида // O'zbekiston tarixi jurnali. № 2. Toshkent. 2020. – B. 78-88.

17. Потемкина М.Н. Среднеазиатский период жизни в эвакуации столичных кинематографистов (1941-1944 г.) // Проблемы истории, филологии, культуры. – 2005. - № 15. – С. 130-132; Потемкина М.Н. Дорога в эвакуацию: опыт реконструкции железнодорожных

перевозок населения в условиях Великой Отечественной войны // Вестник Волгоградского государственного университета. – 2015. - № 4. – С. 107-117.

18. Беленко М.П. Эвакуация гражданского населения в среднеазиатские республики СССР в годы Великой Отечественной войны // Исторический курьер. – 2019. - № 4. – С. 47-61.

19. Ильина И.Н. Эвакуированная наука: академические учреждения в Узбекистане в годы великой отечественной войны (по документам архива РАН) // Эшелоны идут на Восток. Оренбург-Ташкент, 2019. – С. 31.

20. Постников С.В. Деятельность учреждений Академии наук СССР во время эвакуации в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны // «Идет война народная, Священная война». Оренбург. – 2011. – С. 8; Постников С.В., Маркушина С.В. «Принимая у себя наших гостей, мы испытывали противоположные чувства» (о деятельности ленинградских учреждений науки во время эвакуации в Узбекистан) // Культура и цивилизация. 2019. Том 9. № 1А. С. 8.

21. Громова Н.А. – Ноев ковчег писателей. Эвакуация 1941-1945. Чистополь. Елабуга. Ташкент. Алма-Ата. – «Corpus (АСТ)», 2019. – 397 с.

22. Мицкевич В.В. Культурное наследие Узбекистана в фондах Государственного литературномемориального музея Якуба Коласа // Иккинчи жаҳон уруши ва Ўзбекистон халқи: тадқиқотлар. – Тошкент: «Тамаддун», 2020. – С. 63-68.

23. Крыжевич. А. Ташкентские знакомства Якуба Коласа // Иккинчи жаҳон уруши ва Ўзбекистон халқи: тадқиқотлар. – Тошкент: «Тамаддун», 2020. – С. 68-74.

24. Rebecca Manley, To the Tashkent station. Evacuation and survival in the Soviet Union at war. Cornell University Press, Ithaca and London. 2009. P. 282.

25. Larry E. Holmes. Stalin's World War II evacuations: triumph and troubles in Kirov. – Lawrence: University Press of Kansas, 2017. P. 231; Larry E. Holmes. War, evacuation, and the exercise of power: The centre, periphery, and Kirov's Pedagogical Institute, 1941–1952. – Lanham etc.: Lexington Books, 2012. – XXXIV, 239 p.

26. William Moskoff. Soviet Higher Education Policy during World War II. Soviet Studies, Jul., 1986, Vol. 38, No. 3 (Jul., 1986). 11 p.

27. Vadim Dubson. Toward a Central Database of Evacuated Soviet Jews' Names, for the Study of the Holocaust in the Occupied Soviet Territories. Holocaust and Genocide Studies 26, no. 1 (Spring 2012): 95–119 p.

28. Boram Shin. Red Army Propaganda for Uzbek Soldiers and Localised Soviet Internationalism during World War II // The soviet and post-soviet review, № 42. 2015; Boram Shin. Fighting for the Soviet Empire War Propaganda Production and Localized Discourses on Soviet Patriotism in Uzbekistan during the Second World War. Stolte, Carolien, and Yoshiyuki Kikuchi (eds.), Eurasian Encounters: Museums, Missions, Modernities. Amsterdam: Amsterdam University Press, 2017. – 23 p.

29. Сафарова З. С. "Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти" тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Самарқанд – 2020. -53 b.

30. Abduraxmanova M. M. Sovet hokimiyatining o'zbekiston ssrga aholi va korxonalarni ko'chirish siyosati (1941-1944 yillar) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat IToshkent, 2024 – 52 b.

31. Toshov K. T. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbekistonning ijtimoiyiqtisodiy va madaniy olati (surxon vohasi misolida) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati -Termiz-2022– 48 b.

32. Jumaniyozova F. J. " Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati" Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Urganch 2024. – 53 b.

33. Kayumova R.R. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonliklarning g'alabaga qo'shgan hissasi (1941-1945-yillardagi front xatlari asosida). tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Andijon – 2024. 52 b.

34. Akbarov R.M. Ikkinchi jahon urushi yillarida matbuotda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarning yoritilishi (1941 – 1945-yillar, o‘zbek tilidagi gazetalar misolida) tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Andijon – 2025, –54 b.

35. Сафарова З.С. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Самарқанд – 2020. -Б.13.

36. Abduraxmanova M. M. Sovet hokimiyatining o‘zbekiston ssrga aholi va korxonalarni ko‘chirish siyosati (1941-1944 yillar) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat IToshkent, 2024 – 14 b.

37. Jumaniyozova F. J. “ Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati” Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Urganch 2024. – B.7.

38. Jumaniyozova F. J. “ Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati” Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Urganch 2024. – B.7.

39. Toshov K. T. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbekistonning ijtimoiyiqtisodiy va madaniy holati (Surxon vohasi misolida) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati -Termiz-2022– Б.11.

40. Toshov K. T. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbekistonning ijtimoiyiqtisodiy va madaniy holati (surxon vohasi misolida) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati -Termiz-2022– Б.18.

41. Kayumova R.R. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonliklarning g‘alabaga qo‘shgan hissasi (1941-1945-yillardagi front xatlari asosida). tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Andijon – 2024. -B. 14.

42. Саидов А.Х. Парк Победы: философия мужества и стойкости. – Ташкент: Tasvir, 2021. – С. 200.

43. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. – Тошкент: Akademnashr, 2017. 1-китоб. – Б.57. O‘z R FA idoraviy arxivi. 54-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild, 165-varaq.

44. Kayumova R.R. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonliklarning g‘alabaga qo‘shgan hissasi (1941-1945-yillardagi front xatlari asosida). tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Andijon – 2024. -B. 24.

45. “Тарихга битилган тақдирлар: курашлар, қисматлар ва ҳақиқатлар” китоб-албом // Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети, 2025. 345 б.

46. Рустамбаев М.Х., Рахмонов Ф.Е муаллифлигида “Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 80-йиллиги арафасида” монография Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети, 2025. – 611 б.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Ermetov Avaz,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy universiteti
professori, tarix fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikni oldini olish va fosh etish, bu borada jamiyatda yuzaga kelgan murakkabliklar bilan bog‘liq jarayonlar hamda militsiya xodimlarining jang maydonlarida ko‘rsatgan jasoratlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sovet davlati, urush, jamiyat, siyosat, jinoyat, KPSS Markaziy Komiteti, plenum, mafkura, militsiya, tartib-intizom, sotsialistik qonunchilik.

Dunyo tarixida ko‘plab harbiy to‘qnashuvlar, kurashlar bo‘lib o‘tgan bo‘lsa-da, XX asr fojiasi, Ikkinchi jahon urushi insoniyat uchun misli ko‘rilmagan salbiy jarayonlar bilan kechdi, hatto uning ayanchli oqibatlari bugungi kungacha ham yetib kelgan. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Olovli urush yillarida butun O‘zbekiston xalqi “Hamma narsa – front uchun”, **“Hamma narsa – G‘alaba uchun!”** degan hayotiy e’tiqod bilan yashadi. Mamlakatimiz front ortidagi mustahkam ta’minot bazasiga aylandi [1] – deya ta’kidlagan.

Fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqi hududiga bostirib kirgandan so‘ng, 1941-yil 30 iyunda I.V.Stalin boshchiligida Davlat Mudofaa Qo‘mitasi tashkil topdi. Davlat Mudofaa Qo‘mitasi qo‘lida davlat, harbiy va partiyaviy hokimiyat to‘plangan edi [2].

Urush sharoitidan kelib chiqqan holda, davlat tashkilotlarining strukturasi, ularga yuklatilgan vazifa va vakolatlarda bir qator o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, 1941-yil 20-iyulda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining SSSR Davlat xavfsizligi xalq komissarligi va SSSR Ichki ishlar xalq komissarliklarini bitta IIXKga birlashtirish to‘g‘risidagi farmoni e’lon qilindi [3] (shu o‘rinda ta’kidlash joizki, 1941-yil 3-fevralda SSSR IIXK va uning joylardagi bo‘limlari ikki komissarlik, ya’ni IIXK va DXXKlariga bo‘lingan edi [4].

Ma’lumotlarda keltirilishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza tushgan[5]. Ariza berganlarning ko‘pchiligi urush boshlangan dastlabki kundanoq ko‘ngillilar safida frontga jo‘nab ketgan bo‘lib, ular orasida militsiya xodimlari ham bor edi. Xususan, urush boshlangan ilk oylarda ichki ishlar idoralaridan ittifoq miqyosida shaxsiy tarkibning o‘rtacha 25 % xodimi janglarga ketgan bo‘lsa[6], O‘zbekiston SSR IIKXning buyrug‘i asosida respublika bo‘yicha rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan 57 nafari tezkor ravishda Qizil Armiya saflariga yuborildi[7]. Ulardan tashqari Toshkent militsiya maktabi tinglovchilarining 50%, Samarqand militsiya organlari xodimlaridan 149 kishi, Toshkent Temir yo‘li militsiyasi bo‘limining 204 nafar eng yaxshi xodimlari o‘zbek milliy divizitsiyasi safida jangga kirdilar[8].

Urush yillarida ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalar hajmi doimiy ravishda yanada ortib borib, O‘zbekiston militsiyasiga ham yangi maxsus qo‘shimcha topshiriqlar berildi. Jumladan, xalq xo‘jaligi obyektlarini qo‘riqlash, mehnat fronti va mehnat faoliyati safarbarligidan bosh tortish holatlariga qarshi kurashish, turli hududlardan evakuatsiya qilingan insonlarni nazorat qilish (ular tomonidan tarqatilishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri axborotlarning yoyilishining oldini olish) [9], harbiy yuklarni talon-taroj qilishning oldini olish, oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari hamda oziq-ovqat kartochkalari oldi-sotdisini nazorat qilish, bolalarning qarovsizligi va nazoratsizligiga qarshi kurash olib borish [10], yaqinlari bilan aloqa uzilgan insonlarga ularni topishda amaliy yordam ko‘rsatish va boshqalar.

Urush sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar oqibatida ijtimoiy muammolar keskinlashib, aholining bir qator mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoji oshib ketdi. 1941-yil 18-iyulda SSSR XKS tomonidan ayrim oziq-ovqat va aholi uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlarini muayyan normada kartochka orqali tarqatish (sotish) haqidagi qarori qabul qilingandan so‘ng,

aholi orasida noqonuniy savdo munosabatlarining kuchayishi, oziq-ovqat va kartochkalarni olib kelish hamda bosmaxonada bosish vaqtida ularni o‘g‘irlash holatlari kuzatildi [11]. Ma’lumotlarda keltirilishicha, 1941-yil iyuldan to 1944-yil aprelgacha Ittifoq miqyosida noqonuniy savdo munosabatlariga oid 563640 ta jinoiy ish qo‘zg‘atilib, 798447 nafar shaxs ayblangan. Umuman urush yillarida chayqovchilar qo‘lidan umumiy hisobda qiymati 410 708 300 rublga teng qimmatbaho buyumlar tortib olingan [12].

Kartochka tizimi joriy etilgandan so‘ng jinoyatchilikning yangi turlari rivojlana boshladi. Uni bartaraf etish maqsadida, 1942-yil 20-martda “Aholidan oziq-ovqat mahsulotlarini o‘g‘irlash va shu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish to‘g‘risida” SSSR IIXK Militsiya bosh boshqarmasining buyrug‘i chiqarildi [13]. Unga asosan umumiy foydalanish joylari va transportlarda, magazin va bozorlarda oziq-ovqat va sanoat kartochkalarini o‘g‘irlash va taqsimlashdagi suiiste’molliklar hamda qalbaki kartochkalar tayyorlashga qarshi kurash borasida amaliy choralar ko‘rildi. Masalan, Tojikiston militsiya organlari bilan birgalikda, oziq-ovqat kartochkalarini bosma usulda tayyorlash bilan shug‘ullangan bir guruh jinoyatchilar fosh qilindi. Jinoyatchilardan ko‘p miqdordagi soxta talonlar va pul tortib olindi. Tergov va surishtiruv ishlari davomida Dushanbe va Toshkent shaharlaridan bosma stanoklar topildi. Shuningdek, bu jinoyatchilar guruhi tomonidan qisqa vaqt ichida 500 tonnadan ortiq non o‘g‘irlanganligi ma’lum bo‘ldi [14]. Bunday jinoyatlar orasida O‘zbekiston hududida sodir etilgan yirik jinoyatlardan biri Toshkent shahar militsiya xodimlari tomonidan 1944-yil 29-dekabrda fosh etildi. Jinoyat qidiruv bo‘limi inspektorlarining tezkor tadbirlari natijasida 400 tonna non mahsulotlarini olishga mo‘ljallangan qalbaki kartochkalarni ishlab chiqargan va ulardan foydalangan jinoiy guruh ushlandi. Tergov ishlari jarayonida o‘tkazilgan tintuvlar natijasida ulardan 12 million rubl naqd pul, 2100 ta oltin tanga va boshqa qimmatbaho buyumlar tortib olindi. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar isbotlanib, jinoiy guruhning barcha a’zolari oliy jazoga hukm qilindi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, fashistlarga qarshi bo‘lgan janglarda Ittifoq miqyosida ichki ishlar idoralari xodimlari yuksak qahramonlik va jasurlik timsolini namoyon etgan bo‘lsa [15], o‘zbekistonlik militsiya xodimlari ham janglardagi qahramonliklari uchun turli xildagi davlat ordenlari va medallari bilan taqdirlandi.

Ana shunday vatanparvar respublika ichki ishlar idoralari xodimlaridan Mo‘ydin Xasanov, G‘ani Valiyev, Tojiboy Rajapov, Olimboy Omonboyev, Ummat Ubaydullayev, Nina Krasikova, G‘ani Usmonov, Rahmon Abdullayev, Nabijon Akbarov, G‘ofur To‘raqulov, Musurmonqul To‘rayev, Egamberdi Xo‘janov, Juma Xolliyev, Ro‘zi Shaxayev, Roman Yakimov, Xamid Ahmedov, Tojiboy Rejapov, Mamatqul Surayev, Saidahmad Isayev, Akmal G‘oziyev, Kimsan Qambarov, Vladimir Bistrevskiy, Yevgeniy Shanin, Karimjon Najiyev, Xidir Davirov va boshqalarning nomini keltirish mumkin.

Respublika ichki ishlar idoralarida turli rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan (Ichki ishlar vazirining birinchi muovini lavozimida) G‘.Rahimov urush qatnashchilari haqida: “Urush ishtirokchilari, urush qahramonlari bo‘lgan kishilar militsiyaning ham qahramonlari edilar. Ular xuddi urushdagi kabi o‘z jonlarini ayamasdan jinoyatchilikka qarshi kurash olib bordilar. Ularning ichki ishlar idoralaridagi keyingi faoliyatida ham doimiy ravishda o‘z xizmatiga sodiqlik, jonbozlik, qat’iyatlilik, matonatlilik, fidoyilik xislatlari namoyon bo‘ldi” [16] - deya ta’kidlagan edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida bo‘lgani singari, ichki ishlar idoralari faoliyatida ham o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ichki ishlar xodimlarining bir qismi front ortidagi katta hajmdagi vazifalarni bajargan bo‘lsa, ko‘plab militsiya xodimlari bevosita fashistlarga qarshi bo‘lgan janglarda faol ishtirok etishdi. Fashistlarga qarshi olib borilgan janglarda qahramonlik ko‘rsatgan bir qator militsiya xodimlarining faoliyati yuksak baholanib, ular turli darajadagi orden va medallar bilan taqdirlandi.

Аннотация. В данной статье проанализирована деятельность органов внутренних дел Узбекистана в годы Второй мировой войны по обеспечению общественной безопасности, предупреждению и раскрытию преступлений, а также рассмотрены процессы, связанные с возникшими в обществе сложностями в этой сфере. Особое внимание уделено подвигам сотрудников милиции, проявленным ими на полях сражений.

Ключевые слова: советское государство, война, общество, политика, преступление, Центральный Комитет (КПСС), пленум, идеология, милиция, дисциплина, социалистическое законодательство.

Abstract. This article analyzes the activities of Uzbekistan's internal affairs bodies during the Second World War in the field of ensuring public security, preventing and solving crimes. It also examines the processes related to the social challenges that arose in this context. Special attention is given to the acts of bravery demonstrated by militia officers on the battlefields.

Key words: Soviet state, perestroika, society, politics, crime, Central Committee of the CPSU, plenum, ideology, militia, discipline, socialist legislation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 9 майдаги "Буюк Ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш куни"га бағишланган тантанали маросимдаги нутқидан. //https://uza.uz.
2. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т. 7 (1938-1945 гг.). – Москва: Политиздат, 1985. - С.224.
3. Харченко О.В. Государственное управление в сфере полицейской деятельности в России: советский и постсоветские периоды. // История государства и права. 2008, № 10. - С.31.
4. Лубянка: Органы ВЧК-ОГПУ-НКВД-НКГБ-МГБ-МВД-КГБ. 1917-1991. Справочник. Под. ред. акад. А.Н.Яковлева: авторы - сост.: А.И. Кокурин, Н.В.Петров. - Москва: МФД, 2003. - С.72.
5. Ўзбекистон тарихи. Р.Ҳ.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. -Тошкент: "ЎАЖБНТ" Маркази, 2003. -Б.475.
6. Емелин С.М. Организационно-правовые основы работы по укреплению дисциплины среди личного состава внутренних дел в годы Великой Отечественной войны (1941-1945). // История государства и права. 2015, № 9. - С.16.
7. Ўзбекистон Республоикаси Ички Ишлар Вазирлиги музейи экспозициясидан (экспозицияда ҳар бир ходимнинг иш фаолияти ҳақида қисқача маълумотлар ҳам келтирилган).
8. Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.54.
9. Война и общество 1941-1945. Книга 2. Отв. редактор академик Г.Н. Севостьянов. - Москва: Наука, 2004. -С. 365.
10. Гусак В.А. К вопросу о классификации функций советской милиции в военный период (1941-1945гг.) . // История государства и права. 2010, № 24. - С.3.
11. Жалилов Т., Холиқов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - Б.24.
12. Емелин С.М. Борьба со спекуляцией как одно из основных направлений деятельности органов внутренних дел в годы Великой Отечественной Войны. // История государства и права. 2010, № 9. - С.30.
13. Шатилов С.П. Борьба милиции с преступлениями, связанными со злоупотреблениями продовольственными и промышленными карточками, в годы Великой Отечественной войны. // История государства и права. 2008, № 7. - С.31.
14. Жалилов Т., Холиқов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - Б.24.
15. Почет и признательность (встреча Н.А.Щелокова с ветеранами войны). // Советская милиция, № 7, 1979. - С. 7.
16. Бир неча йиллар (умумий 42 йил) давомида ички ишлар тизимида турли раҳбар лавозимларида (1985-1993 йилларда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири ўринбосари, Вазирнинг биринчи ўринбосари лавозимларида) ишлаган Ғ.Раҳимов билан 2009 йил 24 апрель куни бўлган суҳбатдан. Тадқиқотчининг архивида суҳбат матни сақланади.

FASHIZMGA QARSHI KURASHDA QO‘LLANILGAN MAFKURAVIY YONDASHUVLAR

Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Bokiyev Ma’ruf Gafurovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Bakalavriat fakulteti kursantlar batalon komandiri o‘rinbosari

Annotatsiya. Tarixiy misollar shuni ko‘rsatadiki, jangovar plakatlar harbiy xizmatchilarni ma’naviy-ruhiy jihatdan tayyorlashda, ularning g‘ayrati, ma’naviyati va jangovar tayyorgarligiga kuchli ta’sir ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning natijalari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: mafkura, vizual chorlov vositalari, jangovor plakat, idrok, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik.

Tadqiqot metodologiyasi. Ikkinchi jahon urushi nafaqat qurolli janglar, balki mafkuraviy kurash maydonida ham kechgan. G‘alabaga erishishdagi muhim omillardan biri - bu g‘oyaviy birlik va xalqning yuksak ma’naviy tayyorgarligi hisoblanadi. Shu jihatdan qaralganda, fashizmga qarshi mafkuraviy yondashuvlar nafaqat frontdagi, balki front ortidagi g‘alabaning ham asosiy elementlaridan biri bo‘lgan.

Fashizmga qarshi mafkuraviy kurashning asosiy vazifasi dushmanning zo‘ravonlik va irqiy ustunlik g‘oyalarini fosh etish, xalq ongida tenglik, adolat va erkinlik g‘oyalarini mustahkamlashdan iborat edi. Sobiq Sovet Ittifoqi tarkibidagi xalqlar, jumladan o‘zbek xalqi ham ushbu g‘oyaviy kurashda faol ishtirok etdi. Davlat mafkurasidagi asosiy shiorlar - “Vatan uchun!”, “Fashizmga o‘lim!” kabi ifodalar xalqni ruhiy jihatdan safarbar etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.

Bu mafkuraviy yondashuvlar targ‘ibot vositalari orqali omma ongiga faol singdirildi. Gazetalar, radiolar, jangovor plakatlar va ommaviy-ma’rifiy tadbirlar xalqni ruhlantirishda va g‘alabaga ishontirishda muhim rol o‘ynadi.

Sobiq Sovet Ittifoqi urushning dastlabki yillaridanoq mafkuraviy targ‘ibotning turli shakllariga kuchli e’tibor qaratdi. Mazkur shakllari orasida ayniqsa jangovor plakatlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. Darhaqiqat, jangovor plakatlar tufayli mafkuraviy targ‘ibot jarayoniga kuchli dramatik ruh, hatto fojiali ovozlar kirib keldi (1 va 2-rasmlar). Masalan, Irakliy Toidze tomonidan yaratilgan “Ona-Vatan chaqirmoqda!” jangovor plakatidagi tasvir ma’nosida Vatan bilan onaning umumiy qiyofasi shakllantirilgan bo‘lib, unda Ona Vatan o‘z o‘g‘illarini dramatik va fojiali ovozda yordamga chaqirayotgani gavdalantirildi (3-rasm).

Ta’kidlash kerakki, mazkur palakat juda xalqona va ta’sirchanligi bilan o‘z davrida juda katta shuhrat qozondi, minglab tirajlarda chop etildi va g‘alabaga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi. Plakatning xalqchil va ta’sirchan chiqishi uning yaratilish tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, uning yaratilishi fashist qo‘shinlarining sobiq Sovet Ittifoqiga hujumining ilk kunlariga to‘g‘ri kelgan. Ya’ni, 1941-yil 22-iyun kuni ertalab Sovet Axborot byurosi urush boshlanganini e’lon qilganidan so‘ng, rassom Irakliy Toidzening hayajonlangan rafiqasi uning ustaxonasiga yuguradi va kira solib, barcha: nafrat, qo‘rquv va boshqa hislar aralashgan holda, bir so‘z aytadi: “Urush!”.

Ayolining yuzidagi dahshat, nafrat, qo‘rquv va qat’iyatni ko‘rgan rassom mazkur vaziyatdan urush girdobida qolgan Ona-Vatan timsolini yaratishga ilhom oladi.

O‘z vaqtida to‘g‘ri tanlangan mafkuraviy vosita sifatida jangovor plakatlar urushning ilk kunlaridagi juda ham murakkab vaziyatlarga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi: harbiy xizmatga chaqiriluvchilar uchun mazkur jangovor plakatlar qo‘shimcha rag‘batga aylandi va imkon qadar tezroq frontga jo‘nash uchun ko‘ngillilar sifatida ro‘yxatdan o‘tishga harakat qilishdi.

Ma’lumki, mafkura o‘zining samarali ta’sirini namoyon qilish uchun aniq tuzilma va



1-rasm.
1941-yilda rassomlar Kupriyanov, Krilov, Sokolovlar tomonidan yaratilgan «Dushmanni shafqatsizlarcha yo‘q qilamiz!» nomli jangovor plakat



2-rasm.
1942-yilda rassom. Koreskiy tomonidan yaratilgan «Qizil Armiya jangchisi, qutqar!» nomli jangovor plakat



3-rasm.
1941-yilda rassom Irakliy Toidze tomonidan yaratilgan «Ona-Vatan chaqirmoqda!» nomli jangovor plakat

tarkibiy qismlarga ega bo‘lishi lozim. To‘la qonli mafkura nafaqat g‘oyalar majmui, balki ularni amalga oshiruvchi subyektlar va ta’sir vositalariga ham ega bo‘ladi. Ikkinchi jahon urushi davrida bu tuzilma juda samarali ishladi. Mafkuraning nazariy asosini tashkil etuvchi g‘oyalar, shuningdek, ideal (pozitiv) va noideal (negativ) obrazlarni ifodalovchi mafkuraviy kategoriyalar jamoatchilikning ongida qat’iy ruhiy tayanchni yarata oldi.

Tahlil va natijalar. Urush vaziyatida bo‘lsa ham Sovet Ittifoqidagi mafkuraviy muassasalar – maktab, armiya, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari, teatr va kino tarmoqlari – g‘alabaga olib boruvchi g‘oyalarni jamiyat hayotida keng tarqalishini ta’minladi. Maxsus tayyorlangan ideologlar: o‘qituvchilar, jurnalistlar, shoir va yozuvchilar faoliyati orqali g‘oyalar keng xalq ommasi ongiga singdirildi. Jumladan, adabiyot va san’at vositalari - she’rlar, romanlar, dramalar orqali - jamiyatda fidokorlik va jasorat tuyg‘usi shakllantirildi. Masalan, G‘ofur G‘ulomning “Shum bola”, Zulfiyaning “Onalarga maktub”, Oybekning “Navoiy” kabi asarlari yurtni sevish, uni himoya qilish g‘oyalarini keng targ‘ib qildi [1].

Mafkuraviy targ‘ibotning muvaffaqiyati faqat davlat targ‘iboti bilan emas, balki urush vaziyatidagi hayot tarzi orqali ham amalga oshdi. Fashistik mafkuraning asosi bo‘lgan irqiy nafrat va milliy zo‘ravonlik g‘oyalariga qarshi insonparvarlik, tenglik va adolat tamoyillarini qarshi qo‘yish orqali sobiq Sovet Ittifoqi nafaqat front poligonlarda, balki mafkuraviy poligonlarda ham g‘alaba qozonishiga erishdi.

Urush davrida sobiq Sovet mafkurasining bosh g‘oyasi - “Vatanni himoya qilish” va “Barcha millatlar birgalikda” shiorlari jamoaviy ongda jipslik, sabr va qat’iyatni shakllantirdi. Shunday g‘oyalar asosida front ortidagi aholi, ayniqsa ayollar va bolalar mehnat frontida tinmay harakat qildilar. Masalan, 1943-yilda O‘zbekistonda 1,2 milliondan ortiq ayol mehnat frontiga jalb etilgani ham ushbu fikrning yaqqol tasdig‘i hisoblanadi [1].

Bundan tashqari, O‘zbekistondagi evakuatsiya jarayonlari ham muhim mafkuraviy va insonparvarlik voqeligi sifatida alohida o‘rin tutadi. 1941–1942 yillarda respublika hududiga 100 dan ortiq sanoat korxonalari, 250 ming bola va 1 millionga yaqin muhojir qabul qilingan [4]. Ularning joylashtirilishi, ta’minot va ta’lim masalalari butun jamoatchilikning birlashgan mehnati va mafkuraviy yakdilligi natijasida amalga oshirilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ikkinchi jahon urushidagi fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada mafkuraviy

kurash hal qiluvchi omillardan biri bo‘lgan. G‘oyaning kuchi - xalqni birlashtirish, ruhiy jihatdan mustahkamlash va g‘alabaga ishontirishda muhim vazifani bajargan.

Tarixiy tajribalardan kelib chiqib anglashimiz lozimki, mafkura - bu faqat so‘z emas, balki xalq qalbida shakllanadigan e’tiqod hisoblanadi. Ana shu e’tiqod frontdagi jangchiga qurol bo‘lsa, front ortidagilarga sabr va ilhom manbai rolini o‘taydi. Har qanday mafkuraviy g‘alaba - uzoq muddatli, nazariy asoslangan, amaliy va empatik ta’sirga ega bo‘lgan strategiyani talab qiladi. Bugungi tinchlik va barqarorlikni saqlashda ana shunday tarixiy mafkuraviy meroslardan saboq olish hamda ularni ilmiy va ma’rifiy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyatga egadir.

Urushga chorlovchi vositalarning nisbatan zamonaviy turibu **jangovar plakatlar** hisoblanadi. Jangovar plakatlar harbiy xizmatchilarni ma’naviy-ruhiy jihatdan tayyorlashda muhim rol o‘ynagan va o‘ynamoqda, chunki ular jangovar tayyorgarlikning hissiy-psixologik tarkibiy qismiga ta’sir qiluvchi kuchli vizual vositalardir.

Jangovar plakatlar o‘z shakl va mazmuniga ko‘ra:

birinchidan, ma’naviyatni yuksaltirish, ya’ni qahramonlik sahnalari va motivatsion iqtiboslar tasvirlangan jangovar mazmuni orqali harbiy xizmatchilarning ma’naviyati va jangovar missiyalarga tayyorgarligini oshirish vazifasini bajaradi;

Ikkinchidan, u harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi. YA’ni, jangovar plakatlar orqali psixologik yordam jangovar muhitda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘rquv, stress va depressiyani yengishga yordam beradi;

Uchinchidan, jangovar plakatlar targ‘ibot va tashviqot vazifasini bajaradi. Bu jarayonda ular harbiy xizmatchilarga harbiy-siyosiy va mafkuraviy qadriyat va e’tiqodlarni anglatadi, ularni barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi va ushbu qadriyatlar uchun kurashishga undash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. Исторические примеры показывают, что боевые плакаты были и остаются важными в морально-психологической подготовке военнослужащих, оказывая сильное влияние на их энтузиазм, моральный дух и боевую готовность. В данной статье будут изложены результаты научных исследований, проведенных в этом направлении.

Ключевые слова: идеология, средства наглядного вызова, боевой плакат, восприятие, морально-психологическая подготовка.

Annotation. Historical examples show that combat posters have been and remain important in the spiritual-mental training of military personnel, strongly influencing their enthusiasm, morale, and combat readiness. This article describes the results of scientific research carried out in this direction.

Key words: ideology, means of visual exclamation, combat poster, perception, moral-spiritual preparation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov Sh., Mamarasulov I. “O‘zbekiston – front ortida” // Tarixiy meros. – 2015. – №3. – B. 28–34.
2. Ganiev A. “Sovet mafkurasi va Ikkinchi jahon urushidagi g‘alaba” // Mafkura va madaniyat. – 2021. – №2. – B. 45–52.
3. Faramonova N. “Targ‘ibot vositalarining urush davridagi ahamiyati” // O‘zbekiston tarixi. – 2018. – №4. – B. 56–61.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Arxivi. Ikkinchi jahon urushi materiallari. – Toshkent, 2020. – 175 b.
5. Mamatkulov D.M. Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi // Monografiya – Toshkent: “Lesson press” nashriyoti, 2023 – 224 b.

O‘ZBEKISTONDA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH: IKKINCHI JAHON URUSHIDAN MUSTAQILLIKKA QADAR

Selimanova Svetlana Mixaylovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor

Axmedov Sherzodbek Oribjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimining rivojlanish tarixi, Ikkinchi jahon urushi davridan mustaqillik davrigacha bo‘lgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari yo‘l harakati xavfsizligi masalasining urush davrida, urushdan keyingi tiklanish yillarida, sovet davrining o‘rta va so‘nggi bosqichlarida hamda mustaqillikning dastlabki yillarida rivojlanish xususiyatlarini yoritadi. Shuningdek, O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligi tizimining tarixiy shakllanish bosqichlari, institutsional tuzilmalar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning takomillashuvi hamda zamonaviy talablar asosida rivojlanish tendensiyalari haqida bazi fikr mulohazalar keltirilgan.**

Kalit so‘zlar: yo‘l harakati xavfsizligi, transport tizimi, Ikkinchi jahon urushi, yo‘l-transport hodisalari, Davlat avtomobil nazorati, yo‘l infratuzilmasi, xalqaro hamkorlik.

Yo‘l harakati xavfsizligi masalasi hozirgi kunda jahon miqyosida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 1.35 million kishi yo‘l transport hodisalari tufayli halok bo‘ladi. Bu muammo tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ayniqsa urush va inqiroz davrlarida transport tizimlarining rivojlanishi va yo‘l harakati xavfsizligi o‘rtasidagi munosabatlar yanada murakkablashadi[1].

O‘zbekistonning yo‘l harakati xavfsizligi tizimi shakllanishi va rivojlanishida mintaqaning geosiyosiy o‘rni, sovet davri siyosati, urush yillari va keyingi mustaqillik davri o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Bu jarayonlarni chuqur o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston Sovet Ittifoqining muhim strategik hududiga aylandi. Frontdan evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari, aholi va harbiy obyektlarning ko‘chirilishi natijasida mintaqaning transport tizimiga bosim keskin oshdi[2]. Urush boshlanishidan avval O‘zbekiston hududida asosan temir yo‘l transporti rivojlangan bo‘lib, avtomobil yo‘llari tarmog‘i nisbatan kam rivojlangan edi. 1941 yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston SSR hududida atigi 11,300 km uzunlikdagi avtomobil yo‘llari mavjud bo‘lib, shundan faqat 10% qismi qattiq qoplamali yo‘llar hisoblangan[3].

Urush davrida harbiy va fuqarolik ehtiyojlari uchun transport logistikasini ta’minlash maqsadida 1941-1943 yillar davomida qo‘shimcha 3,500 km yo‘l qurildi, ammo bu yo‘llarning aksariyati vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lib, asosiy e’tibor strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarni ta’minlashga qaratilgan[4]. Toshkent-Termiz, Toshkent-Qo‘qon, Samarqand-Qarshi yo‘llarida harbiy-strategik yuklar tashish hajmi 3-4 barobarga oshganligi qayd etilgan. Urush yillarida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tamoyillari ham harbiy ehtiyojlarga bo‘ysundirildi. Yo‘llardagi harakatni nazorat qilish vazifasini Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) zimmasiga yuklandi. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maxsus yo‘riqnomalar ishlab chiqilib, ularda asosiy e’tibor harbiy texnika va yuk tashuvchi transportning xavfsiz harakatlanishini ta’minlashga qaratildi. Shu bilan birga, urush davrida yoqilg‘i tanqisligi va ehtiyot qismlar yetishmasligi muammosi O‘zbekiston transport tizimida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Yoqilg‘i tejash maqsadida gaz generatorli dvigatellar bilan jihozlangan avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. 1943-yilga kelib,

O‘zbekistondagi mavjud yuk avtomobillarining 35% qismi shunday dvigatellar bilan jihozlangan edi[5].

NKVD ma’lumotlariga ko‘ra, 1943 yilda O‘zbekistonda sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarining 47% haydovchilarning yo‘l harakati qoidalarini buzishi, 28% transport vositalarining nosoz holati, 18% yo‘l infrastrukturasining yomon sifati, 7% boshqa omillar tufayli sodir bo‘lgan[6]. Ayniqsa Toshkent, Samarqand va Farg‘ona vodiysi yo‘llarida hodisalar soni yuqori bo‘lgan.

Urush davrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalasi asosan harbiy maqsadlarda transport harakatini samarali tashkil etishga qaratilgan edi. Bu davrda yo‘l harakati nazorati harbiy komendaturalar tomonidan amalga oshirildi, harbiy yuklar va evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari yuki bilan harakatlanayotgan transportga mutlaq ustuvorlik berildi[7], tungi vaqtda harakatlanish cheklandi, yo‘l belgilari va ko‘rsatkichlar tizimi harbiy sharoitga moslashtirildi.

1943-yil oxiriga kelib, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tarkibida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maxsus bo‘linma tashkil etildi[8]. Uning asosiy vazifasi frontdan uzoq bo‘lgan hududlarda transport harakati xavfsizligini ta’minlash edi. Shu bilan birga, urush davri sharoitida yo‘l harakati xavfsizligiga oid mahalliy xususiyatlar ham kuzatildi. Masalan, O‘zbekistonda otliq aravalar, velosipedlar va boshqa an’anaviy transport vositalari foydalanishi keng tarqalganligi sababli, ularga nisbatan maxsus nazorat choralari joriy etildi[9].

1943-yilning fevralida militsiya xodimlarining tashqi ko‘rinishida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. 1943-yil 9-fevralda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi farmoniga ko‘ra militsiya xodimlarining yangi pogonlariga farqlovchi belgilar kiritildi. Ularning kiritilishi bilan yangi maxsus unvonlar belgilandi.

Bu davrga kelib yo‘llarda harakatning uzluksizligi doimiy o‘sib borayotgani bois avtotransport ishini nazorat qilish uchun maxsus texnika vositalaridan foydalanish zarurati kuchaya bordi. 1950-yillar oxirida maxsus vositalarning birinchi namunalari paydo bo‘la boshladi. Ular o‘zlarining ishonchli va istiqbolli ekanligini isbotladi. Bu avtomobil harakati tezligini elektron o‘lchagichli va fotokamerali

“EYS-3” maxsus apparati edi. Yana biri sinovdan o‘tkazilayotgandi. Ovoz signallarining bekor qilinishi bilan kunduz payti oldinda harakatlanayotgan avtomashinani qanday quvib o‘tish masalasi paydo bo‘ldi. Buning uchun fara yorug‘i taraydigan yorug‘lik nuriga munosabat bildiradigan yarim o‘tkazmali ovozsiz signalizator yaratildi. Faralar yoqilishi bilan oldinda harakatlanayotgan avtomashina haydovchisi kabinasida signal chalinadi. Shuningdek, chorrahalarda harakatni a’lo darajada boshqaradigan betakror kibernetik svetofor “SKI-2” yaratildi. 1960-yil dekabrida respublika hukumati jamoatchi avtoinspektorlar haqidagi nizomni qabul qildi. Nizomda ularning huquq va majburiyatlari ko‘rsatib o‘tilgandi.

Ikkinchi jahon urushi tugagach, O‘zbekistonda xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirish jarayonlari transport infratuzilmasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. 1946-1950 yillarni o‘z ichiga olgan beshinchi besh yillik reja doirasida O‘zbekistonda yo‘l qurilishi va transport tizimini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Urushdan keyingi birinchi yillarda O‘zbekistonda yo‘l qurilishi asosan qo‘l mehnati va mahalliy materiallardan foydalangan holda amalga oshirildi. 1946 yilda O‘zbekiston SSR Yo‘l qurilishi boshqarmasi tashkil etilib, uning zimmasiga respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan yo‘llarni qayta tiklash va yangi yo‘llar qurish vazifasi yuklandi[10]. Bu davrda yo‘l qurilishida hashar usulidan keng foydalanildi. 1950-yilga kelib, O‘zbekiston hududida avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 23,000 km ga yetdi, shundan 4,500 km qismi qattiq qoplamali yo‘llar edi. Ayniqsa, Toshkent-Andijon, Toshkent-Termiz, Samarqand-Buxoro, Samarqand-Qarshi yo‘nalishlaridagi magistral yo‘llar qayta tiklandi va kengaytirildi. Bu davr mobaynida respublikada 230 dan ortiq ko‘prik qurildi[11].

1950-yillarning o‘rtalarida O‘zbekistonda avtomobillashtirish jarayoni jadallashdi. 1956-yilga kelib, respublikada ro‘yxatga olingan avtomobillar soni 45,000 dan oshdi, shundan 32,000 tasi yuk avtomobillari, 8,000 tasi avtobus va marshrutli taksilar, 5,000 tasi yengil avtomobillar edi[12]. 1956-1960 yillar davomida O‘zbekistonda qattiq qoplamali yo‘llar uzunligi ikki barobarga oshirildi va 9,000 km ga yetkazildi.

1960-1980 yillar O‘zbekistonda jadal avtomobillashtirish davri bo‘ldi. Bu davrda respublika iqtisodiyotining rivojlanishi, aholi turmush darajasining oshishi natijasida transport vositalari soni keskin ko‘paydi. 1960-yilda O‘zbekistonda ro‘yxatga olingan avtomobillar soni 78,000 ni tashkil etgan bo‘lsa, 1970-yilga

kelib 254,000 ga, 1980 yilga kelib esa 680,000 ga yetdi[14]. Ayniqsa yengil avtomobillar soni jadal sur’atlarda o‘sdi - 1960 yildagi 11,000 dan 1980 yilda 250,000 ga yetdi. Avtomobillashtirish jarayonlarining o‘ziga xos jihati shunda ediki, bu davrda avtobus va yuk tashish transporti bilan bir qatorda shaxsiy avtomobillar ham ko‘paya boshladi. 1970-yillarning boshlarida O‘zbekiston aholisi o‘rtasida VAZ (Jiguli), GAZ (Volga), Moskvich va boshqa markadagi avtomobillar ommaviy tarqaldi. 1974 yilda har 100 oilaga to‘g‘ri keladigan yengil avtomobillar soni 5.2 tani tashkil etdi, 1980 yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 11.8 taga yetdi.

Avtomobillashtirish jarayonlarining yo‘l harakati xavfsizligiga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi:

1. Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish ishlari jadallashtirildi. 1965-1975 yillar davomida O‘zbekistonda qattiq qoplamali yo‘llar uzunligi 9,000 km dan 22,000 km ga yetkazildi.

2. Shahar va aholi punktlarida yo‘l harakati tashkil etish tizimi takomillashtirildi. 1968-yilda Toshkent shahrida birinchi avtomatlashtirilgan yo‘l harakati boshqaruv tizimi joriy etildi. 1975-yilga kelib, respublikaning 12 yirik shahrida shunday tizimlar faoliyat ko‘rsata boshladi.

3. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha me’yoriy-huquqiy baza yangilandi. 1973-yilda SSSR bo‘yicha yagona “Yo‘l harakati qoidalari” qabul qilindi va O‘zbekiston hududida ham joriy etildi[15].

4. Haydovchilarni tayyorlash tizimi takomillashtirildi. 1970-yillarning o‘rtalarida O‘zbekistonda 35 ta professional haydovchilar tayyorlash maktabi va 120 dan ortiq haydovchilik kurslari faoliyat ko‘rsatardi.

1965-yilda O‘zbekiston SSR Avtomobil transporti vazirligi tashkil etildi va uning zimmasiga respublika yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish vazifasi yuklandi. 1971-yilda “O‘zavtoyol” birlashmasi tashkil etilib, yo‘l qurilishi va yo‘llarni saqlash ishlari bir qo‘lda markazlashtirildi. Bu esa o‘z navbatida yo‘l qurilishi sifatini yaxshilash, yo‘l infratuzilmasini yagona standartlar asosida rivojlantirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, yo‘l harakati tashkil etishning yangi shakllari ham joriy etila boshlandi. 1968 yilda Toshkent shahrida birinchi avtomatlashtirilgan yo‘l harakati boshqaruv tizimi (“Yashil to‘lqin”) joriy etildi. Bu tizim markazlashgan holda svetoforlar ishini muvofiqlashtirish, transport oqimini optimal tarzda taqsimlash imkonini berardi. Shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yo‘l belgilari va ko‘rsatkichlar tizimi takomillashtirildi. 1973 yilda SSSR bo‘yicha yagona yo‘l belgilari standarti (GOST 10807-71) joriy etildi. Bu standartga muvofiq, O‘zbekiston yo‘llarida yangi tipdagi belgilar o‘rnatildi, ularning soni va sifati oshirildi.

1968-yil iyulda respublika Oliy Kengashi Prezidiumi “Shahar, aholi punktlari ko‘chalari va yo‘llarida harakat qoidalarini va transport vositasidan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Unda piyodalar, yo‘lovchilar, velosipedchilar va boshqa yo‘llardan foydalanuvchilar, shaxslarning qoidabuzarligi uchun jarima ko‘zda tutilgandi. 1969-yili DAN tarkibida “yo‘l harakatini tashkillashtirish” xizmati tashkil etildi. Keyinchalik u “yo‘l nazorati” nomini oldi. Uning vazifalariga avtotransport harakati asosiy yo‘nalishlarida bahorgi va kuzgi mavsumiy tekshiruvlar o‘tkazish yuklandi. Maxsus komissiyalarning ish natijalari tegishli partiya va kengash idoralariga aniqlangan kamchiliklar va avtomobil yo‘llari holati buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarga jazo choralarini qo‘llash uchun taqdim etilardi. 1968-1969 yillarda Toshkent halqa yo‘lida 8 ta muntazam DAN po‘sti qurilib, uch smenali kecha-kunduz ishlaydigan inspektorlar tarkibi tuzildi. Respublika Vazirlar Kengashining “Respublikada yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha choralar haqida”gi qaroriga asosan 1972-yilning 1-martidan “Harakat xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazish belgilandi[16].

Oylik o‘tkazish dasturiga yangi istiqbolli tadbirlar kiritib borildi. Metall to‘siq va yo‘l belgilarini o‘rnatish zarurati tug‘ilgan chorrahalar, trotuarlar, ko‘chalar va maydonlar ro‘yxati tasdiqlandi. Bu qaror bilan shaharning texnik vosita bilan boshqariluvchi jihozlar o‘rnatish talab qilinadigan 46 ta chorrahasi aniqlandi. Shu yilning o‘zida hukumatning IIV tizimida maxsus o‘rnatish-foydalanish bo‘linmalarini (MO‘FB) tuzish haqidagi qarori qabul qilindi. Unga shahar va boshqa aholi yashash punktlarida yo‘l harakatini boshqaruvchi texnik vositalarni o‘rnatish va foydalanish ishlari yuklandi. Toshkentda shunday bo‘linmalarning birinchisi tashkil etildi. MO‘FB nizomini ishlab chiqqanlardan birinchi Toshkent shahar IIB DANB boshlig‘i Minxoji Saloxiddinov edi.

1972-yil dekabrda Komissiyaning navbatdagi yig‘ilishida Sog‘liqni saqlash vaziriga yirik avtoxo‘jaliklarda tibbiyot punktlarini tashkil etish, barcha qolgan vazirlik va

idoralarga: harakat xavfsizligi xizmatini tashkil etish, 50 va undan ortiq avtomobillari bo‘lgan avtoxo‘jaliklarda harakat xavfsizligi muhandisi lavozimini kiritish taklifi berildi. 1972-yilda DAN yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga doir barcha me’yorlarga amal qilish huquqiga ega bo‘ldi hamda avtotransport vositalari qurilmasi loyihalari SSSR IIV DAN bilan kelishilishi lozimligi ta’kidlandi. Bu vazifa O‘zbekiston IIV DANBga yuklatildi. 1972-yil yangiliklaridan biri-shaxsiy foydalanishda bo‘lgan avtomobili, mototsikl va motorollerlar uchun yangi texnik pasport namunasining kiritilishi bo‘ldi. U kulrang, sun’iy charm (lederin) muqovali, ichki varaqlari suv belgili maxsus qog‘ozdan tayyorlangan edi.

1973-yil 1-yanvarda yangi «yo‘l harakati qoidalari» va «yo‘l belgilari» davlat standarti amaliyotga kiritildi. Bu bo‘yicha televideniya, radio, OAV orqali tushuntirish ishlari olib borildi. 1973-yil yanvarda O‘zSSR Vazirlar Kengashi respublikada avtohavaskorlar ko‘ngilli jamiyatini tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Yangi jamoat tashkilotining asosiy vazifalaridan biri avtohavaskorlarni yuqori intizomlilik ruhida tarbiyalash, haydovchilik mahoratini oshirishga qaratilgandi. 1973-yil 8-avgustida SSSR Vazirlar Kengashining «Yo‘lovchilarni tashishda yo‘l-transport hodisalarining oldini olish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Unda yengil avtomobillarni YTH og‘ir oqibatlarining kamayishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi alomatlaridan biri bo‘lgan xavfsizlik kamarlari bilan majburiy jihozlash zaruriy deb topildi. SSSR IIV YHX Butunittifoq ITI olib borgan izlanishlar xavfsizlik kamarlarining qo‘llanishi yengil avtomobil haydovchilari va yo‘lovchilar o‘rtasida jarohatlanganlar sonini 2,4 baravar, halok bo‘lganlar sonini 3,7 baravar kamayishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatdi. Shu bois 1975-yil 1-aprelidan Qoidalarga haydovchi va yo‘lovchilarning xavfsizlik kamarlaridan majburiy foydalanishlari tartibi kiritildi

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng, davlat hayotining barcha sohalarida bo‘lgani kabi, yo‘l harakati xavfsizligi sohasida ham milliy qonunchilik bazasini yaratish jarayoni boshlandi. Bu jarayon avvalgi Sovet davridan qolgan me’yoriy-huquqiy bazani saqlagan holda, uni yangi sharoitlarga moslashtirish va zamonaviy talablarga javob beradigan yangi qonunchilik hujjatlari bilan to‘ldirishni o‘z ichiga oladi.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tish joizki, O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimi Ikkinchi jahon urushidan mustaqillikka qadar murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Urush davrida harbiy ehtiyojlarga xizmat qilgan tizim urushdan keyin institutsional asoslarni shakllantirdi, avtomobillashtirish davrida kengaydi, modernizatsiya qilindi va mustaqillik yillarida milliy standartlarga moslashtirildi. Tarixiy tajriba zamonaviy strategiyalar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash har bir davlatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu sohada samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish orqali jamiyat xavfsizligi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga erishiladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligiga doir tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarish tizimdagi javobgarlikni kuchaytirish va idoralararo hamkorlikni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Kelgusidagi islohotlar jarayonida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- haydovchilarni tayyorlashda zamonaviy simulatorlar, interaktiv testlar va video-tahlil asosidagi o‘quv metodikalarini joriy etish;
- yoshlar o‘rtasida yo‘l harakati madaniyatini oshirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini maktablar darajasida tashkil etish;
- yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi qonunchilikni BMTning “Yo‘l harakati xavfsizligiga oid o‘n yillik harakat dasturi” (2021–2030 y.) talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish;
- yo‘l infratuzilmasini “aqlli tizimlar” asosida qayta qurish va boshqaruvda raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Аннотация. В данной статье анализируется история развития системы обеспечения безопасности дорожного движения в Узбекистане, изменения со времен Второй мировой войны до периода независимости. Кроме того, освещаются особенности развития вопросов безопасности дорожного движения в военное время, в годы послевоенного восстановления, в средние и поздние периоды советского периода, а также в первые годы независимости. Также представлены некоторые мнения об этапах исторического формирования системы безопасности дорожного движения в Узбекистане, совершенствовании институциональных структур и нормативно-правовых документов, а также тенденциях развития на основе современных требований.

Ключевые слова: безопасность дорожного движения, транспортная система, Вторая мировая война, дорожно-транспортные происшествия, Государственный автомобильный надзор, дорожная инфраструктура, международное сотрудничество.

Abstract. This article analyzes the history of the development of the road safety system in Uzbekistan, changes from the Second World War to the period of independence. In addition, it illuminates the peculiarities of the development of road safety issues during the war, in the years of post-war reconstruction, in the middle and late stages of the Soviet period, and in the first years of independence. Also, some opinions are given about the stages of historical formation of the road safety system in Uzbekistan, the improvement of institutional structures and regulatory legal acts, as well as development trends based on modern requirements.

Key words: road safety, transport system, World War II, road accidents, State automobile inspection, road infrastructure, international cooperation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. (2018). Global status report on road safety 2018. Geneva: World Health Organization. p.7.
2. Потемкина М.Н. (2015). Эвакуация промышленных предприятий в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны. Вестник МГТУ им. Г.И. Носова, №2, с. 65-69.
3. Центральный государственный архив Республики Узбекистан (ЦГА РУз), ф. 2412, оп. 1, д. 38, л. 24.
4. Сарсембаев Г.А. (1985). Транспорт Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Ташкент: Фан. с. 78.
5. Хакимов Р.С. (1989). Промышленность и транспорт Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Ташкент: Узбекистан. с. 123.
6. Центральный государственный архив Республики Узбекистан (ЦГА РУз), фонд 2412, опись 1, дело 49, лист 45. «Статистические данные о дорожно-транспортных происшествиях в Узбекской ССР за 1943 год с анализом причин аварийности на дорогах республики». Документ содержит официальный отчет НКВД Узбекской ССР о состоянии безопасности дорожного движения в республике, причинах аварийности и принятых мерах по снижению числа происшествий
7. Сборник постановлений СНК СССР. (1942). Москва, №7, с. 123-125
8. Архив Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (АМВД РУз), ф. 3, оп. 1, д. 254, л. 23.
9. Сарсембаев Г.А. (1985). Транспорт Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Ташкент: Фан, с. 134.
10. Narodnoye khozyaystvo Uzbekskoy SSR za 30 let. (1954). Tashkent.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1980 году. (1981). Ташкент.
12. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1975 году. (1976). Ташкент.
13. Абдуллаев А.А. (1984). История автомобильного транспорта Узбекистана. Ташкент: Узбекистан.
14. Ведомости Верховного Совета Узбекской ССР. (1988). №8, 45–48.
15. Социально-экономическое развитие Узбекской ССР в 1990 году. (1991). Ташкент.
16. Архив Министерства транспорта Республики Узбекистан, ф. 1, оп. 2, д. 234, л. 45–47.
17. Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан. (1998). №5, 23–25.

IKKINCHI JAHON URUSHIDA KIMYOVIY QUROLLARNING QO‘LLANILISHI

Usmanova Xilola Ummataliyevna,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti professori

Nasirdinov Dilmurod Ergashaliyevich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ikkinchi Jahon urushi vaqtida insoniyat tarixidagi eng dahshatli zaharlovchi moddalar to‘g‘risida ma’lumotlar, xalqaro shartnomalar, qisman qo‘llanilgan zaharlovchi moddalar shuningdek amalga oshirilmagan kimyoviy hujumlar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Zaharlovchi moddalar, Zoman (GD), Zarin (GB), Tabun (GA), nerv gazlari, ikkinchi Jahon.

Ikkinchi Jahon urushi (1939–1945) insoniyat tarixidagi eng dahshatli va keng ko‘lamli mojarolardan biri bo‘lib, u qurolli to‘qnashuvlar, genotsid, yadroviy qurollar va turli harbiy texnologiyalar bilan esda qolgan. Shunga qaramay, bu urushda kimyoviy qurollarning to‘liq qo‘llanilishi kutilgan darajada amalga oshmagan. Bu holat Birinchi Jahon urushidagi dahshatli tajribalar, xalqaro shartnomalar va o‘zaro qo‘rqitish omillariga bog‘liq bo‘lgan.

Kimyoviy qurollar nima?

Kimyoviy qurollar — bu tirik organizmlarga zarar yetkazish maqsadida ishlatiladigan zaharli moddalar bo‘lib, ular asosan asab, qon, nafas yo‘llari yoki teri orqali inson organizmiga ta’sir qiladi. Eng mashhur turlari: xlor, iprit, fosgen, nerv gazlari (masalan, tabun va zarin).

Tadqiqot va ishlab chiqarish

Germaniya ikkinchi Jahon urushi oldidan va urush davomida kimyoviy qurollar borasida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borgan. Germaniya bu sohada boshqa davlatlardan ancha ilg‘or edi. Eng e’tiborga molik yutuqlar quyidagilar edi [1]:

Tabun (GA): 1936-yilda nemis kimyogari **Gerhard Schrader** tomonidan tasodifan kashf etilgan. Bu nerv tizimiga ta’sir qiluvchi birinchi zamonaviy kimyoviy qurol edi.

Zarin (GB): 1938-yilda ishlab chiqilgan. Tabunga qaraganda kuchliroq va tez ta’sir qiluvchi gaz hisoblanadi.

Zoman (GD): 1944-yilda yaratilgan. Bu ham kuchli nerv gazi bo‘lib, juda oz miqdori bilan ham o‘limga olib keladi.

Bu moddalar GFR (Germaniya fan va sanoat sektori) tomonidan **“Nerv gazlari”** deb nomlangan yangi avlod kimyoviy qurollari bo‘lib, o‘sha paytdagi boshqa mamlakatlarda hali mavjud emas edi.

Zaxiralash va tarqatish

Germaniya urush davomida millionlab kilogramm kimyoviy modda ishlab chiqargan. Asosiy zaxira joylari:

Dyke (Dyhernfurth) zavodi: Bu joyda asosan Tabun ishlab chiqarilgan.

Hochst va Ludwigshafen yaqinidagi zavodlar — bu yerda Zarin sinovdan o‘tkazilgan.

Zaxiralar maxfiy ravishda temir yo‘l orqali harbiy bazalarga yetkazilgan, lekin ulardan frontda foydalanilmagan.

Nega Germaniya jang maydonida kimyoviy qurollardan foydalanmadi?

Garchi Germaniya juda kuchli kimyoviy



qurollarga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ularni urush maydonida qo‘llamagan. Sabablari quyidagicha:

1. Qo‘rqitish omili: Gitler va nemis qo‘mondonlari Anglo-Amerika kuchlarining ham kimyoviy qurollarga ega ekanligini bilgani uchun, ularni ishlatish javob hujumini keltirib chiqarishidan qo‘rqishgan.

2. Aloqa va logistik muammolar: Kimyoviy qurollar xavfli va murakkab saqlashni talab qiladi. Frontda ularni xavfsiz tarzda qo‘llash qiyin bo‘lgan.

3. Axloqiy va siyosiy oqibatlar: 1925-yil Jeneva protokoli kimyoviy qurollar qo‘llashni rasman taqiqlagan. Germaniya bu shartnomani buzgani holatida jahon jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanishi mumkin edi [2].

4. Gitlerning shaxsiy tajribasi: Gitler Birinchi Jahon urushida iprit gazidan jabrlangan. Ba’zi tarixchilarning fikricha, bu hodisa uning kimyoviy qurollar borasidagi ehtiyotkor pozitsiyasiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Kimyoviy qurollarning boshqa maqsadda qo‘llanishi

Urush frontlarida ishlatilmagan bo‘lsa-da, Germaniya kimyoviy moddalarni boshqa, yanada mudhish maqsadlarda qo‘llagan:

Zyklon B: Bu gaz asli zararkunandalarni yo‘q qilish uchun ishlatilgan bo‘lsa-da, natsistlar uni **kontslagerlardagi insonlarni ommaviy qirg‘in qilish uchun** ishlatgan. Ayniqsa **Auschwitz**, **Majdanek**, **Birkenau** kabi lagerlarda millionlab yahudiy, lo‘li, kommunist va boshqa qurbonlar shu gaz yordamida o‘ldirilgan.

Zyklon B sianid kislotasini bug‘ shaklida chiqarib, odamlarni tezda bo‘g‘ish yo‘li bilan o‘ldirardi.

Urushdan keyingi ta’sir va meros

Urushdan so‘ng Germaniyaning kimyoviy qurol bo‘yicha ilmiy ishlanmalari AQSh va Sovet Ittifoqi tomonidan qo‘lga kiritildi. Bu texnologiyalar keyinchalik **Sovuq urush** davrida rivojlangan zamonaviy kimyoviy va biologik qurollarning asosini tashkil etdi.

Ko‘plab nemis olimlari “Operation Paperclip” doirasida AQShga olib ketilgan va harbiy-tadqiqot loyihalariga jalb qilingan.

Urushdan oldingi tayyorgarlik

Ikkinchi Jahon urushi arafasida ko‘plab davlatlar, jumladan Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Sovet Ittifoqi, kimyoviy qurollarni ommaviy ishlab chiqarish va saqlashni boshlagan edi. Ayniqsa Germaniya, yuqori darajada rivojlangan asab gazlari (tabun, sarin) ishlab chiqdi. Shu bilan birga, AQSh va Britaniya ham o‘z zaharli gaz zaxiralarini yaratgan edi.

Amalga oshmagan hujumlar

Ajablanarlisi shundaki, urush davomida yirik davlatlar tomonidan kimyoviy qurollar keng ko‘lamda ishlatilmagan. Buning sabablari quyidagicha bo‘lishi mumkin [3]:

1. O‘zaro qo‘rqitish (deterrence): Har bir davlat boshqa tomon ham javoban kimyoviy hujum qiladi, deb qo‘rqqan.

2. Xalqaro shartnomalar: 1925-yildagi Jeneva protokoli kimyoviy va biologik qurollardan foydalanishni taqiqlagan. Garchi bu shartnoma barcha holatlarga to‘liq rioya qilinishini kafolatlamagan bo‘lsa-da, ko‘pchilik davlatlar uni hurmat qilgan.

3. Jamoatchilik bosimi: Birinchi Jahon urushida iprit kabi gazlarning dahshatli ta’siri jahon jamoatchiligini hushyor qilgan edi.

Cheklangan hollarda qo‘llanish

Shunga qaramay, ba’zi cheklangan hollarda kimyoviy qurollardan foydalanilgan degan taxminlar mavjud:

Yaponiyaning Xitoyga qarshi urushida (1937–1945) Yaponiya armiyasi Xitoy askarlariga va partizanlariga qarshi kimyoviy moddalarni qo‘llagan. Bu holatlar hujjatlar orqali tasdiqlangan.

Natsist Germaniyasi asosan kimyoviy qurollarni jang maydonlarida emas, balki kontslagerlarda (masalan, Auschwitz) mahbuslarni ommaviy yo‘q qilish maqsadida ishlatgan. Zyklon B nomli gaz millionlab yahudiy va boshqa guruhlarga qarshi qo‘llanilgan.

Italiya Efiopiyaga qarshi 1935–1936-yillarda olib borgan harbiy harakatlarida iprit gazidan foydalangan (bu urush Ikkinchi Jahon urushidan oldin boshlangan bo‘lsa-da, urushning muhim kontekstlaridan biri hisoblanadi).

Ikkinchi Jahon urushi harbiy texnologiyalarning ko‘p jihatdan rivojlanishiga olib kelgan bo‘lsa-da, kimyoviy qurollar keng ko‘lamda qo‘llanilmagan. Buning asosiy sababi, har ikki tomonning bunday hujum javobsiz qolmasligidan qo‘rqishi va xalqaro bosim edi. Shunga qaramay, urush davomida bu qurollar insoniyatga qarshi jinoyatlar doirasida qo‘llanilgan.

Аннотация. В статье представлена информация о самых страшных отравляющих веществах в истории человечества во время Второй мировой войны, о международных договорах, частично применявшихся отравляющих веществах, а также о неосуществленных химических атаках.

Ключевые слова: отравляющие вещества, зоман (GD), зарин (GB), табун (GA), нервно-паралитические газы, Вторая мировая.

Annotation. The article provides information about the most terrible toxic substances in the history of mankind during the Second World War, about international treaties, partially used toxic substances, as well as about unrealized chemical attacks.

Key words: toxic substances, soman (GD), sarin (GB), herd (GA), nerve gases, World War II.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan himoyalanish.
2. Kimyoviy qo‘shinlari serjantlari darsligi. Ziyodullaev A.Sh., Eshpulatov sh.u., Ochilov F.A Toshkent – 2006 y. 318 bet.
3. Internet ma’lumotlari.

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY HIMOYASI: TARIXIY TAJRIBA, DAVLAT SIYOSATINING MEXANIZMLARI VA BUGUNGI ISLOHOTLAR UCHUN XULOSALAR

Djaydakbayev F.T.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati tahlil etiladi. Moddiy ta’minot, tibbiy xizmat, ta’lim sohasidagi imtiyozlar, “Qahramon ona” maqomi kabi institutlar, bolalar uchun internatlar, yetimlarga ko‘rsatilgan yordamlar hamda o‘zbek madaniy elitasining ma’naviy qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu tarixiy tajribaning zamonaviy ijtimoiy siyosat uchun ahamiyati va undan chiqadigan amaliy xulosalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, harbiy xizmatchilar, ijtimoiy himoya, frontoviklar, ta’limda imtiyozlar, faxriylar siyosati, Qahramon ona, madaniy front, tarixiy tajriba va ijtimoiy siyosat.

Ikkinchi jahon urushi (1939-1945 y.y.) insoniyat tarixidagi eng halokatli va hal qiluvchi global to‘qnashuvlardan biri bo‘lib, unda 70 milliondan ortiq inson halok bo‘lgan, yuzlab millionlar esa turli shakllarda jabr chekishgan. Bu urush nafaqat harbiy strategiya va qurollanish sohasida, balki ijtimoiy munosabatlar, davlat boshqaruvi, aholi turmush tarzi va fuqarolarni himoya qilish sohalarida ham tub burilishlar yaratdi.

Sobiq Sobiq ittifoq uchun urush «Ulug‘ Vatan urushi» sifatida milliy mafkuraning markaziy timsoliga aylandi. Millionlab fuqarolar armiya safiga safarbar etildi, ularning aksariyati frontda halok bo‘ldi yoki nogiron bo‘lib qaytdi. Jumladan, Ikkinchi jahon urushida butun ittifoq bo‘ylab 34 millionga yaqin kishi armiyaga safarbar etilgan bo‘lsa [1], O‘zbekistondan ham 1,5 millionga yaqin inson frontga jo‘natilgan [2]. Ulardan yuz minglab kishi janglarda halok bo‘lgan, minglab faxriylar va frontoviklar vataniga qaytishgan. Urush nafaqat frontda, balki front ortida ham keng qamrovli sa’y-harakatlarni talab etgan: jumladan ayollar, bolalar, qariyalar mehnat armiyasi saflarida ishlashga majbur bo‘lishdi. Bunday holatda davlat tomonidan aholi, ayniqsa, harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga nisbatan ijtimoiy himoyani ta’minlash - strategik ahamiyatga ega vazifaga aylandi.

Ijtimoiy himoya tushunchasi bu yerda keng qamrovda, ya’ni davlat tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini moddiy, ma’naviy, huquqiy va tibbiy qo‘llab-quvvatlash tizimi sifatida qaraladi. Urush yillarida bu tizim maxsus qarorlar, dekretlar, qonunlar va tashkiliy choralar orqali amalga oshirilgan. Ijtimoiy himoya shakllari quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

- *frontda xizmat qilayotgan harbiylarga ustama va mukofotlar berish,* masalan, orden va medallar bilan taqdirlanganlarga maxsus nafaqalar belgilangan.

- *yaralangan va nogironlikka uchragan harbiylarga reabilitatsiya va protezlash markazlari tashkil etilib,* front ortidagi maxsus gospitallar soni 1941-1945 yillar davomida 7000 dan oshgan [3].

- *vafot etgan xizmatchilarning oilalariga nafaqa tayinlash, farzandlarini davlat g‘amxo‘rligiga olinib,* ularga «Qahramon ona» maqomi berilgan, ayollar va yetim bolalar uchun internat va maktab-uylar yaratilgan [4]. Xususan, Ikkinchi jahon urushi davrida (1941–1945) va undan keyin, yetim qolgan bolalar uchun maxsus internatlar, bolalar uylari va maktab-internatlar tashkil etilgan. Birgina 1944-1946 yillar oralig‘ida sobiq ittifoq hududida **2 milliondan** ziyod yetim bola davlat g‘amxo‘rligiga olingan [5].

Front ortida mehnat qilayotgan oilalarga oziq-ovqat, kiyim-kechak va moddiy yordam paketlari berilgan.

Davlat bu siyosatni quyidagi maqsadlarga erishish uchun yuritgan:

birinchidan, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, ya’ni Urush sharoitida jangchilar o‘z oilalari davlat himoyasida

ekanligini bilishlari ularning fidoyiligini oshirgan;

ikkinchidan, jamiyatdagi birdamlikni saqlash, front va front ortidagi o‘rtasidagi mutanosiblik ijtimoiy adolat tuyg‘usini ta’minlagan.

uchinchidan, mehnat unumdorligini oshirish, ijtimoiy kafolatlar front ortidagi ishchilar va dehqonlarni ruhlantirgan.

Mafkuraviy tarbiya - harbiylarning jangovar salohiyati faqat moddiy ta’minot bilangina emas, balki mafkuraviy tayyorgarlik bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Bunda ayniqsa, front ortidagi harakatlar - “Harbiylarga maktub”, “Front uchun - g‘alaba uchun”, “Har bir oila - bir jangchiga ko‘mak!” kabi umumxalq aksiyalari ijtimoiy himoya siyosati bilan uyg‘un tarzda amalga oshirilgan. Bunday siyosiy-ijtimoiy muhitda harbiy xizmatchilar nafaqat himoyalangan, balki ularning oilalari, farzandlari ham xalq va davlat g‘amxo‘rligida bo‘lishgan.

Shu jihatdan, Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy xizmatchilarga qaratiladigan ijtimoiy himoya tizimi butun jamiyatni qamrab olgan, keng qamrovli institutsional siyosat bo‘lganini ta’kidlash mumkin. Hozirgi kunda bu tarixiy tajriba davlatning harbiy kadrlar va faxriylarga nisbatan munosabatini shakllantirishda muhim saboq bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

1930-yillar oxiri jahon tarixida hal qiluvchi siyosiy transformatsiyalar davri bo‘ldi. Germaniyada fashizmning davlat siyosatiga aylanishi, Italiya va Yaponiyaning ekspansionist harakatlari xalqaro huquq normalarini buzish bilan birga, kuchli harbiy bloklarning shakllanishiga olib keldi. Bu vaziyat Sobiq ittifoqni ham strategik jihatdan qayta qurishga va, eng muhimi, harbiy safarbarlik siyosatiga jiddiy yondashishga majbur qildi.

1938 yildan boshlab SSSRda umumiy safarbarlik rejalari ishlab chiqila boshlandi. Davlat rahbariyati (xususan, I.V.Stalin va K.E.Voroshilov boshchiligida) harbiy xizmatchilarni tayyorlashda nafaqat texnika va qurollanish, balki ijtimoiy sharoit va moddiy ta’minot masalalarini ham markaziy o‘ringa chiqardi. Bu siyosatning bir yo‘nalishi sifatida 1939 yilda “SSSR fuqarolarining umumiy harbiy majburiyati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi [6]. Bu hujjatda harbiy xizmatchilarning huquqiy va moddiy kafolatlari belgilangan bo‘lib, urushga tayyorgarlikda ijtimoiy himoya tizimining asosi hisoblangan.

1939-1941 yillarda harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi va ularning oilalariga kafolatlar nuqtai nazaridan, harbiy xizmatchilarning oilalariga nisbatan davlat kafolatlari kuchaytirildi. Xususan, quyidagilar amalga oshirildi:

- harbiy xizmatchilarning oylik maoshlari turmush darajasiga yarasha indeksatsiya qilindi;
- frontda xizmat qilayotganlarning farzandlari uchun bolalar bog‘chalarida imtiyozli joylar ajratildi;
- ayollari va qarindoshlari uchun ish joylarida ustuvorlik berildi (SSSR XKK qarori 1940-yil 13-mart);
- oila boshlig‘i frontda bo‘lgan taqdirda, oilaga mahalliy hokimiyat tomonidan oziq-ovqat, yoqilg‘i va kiyim-kechak bilan yordam berish mexanizmlari joriy etildi.

O‘z navbatida, bu kafolatlar mehnat unumdorligi va xizmat ruhiyatini oshirishga xizmat qilib, jangchilar o‘z oilalari davlat muhofazasida ekanini bilish orqali yanada jasurlik bilan xizmat qilganlar.

Bu borada, O‘zbekistonda bir qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, O‘zbekiston hududida ham harbiy kadrlarni tayyorlash va ijtimoiy himoyalash siyosati izchil amalga oshirilib, respublikadan 1940 yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, 250 mingdan ortiq yoshlar harbiy yig‘inlarga jalb etilgan. Respublika mudofaa komiteti huzurida maxsus “Harbiy xizmatchilarga ijtimoiy yordam komissiyasi” faoliyati tashkil etilgan.

Shu davrda:

Farg‘ona, Samarqand, Toshkent va Urganch shaharlarida harbiy-tarbiyaviy maktablar ochilgan;

“Qizil chodir” loyihasi asosida frontga gumanitar yordam yig‘ish aksiyalari boshlangan [7];

Xizmatchilarning oilalari uchun mahalliy darajada oziq-ovqat va kiyim yordamlari tashkil etilgan;

Milliy tarkibdagi harbiy qismlarni shakllantirish bo‘yicha birinchi qadamlar tashlangan [8].

Masalan, 1940-yilda Turkiston harbiy okrugiga qarashli qismlarda xizmat qiluvchi o‘zbek, tojik va qozoq xizmatchilar soni jami kontingentning 18% ni tashkil qilgan [9]. Bu hududda harbiy xizmatchining oilasini muhofaza qilish jamiyat uchun milliy iftixor masalasiga aylandi.

Ushbu davrda ijtimoiy himoya siyosatining

muhim jihati mafkuraviy targ‘ibot va ijtimoiy himoya uyg‘unligi ta’minlangan. Harbiy xizmat faqat majburiyat emas, balki sharaf sifatida talqin qilingan. “Fashizmga qarshi kurashda har bir xizmatchi - Vatan himoyachisi!” shiori davlat siyosatining mafkuraviy asosini tashkil etgan.

Bu kabi mafkuraviy targ‘ibotlarning ijtimoiy mazmuni harbiy xizmatga chaqirilganlar jamoatchilik oldida namunaviy shaxs sifatida namoyon bo‘lganligi hamda ularning oilalariga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, moddiy qo‘llab-quvvatlash orqali davlat va xalq o‘rtasida ishonch muhiti shakllanishiga xizmat qilgan.

Jumladan, madaniyat va adabiyot yo‘nalishlarida ham harbiy obrazlar ideallashtirilgan: Ayniqsa, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom va Hamza Hakimzoda asarlarida bu aks etgan. Bu siyosat xalqning jangga safarbarlikka nisbatan munosabatini ijobiy shakllantirishga xizmat qilgan va front-front ortidagi birdamligini mustahkamlagan.

1930-yillarning oxiri va 1941-yil boshida harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimi shakllangan davr bo‘lib, bu siyosat harbiy safarbarlik bilan uyg‘un tarzda amalga oshirilgan. Davlat siyosatida harbiylarning moddiy, ma’naviy, tibbiy, mafkuraviy muhofazasi muhim o‘rin tutgan. Bu holat keyingi Ikkinchi jahon urushi yillaridagi ijtimoiy-huquqiy siyosat uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Urush davridagi ijtimoiy himoya mexanizmlari (1941-1945)

1941-yil 22-iyun kuni Germaniyaning SSSRga bosqinchiligi bilan boshlangan Ikkinchi jahon urushi fuqarolar hayotini tubdan o‘zgartirdi. Jamiyatda “barcha narsa front uchun, g‘alaba uchun!” shiori asosiy da’vatga aylandi. Ijtimoiy himoya tushunchasi bu sharoitda faqat frontdagi harbiy xizmatchilar emas, balki ularning oilalari, farzandlari, yaralanganlar va halok bo‘lganlarning qarindoshlarini qamrab olgan kompleks siyosatga aylandi. Davlat bu jarayonda bir vaqtning o‘zida moddiy, tibbiy, huquqiy va ma’naviy himoya mexanizmlarini yo‘lga qo‘ydi.

Urushning birinchi kunlaridanoq SSSR xalq komissarlari kengashi, Qizil Armiya bosh shtabi va Umumittifoq kommunistik partiyasi markaziy qo‘mitasi tomonidan qator maxsus qarorlar qabul qilingan. Ular asosida harbiy xizmatchilarga va ularning oilalariga quyidagi kafolatlar joriy etilgan:

- oylik nafaqalar va yordam puli;
- xizmat muddati davomida ish joyini saqlab qolish;
- bolalar uchun internat va maktab-uylar;
- yaralanganlarga tibbiy xizmat va protezlash markazlari;
- halok bo‘lganlarning oilasiga uy-joy va moddiy yordam.

Bu chora-tadbirlar harbiy xizmatchilarning o‘z vazifasini vijdonan bajarishi uchun zarur ijtimoiy barqarorlik muhitini yaratgan.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimining (moddiy ta’minoti va nafaqalar) mexanizmlari ishlab chiqilgan. Xususan, 1942 yilda kapitan harbiy unvonidagi harbiy xizmatchi oyiga o‘rtacha 600 rubl, katta serjant - 300 rubl, oddiy askar unvonidagi jangchi - 150 rubl miqdorida oylik maoshi olishgan [10]. Bu maoshlar oddiy ishchi maoshidan 1,5-2 barobar yuqori bo‘lgan. Halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oilasiga bir martalik 5000 rubl yordam, 6 oylik nafaqa, bolalar uchun ta’limda davlat tomonidan jamg‘armadan mablag‘ ajratish, uy-joy masalasida ustuvorlik (ko‘chirish yoki umumturar uy-joylaridan joy berish) nazarda tutilgan [11].

O‘z navbatida, bu nafaqalar inflatsiya sharoitida doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqilgan. Masalan, 1943-yilda iqtisodiy sharoitga ko‘ra 20% indeksatsiya amalga oshirilgan. Jumladan, 1941-1944 yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududida 150 mingdan ortiq oila frontga jo‘natilgan ota yoki o‘g‘lini yo‘qotgan. Davlat tomonidan ular uchun tumanlar darajasidagi “Yordam qo‘mitalari” tashkil etilgan va har oyda oziq-ovqat, ko‘mir, yong‘oq, boshqa turdagi ehtiyojlar bilan ta’minlash ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Yaralanganlarga tibbiy yordam va reabilitatsiya siyosati esa, frontda jarohat olgan harbiylar uchun front ortida maxsus **gospitallar, mobil tibbiyot punktlari, reabilitatsiya markazlari** tashkil qilingan [12].

Birgina 1942 yilning o‘zida sobiq ittifoq hududida 7000 taga yaqin harbiy shifoxona faoliyat yuritgan [13]. Gospitallarda davolanayotgan yaralangan jangchilarga to‘liq davolanish davomida ish haqi saqlangan, protez va ortopedik vositalar bepul taqdim etilgan, nogironlik guruhiga qarab nafaqa tayinlangan, shuningdek qayta mehnatga joylashtirish siyosati amalga oshirilgan.

Tibbiy xizmat jumladan psixik jarohatlar bo‘yicha ham yopiq davolash muassasalari asosida yo‘lga qo‘yilgan. Urushning oxiriga

kelib, 1,8 million yaralangan xizmatchi to‘liq yoki qisman ish qobiliyatiga ega deb topilgan [14].

Frontda halok bo‘lgan harbiylar va ularning oilalari uchun ijtimoiy siyosat eng hassos sohalardan biri bo‘lgan. Davlat siyosatida bu shaxslarni “qahramon” deb e’tirof etish, ularning farzandlari va rafiqalarini davlat g‘amxo‘rligiga olish tamoyili ustuvor bo‘lgan.

Maxsus qarorlar asosida:

halok bo‘lgan jangchilarning farzandlari internat va bolalar uylarida davlat hisobidan ta’lim olgan;

rafiqalariga 5 yillik nafaqa tayinlangan;

ta’ziya va moddiy yordam mahalliy hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan;

yodgorliklar, memoriallar qurilib, jamoatchilik tomonidan hurmat saqlangan.

Urush davrida xizmatchi farzandlari uchun qator imtiyozlar belgilangan bo‘lib, bunda maktab va texnikumlarga imtiyozli qabul, bolalar uylarida to‘liq davlat ta’minoti, pioner lagerlari, dam olish muassasalarida ustuvorlik hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘qishda kvotalar ajratilishi kabi imtiyozlar belgilangan.

Ijtimoiy himoya faqatgina frontda emas, front ortida ham muhim siyosiy va ma’naviy vazifa bo‘lib, bu yo‘nalishda alohida farmonlar, kampaniyalar va targ‘ibot orqali aholi jangchilarga g‘amxo‘rlik qilishga da’vat etilgan. Har bir kolxoz, fabrika va mahalla “bir jangchiga - bir posilka” shiori asosida ixtiyoriy yordam ko‘rsatishgan.

1941-1945 yillardagi ijtimoiy himoya siyosati davlat va jamiyatning harbiy xizmatchilarga bo‘lgan munosabatini namoyon etuvchi tub jarayon bo‘lib, bunda nafaqat davlat tomonidan moddiy yordamlar, balki ijtimoiy tayanch, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, do‘stlik va birdamlik muhiti yaratilgan. Ushbu tajriba bugungi kunda harbiylar va faxriylarga nisbatan munosabat shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Faxriylar va demobilizatsiya qilingan harbiylarning urushdan keyingi ijtimoiy reintegratsiyasi (1945-1950) jarayonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Ikkinchi jahon urushi yakunlanganida sobiq ittifoq armiyasida qariyb 11 milliondan ortiq harbiy xizmatchi bor edi. Ularni tinch hayotga qaytarish nafaqat tashkiliy, balki ijtimoiy va psixologik muammolarni ham yuzaga chiqardi. Harbiylar o‘nlab frontlar, o‘ta og‘ir jismoniy va psixik bosimdagi holatlardan qaytib, butunlay o‘zgargan mamlakatda yashashga moslashishi kerak edi. Shundan kelib chiqib, 1945 yil iyunida SSSR Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan maxsus “Demobilizatsiya va faxriylarni hayotga qaytarish dasturi” qabul qilindi [15]. Bu dastur to‘rt asosiy blok bo‘lingan:

1. Ishga joylashtirish siyosati;
2. Uy-joy va moddiy yordam;
3. Sog‘liqni tiklash va nogironlikni bartaraf etish;
4. Maishiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash.

Bu dastur doirasida demobilizatsiya masalalari aniq belgilangan: birinchi navbatda katta yoshdagi, kasal yoki yaralanganlar, keyin frontda uzoq vaqt bo‘lganlar, so‘ngra xizmat muddati to‘lganlar qaytarilgan.

Urushdan so‘ng, faxriylarni ish bilan ta’minlash - eng katta muammolaridan biri bo‘lib hisoblangan davrga to‘g‘ri keladi. Millionlab qaytganlarning asosiy qismi frontda xizmat qilishdan oldin dehqon, ishchi yoki xizmat ko‘rsatish sohasi vakillari bo‘lishgan. Urush paytida esa sanoat mexanizatsiyasi o‘sgan, mehnat quvvatida texnologik o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Demak, ko‘pchilik faxriylar yangi iqtisodiy voqeliklarga moslashishga majbur bo‘lishgan.

Xususan, joylarda barcha viloyat va shaharlarda “faxriylarni ishga joylashtirish byurolari” tashkil etilgan;

Qishloqlarda - kolxoz va sovxozlarda, shaharlarda - zavod va fabrikalarda ish o‘rinlari ajratilgan;

Faxriylarga ustuvor navbatlar, qo‘shimcha kunlik to‘lovlar, o‘zlashtirish kurslari orqali qayta malaka oshirish ishlari amalga oshirilgan.

Statistik ma’lumot ko‘ra (O‘zbekiston misolida): 1945-1948 yillar oralig‘ida faqat O‘zbekistonda 300 mingga yaqin faxriy rasmiy ishga joylashtirilgan. Ulardan 80 ming nafari sanoat sohasiga, 100 ming nafari qishloq xo‘jaligiga, qolganlari esa ta’lim, tibbiyot, transport va qurilish sohalariga moslashtirilgan [16].

Frontda qatnashgan millionlab odam qaytib kelgan paytda mamlakatning katta qismi vayron bo‘lgan edi. Xususan, olingan ma’lumotlarga ko‘ra urush davrida 1700 dan ortiq shahar va 70 ming qishloq to‘liq yoki qisman vayron bo‘lgan [17]. Uy-joy yetishmovchiligi katta ijtimoiy muammoga aylangan.

Har bir demobilizatsiya qilingan xizmatchiga turar joy ajratish uchun “harbiy faxriylar uchun

uy-joy jamg‘armasi” tuzilgan;

Boshpanasiz faxriylarga vaqtinchalik turar joy taklif etilib, keyin doimiy joylashtirish amalga oshirilgan;

Qishloq joylarda faxriylar uchun «Frontovik qishloqlar» tashkil etilgan: yakka tartibda uy qurish uchun materiallar va texnika davlat tomonidan taqdim etilgan [18].

Tarixiy misol: 1947-yilda Buxoro viloyatida ‘‘G‘alaba qishlog‘i’’ tashkil qilingan bo‘lib, u yerda faqat frontda qatnashgan 60 ta oila uchun yangi uylar qurilgan. Har bir uyda elektrlashgan pech, suv ombori va bog‘ xo‘jaligi uchun yer ajratilgan.

Urushda ishtirok etganlarning 3 millionga yaqini turli darajada yaralangan, ularning 1,4 millioni esa turli darajadagi nogironlikka uchragan. Bu xizmatchilar uchun sog‘lomlashtirish va qayta reabilitatsiya eng muhim vazifalardan biri bo‘lgan. Bu borada davlat tomonidan sog‘liqni tiklash uchun:

- barcha shaharlarda “Faxriylar shifoxonalari” ochildi (masalan, Toshkentdagi “G‘alaba sanatoriyasi”) [19];

- nogironlikka uchraganlar uchun protezlash markazlari, psixologik reabilitatsiya markazlari tashkil etildi;

- tibbiy xizmat to‘liq bepul, davolanish muddatida nafaqa saqlanishi kabi choralar belgilangan.

Butun ittifoq bo‘ylab 1945-1950 yillarda 360 dan ortiq protezlash markazi va 400 ga yaqin psixonevrologik markazlar faoliyat yuritgan. Bularning ayrimlari hozirgi kunda ham ishlab turibdi [20].

Faxriylarni ma’naviy-ijtimoiy himoyalash va jamoatchilikdagi o‘rni haqida gap ketganda, faxriylar nafaqat davlat tomonidan, balki xalqning o‘zi tomonidan ham ehtiromda saqlangan. Jamoat tashkilotlari, madaniy tadbirlar, tarixiy xotiralar ularning o‘rnini alohida belgilab bergan.

Mafkuraviy jihatdan:

- 1946 yilda “Faxriylar kuni” joriy etilgan (keyin bu 9 may - G‘alaba kuniga qo‘shilgan);

- faxriylar maktablarda chiqishlar qilgan, bolalarga vatanparvarlik mavzularida tarbiyaviy suhbatlar o‘tkazishgan;

- boshqa harbiylar bilan birga davlat mukofotlari, lavozimlar bilan taqdirlangan.

Undan tashqari, “Sovet Faxriylari uyushmasi” 1947-yilda tuzilgan va 1950-yilga kelib barcha respublikalarda ularning bo‘limlari tashkil etilgan. Ular orqali faxriylarga huquqiy yordam, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, moddiy yordam to‘plash va tarixiy xotirani saqlash ishlari amalga oshirilgan.

1945-1950 yillar faxriylarning jamiyatga qaytishi, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlashda muhim davr bo‘ldi. SSSR bu jarayonni strategik, mafkuraviy va insonparvarlik asosida olib bordi. Har bir faxriy nafaqat himoya qilindi, balki yangi jamiyat qurilishida faol ishtirokchi sifatida jamiyat hayotiga jalb etildi.

Xulosa o‘rnida, ikkinchi jahon urushi davrida davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri - harbiy xizmatchilarni barcha jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning oila a’zolarini moddiy va ma’naviy himoya qilish, urushda qatnashganlarning fidoyiligi va jasoratini xalq ruhiga singdirishdan iborat edi.

Davlat tomonidan faqat qurol bilan ta’minlash emas, balki **ijtimoiy barqarorlik, moddiy yordam, tibbiy xizmat, ma’naviy rag‘bat** kabi omillar ham harbiy salohiyatning muhim qismlaridan biri sifatida qabul qilingan. Bu siyosat nafaqat frontdagi jangchilar, balki front ortida qolgan oila a’zolari uchun ham amaliy ahamiyat kasb etgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida ijtimoiy himoya mexanizmlari to‘liq markazlashtirilgan holda tashkil etilgan. Ularning asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- nafaqa va maoshlar tizimi: harbiy xizmat muddati davomida xizmatchilarning maoshi saqlanardi, halok bo‘lganlarning oilalariga bir martalik to‘lov va davomli nafaqa tayinlanardi;

- tibbiy reabilitatsiya: yaralanganlarga maxsus shifoxonalar, protezlash markazlari, ruhiy sog‘lomlashtirish muassasalari tashkil etilgan;

- ta’lim va kasb o‘rgatish: faxriylarga imtiyozli ravishda oliy va o‘rta ta’limga yo‘nalish, qayta malaka kurslari orqali ishga joylash imkoniyati yaratilgan;

- uy-joy va moddiy ta’minot: frontoviklarga davlat hisobiga qurilgan turar joylar taqdim etilgan, qishloq joylarda “faxriylar qishloqlari” tashkil qilingan.

Shu bilan birga mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlari faol ishtirok etgan - harbiy xizmatchilar oilalari bilan ishlash, ularni ro‘yxatga olish, manzilli yordam ko‘rsatish kabi vazifalarni amalga oshirishgan.

Ijtimoiy himoya tizimida tenglik va adolat prinsiplari so‘zsiz amalda qo‘llanilgan. Davlat

nafaqat xizmat darajasi, balki ehtiyoj darajasini ham inobatga olgan holda quyidagilarni ta’minlab bergan:

- yaralanganlar uchun ustuvor tibbiy yordam va nogironlik nafaqasi;

- ko‘p farzandli va frontda halok bo‘lgan xizmatchilarning oilalariga ustuvor davlat g‘amxo‘rligi;

- harbiy xizmatchilar farzandlari uchun ta’lim muassasalarida imtiyozli qabul, bolalar uylari va internatlarda joylashtirish.

Bu mexanizmlar orqali ijtimoiy siyosat shaxs ehtiyojiga qarab moslashuvchan shaklda tashkil qilingan.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasida moddiy yordam bilan bir qatorda, **ma’naviy tarbiya, ruhiy qo‘llab-quvvatlash va vatanparvarlik ruhini ko‘tarish** masalasi ham ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bu borada o‘zbek madaniy elitasi juda katta hissa qo‘shgan. Jumladan, adabiyot va jurnalistika sohasida **G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Oybek** kabi milliy adiblar ijodida front ruhi, jasorat, vatanparvarlik mavzulari asosiy o‘rinni egallagan [21]. San’at sohasida esa **Toshkent drama teatri, O‘zbekiston milliy ansambli, Andijon musiqali teatri** jang oldidagi front qismlariga borib sahna ko‘rsatuvlari uyushtirishgan [22]. Bunda **Razzoq Hamroyev, Zuhra Ashurova** kabi aktyorlar jangchilar uchun yuzlab bepul spektakllar namoyish etishgan. Alohida “madaniyat karvonlari” tashkil etilib, ular frontdagi gospitallarga borgan.

Bu madaniy faoliyatlar frontdagi harbiylar uchun katta ruhiy tayanch, front ortidagi xalq uchun esa iftixor manbai bo‘lgan.

1941-1945 yillar davomida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar moddiy va mafkuraviy siyosatning muvaffaqiyatli uyg‘unligidan darak beradi. Bu tizim:

shaxs ehtiyojlariga mos institutsional yordamni tashkil etgan;

aholi orasida milliy birdamlik, fidokorlik va jasorat ruhini mustahkamlagan;

madaniy elita va jamoatchilikning faol ishtiroki orqali xalq va armiyani ruhan bog‘lab turgan.

Bunday tajriba bugungi kunda ham ijtimoiy siyosatni shakllantirishda ulkan tarixiy saboq sifatida amalda qo‘llanilmoqda.

Ikkinchi jahon urushidagi ijtimoiy himoya siyosati jahon tarixida alohida o‘ringa ega. Urushdagi g‘alaba faqat qurol bilan emas, davlatning fuqaroga bo‘lgan munosabati, uning hayoti, sog‘lig‘i, kelajagi uchun qanchalik mas’ul ekani orqali ham erishilgan. Bu davrda harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun yo‘lga qo‘yilgan ijtimoiy himoya tizimi nafaqat jangdagi ruhiy barqarorlikni saqlagan, balki milliy birlikni, xalqning davlatga ishonchini mustahkamlagan.

Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy xizmatchilarga qaratilgan ijtimoiy himoya siyosati davlatning inson hayoti, salohiyati va ruhiyatiga qaratgan e’tiborining yuksak namunasidir. Ushbu tajriba shundan dalolat beradiki:

ijtimoiy himoya - bu nafaqat davlat majburiyati, balki jamiyatning ma’naviy barqarorlik poydevoridir;

ma’naviy g‘amxo‘rlik, faxriylarga nisbatan izzat va qadrlash munosabati - davlat-odam munosabatining sinovchi nuqtasidir;

himoyalangan harbiy - kurashuvchan, vatanparvar va kelajak avlod uchun ibratli shaxsga aylanadi.

Davlat siyosatida faxriylarni himoya qilish - strategik ustuvorlik sifatida belgilanishi lozim bo‘lib, bunda **bugungi O‘zbekistonda milliy xavfsizlik va davlat mustaqilligini mustahkamlashda** xizmat qilganlarning obro‘-e’tiborini tiklash, **ularni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash** faol siyosiy strategiya darajasiga ko‘tarilishi **zarur.** Bu tarixiy voqelikdan kelib chiqadigan **umuminsoniy va siyosiy saboqlar** quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

- davlat fuqaro manfaatini ustun qo‘ysa - xalq doimo uning ortidan ergashadi;

- moddiy himoya - zarur, lekin ma’naviy, ruhiy himoya undan ham muhimroq;

- jangchiga g‘amxo‘rlik - millatning kelajakka ishonchini ta’minlovchi asosiy ildizdir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikdan so‘ng milliy armiya, xavfsizlik tizimi va harbiy xizmatga oid ijtimoiy siyosatni shakllantirdi. Ikkinchi jahon urushi davridagi ijtimoiy himoya tajribasidan kelib chiqib, bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- faxriylar, xizmatdan bo‘shatilganlar, yaralanganlar va ularning oilalari uchun alohida **davlat dasturi** ishlab chiqilishi zarur;

-ushbu toifadagi shaxslar uchun **reabilitatsiya markazlari, malaka oshirish kurslari va kasbga**

yo‘naltirish muassasalari yaratilishi lozim;

- harbiy xizmat davridagi sog‘liqqa yetkazilgan zarar uchun **sug‘urta-monitoring** tizimi joriy qilinishi darkor.

- ikkinchi jahon urushida qatnashgan O‘zbekistonlik faxriylarning hayoti, xizmat yo‘li va jasoratini yorituvchi **raqamli arxiv, interaktiv xaritalar** va **madaniy portallar** yaratilishi;

- faxriylar va xizmatchilar farzandlari uchun **ta’lim grantlari, ijodiy stipendiyalar,** imtiyozli maktab va litseylarda o‘qitish tizimi yaratilishi kerak;

- sun’iy intellekt yordamida adabiyot, teatr, kino va musiqada harbiy xizmat obrazini qayta jonlantirish, zamonaviy uslubda **“mafkuraviy qahramon”** sifatida ilgari surish;

- Yoshlarga “jangchi” degan tushunchani faqat qurol bilan emas, vatanparvar, fidokor, bilimdon, ma’naviy jihatdan kuchli inson sifatida yetkazish kerak.

Аннотация. В данной статье анализируется государственная политика, направленная на социальную защиту военнослужащих и их семей в годы Второй мировой войны. Освещены такие институты, как материальное обеспечение, медицинское обслуживание, образовательные льготы, присвоение звания “Мать-героиня”, интернаты для детей, помощь сиротам, а также роль узбекской культурной элиты в оказании духовной поддержки. Кроме того, анализируется значение этого исторического опыта для современной социальной политики и формулируются практические выводы.
Ключевые слова: Вторая мировая война, военнослужащие, социальная защита, фронтовики, льготы в сфере образования, политика ветеранов, героическая мать, культурный фронт, исторический опыт и социальная политика.

Annotation. This article analyzes public policy aimed at the social protection of servicemen and their families during World War II. Material support, medical services, educational benefits, institutions such as the status of a “hero mother”, boarding schools for children, assistance to orphans and the role of the Uzbek cultural elite in spiritual support are covered. Also, the importance of this historical experience for modern social policy and the practical conclusions drawn from it are analyzed.
Key words: World War II, military personnel, social protection, frontoviks, benefits in education, veterans policy, hero mother, cultural front, historical experience and social policy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Манба: Смирнов А.А. Великая Отечественная война. Статистика и хроника. - Москва, 2015., http://militaryarticle.ru/statistika-vov
2. Манба: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига тайёргарлик кўриш ва муносиб нишонлаш тўғрисида”ги қарори, https://president.uz
3. Манба: “История медицины в Великой Отечественной войне 1941–1945 гг.” - Министерство здравоохранения СССР, Москва, 1970., https://med-history.ru/book/history-of-medicine-ww2-ussr
4. “Қаҳрамон она” унвони 1944 йил 8 июлда жорий этилган. Бу унвон 10 ва ундан ортиқ фарзандни туғиб, тарбиялаган аёлларга берилган, Президиум Верховного Совета СССР қарори, №638, http://www.libussr.ru
5. Манба: История народного образования в СССР. Москва, 1977., https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnaya-zaschita-detey-v-sssr-v-gody-vov
6. Манба: СССР қонун ҳужжатлари тўплами, 1939 йил, № 34., http://www.libussr.ru
7. Манба: Илмий – амалий онлайн конференция материаллари - “Иккинчи жаҳон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабага Ўзбекистон халқининг қўшган ҳиссаси”, https://www.researchgate.net

8. Манба: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси. “Ўзбекистон Иккинчи жаҳон урушида”. Тошкент, 2010., https://n.ziyonet.uz
9. «Ўзбекистонда Иккинчи жаҳон уруши йилларида ҳарбий сафарбарлик ишлари», Шон-Шараф музейи илмий нашри, 2023. – Б. 18–21., «Ҳарбий округлар тарихи: Туркистон ҳарбий округи», Қарши давлат университети «Гуманитар фанлар» журнали, 2023, №4. – Б. 64–67, https://shon-sharaf.uz, https://qarshidu.uz
10. Манба: “Какие зарплаты были у солдат во время Второй мировой” - Русская Семёрка, https://russian7.ru
11. Манба: “Назначение пособий семьям военнослужащих в годы Великой Отечественной войны” - ГАНИКО https://ganiko
12. Собрание Постановлений Правительства СССР, 1945–1950., http://www.consultant.ru → архив бўлимида “1945 йил қарорлари”
13. Манба: “История медицины в Великой Отечественной войне 1941–1945 гг.” - Министерство здравоохранения СССР, Москва, 1970., https://med-history.ru
14. Манба: “Цена Победы: потери советских Вооруженных Сил в Великой Отечественной войне” - Министерство обороны РФ, https://mil.ru/winner_may/history/more
15. Манба: Б.Я. Мусатов. Демобилизация вооружённых сил СССР. - Москва, 1953., http://militera.lib.ru
16. Манба: “Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон” - Шон-шараф давлат музейи нашри, https://shon-sharaf.uz
17. “Великая Отечественная война 1941–1945 гг.: Энциклопедия” - Москва, 1985., https://www.booksite.ru
18. Манба: Ўзбекистон тарихидан лавҳалар, II ж. - Тошкент, 2009., https://ziyonet.uz
19. Ўзбекистон Соғлиқни сақлаш тарихи. Тошкент тиббиёт музейи ҳужжатлари, 2015., https://minzdrav.uz (излаш: “санаторийлар тарихи”)
20. Манба: «История медицины в Великой Отечественной войне 1941–1945 гг.» - Министерство здравоохранения СССР, Москва, 1970., https://med-history.ru
21. Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. Тошкент: “Ғафур Ғулом” нашриёти, 1987., https://kitobxon.com/uz
22. Ўзбекистон давлат театри тарихи. Тошкент, 1981., архив материалларидан.

HARBIY-KASBIY TAYYORGARLIK RIVOJLANISHIDAGI AYRIM TARIXIY-NAZARIY TAHLILLAR

Raxmanov Farrux Erkinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Isakov Sanjar Xazratqulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Maqolada harbiy-kasbiy tayyorgarlik rivojlanishidagi ayrim tarixiy-nazariy tahlillar, harbiy xizmatchilarni harbiy faoliyatga tayyorlash masalalari nafaqat bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo‘lmay, aksincha, Sharqning qomusiy allomalari hamda xorij olimlarining ham fikr mulohazalarida dolzarb bo‘lib kelganligi haqida so‘z yuritilgan.**

Kalit so‘zlar: harbiy-kasbiy tayyorgarlik, jasurlik, harbiy xizmatchi, sadoqatlilik, harbiy vatanparvarlik, shijoatkorlik, kasb-hunar, rivojlantirish, o‘q otish, harbiy jamoa.

Bugungi kunda mintaqa va dunyoda shiddat bilan ro‘y berayotgan harbiy harakatlar markazida mamlakat kuchlariga nisbatan qo‘llanilayotgan vositalar hamda operativ harakatlarning xilma-xil va o‘zgaruvchan xarakterga ega ekanligi Vatan himoyasi uchun o‘zining jonini baxshida etgan shaxsiy tarkibning harbiy-kasbiy tayyorgarligi va yuqori jangovar shayligini muntazam takomillashtirish, professionallik darajasini tinimsiz oshirib borishni talab etadi.

Zero, Qurolli Kuchlar saflarida o‘z kasbining ustasi, harbiy xizmatning barcha talablariga to‘liq javob bera oladigan shaxsiy tarkibni samarali xizmat qilishini ta’minlashda harbiy xizmatchilarning – harbiy-kasbiy tayyorgarligi o‘ta muhim vazifa hisoblanadi.

Shu bois barcha komandir va boshliqlardan mamlakatimiz va xalqimizni har qanday tahdidlardan himoya qilishdagi eng murakkab vazifalarni bajarishga, dushman qanday qiyofada o‘zini namoyon qilmasin, ularga qaqshatqich, ogohlantiruvchi va yakson qiluvchi zarbalarni berishga tayyor, harbiy-kasbiy tayyorgarligi yuqori shaxsiy tarkibni tayyorlash masalasiga o‘ta sinchkovlik bilan majmuaviy tarzda yondashishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, harbiy xizmatchilarni harbiy-kasbiy tayyorlashdan maqsad jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Ayni vaqtda jahondagi vaziyat keskin o‘zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib borayotgan bir paytda, harbiy xizmatchilarda harbiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning obyektiv shart-sharoitlari to‘g‘risida yanada chuqurroq o‘ylashi, taktik va strategik maqsadlarimiz sirasiga kiradi.

Vatan himoyasi sharafli burch hisoblanadi. Inson ma’naviy olami va axloqiy tafakkurining kuch-qudrati uning Vatan oldidagi burchi va mas’uliyatini qanday anglab yetishida namoyon bo‘ladi. Vatan tarixini jasurlik, mardlik, oliyjanoblik, ziyolilik va yurtga sadoqat fazilatlari bezab turadi. Tarixiy manbalarning guvoh berishicha, qahramon bo‘lish va qahramonlikni namoyon qilish hammaga xos emas. Ayniqsa, qahramonlik yuksak insoniy qadriyatlar, jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘zini qurbon qilishga tayyorlik bo‘lib, u fidoyilikning yuksak darajasidir. O‘z hayoti davomida ana shunday fazilatlarning eng yuksak namunalarini ibrat qilib qoldirgan ajdodlarimiz xotirasi mangulikka daxldor bo‘lgan.

Harbiy xizmatchilarni harbiy faoliyatga tayyorlash masalalari nafaqat bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo‘lmay, aksincha, Sharqning qomusiy allomalari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda o‘z aksini topgan. Sharqning

qomusiy allomalaridan Yusuf Hamadoniy, Abduraxmon Jomiy, Firdavsiy, Kaykovus, Jaloliddin Davoniy kabilarning ilmiy-nazariy qarashlarida mazkur masalalar ustuvor ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Sharqning qomusiy olimlaridan Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G‘ijduvoniy o‘z shogirdlarini mehnat qilishga, kasb-hunar egallashga, harbiy ishlarni o‘rganishga chaqiradi. Allomalarimiz tomonidan ilgari surilgan fikrda har bir shaxs bilim egallash bilan birga kasbiy ko‘nikma va malakalarni o‘rganib borish zarurligini uqtiradi. Xususan, vatan ozodligi, insonlar erkini himoya qiluvchi harbiylik kasbini egallash har bir inson uchun sharafli ekanligini ta’kidlaydi[1].

Bobomiz, Abdurahmon Jomiy insonni mansab va yuqori lavozimlar emas, balki ilm va hunar bezaydi degan. Ma’lumki, yosh avlodning kamolotida kasb-hunar malakalarini egallash lozimligi uqtiriladi. Bu esa shaxsning kelajak taqdirini belgilovchi omil ekanligi e’tirof etadi[2].

Firdavsiy o‘zining “Shohnoma”sida podshoh va askarlarning o‘z xalqi, vataniga sadoqat, mehr-muruvvati qadrlanib uni Jamshid, Rustam kabi afsonaviy qahramonlar misolida tasvirlashga harakat qiladi. Firdavsiy insonga xos mardlik, irodalilik, jur’at, qat’iyatlilik, qahramonlikni Jamshid obrazida jamlab tasvirlagan.

Firdavsiyning yana bir qahramoni Rustamdir. Uning kuch quvvatiga bardosh bera oladigan birorta ham pahlavon yo‘q. Rustamning janglarda yengilmasligi dushmanlarga taslim bo‘lmasligining asosiy sababi va manbai – uning vataniga bo‘lgan mehri, xalqiga muhabbatidir. Ana shu mehru-muhabbat Rustamning kuchiga-kuch, g‘ayratiga-g‘ayrat qo‘shadi, yengilmas botirga aylantiradi. U Vatanini ozod va erkin, xalqini tinch, osuda va farovon ko‘rishni o‘zi uchun baxt deb biladi. Rustam o‘z jonini, oilaviy hayoti va baxtini vataniga tikkan, xalqi uchun baxshida etgan buyuk qahramon timsolidir[3].

Qomusiy olimlardan Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida lashkarboshilik fazilatlari borasida bir qator fikrlarni ilgari surgan. Jumladan, askar yoki lashkarboshi mard, jasur, har qanday qiyinchiliklarni yenga olishida o‘zida kuch, matonat, sabr-toqat ko‘rsata olishi lozimligi uqtiriladi. Kaykovus sipohsolar haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. Ey farzand, agar sipohsolar bo‘lsang, lashkaringga ehson ko‘rguzg‘il, ham o‘z tarafingdin, ham podshoh tomonidin, ularga yaxshilik rasmini tuzg‘il. Hamma vaqt lashkarga xush so‘z aytg‘il va bir luqma non, bir kosa suv topsang ular bilan baham ko‘rg‘ilki, bir parcha nonning qilg‘on ishini ko‘p zar va sarpolar qila olmag‘usidir. Lashkarning ko‘nglini hamisha xush xol tutg‘il. Agar ular sendin jonini darig‘ tushunmasin desang, ulardin sen noningni darig‘ tutmag‘il. Agar seni podshohlik sharafiga yetkazsa, podsholik tariqin yaxshi tutg‘il[4].

Jaloliddin Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo‘ladi. Ular kishining ruhiy ma’naviy quvvatiga bog‘liq bo‘lib, birinchisi, inson aqliga tegishlidir: bunga u vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi ta’lim-tarbiya natijasida vujudga keladi. Uchinchisi kishining shijoati va jasurligida namoyon bo‘ladigan kasblardir: bular – dushmanga qarshi kurash, chegarani qo‘riqlash va boshqalardir. Davoniy shijoatkorlikni, mardlikni ham insonning ijobiy fazilatlaridan biri deb hisoblaydi, u yoshlarning bunday xislatlarni egallashi juda ham zarurligini tushunib yetdi. U shijoatni keng ma’noda tushunadi. Shijoatga kamtarlik, yumshoq fe’llik, botirlik, sabot-matonatlilik, chidamlilik va boshqa sifatlarni kiritadi. Davoniy shijoat kishining xatti-harakatini va boshqalarga bo‘lgan munosabatini baholaydigan bir tushuncha deb qaraydi. Agar inson biror xavf-xatarga duch kelsa, o‘zini mahkam tutishi, esankirab qolmasligi, muvaffaqiyatsizliklardan zorlanmasligini aytadi va mana shunday xatti-harakatlarni shijoatkorlik deb ataydi. Shijoatkorlik inson aqliga bo‘ysunishi lozim deb bildi: “Shijoatkorlik aqlning buyrug‘i bilan sodir bo‘ladi, uning maqsadi (ijobiy) fazilatlarni egallash bo‘lgandagina u haqiqiy bo‘ladi”. Demak, uningcha, inson qachonki shijoatkorona xatti-harakatlar qilsa u albatta aqlning buyrug‘i va zaruratga asoslanish kerak. Davoniy askarlarni eng jasur, shijoatli kishilar deb bildi, chunki ular davlat chegarasini qo‘riqlaydilar. Shuning uchun ham ular davlatning eng ishonchli kishilari hisoblanadi. Podshoh ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi, moddiy yordam ko‘rsatishi lozim, deb hisoblaydi. Ba’zi kishilar tashqi tarafdan shijoat va jasurlikka o‘xshaydigan ishlarni bajaradilar. Ular faoliyatni o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishish uchun, o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida ta’magirlik uchun qiladilar. Bunday yaramas qiliqlarni hech vaqt shijoatkorlikka kiritib bo‘lmaydi. U qo‘rqoqlikni shijoatga qarama-qarshi qo‘yadi. Ayrim kishilar qiyinchiliklardan qochadilar, yengil hayot

kechirish yo‘lini o‘ylaydilar. Bunday kishilarni Davoniy yuraksiz va nomard hisoblaydi va qattiq tanqid qiladi[5].

Tarixdan ma’lumki, yurtimiz boshiga og‘ir, sinovli kunlar tushganda uning ozodligi, osoyishtaligini himoya qilishga qodir mard farzandlar ko‘kragini qalqon qilib yovga qarshi chiqqan. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi dovyurak, jasur, vatanparvar buyuk sarkardalarning nomlari va jasoratlari tillarda dostonga aylangan. Asrlar o‘tsa-da ularning qahramonliklari xalqimiz qalbida mangu yashaydi, har bir vatandoshimiz uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev “Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy san’atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega” deya ta’kidlagan edi[6]. Shu boisdan oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarning harbiy-kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda xalqimizning boy ma’naviy merosi, ajdodlarimiz ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratlarini namuna qilish yorqin misol bo‘la oladi.

Ma’lumki, Amir Temur sipohni tuzishda asosan o‘z zamonida mashhur bo‘lgan o‘nliklar, yuzliklar, mingliklar tizimiga amal qiladi. Uning lashkarlarining eng quyi bo‘g‘inini o‘nliklar tashkil etgan bo‘lsa, eng yuqori bo‘g‘ini esa, Amir ul-umaro rahbarlik qilgan sipoh edi. Uning eng tepasida yakka o‘zi cheksiz huquqqa ega bo‘lgan holda qo‘mondonlik qilardi. Eng muhimi shundaki, sipoh tashkil qilishda Amir Temur ularga o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi amirlar tanlashda shunchaki tanish-bilish orqali emas, balki u bu masalada bevosita jang maydonida o‘zining mahoratini ko‘rsatgan shaxslarni tanlaydi. Bu haqda Amir Temur shunday deydi: “Cherik tuzib navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan - yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan qilichni o‘ynata olishiga, uchinchidan aql zakovatiga-yu kamolotiga e’tibor qildim. Shu uch fazilat jamuljam bo‘lsa, navkarlik xizmatiga oldim...”.

Ana shu yo‘sinda tanlangan navkarlarga rahbarlar etib saylash qoidasini Amir Temur quyidagicha hikoya qiladi: “Amir qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko‘rgan, jang-u-jadal bilan suyagi qotgan o‘n kishi yig‘ilsa, bulardan qaysi birining shijoat, botirligi, ortiqroq bo‘lsa, qolgan to‘qqiztasining roziligi va ma’qullashi bilan uni o‘zlariga boshchi saylab, otini o‘n boshi deb atasinlar”.

Ko‘rinib turibdiki, Amir Temur o‘z sipohini tuzishda ma’lum bir tabiiy kompetentsiyaga amal qiladi. U har bir jangchini tanlashda uning suyagi jang-u jadallarda qotganiga e’tibor beradi. Yana eng muhimi shundaki, ularning boshlig‘i qilib, o‘zlarining oralaridan hammalaridan ham jasurligi, shijoati ortiqroq jangchini tanlab qolgan to‘qqiztasining roziligi asosida o‘nboshi qilib tayinlaydi. Bu yerda Amir Temur tomonidan sipohni boshqarishda navkarning mahoratiga asosiy e’tibor beriladi[7].

Zero, o‘zbek xalqi qahramonlari haqida so‘z borar ekan, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida “Urganchni bosqinchilardan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubroning qahramonligida, dunyoni to‘fondek bosgan Chingizxon qo‘shiniga qarshi o‘n bir yil muttasil mardona kurash olib borgan Jaloliddin Manguberdining jangovar ruhida, yurtimizni istilochilardan ozod qilib buyuk davlat barpo etgan bobomizning bunyodkorlik salohiyatida jasorat tuyg‘usi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani, shubhasiz” deya ta’kidlagan edi[8].

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Z.Bobur yashab o‘tgan davrlarning 1525-yil voqealari bayonidan boshlab, «Boburnoma» sahifalarida Ustod Aliquli - harbiy to‘p yasovchi usta nomi tez - tez keladi. So‘ngra, Bobur harbiy aslahalari qatoriga aravalarga o‘rnatilgan “zarbzan” nomli qurol ham qo‘shadi. Tufang, to‘p, zarbzanlarning dushman askarlarini vahimaga solgani Boburda yangi g‘oyalarni amalga oshirish ishtiyoqini yanada oshiradi va bu ishning ustasi Ustod Aliquli bilan birga mutlaqo yangi qurol - artilleriya aslahasining ilk namunasini yaratishga kirishadi. Boburning bu ishni oxiriga yetkazguniga qadar sabr-bardosh, chidam, uzluksiz izlanish olib borgani g‘oyat ibratlidir. Ushbu jumlada, Zahiriddin Muhammad Boburning buyrug‘iga ko‘ra, juda mas‘uliyatli muhoraba oldidan aniq muddatda yasalib, amalga tatbiq etish lozim bo‘lgan aslaha haqida gap ketayotir. Mukammal to‘p yasash ustida Ustod Aliquli bilan birga uzoq izlanishlar olib boradi. Nihoyat, to‘pni yasashga muvaffaq bo‘ladi, barcha tayyorgarlikdan so‘ng, to‘pni sinab ko‘radilar. Bu qurilma toshni bir yarim

chaqirim masofaga yoki Boburning yozishicha, “ming olti yuz qadam”ga otar edi. Ilk tajriba muvaffaqiyatsiz chiqqan. Shunga qaramasdan, Bobur boshlagan ishining samarasiga ishongan, Ustod Aliqulini o‘ta o‘ng‘aysiz holatdan chiqarib, ko‘nglini ko‘taradi, hatto in’omlar hadya etadi. Bu o‘z navbatida, Boburning ijodkor shaxsga munosabatini, yangilik yaratish sabr - bardosh talab etishini chuqur anglaganligini ko‘rsatadi. Bobur bu borada ikki masalada o‘zining sinchkovligini namoyon etadi: birinchidan, u to‘p nishonining masofasini aniq belgilaydi, chunki bu qurolning asosiy sifat belgisi - o‘q qanchalik uzoqroqqa yetishiga bog‘liq bo‘lgan. Ikkinchidan, uning Ustod Aliquliga qilgan in’omi faqat eng katta xizmat ko‘rsatgan, e’tiborli kishilarga ataladigan sovg‘asi bo‘lib, bu ham Boburning mazkur masalaga nechog‘li e’tibor bilan qaraganini ko‘rsatib turibdi. Jazo o‘rniga mukofot olgan usta butun qobiliyatini ishga solib, tajribada sinalayotgan to‘pning qusurini topadi va bu xabarni Boburga yetkazishga shoshiladi. Bobur ustaning to‘pdagi kamchilikni qisqa muddatda aniqlab, yana zudlik bilan bu masaladan lashkarboshini xabardor etishni o‘z burchi deb bilganini tahsinga sazovor deb ta’kidlaydi, texnik jihatdan eng murakkab bo‘lgan muammo to‘pni yaratishda uning qozonidagi porox xonasidir. Ustod Aliquli aslahaning shu nozik qismi butunligidan xursandchiligini shohga yetkazishga shoshgani ham shu bilan izohlanadi. Boburning mukammal to‘p yasash ustida Ustod Aliquli bilan birga olib borgan uzoq izlanishlari o‘zining yuksak natijasini beradi va misli ko‘rilmagan, 1500 – 2000-metrgacha bo‘lgan nishonni aniq urishga qodir bo‘lgan artilleriya to‘pi yaratiladi[9].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, harbiylik faoliyati, jangovar ruh, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy sifat va faoliyat muhim omil ekanligi ko‘rsatilgan.

Ayniqsa, allomalarimiz merosida kasb tanlash, kasbiy sifatlar masalasi bo‘lajak mutaxassis shaxsini shakllanishida dasturil-amal bo‘lib xizmat qiladi. Zero, harbiy mutaxassis shaxsini tayyorlash davlat ahamiyatiga molik vazifadir. U jamiyatning ma’naviy asoslarini tushunishi va ularning armiya an’analari bilan birligini ta’minlashga qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fikr va mulohazalarimiz shundan dalolat beradiki, harbiy-kasbiy tayyorgarlik yuqori darajada egallanishi kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, Sharq mutafakkirlari va yetuk olimlar asosiy e’tiborlarini, bir tomondan, qo‘shinlar kuch-qudratini oshirish, ularning harbiy-kasbiy tayyorgarligini yuksaltirish, mamlakat yaxlitligi va xavfsizligini saqlashga, ikkinchi tomondan, qo‘shinda ma’naviy-axloqiy va g‘oyaviy fazilatlarni tarbiyalashga qaratganlar. Allomalarimizning fikr va mulohazalari bugungi kunda mamlakatimiz harbiy salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning harbiy-kasbiy tayyorgarligi, jangovar shayligini oshirish hamda ularda yuksak harbiy-kasbiy sifatlar, jumladan, qahramonlik, mardlik, jasurlik, qat’iyatlilikni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые историко-теоретические аспекты развития военно-профессиональной подготовки. Подчеркивается, что вопросы подготовки военнослужащих к военной деятельности не только являются актуальной проблемой современности, но и сохраняют свою значимость в трудах как восточных, так и зарубежных исследователей.

Ключевые слова: военно-профессиональная подготовка, мужество, воинская доблесть, верность, военный патриотизм, отвага, профессия, развитие, стрельба, воинский коллектив.

Annotation. The article talks about some historical and theoretical analyses of the development of military professional training, that the issues of training military personnel for military activities are not only urgent problems of today, but also remain relevant in the opinions of both scientists of the East and foreign scientists.

Key words: military professional training, courage, military valor, loyalty, military patriotism, courage, profession, development, shooting, military team.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G‘ijduvoniy, ijod va an’analari. Toshkent. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. “Adabiyot jamg‘armasi” 2001. 138-139-bet.
2. Abduraxmon Jomiy “Ma’naviyat”. – T.: – 1998. – B. 52.
3. Firdavsiy.“Shoxnoma”. Birinchi kitob. Toshkent, 1975, 734 bet.
4. Kaykovus. «Qobusnoma». - T., «Meros». 1992. – 173 b.
5. Aliqulov H.,Omonboyeva R Jomiy va Davoniy Ta’lim –tarbiya haqida Toshkent, O‘zbekiston 1981 yil. 41 bet
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgust kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlari harbiy ximatchilariiing ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-sonli qarori.
7. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016. – 72 b.
8. Karimov I.A. “Yuksak manaviyat - yengilmas kuch” asari. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2008. – 176 b.
9. Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar”. Ilm-Ziyo-Zakovat nashriyot tahririyati. –T.: 2020. – 592 b.

80-ЛЕТИЕ ОКОНЧАНИЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ: ВКЛАД И ГЕРОИЗМ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Муракаева Шахноза Хамидуллаевна,
Университет общественной безопасности
Республики Узбекистан
дотцент кафедры Изучения языков, д.ф.п.н. (PhD)

Хурсандов Алишер Суюнович,
Университет общественной безопасности
Республики Узбекистан, начальник кафедры Изучения
языков, д.ф.п.н. (PhD), дотцент

Аннотация. **В 2025 году исполняется 80 лет со дня окончания Второй мировой войны — крупнейшего конфликта XX века, унёсшего десятки миллионов жизней и определившего судьбы народов на долгие десятилетия. Узбекистан, являвшийся частью Советского Союза, внёс огромный вклад в Победу как на фронте, так и в тылу. В статье рассматриваются героизм узбекских солдат, участие в ключевых сражениях, роль республики в обеспечении эвакуации и промышленной мобилизации, а также значимость сохранения исторической памяти для формирования патриотизма в современном Узбекистане.**
Ключевые слова: : Узбекистан, Вторая мировая война, мой дед и его вклад, 80-летие Победы, герои войны, историческая память, Великая Отечественная, тыл, эвакуация, патриотизм.

Война- это горе и слёзы невинных людей и их семей, она постучала в каждый дом принесла потери утраты и печаль, беду затронув судьбы наших отцов, дедов и прадедов. Из каждой семьи ушли на фронт отцы и дети, мужья ,бабушки и дедушки, братья и сёстры. Тысячи людей испытали ужасные мучения и страдания, но и твой и мой дед выстояли и победили. Победили в самой тяжкой и судьбоносной из всех войн, перенесённых до сих пор человечеством. Война в памяти моего деда Кодирова Бахтиёра всплывала самым страшным и горестным воспоминанием [Муракаева Ш.Х. Мой дед и его истории. Мемуары им сборник историй., Березиков С.Т. Всё о войне и даже больше. С 89-129]. Мы молодое поколение кому за тридцать и чуть больше войну видели только в кино и читали о ней в книгах и слышали о ней в рассказах от родного великого деда и бабушки, ведь она оставила неизгладимый след в истории нашей семьи. В этом году мы отмечаем 80-летие Победы в Великой Отечественной войне. Это важный Праздник для каждого из нас. Вторая мировая война-война двух мировых военно-политических коалиций, ставшая крупнейшим вооружённым конфликтом в истории человечества. В этой войне участвовали 62 государства из 74 существовавших на тот момент 80 % населения Земного шара, боевые действия велись на территории Евразии и Африки и в водах всех океанов, это единственный конфликт, в котором было применено ядерное оружие. В результате войны погибло более 70 миллионов человек и в основном это были ка как всегда мирные жители. 80-летие окончания Второй мировой войны, которое мир отмечает в 2025 году, — это не только историческая дата, но и напоминание о трагических событиях, ставших испытанием для всего человечества. Для народов бывшего Советского Союза, и особенно для Узбекистана, эта война стала временем величайшего напряжения сил, героизма и самоотверженности. В условиях жестоких боевых действий и экономических трудностей узбекский народ проявил невероятное мужество и братство, как на фронте, так и в тылу. С начала войны из Узбекистана на фронт было мобилизовано более 1,5 миллионов человек, среди которых представители всех народов, населяющих республику. Они сражались на всех ключевых участках фронта — от обороны Москвы и Сталинграда до освобождения Восточной Европы, и штурма Берлина. Главным итогом Второй мировой

войны в первую очередь следует считать победу над фашизмом. Огромные потери понес Советский Союз, который принял на себя главный удар немецкой армии: 26,6 миллиона человек. В Нюрнберге именно нацистская Германия и ее политические, партийные и военные лидеры были признаны главными и единственными виновниками международной агрессии. Поэтому попытки некоторых современных историков разделить эту вину поровну между Германией и СССР полностью несостоятельны. Для достижения германского господства в Европе, как считали нацистские лидеры, была необходима война, заручившись нейтралитетом Советского Союза в августе 1939 года был подписан германо-советский пакт о ненападении, Германия развязала Вторую мировую войну, напав на Польшу 1 сентября 1939 года. Среди героев-узбекистанцев, навсегда вписанных в летопись Великой Отечественной войны:

❖ **Бахтиёр Кодиров** – наш родной дед, отец мамы, удостоен звания **Героя Советского Союза**, отличившийся при форсировании Днепра и участник штурма Берлина, оставивший мемуары, ставшие важным свидетельством народного подвига. До войны он работал начальником статистического управления при райисполкоме, окончил в своё время Московский институт народного хозяйства по специальности экономист, участвовал в двадцать третьем съезде депутатов в Москве. Его молодость и вся жизнь была полна смысла, участия, работы, хороших должностей и целей для своей страны, знал немецкий и французский в совершенстве. [Муракаева Ш.Х. Мой дед и его истории. Мемуары им сборник историй., Березиков С.Т. Всё о войне и даже больше. С 89-129].

❖ **Исматулла Тангриев** – один из первых узбеков, удостоенных звания **Героя Советского Союза**, командир батальона, отличившийся при форсировании Днепра.

❖ **Матёкуб Кушаев** – танкист, герой Курской битвы, погибший смертью храбрых, сражаясь до последнего.

❖ **Туйчи Эржигитов** – снайпер, уничтоживший более 300 вражеских солдат, прославившийся на Ленинградском фронте.

❖ **Зебуннисо Закирова** – фронтовая медсестра, спасшая более 500 жизней, награждена орденами Красной Звезды и Отечественной войны.

❖ **Саидкасым Ашуров** – участник штурма Берлина, оставивший мемуары, ставшие важным свидетельством народного подвига.

Великий подвиг узбекского народа проявился не только на фронтах, но и в самоотверженном труде в тылу. На территорию республики было эвакуировано:

- более **100 промышленных предприятий**;
- около **1,2 миллиона человек**, в том числе **200 тысяч детей-сирот**, которых узбекские семьи приняли как родных.

Узбекистан стал надёжной базой для размещения производств оборонного значения — в Ташкенте, Самарканде, Фергане начали работу заводы по выпуску вооружения и боеприпасов. Жители республики жертвовали свои последние сбережения в Фонд обороны, выращивали продовольствие, обеспечивали армию хлопком и медикаментами. История Второй мировой войны в Узбекистане неразрывно связана с примерами братства, милосердия и гуманности. Один из самых ярких образов – **«Узбекская мама» – Шарафат Рашидова**, усыновившая и вырастившая 15 детей-сирот. Подобные подвиги стали символом того, что узбекский народ в годы войны не только сражался, но и сохранял человеческое достоинство, защищая самых уязвимых. В современной Республике Узбекистан сохраняется и активно развивается система патриотического воспитания, направленного на изучение и увековечивание подвига предков. Во всех регионах республики действуют музеи боевой славы, проводятся ежегодные акции «Бессмертный полк», публикуются книги памяти, документальные фильмы, организуются научные конференции и встречи с ветеранами. Важным шагом стало создание мемориального комплекса «Шон-Шараф» в Ташкенте — как центра памяти о героях войны.

В заключении стоит отметить, что 80-летие Победы — не просто юбилейная дата, а момент глубокого осмысления исторической ответственности перед прошлым и будущим. Подвиг узбекского народа в годы Второй мировой войны — это образец мужества, гуманизма и единства. Современный Узбекистан, укрепляя независимость и национальное самосознание, продолжает чтить память о тех, кто защитил мир от фашизма.

Annotatsiya. 2025-yil ikkinchi jahon urushi tugaganiga 80 yil to‘ldi. Bu o‘n millionlab odamlarning hayotiga Zomin bo‘lgan va o‘nlab yillar davomida xalqlarning taqdirini belgilab bergan XX asrning eng yirik mojarosi. Sovet Ittifoqining bir qismi bo‘lgan O‘zbekiston frontda ham, orqada ham g‘alabaga katta hissa qo‘shdi. Maqolada o‘zbek askarlarining qahramonligi, asosiy janglarda qatnashishi, evakuatsiya va sanoat safarbarligini ta’minlashda respublikaning o‘rni, shuningdek, zamonaviy O‘zbekistonda vatanparvarlikni shakllantirish uchun tarixiy xotirani saqlashning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ikkinchi jahon urushi, bobom va uning hissasi, G‘alabaning 80 yilligi, urush qahramonlari, tarixiy xotira, Ulug‘ Vatan urushi, front orti, evakuatsiya, vatanparvarlik.

Annotation. 2025 marks the 80th anniversary of the end of World War II. This is the largest conflict of the 20th century, which claimed tens of millions of lives and determined the fate of peoples for decades. Uzbekistan, part of the Soviet Union, contributed significantly to victory both on the front and behind. The article discusses the heroism of Uzbek soldiers, their participation in the main battles, the role of the Republic in ensuring evacuation and industrial mobilization, as well as the importance of maintaining historical memory for the formation of patriotism in modern Uzbekistan.

Key words: Uzbekistan, World War II, grandfather and his contribution, 80 years of victory, heroes of War, historical memory, Great Patriotic War, Front Rear, evacuation, patriotism.

Использованная литература:

1. Ашрафов Р. Мобилизация ресурсов в годы войны: экономика Узбекской ССР. Изд-во Наука и Образование. Ташкент-2015., С- 123-145
2. Ахмедов С. Вклад Узбекской ССР в Победу в Великой Отечественной войне. Изд-во Шарқ. Ташкент-2019., С- 47-67
3. Курбанов Т. История героизма: Узбекские герои Великой Отечественной войны. Изд-во Медиа-пресс. Ташкент- 2020., С- 78-86
4. Усманов С. Победа через испытания: судьбы узбекских героев войны Изд-во ТашГУ. Ташкент-2017., С- 56-65

IKKINCHI JAHON URUSHINING HARBIY JINOYAT PROTSESSINING RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Alimov Muhammadjon Islomiddin o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra dotsenti
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada harbiy jinoyat protsessining tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning mamlakatimiz harbiy jinoyat protsessini Sobiq SSR davlat qonunchiligida rivojlanishining retrospektiv tahlili o‘rganilgan. Mazkur o‘tkazilgan tahliliy tadqiqotlar asosida mamlakatimizda harbiy qonunchilikning jinoiy-huquqiy maqomi, protsessual mexanizmi va amaliyotni takomillashtirish, shu bilan birgalikda harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov va sud organlirining ish yuritish tartibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va tarixiy asoslangan faktik ma’lumotlarga tayangan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy jinoyat, harbiy xizmatchi, harbiy jinoyat protsessi, jinoiy javobgarlik, tergov, sud, harbiy tribunal, jinoyat.

Harbiy jinoyat protsessi tarixan rivojlanishda bir qator dunyoda gegemonlikni da’vo qiluvchi davlatlar tomonidan olib borilgan qurolli mojarolar va urushlarni olib borish fonida rivojlangan. Shu sababli aksariyat olimlarning qarashlari “Harbiy jinoyat protsessi” deganda ko‘pincha urush davrida qurolli harakatlar olib borish chog‘ida harbiy tribunallar tomonidan harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan urush qoidalariga zid hatti-harakatlar yuzasidan qo‘llaniladigan jinoiy tizim va jazoni tushuniladi.

Lekin hozirda bizning tadqiqot ishimiz obyekti nafaqat qurolli harakatlar chog‘ida, balki tinchlik davrida ham harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etiladigan harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etiladigan boshqa turdagi jinoyatlar yuzasidan ham sudga qadar ish yurituv va sud muhokamasi davridagi protsessual harakatlar va ular bilan bog‘liq muammolarning echimiga bag‘ishlangan.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, mazkur harbiy jinoyat protsessini rivojlanish bosqichlari ko‘p asrlik rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, davlatning xavfsizligini va uning ichki tartibini saqlovchi organ sifatida harbiy xizmat va uning subyektlari tomonidan qonun buzilishini tartibga solish azal-azaldan muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Rus harbiy tarixchi olimlari Beznasyuk A.S., Tolkachenko A.A.larning fikrlariga ko‘ra dastlabki harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar va ularning javobgarligini tartibga soluvchi normalar miloddan avvalgi 1750-yilga qadimgi Messopatamiyada Xamurappi qonunlarida tartibga solingan. Mazkur qonunlarga ko‘ra faqatgina ikkita jinoiy qilmish uchungina javobgarlik belgilangan. Birinchisi mazkur qonunning 26-moddasida harbiy xizmatdan bo‘yin tovlaganligi uchun va 6-13-moddalarida “Har qanday mulkni, jumladan harbiy mulkni xavfsizligiga tajovuz qilganligi” uchun javobgarlik belgilangan[1; 119 b].

Shu bilan birgalikda harbiy jinoyat protsessi va harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik g‘oyalari qadimgi Yunonistonda shakllangan, ammo Vizantiya imperatori Yustinia (miloddan avvalgi 529-534 yillar) davrida yaxlit qonun shaklida shakllantirilgan. Mazkur qonun normalari zamonaviy qonunchilikning prototipidir va barcha jinoyatlarni umumiy va harbiy jinoyatlarga ajratadi. Bundan tashqari, Rim jinoyat huquqining eng rivojlangan qismi hisoblanib, bu davrga kelib davlat rivoji uchun armiyaning ahamiyati va obro‘si oshib borishi bilan mazkur sohani tartibga solishga ehtiyoj shakllanib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Yustinian davridagi qonun normalarida harbiy xizmatchilar tomonida xiyonat, dushman tomoniga o‘tish, harbiy sirni oshkor qilish, isyon yoki qo‘zg‘olonga chaqirish, jang maydonidan qochish, ixtiyoriy ravishda taslim bo‘lish, bo‘ysunmaslik, harbiy boshliqqa nisbatan hurmatsizlik, harbiy xizmatdan qochish,

safdoshiga jarohat etkazish, qurol yoki boshqa harbiy mulkni yo‘qotish, sotish, o‘g‘irlash kabi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, mazkur qilmishlarni sodir etganligining fakti haqidagi ma’lumotning o‘zi ham javobgarlikka asos bo‘lishi belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin[1; 112 b].

Keyinchalik qadimgi Rimda harbiy jinoyatlar tarkibini tavsiflash bilan bir qatorda, Rim jinoyat qonunchiligida harbiy jinoyat tushunchasi, aybdorlik shakllari, jinoyatda ishtirokchilik, tergov va jazo choralarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi qoidalar ishlab chiqilgan. Rus olimi Sidoriy V.V.ning fikricha insoniyat jamiyati rivojlanib borgan sari Rim harbiy-jinoyat huquqi qoidalari turli davlatlar qonunchiligida keng qo‘llanilib borgan. Masalan, Germaniyada Maksimilian I ning harbiy qonunlarida (1508) harbiy jinoyatlar yuzasidan harbiy xizmatchilarning vazifalari, sudlarning harbiy jinoyatlarni tergov qilishdagi vakolatlari, jinoiy ta’sir choralarining ro‘yxati va boshqa isbotlashning vositalari belgilandi[4; 215 b].

Qadimgi Rus davlatida haqidagi fikrlarni Suxondyaeva T.Yu.ning fikriga ko‘ra qadimgi Yevropadan farqli o‘laroq aniq bir normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmagan. Qadimgi normativ-huquqiy hujjatlarda faqatgina milodiy 944-yilda Qadimgi Russning Vizantiya bilan urush oldidan shartnomaviy munosabatlar orqali urush qoidalari va buzilgan qoidalar uchun to‘lanadigan tovon pullari tartibga solinganligini ko‘rishimiz mumkin[5; 28 b].

Shu bilan birgalikda davlatning barcha sohalarida bir vaqtning o‘zida amal qilgan umumrus huquqining eng qadimgi va eng muhim manbai 1016-yilda Knyaz Yaroslav ko‘rsatmasi bilan tuzilgan rus haqiqati edi. U o‘sha paytda mavjud bo‘lgan ko‘plab huquqiy urf-odatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular jinoiy harakatlar umumiy jinoiy va harbiy harakatlarga bo‘linmaganiga qaramay, Rossiyaning barcha aholisiga nisbatan qo‘llanilgan.

O‘rta asrlardagi Rossiya Knyazliklaridagi harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar va ularning huquqiy munosabatlarini tartibga solishning mahalliy asosiy manbai 1037-yildan 1050-yilgacha metropolit Ilarionning Qonuni hisoblanadi. Diniy yo‘nalishga ega bo‘lgan bu so‘z Knyazlarning armiya uchun javobgarligini va Xudo oldida harbiy ishlar va ularning majburiyatlarini belgilab berdi. O‘z navbatida, Knyaz mazkur qonun orqali o‘z fuqarolariga nisbatan cheksiz kuch ishlatish huquqini olgan.

Moskva knyazligi milodiy XIV-XVII asrlarda kuchaygan davrda uning qonunchiligi rivojlandi. 1497 - 1550 yillardagi sud hujjatlari va knyazlik ustavlari yozma shaklda nashr etilib, «Yorliq» (Gramota), «Farmon» (ukaz) va «Hukm» (Prigovor) deb nomlandi va keyinchalik ular yangi normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda hisobga olindi.

Sud hujjatlarini nashr etish zarurati knyazliklarni yagona Moskva davlatiga birlashtirish va uning hududini ko‘payishi bilan izohlanadi. Knyazliklarda turli xil qonun hujjatlari, masalan, “Rus Haqiqati”, “Pskov va Novgorod sud yorliqlari”, “Dvina va Belozer ustav yorliqlari” va boshqa ko‘plab qonunlar amal qilgan. Sud hujjatlarida ular jinoyat, protsessual va fuqarolik huquqini tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjatga aylantirildi. Bu davrdagi harbiy huquq 1529-yilgi Litva statuti normalari bilan tartibga solingan, uning (Zemskaya mudofaasi to‘g‘risidagi) bo‘limlaridan biri faqat davlat mudofaasi masalalariga bag‘ishlangan.

Keyinchalik rus davlatining harbiy huquqini takomillashtirgan hujjat 1571-yilda qabul qilingan ustav bo‘lib, u shoh Ivan IV Grozniy tomonidan tasdiqlangan «Stanik va qo‘riqchi xizmati to‘g‘risidagi Boyar hukmi» deb nomlangan. Unda harbiy xizmatdan bo‘yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi muhim qoidalar mustahkamlangan[5; 29 b].

1649-yilda Aleksey Mixaylovich Romanov Sobor kodeksini tasdiqladi. Nizomning nashr etilishi siyosiy, iqtisodiy va asosan huquqiy jihatdan shartlangan. Mavjud qonunchilikni tizimlashtirish talab etilardi: 1550-yilgi sud kodeksidan 1649-yilgi Nizomgacha bo‘lgan davrda 445 ta farmon chiqarildi, ular nafaqat eskirgan, balki qisman bir-biriga zid edi.

Rossiya qonunchiligida Pyotr I davriga kelib muntazam armiya va flotni yaratilishi bilan, harbiy jinoyat qonunchiligini yangi tamoyillarini ishlab chiqish boshlandi. G‘arb modeliga muvofiq muntazam armiya quyidagi prinsiplarga asoslangan holda qonunchiligi tizimlashtirilgan:

- umumharbiy xizmat;
- markazlashtirilgan rahbarlik;
- yagona qo‘mondonlik;
- eng shafqatsiz harbiy intizom.

1812-yil 27-yanvarda Napoleon I bilan

urushga tayyorgarlik ko‘rish paytida imperator Aleksandr I tomonidan yangi dala jinoyat kodeksi va dala sudlovining Nizomini tasdiqlandi. Ushbu Nizom harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan haqiqatni aniqlashga va jinoyat sodir etgan shaxsning sodir etgan qilmishini isbotlashda talab etiladigan dalillarning turlarini tartibga solganligini ko‘rishimiz mumkin[13].

Nikolay I Rossiya imperiyasi qonunlarining to‘liq to‘plamini 1832-yilda qabul qilishga muvaffaq bo‘ldi. Mazkur qonunlar to‘plamining sakkizinchi bo‘limi «Jinoyat qonunlari» deb nomlangan 15 jilddan iborat bo‘lib, mazkur bo‘limda jinoyatlar, jazolar va jinoyat protsesslari to‘g‘risidagi normalarni o‘z ichiga olgan. Bir so‘z bilan aytganda birinchi bo‘lib Nikolay I davrida Rossiyada harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan o‘tkaziladigan protsessual harakatlar va ular natijasida olinadigan dalilar orqali haqiqatni aniqlash, aybdorni jazolash tartibi tartibga solinganligini ko‘rishimiz mumkin[2; 34 b].

Yuqorida keltirilgan qonunlar to‘plamining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, harbiy qo‘mondonlikka jinoiy javobgarlik masalalarini hal qilishda harbiy sudlar tomonidan chiqarilgan hukmni tasdiqlash va muayyan holatlarda qonunning qat’iyligini kuchaytirish huquqi berilgan. Demak, bundan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Rossiya imperiyasida dastavval harbiy sudlar ustidan harbiy qism qo‘mondonligi nazorati o‘rnatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur teskari qarama-qarshilikka qaramay ushbu norma mamlakatda birinchi jahon urushi va mamlakatdagi beqaror siyosiy vaziyat sabab Rossiya imperiyasi qulashidan oldin armiya va dengiz flotida jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifasini yaxshi bajargan va qisman 1922-yilgacha ishlatilgan.

1917-yil oktabr inqilobi davlat hokimiyatini tashkil etish asoslarini va Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tubdan o‘zgartirdi. Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi, so‘ngra Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi Rossiya harbiy-jinoyat qonunchiligi tarixida alohida bosqichni-sovet davrini (1917-1991) tashkil etdi.

Dastlab, RSFSRning harbiy-jinoiy qonunchiligi sovet hokimiyatining farmonlarini, Markaziy saylov komissiyasi va xalq Komissarlari Kengashining buyruqlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning asosini Rossiya imperiyasining qonunchiligi va vaqtinchalik hukumatning normativ-huquqiy hujjatlari mamlakatdagi mavjud siyosiy vaziyatga zid bo‘lmagan qism tashkil etgan. Jinoyatchilikka qarshi kurashda o‘zlarining jinoiy-huquqiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishga intilib, bolsheviklar faqat sinfiy yondashuvga amal qildilar va shu munosabat bilan harbiy-jinoiy qonunchilikka harbiy-jinoiy Adliya harbiy qo‘mondonlik va partiya-siyosiy tuzilmalarga qattiq bog‘liq bo‘lgan favqulodda huquq turini berdilar.

Ular asta-sekin o‘z maqsadlariga erishdilar va 1919-yil 30-yanvarda Butunrossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi qizil armiyaning intizomiy nizomini tasdiqladi, unga ko‘ra o‘z rahbarlarining qonuniy talablarini bajarmagan bo‘ysunuvchilar sovet hokimiyatini yo‘q qiluvchilar deb tan olindi va inqilobiy qonunlarning barcha jiddiyligi bilan jazolandi va 1922-yil 26-mayda sovetlarning IX qurultoyi Rus Sovet Federativ sotsiolistik Respublikasining birinchi Jinoyat kodeksini (bundan keyin-RSFSR jinoyat kodeksi)[6].

RSFSR jinoyat kodeksining 1922-yil 26-maydagi «harbiy jinoyatlar» mustaqil bobini o‘z ichiga olgan va harbiy mulkni saqlashga qaratilgan uchta asosiy himoya normalarini birlashtirgan (207, 209, 210-moddalar):

- harbiy xizmatchilarga kiyinish uchun berilgan davlat kiyimlari va o‘q-dorilarini o‘rash, ya’ni noqonuniy ravishda begonalashtirish, shuningdek ularni qasddan buzish yoki qarovsiz va noo‘rin joyda qoldirish;

- harbiy boshliqning o‘z hokimiyati chegaralaridan oshib ketishi yoki uning harakatsizligi, unga ishonib topshirilgan qurolli kuchlar va moddiy boyliklarning tartibsizlanishiga yoki boshqa muhim oqibatlarga olib kelmaydigan zararli niyatsiz sodir etilgan;

- harbiy komandirning unga berilgan dispozitsiyadan yoki jang uchun berilgan boshqa buyruqdan o‘zboshimchalik bilan chekinishi, dushmanga ishonib topshirilgan otryadlarni, istehkomlarni yoki harbiy kemalarni topshirishi, shuningdek istehkomlarni, kemalarni, qurollarni, qurol-yarog‘ omborlarini, oziq-ovqat mahsulotlarini yo‘q qilish yoki yaroqsiz holga keltirish.urush vositalariga tegishli boshqa narsalar.

1927-yil 27-iyulda harbiy jinoyatlar to‘g‘risidagi yangi Nizom kuchga kirdi va 1959-yilgacha amal qildi. 1958-yil 25-dekabrda

SSSR Oliy Kengashi tomonidan SSSRning «Harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida» gi qonuni (keyingi o‘rinlarda qonun deb yuritiladi) qabul qilindi[10], bu sovet harbiy - jinoyat qonunchiligini yanada rivojlantirishning muhim bosqichi bo‘ldi. Ushbu qonun Qurolli Kuchlarda intizom va tartibni mustahkamlash vazifalaridan kelib chiqqan holda sovet jinoyat huquqining qoidalari va tamoyillarini aks ettirdi, jangovar xavf tug‘diradigan eng xavfli harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgiladi.

1960 yilda RSFSRning uchinchi Jinoyat kodeksi qabul qilindi va yangi Umumharbiy ustavlar kuchga kirdi, bu esa SSSRning «Harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida»gi qonunida mustahkamlangan huquqbuzarliklar tarkibini huquqiy tartibga solishni aniqlashtirishni talab qildi. Ushbu jinoyat kodeksida harbiy mulkni o‘g‘irlash yoki yo‘qotish (250-modda), harbiy mulkni qasddan yo‘q qilish yoki shikastlash (251-modda), dushmanga urush vositalarini topshirish yoki qoldirish (261-modda), halok bo‘lgan harbiy kemani tark etish uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan (262-modda)[7].

Sovetdavridagiharbiy-jinoyatqonunchiligini qo‘llashning muhim xususiyati shundaki, unda qo‘mondonlikning roziligisiz harbiy prokuratura jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchiga nisbatan jinoiy ishni harbiy sudga o‘tkaza olmasligi aniqlandi. Agar bo‘ysunuvchining qilmishida uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat tarkibi mavjud bo‘lsa, qo‘mondon intizomiy choralarni qo‘llash yoki jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun tergovga ish hujjatlarini yuborish huquqiga ega bo‘lgan. Mazkur tartib SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1989-yil 12-noyabrdagi farmoni chiqarilgunga qadar mavjud bo‘lib, u bekor qilindi, harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik esa umumiy asosda belgilanishni boshladi[3].

SSSRning qulashi amaldagi harbiy-jinoyat qonunchiligini Rossiya Federatsiyasida yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga muvofiqlashtirishni talab qildi. Avvalo, 1994 yilda Rossiya Federatsiyasi Qurolli kuchlarining umumiy harbiy ustavlari kuchga kirdi va 1996-yilda Rossiya Federatsiyasining yangi Jinoyat kodeksi qabul qilindi, u hozirgi kungacha amal qiladi, unda 22 ta modda va 33 bob harbiy xizmatga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi[9].

Shu bilan birgalikda mamlakatimizda harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar rivojlanish bosqichlarini o‘rganganimizda O‘zbekiston hududida ko‘plab davlat tuzilmalari tashkil topgan va rivojlangan. Mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan davlat tuzilmalarining har biri o‘ziga xos va umumiy jihatlarga ega bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi hududida mavjud bo‘lgan davlatlarning harbiy jinoyatlarga oid qonunchiligi haqida so‘z ketganda, shuni alohida ta’kidlash joizki, Amir Temur davrini istisno etganda, bu masala juda kam o‘rganilgan yoki aytish joiz bo‘lsa, umuman o‘rganilmagan.

O‘zbekistonda hozirgi zamon harbiy jinoyat qonunchiligining rivojlanishi Qurolli Kuchlarning vujudga kelish va rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, muayyan tarixiy sharoit, qo‘shinning tashkiliy tuzilmasi, kadrlar tarkibi va texnik jihozlanishidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

1959-yilgi O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi (1977-yil 1-yanvargacha bo‘lgan o‘zgarish va qo‘shimchalar olib tuzilgan)ga binoan quyidagi moddalarda harbiy jinoyatlarga nisbatan jazo belgilangan edi:

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 226-moddasi. «Itoatsizlik»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 227-moddasi. «Buyruqni bajarmaslik»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 228-moddasi. «Boshliqqa qarshilik ko‘rsatish yoki uni o‘z xizmat vazifalarini buzib bajarishga majbur etish»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 229-moddasi. «Boshliqni qo‘rqitish»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 230-modasi. «Boshliqqa nisbatan zo‘rlik ishlatish»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 231-moddasi. «Bo‘ysinuvchining o‘z boshlig‘ini va boshliqning o‘ziga tobe harbiy xizmatchini haqorat qilishi»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 232-moddasi. «O‘rtalarida tobelik yoki katta-kichiklik munosabati bo‘lmagan holda, bir harbiy xizmatchi ikkinchi harbiy xizmatchini zo‘rlik ishlatib yoki harakat bilan haqorat qilish»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 233-moddasi. «O‘zboshimchalik bilan ketish»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 234-moddasi. «Harbiy qismni yoki xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish»;
- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining

235-moddasi. «Dezertirlik»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 236-moddasi. «Jang vaziyatida harbiy qismni o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 237-moddasi. «O‘zining biron a’zosini mayib qilish yo‘li bilan yoki boshqa yo‘llar bilan harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 238-moddasi. «Harbiy mulkni behuda sarflash yoki yo‘qotish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 239-moddasi. «Harbiy mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 240-moddasi. «Mashina haydash yoki undan foydalanish qoidalarini buzishi»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 241-moddasi. «Uchish yoki uchishga tayyorlanish qoidalarini buzish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 242-moddasi. «Kema yurgizish qoidalarini buzish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 243-modasi. «Qorovul xizmati ustavining qoidalarini buzish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 244-moddasi. «Chegara xizmatini bajarish qoidalarini buzish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 245-moddasi. «Jangovar navbatchilikni o‘tash qoidalarini buzish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 246-moddasi. «Ichki xizmat ustavining qoidalarini buzish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 247-moddasi. «Harbiy sirni oshkor qilish yoki harbiy siri bo‘lgan hujjatlarni yo‘qotish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 248-moddasi. «Mansabni suiiste’mol qilish, mansabdan chetga chiqish va xizmatga sovuqqonlik bilan qarash»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 249-moddasi. «Urush olib borish vositalarini dushmanga topshirish yoki qoldirish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 250-moddasi. «Halok bo‘layotgan harbiy kemani tashlab ketish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 251-moddasi. «Jang maydonini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish yoki qurol bilan harakat qilishdan bosh tortish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 252-moddasi. «O‘z ixtiyori bilan asir tushish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 253-moddasi. «Asirlikdagi harbiy xizmatchining jinoiy harakatlari»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 254-moddasi. «Marodyorlik»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 255-moddasi. «Urush harakatlari rayonida aholiga zo‘ravonlik ishlatish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 256-moddasi. «Harbiy asirlar bilan yomon muomala qilish»;

- O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 257-moddasi. «Qizil Krest va Qizil Yarim oy znaklarini qonunga xilof ravishda taqib yurish va ularni suiiste’mol qilish».

1994 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ettinchi bo‘limi harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarga bag‘ishlangan. Bo‘lim to‘rt bob (XXI-XXIV)dan iborat bo‘lib, ilgari amalda bo‘lgan jinoyat qonunchiligi (O‘z SSR JKning 11-bobi)dan ancha farq qiladi.

Yangi JKda harbiy jinoyatlar «Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan. Lekin bu harbiy jinoyat ta’rifiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgani yo‘q, chunki jinoyat obyekti deyarli o‘zgarishsiz qolgan. Oldingi kodeksda ham, yangi kodeksda ham harbiy xizmatni o‘tash tartibi jinoyat obyekti sifatida tan olingan. Ayni vaqtda, shuni e’tiborga olish zarurki, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyat tushunchasi harbiy jinoyat[12] tushunchasiga qaraganda kengroq bo‘lib, u nafaqat harbiy xizmatni o‘tash tartibini buzishni, balki harbiy xizmat manfaatlariga har qanday tajovuzni nazarda tutadi. Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki, 1959-yilgi O‘z SSR Jinoyat kodeksida harbiy jinoyat tushunchasi alohida modda (O‘z SSR JK 225-modda) sifatida berilgan edi. 1994-yilgi O‘zR JK da esa harbiy jinoyat tushunchasi «Atamalarning huquqiy ma’nosi» deb nomlangan sakkizinchi bo‘limda o‘z ifodasini topgan.

Tinchlik davrida, urush vaqtida va jang vaziyatida sodir etilgan harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan 1959-yilgi O‘zSSR JKdan farqli o‘laroq, yangi JKning normalarida faqat tinchlik davrida va jangovar vaziyatda sodir etilgan harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak mamlakatimizda harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni huquqiy tartibini rivojlanishining retrorespektiv bosqichini tarixiy 3 davrga bo‘lishimiz mumkin:

1. Xonliklar davridagi harbiy jinoyatlarning huquqiy tartibi;

2. Sobiq RSFSR davridagi harbiy jinoyatlarning huquqiy tartibi;

3. Mustaqillik davridagi harbiy jinoyatlarning huquqiy tartibiga bo‘lishimiz mumkin.

Nega aynan 3 davrga bo‘linishini quyidagilar bilan asoslantirishimiz mumkin:

Birinchidan, Xonliklar davridan oldingi davlat boshqaruvida mamlakat hududida musulmon dini ustuvor ahamiyat kasb etganligi sababli davlat boshqaruvi va jinoiy-huquqiy siyosat va jinoyatlar yuzasidan ish yurituv taritibi huquqiy odatlar, an’analari va mansabdor shaxslarning yakka boshqaruviga asoslanganligi va qat’iy huquqiy tartibni mavjud emasligini hisobga olgan holda alohida qat’iy tartib mavjud bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, mazkur holatlar o‘z-o‘zidan Markaziy Osiyo hududidagi xonliklarda ma’lum hududiy birlikdagi Xonlar va Amirlar tomonidan o‘zlarining xohishlari va irodalari orqali nafaqat harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar, balqi barcha turdagi jinoyatlar yuzasidan isbotlash harakatlari o‘tkazilgan va jinoiy jazolar tayinlanganligini ko‘rishimiz mumkin;

Uchinchidan, Mamlakatimiz hududidagi ma’muriy hududiy birliklarda harbiy jinoyatlar umumiy jinoyatchilikdan alohida tartibda ajratilmaganligini, hamda umumiy qozilik sudlari vazifasini bevosita “Oliy qozilik organi” sifatida qonun chiqaruvchining o‘zi (amaldagi hukmron monarx) tomonidan amalga oshirilganligini ko‘rishmiz mumkin. Albatta mazkur holat mamlakat boshqaruvida qonun chiqaruvchi organ ijro etuvchi organdan ajratilmaganligini ko‘rishimiz mumkin;

To‘rtinchidan, 1960-yilda qabul qilingan jinoyat va jinoyat protsessual kodeksiga muvofiq Chor Rossiyasida harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar harbiy prokuratura organlari tomonidan harbiy sudlarga yuborilishidan oldin mazkur harbiy-xizmatchining bevosita boshlig‘i bo‘lgan harbiy qo‘mondonlikning roziligini olish shart sifatida belgilanganligi va mazkur jinoyat tarkibi ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat bo‘lsa harbiy qo‘mondonlik tomonidan intizomiy jazolash bilan kifoyalanish huquqining mavjudligi ushbu davrda harbiy jinoyat protsessida harbiy qism qo‘mondonligini alohida jinoyat protsessida sudga qadar ish yurituvda ta’sirga ega bo‘lgan subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatganligi aniqlandi.

Аннотация. В данной научной статье изучены этапы исторического развития военно-уголовного процесса, проведён ретроспективный анализ его развития в государственном законодательстве бывшего СССР. На основе проведённых аналитических исследований разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию уголовно-правового статуса, процессуального механизма и практики военного законодательства в нашей стране, а также по совершенствованию порядка ведения дел органами предварительного следствия и судом по преступлениям, совершённым с участием военнослужащих, опираясь на научно и исторически обоснованные фактические данные.

Ключевые слова: военное преступление, военнослужащий, военный уголовный процесс, уголовная ответственность, следствие, суд, военный трибунал, преступление.

Annotation. In this scientific article, the stages of historical development of the military criminal process are examined, and a retrospective analysis of their development in the state legislation of the former USSR is conducted in relation to the military criminal process of our country. Based on the analytical research conducted, proposals and recommendations were developed for improving the criminal-legal status, procedural mechanism, and practice of military legislation in our country, as well as for improving the procedure for proceedings by pre-trial investigation and court bodies in cases of crimes committed with the participation of military personnel. These proposals and recommendations are based on scientifically and historically substantiated factual data.

Key words: Military crime, serviceman, military criminal procedure, criminal liability, investigation, court, military tribunal, crime.

IKKINCHI JAHON URUSHIDA JANGOVAR HARAKATLAR OLIB BORISH TAKTIKASI VA STRATEGIYASINING TAKOMILLASHISHI

Murodov Baxrom Murod o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Umumiy taktika va operativ san’at kafedrasi boshlig‘i, dotsent

Annotatsiya. **Ushbu maqola urush davrida qatnashgan tomonlarning jangovar taktikalari evolutsiyasini, texnologik taraqqiyot va qurolli kurash xususiyatlarining o‘zgarishi sharoitida o‘rganadi. Alohida e’tibor qurolli kuchlar turlarining taktik darajadagi o‘zaro hamkorligi, yangi jang usullari va vositalaridan foydalanish, shuningdek, janglarning tuzilishi va sur’atiga ta’sir ko‘rsatgan yangi vositalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan.**

Kalit so‘zlar: jang taktikasi, Ikkinchi jahon urushi, umumqo‘shin jangi, manyovrchanlik, o‘zaro hamkorlik, o‘t quvvati, taktik innovatsiyalar.

Jang taktikasi — bu cheklangan frontda qo‘shinlarning bevosita to‘qnashuvi usullari va metodlarining majmui bo‘lib u ikkinchi jahon urushi yillarida zirhli texnika, aviatsiya, o‘t ochar qurollari va tankka qarshi vositalarning keng qo‘llanilishi, shuningdek, aloqa va boshqaruv vositalarining takomillashuvi tufayli jiddiy o‘zgarishlarga uchradi.

Shu sababli ham **ikkinchi jahon urushi davrida taktikaning o‘zgarishi masalalarini bir qator olib va tadqiqotchilar chuqur o‘rganishgan. Jumladan, B.G.Ananyev (sobiq SSSR)** jang sharoitida askarning harakati, stress va atrof-muhitning taktik qarorlarga ta’sirini o‘rgangan. Kichik komandirlarni tayyorlashning ahamiyatini ta’kidlagan. [1, 112-182 b.]

Mashhur harbiy nazariyachi olim A.A. Svechin (sobiq SSSR) urushdan oldin yozilgan bo‘lsa-da, urushdan keyingi taktika tahliliga ta’sir ko‘rsatdi. Strategiya va taktikaning farqi, mudofaaning chuqurligi va qo‘shinlar hamkorligining ahamiyati haqida o‘z ishlarida ta’kidlagan [2, 34-72 b.].

Erich fon Manşteyn (Germaniya) *«Yo‘qotilgan g‘alabalar» (Verlorene Siege)* asarida Vermaxt[1] operatsiyalarining tahlil qilgan, taktik moslashuvchanlik, komandirlar tashabbusi va manyovrning roli haqida o‘z fikrlarini bildirgan. Jangovar guruhlar va mobil «qilich» taktikasini tushuntirgan. [3, 210-260]

Hayns Guderian (Germaniya) Tank urushlari nazariyotchisi. Birinchilardan bo‘lib tanklarning ulkan istiqbolini ko‘ra olgan, tanklar bilan piyoda va aviatsiyaning hamkorligi, «yashin tezligidagi urush»ning (“blitzkrig”) asoslarini yaratgan [4].

Dvayt Eyzenxauer (AQSh) o‘zining *«Yevropada salib yurishi» (Crusade in Europe)* asarida ittifoqchi armiyalarning hamkorligi, logistika, boshqaruv va strategiyadan taktik darajagacha bo‘lgan muvofiqlashtirishni tahlil qilgan. Koalitsion urushlarda qo‘shinlararo muvofiqlikning ahamiyatini ta’kidlagan [5, 62-128].

Dj.F. Fuller (Buyuk Britaniya) o‘zining *«Операция механизированных сил»* asarida mexanizatsiyalashgan urush nazariyasini ilgari surgan, tanklardan foydalanish, taktik manevrlar va dushman psixologiyasiga ta’sirni o‘rgangan [6].

Marshal G.K. Jukov (sobiq SSSR), ikkinchi jahon urushining eng mashhur qo‘mondonlaridan biri bo‘lib, o‘zining mashhur *«Xotiralar va mulohazalar» (Воспоминания и размышления) asarining II-siqmida* asosiy operatsiyalarni taktik jihatdan tahlil qiladi. Artilleriya, muhandis qo‘shinlari, aviatsiya va zaxira kuchlarning rolini ta’kidlagan [7, 48-72 b.].

B. Liddell Gart (Buyuk Britaniya) *«Bilvosita harakatlar strategiyasi» (Strategy: The Indirect Approach) asarini* strategiya bo‘yicha yozgan bo‘lsa-da, taktik moslashuvchanlik, aylanma manyovrlar, dushman ruhini sindirishning ahamiyatini tushuntirgan [8, 56-78 b.].

Ushbu nazariyachilar va qo‘mondonlarning ishlari Ikkinchi jahon urushida tanklar, aviatsiya, qo‘shinlararo muvofiqlik va yangi taktik usullarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ularning g‘oyalari zamonaviy harbiy doktrinalarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

1 Germaniya Qurolli kuchlarining Ikkinchi jahon urushi davridagi nomlanishi

Urushning dastlabki yillarida an'anaviy piyoda qo'shinlar taktikasi (artilleriya tayyorgarligi va bevosita hujum) o'zining cheklanganligini ko'rsatdi. Nemis qo'shinlari yuqori mobil jangovar guruhlar("*kampfgruppen"*) taktikasini qo'lladilar, bunda piyodalar, tanklar, artilleriya va sapyorlar birlashgan jangovar mexanizm sifatida harakat qildi [7, 124-136 b.].

Ushbu davrning asosiy tamoyillari sifatida tor uchastkada zarba kuchlarini to'plash, jang sur'atini manevr orqali ta'minlash, hujumi otryadlari va qo'poruvchi guruhlardan faol foydalanish, havodan mudofaani bostirish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi jahon urushi davridagi eng muhim yangiliklardan biri – qurolli kuchlar turlarining bir vaqtda va o'zaro bog'liq holda qo'llanilishi (umumqo'shin jangi) bo'ldi. Piyodalar, tanklar, artilleriya, aviatsiya va muhandis qo'shinlari yaqin hamkorlikda harakat qildi. Buning natijasida qo'shinlararo muvofiqlik tamoyillari takomillashdi. Jumladan mudofaani yorib o'tishda piyodalarni tanklar bilan qoplash, o't nuqtalarini aviatsiya va o'ziyurar artilleriya yordamida bostirish, muhandislik ta'minoti (minalarni tozalash, to'siqlarda yo'llar yaratish), operativ qo'llab-quvvatlash uchun mobil zaxira guruhlarini tashkil etish kabi usullar takomillashdi. Natijada nemis *«blitzkrig»* taktikasi va qo'shinlararo muvofiqlikning samaradorligi ko'plab mamlakatlarning harbiy doktrinalarini o'zgartirdi. Urushning keyingi bosqichlarida bu usullar qarama-qarshi taktikalarga (masalan, SSSRning chuqur operatsiyalar nazariyasi) asos bo'ldi. [9, 126-158 b.]

Ikkinchi jahon urushida qo'shinlararo muvofiqlik taktikasi shiddat bilan rivojlandi. Bunda piyodalar va zirhli texnikalarning hamkorligi doirasida tank-piyoda hujumi standart taktikasi paydo bo'ldi. Piyodalarning ar**tilleriya bilan muvofiqlikda harakatlanishi usullari ishlab chiqildi.** Hujum qilayotgan piyodalari harakat yo'lida o't bilan qoplash; hujumni artilleriya tayyorgarligi kabi usullar keng qo'llanila boshlandi.

Ikkinchi jahon urushida taktikasining rivojlanishi yo'nalishida quyidagi vazifalar hal etildi. Jumladan, Jangovar tartibning barcha elementlarini Qo'shinlarning birlashgan turkumlariga birlashtirish. Ushbu tartib bugungi kunda ham barcha harbiy mojarolarda keng qo'llanilmoqda. Bundan tashqari Germaniya "Kampfgruppen" - har xil turdagi qurollardan iborat moslashuvchan aralash guruhlarni keng qo'llagan. Har bir guruh o'zining vazifasiga ko'ra maxsus tarkibga ega bo'lgan. [10, 78-146 b.]

AQSh va sobiq SSSR: Tanklar, piyodalar, artilleriya, muhandislar va aviatsiyadan iborat zarbdor guruhlarini tashkil etdi. Ular bir butunlik sifatida harakat qilishdi.

Mudofaa jangini olib borish taktikasi ham sezilarli darajada rivojlandi. Mobil mudofaa usuli: static (pozitsion) front chizig'i o'rniga, manyovr va qarshi hujum imkoniyatiga ega bo'lgan moslashuvchan tartiblar qo'llanila boshlandi.

Ushbu usulning asosiy xususiyatlari sifatida mudofaaning chuqur eshelonlashtirilganligi – bugungi kunda mudofaaga qo'yiladigan asosiy talab hisoblanadi; qarshilik tugunlarini yaratish, tankka qarshi mudofaa, kichik bo'linmalarning taktik qarshi hujumlari –Rossiya-Ukraina qurolli mojarosida keng qo'llanilmoqda.

Urush davrida ishlab chiqilgan ushbu taktikalarning aksariyati zamonaviy harbiy doktrinalarning asosini tashkil etadi. Har bir davlat o'zining jangovar tajribasiga asoslanib, yangi usullarni ishlab chiqdi va muvaffaqiyatli tatbiq etdi.

Ikkinchi jahon urushining yana bir muhim jihatlaridan biri taktik bo'g'in komandirlarining o'qitish tizimining takomillashgani bo'ldi. Barcha davlatlar armiyalarida kichik komandirlarning tashabbuskorligiga, kichik bo'linmalarning jang maydonidagi harakatlarga o'rgatishga, taktik qarorlarni (jangovar nizomlar, yo'riqnomlar) standartlashtirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. [11]

Ikkinchi jahon urushi taktikasining rivojlanishi bo'yicha asosiy o'zgarishlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

Moslashuvchanlik va dinamiklik: Statik (pozitsion) chiziqli janglar o'rniga tezkor manyovrlar asosiy usulga aylandi.

Qo'shin turlarining integratsiyasi: Hech bir qurol turi mustaqil ravishda samarali bo'la olmasligi isbotlandi.

Texnologik innovatsiyalar: Radialoqa, aviatsiya yordami va yangi qurollar taktikani tubdan o'zgartirdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin harbiy soha bir nechta yo'nalishlarda rivojlandi, bu yo'nalishlar yangi chaqiriqlar va imkoniyatlarga javob berdi, ular ilmiy-texnikaviy taraqqiyot,

o‘zgargan geosiyosiy vaziyat va yangi turdagi qurolli mojaro shakllariga moslashish zaruriyati tufayli yuzaga keldi. Quyidagi yo‘nalishlar eng tez rivojlanayotganlardan ba’zilaridir:

Yadro quroli va yadro strategiyasi. Ikkinchi jahon urushidan keyin yadro quroli harbiy kuchning markaziy omillaridan biriga aylandi. AQSH ilk bor Hiroshima va Nagasakida atom bombalarini ishlatganidan so‘ng, AQSH va sobiq SSSR o‘rtasida yadro qurollari poygasi boshlandi, bu esa strategik yadro kuchlarini (SYK) yaratishga olib keldi. Muhim jihatlar quyidagilar bo‘ldi:

Atom va vodorod bombalarining rivojlanishi.

“Tiyib turish” konsepsiyasi va yadro strategik tenglik.

O‘rta masofali ballistik raketalar (OMBR) va atom suzuvchi kemalar.

Yadro qurollari strategik harbiy rejalashtirishda muhim elementga aylandi, va “yadroviy tiyib turish” konsepsiyasi Sovuq urush davrida xalqaro siyosatning ko‘plab jihatlarini belgiladi. Ushbu omilni bugungi kunda ham ko‘pchilik mamlakatlar o‘z xavfsizliklarini asosi sifatida ko‘rmoqdalar hamda yadro quroliga egalik qilishga intilmoqdalar.

Raketalar texnologiyalari va kosmik raqobat. Raketalar texnologiyalarining rivojlanishi urushdan keyingi yillarda harbiy kuchning muhim jihatiga aylandi. Ushbu sohani rivojlantirishga asosiy zaruratlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

yadroviy kallaklarni yetkazib berish uchun ham, oddiy jangovar qismlarni yetkazib berish uchun ham ballistik raketalarni yaratish va takomillashtirish;

1957-yilda birinchi “Sputnik-1” sun’iy yo‘ldoshining uchirilishi bilan boshlangan kosmik poyga kosmik harbiy texnologiyalarni yaratishga ta’sir qildi, masalan, sun’iy yo‘ldosh razvedkasi va erta ogohlantirish tizimlari;

o‘rta masofali balistik raketalar (OMBR) va dastlabki raketalarga qarshi mudofaa tizimlarini yaratish.

Mexanizatsiya va qurolli kuchlarni avtomatlashtirish. Ikkinchi jahon urushidan keyin armiyalarni mexanizatsiya qilish jarayoni shiddat bilan davom etdi. Ayniqsa aviatsiya, tanklar va zirhlangan texnikalarning ahamiyati keskin ortdi, ular qurolli to‘qnashuvlarda hal qiluvchi vositalar sifatida ko‘rila boshlandi. Aloqa vositalarini takomillashtirildi, janglarni boshqarish uchun yangi radar va radioaloqa tizimlarini yaratish bo‘yicha ishlar bugungi kunda ham shiddat bilan davom etmoqda. [12]

Tinchlikni tiklash kuchlari va BMTning roli. Ikkinchi jahon urushining eng ko‘zga ko‘rinarli natijalaridan biri bu Birlashgan millatlar tashkilotining tahskil topishi bo‘ldi. Urushdan keyin BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan tinchlikni tiklash operatsiyalarining yangi konsepsiyasi yaratildi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

Tinchlikni tiklash kuchlari mojarolar zonasida tinchlikni saqlash (masalan, Koreya, Yaqin Sharq, Afrika). Gibrid urushlar yuritishning yangi konsepsiyalari, unda faqat an’anaviy qurolli kuchlar emas, balki axborot operatsiyalari, iqtisodiy bosim va siyosiy aralashuvlar ham ishlatiladi.

XX asrning oxiridan, ayniqsa sovuq urushdan keyingi davrda qurolli kuchlar yangi chaqiriqlarga duch kela boshladi:

Nomuntazam kuchlarga qarshi kurash, masalan, terrorchi tashkilotlar, isyonchilar va qurolli guruhlar.

Jamoat fikriga va qarshi tarafning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan psixologik operatsiyalar (PSYOP).

Kichik va harakatchan guruhlar bilan jang qilish uchun **dronlar** va boshqa yangi texnologiyalarni joriy etish.

Urushdan keyin harbiy soha bir nechta asosiy yo‘nalishlarda rivojlandi, bu yo‘nalishlar nafaqat an’anaviy qurolli kuchlar, balki texnologik yutuqlar va yangi mojaro shakllariga yo‘naltirilgan yangi yondashuvlarni ham o‘z ichiga oldi.

Ikkinchi jahon urushi taktik darajada ham bir qator rivojlanishlarga turtki berdi. Har bir qurol turining o‘zaro muvofiqligi standartlashtirildi, birlashgan shtablar tizimi yaratildi, barcha darajalarda aloqa tizimlari takomillashtirildi, NATO va Varshava shartnomasi armiyalari urush tajribasini o‘z ustavlariga asos qilib oldi, har bir qurol turining optimal nisbati aniqlab olindi, mobil kuchlarning ahamiyati ortib ketdi. [13, 46-72 b.]

Bugungi kunda ham ko‘pgina zamonaviy harbiy doktrinalar aynan Ikkinchi jahon urushi tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqilmoqda. Urush davridagi taktik innovatsiyalar zamonaviy «combined arms warfare» konsepsiyasining poydevorini tashkil etadi.

Kichik komandirlarning roli kuchaydi. Jang maydonidagi tez o‘zgaruvchan sharoitlar yangi

qo‘mondonlik tamoyillarini talab qildi:

Mustaqil qaror qabul qilish: rota/vzvod komandirlari umumiy reja doirasida o‘z taktikalarini ishlab chiqa boshladi;

“Pastdan yuqoriga” taktikasi: front chizig‘idagi ofitserlar holatni yaxshiroq tushungan holda qarorlar qabul qilardi;

Taktik tayyorgarlikning ahamiyati: har bir komandirga tashabbus ko‘rsatish, holatni tez tahlil qilish, manyovr qilish qobiliyati o‘rgatildi.

Urush tajribasi ko‘p funksiyali taktik birliklarning shakllanishiga olib keldi:

Bu tuzilish barcha zamonaviy armiyalarning taktik tuzilmalariga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, bugungi BTGr tushunchasi to‘g‘ridan-tog‘ri Ikkinchi jahon urushi tajribasidan kelib chiqqan.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Ikkinchi jahon urushi jang taktikasi ko‘rinishini tubdan o‘zgartirdi — uni integratsiyalashgan, harakatchan, o‘t ochishga asoslangan va ko‘p o‘lchamli qildi. Urush davomida olingan saboqlar quyidagilarga asos bo‘ldi:

urushdan keyingi davrda yangi turdagi qo‘shin turlarini yaratishga;

harbiy fan taraqqiyotiga;

hatto XXI asrning yuqori texnologiyali urush sharoitlarida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy taktik tafakkur asoslarini shakllantirishga.

Yangi birlik turi	Xususiyatlari	O‘zbekiston Qurolli Kuchlaridagi zamonaviy davomi
Motorlashtirilgan piyoda batalonlari	Yuqori harakatchanlik, transport vositalari bilan ta’minlangan	Motoo‘qchi qo‘shinlar, bo‘linmalar
Aralash jangovar guruhlar	Turli qurolli kuchlar turlarining optimal kombinatsiyasi	Batalon taktik guruhi (BTGr)
Desant-ishg‘ol birliklari	Tezkor kuchlar, ort tomonga kirib borish	Ayni paytda maxsus operatsiyalar kuchlari
Havo-desant qo‘shinlari	Yuqori mobilligi sababli dushman front ortiga zarbalar berish, yirik desant operatsiyalarini o‘tkazish imkonini berdi	Havo desant qo‘shinlari (parashyut-desant, desant-ishg‘ol)
Raketa qo‘shinlari	Birinchi raketa namunalarini nemis qo‘shinlari qo‘llagan bo‘lsada, urushdan keyingi yillarda aynan ushbu yo‘nalish barcha mamlakatlarda, ayniqsa sobiq Sovet ittifoqi hamda AQShda o‘ta shiddat bilan rivojlandi hamda urushdan keyingi yillarda ehtimoliy urushlar strategiyasini belgilab berdi.	O‘zbekistonda raketa qo‘shinlari alohida qo‘shin turi sifatida mavjud bo‘lmasada, bir qator qo‘shni turlarida keng ushbu talofat yetkazish turidan keng foydalanilmoqda.

Аннотация. Эта статья исследует эволюцию тактики ведения боя сторон, участвовавших в войне, в условиях технологического прогресса и изменений в характеристиках вооружённой борьбы. Особое внимание уделяется тактическому взаимодействию различных видов вооружённых сил, использованию новых методов и средств ведения боя, а также появлению новых технологий, оказавших влияние на структуру и темп боевых действий.

Ключевые слова: тактика боя, Вторая мировая война, общевойсковой бой, маневренность, взаимодействие, огневая мощь, тактические инновации.

Abstract. This article explores the evolution of the combat tactics employed by the sides involved in the war, in the context of technological progress and changes in the characteristics of armed combat. Special attention is given to the tactical cooperation between different types of armed forces, the use of new methods and means of combat, as well as the emergence of new technologies that influenced the structure and pace of combat operations.

Keywords: combat tactics, Second World War, combined arms warfare, maneuverability, cooperation, firepower, tactical innovations.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б.Г.Анаев. Избранные психологические труды. В 2-х т. Т.-I. – М.:Педагогика,1980. – 232 с.
2. Свечин А. А. Стратегия: Искусство политики и войны. — ООО «Издательство «Вече», электронная версия, 2021.
3. Э.ф.Манштейн. Утерянные победы. Воспоминания фельдмаршала. Изд. ACT Publishirs, 2014. 832 с.
4. Гудериан Х. Внимание, танки! — М.: Центрполиграф, 2005.
5. Эйзенхауэр Д. Крестовый поход в Европу — М.: Воениздат, 1990.
6. Dj.F. Fuller (Buyuk Britaniya) o‘zining “Операция механизированных сил” www.livelib.ru. Murojaat sanasi – 18.04.2025 y.
7. Жуков Г. К. Воспоминания и размышления — М.: Олма-пресс, 2002.
8. Лиддел Гарт Б. Г. Стратегия непрямых действий — М.: АСТ, 2004.
9. Рокоссовский К. К. Солдатский долг — М.: Воениздат, 1988.
10. Триандафилов В. К. Характер операций современных армий — М.: Воениздат, 2005.
11. Zetterling N. Normandy 1944: German Military Organization, Combat Power and Organizational Effectiveness — J.J. Fedorowicz, 2000.
12. Citino R. The Path to Blitzkrieg: Doctrine and Training in the German Army, 1920–1939 — University Press of Kansas, 1999.
13. Нефёдов С. А. Эволюция тактики Второй мировой войны // Военно-исторический журнал, №5, 2001.

FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G‘ALABADA O‘ZBEK XALQI TARIXIY HISSASI VA UNI KURSANTLAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTIDA O‘RGANISH

Xodiev Rustamjon Hamdamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalqining Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm ustidan qozonilgan G‘alabaga qo‘shgan tarixiy hissasi va uning kursantlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Tarixning qahramonona sahifalarini anglash bo‘lajak ofitserlarda huquqni hurmat qilish, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga yordam berishi ko‘rsatilgan. Kursantlar bilan olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy ishlarda tarixiy-vatanparvarlik materiallaridan faol foydalanish zarur, degan xulosaga kelinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalqi, fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba, huquqiy madaniyat, kursantlar, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, tarixiy xotira.

Fashizm – zo‘ravonlik va nafrat mafkurasi sifatida – XX asr o‘rtalarida erkinlik, adolat va inson huquqlari kabi asosiy qadriyatlarni xavf ostiga qo‘ydi. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba nafaqat jang maydonidagi zafar, balki insonparvarlik va huquqiy qadriyatlarning ulkan g‘alabasi bo‘ldi. Bu kurashda Sobiq Ittifoq xalqlarining, jumladan, o‘zbek xalqining o‘rni beqiyos edi. Bugungi kunda ularning bu g‘alabaga qo‘shgan hissasini o‘rganish – Vatan himoyachilari bo‘lmish kelajakdagi kursantlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Urush boshida minglab o‘zbeklar o‘z ixtiyori bilan frontga jo‘nashdi. Urush yillarida O‘zbekiston SSR aholisining 1,5 milliondan ortig‘i Qizil Armiya saflariga chaqirildi. O‘zbek askarlari va ofitserlari barcha frontlarda jang qildilar – Moskvani va Stalingradni himoya qilishdan tortib Berlinni ozod qilishgacha. Ayniqsa, Sovet Ittifoqi Qahramoni kabi shaxslarning jasorati e’tiborga molik bo‘lib, ular mardlik va o‘z burchiga sadoqat ramziga aylandilar. Shuningdek, O‘zbekiston orqa frontni ta’minlashda ulkan rol o‘ynadi: respublika yuz minglab evakuatsiya qilinganlarni qabul qildi, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi, front uchun oziq-ovqat, dori-darmon va resurslarni taqdim etdi. Bu faktlar o‘zbek xalqining hissasi har tomonlama bo‘lganini, frontda ham, orqa frontda ham ulkan rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

Kursantlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish tizimli pedagogik ish olib borishni talab etadi, bu esa erkinlik va adolat uchun kurash tarixiy tajribasini tushunishga qaratilgan. Fashizm ustidan g‘alaba tarixi huquqiy qadriyatlarning – erkinlik, tenglik, shaxsning qadr-qimmatiga hurmat – chuqur o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi, bu qadriyatlar millionlab odamlarning haqiqiy amallari bilan birga hayotga tatbiq etildi. Ushbu idealar nafaqat huquqiy forumlarda, balki jang maydonlarida ham himoya qilindi.

Pedagogik jarayonda o‘zbek xalqining fashizm ustidan g‘alabaga qo‘shgan hissasini o‘rganish kursantlarning huquqiy ongini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tadbirlarining muhim tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Darslarda, bizning fikrimizcha, «maxsus» faol o‘qitish metodlarini qo‘llash lozim, ularning orasida: tarixiy hujjatlarni tahlil qilish (buyruqlar, frontdagilarning xotiralari, mukofot ro‘yxatlari), fashizmga qarshi kurashning huquqiy va axloqiy asoslarini ta’kidlovchi; haqiqiy tarixiy voqealar asosida axloqiy-huquqiy dilemmani modellashtiruvchi situatsion vaziyatlarni yechish; urush sharoitida inson huquqlarini himoya qilish masalalariga bag‘ishlangan munozaralar va davra suhbatlari; o‘zbek xalqining vakillari bo‘lgan ayrim shaxslarning jasoratini o‘rganishga qaratilgan loyiha ishlari; tarixiy xotira mavzusiga

bag‘ishlangan multimedia materiallari yordamida interaktiv ma’ruzalar. Ko‘rsatilgan o‘qitish metodlari kursantlarning quyidagilarni anglashiga yordam beradi: tinchlik, inson huquqlari va adolatning ahamiyatini; huquqiy madaniyatning faol fuqarolik pozitsiyasi bilan uzviy bog‘liqligini tushunishni shakllantiradi; o‘tgan zamon jasorati misollaridan o‘zining kelajakdagi professional faoliyati uchun axloqiy yo‘llanmalarga ega bo‘lishadi; vatanparvarlikni mustahkamlashadi va fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qilishda mas’uliyatni his qilishadi. Tarixiy xotira, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim jarayoniga joriy etilgan holda, kelajakdagi ofitserlar orasida mustahkam huquqiy qarashlar shakllantirishda kuchli vositaga aylanadi.

Ikkinchi jahon urushi davridagi o‘zbek qahramonlari haqidagi matnlarni tahlil qilish asosida kursantlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan uslubiy tavsiyalar, ya’ni topshiriqlar:

Vazifa 1: “Qahramonlik nima?” (Muhokama)

Maqsad: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va tarixiy misollar orqali huquqiy qadriyatlarni tahlil qilish.

Ko‘rsatma: Qahramonlar haqida ma’lumotni o‘qib chiqing.

«Nabiyev Vali. 1916-yilda Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani Naghzakaron qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbek. G‘ijduvon tuman harbiy komissariati tomonidan chaqirilgan. 60-gvardiya polkining 2-eskadroni 16-gvardiya otliq diviziyasining maxsus yordamchisi, gvardiya serjant. Ikkinchi darajali Vatan urushi ordeni va “Jasorat uchun” medali bilan mukofotlangan. Dneprni kesib o‘tayotganda ko‘rsatilgan qahramonlik va jasorat uchun, 1944-yil 15-yanvarda SSRB Oliy Soveti Prezidiumining farmoniga binoan, gvardiya serjant Nabiyev Valiga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan.

Nurmetov Satym. 1924-yilda Xivada tug‘ilgan. O‘zbek. Xorazm viloyati Xiva tuman harbiy komissariati tomonidan chaqirilgan. Serjant, 51-sapyor batalonining 13-gvardiya piyoda korpusining bo‘linma komandiri. Ikkinchi va uchinchi darajali Slava ordenlari, “Jasorat uchun” medali bilan mukofotlangan.

Königsberg shahrini zabt etishdagi ko‘rsatilgan jasorat va mahorat uchun, 1945-yil 19-aprelda SSRB Oliy Soveti Prezidiumining farmoniga binoan, gvardiya serjant Nurmetov Satymga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan.

Raximov Sobir Umarovich. 1902-yil 25-yanvarda Toshkentda tug‘ilgan. O‘zbek. 1922-yildan Sovet Armiyasida, komsomol yo‘llanmasi bilan. Boku birlashgan harbiy maktabini va Sovet Qurolli Kuchlari Bosh shtabi Harbiy Akademiyasini (1943-yilda) tamomlagan. Bosmachilarga qarshi janglardagi qahramonligi uchun Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlangan. General-mayor, gvardiya piyoda diviziyasi komandiri. To‘rt marta Qizil Bayroq ordeni va Suvorov ordeni II darajasi bilan mukofotlangan. Jangovar topshiriqlarni namunaviy bajarish va bu jarayondagi jasorat va qahramonlik uchun, 1965-yil 6-mayda SSRB Oliy Soveti Prezidiumining farmoniga binoan, general-mayor Raximov Sobir Umarovichga o‘limidan keyin Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan.

Topiboldiev Mamadali. 1919-yilda Farg‘ona viloyati Rishton tumani Ak’er qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbek. Kolxozda pochta xodimi, traktorchi bo‘lib ishlagan. 1939-yildan Sovet Armiyasida. Serjant, 130-piyoda polkining haydovchisi, Mog‘ilyov viloyatidagi 5-partizan otryadining razvedka bo‘linmasi komandiri. Qizil Yulduz ordeni, “Jasorat uchun”, “Vatan urushi partizani” medali bilan mukofotlangan. Nemis-fashist bosqinchilari bilan kurashdagi mardlik va qahramonligi uchun, 1944-yil 5-sentabrda SSRB Oliy Soveti Prezidiumining farmoniga binoan, parizan Topiboldiev Mamadaliye Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan»[1].

Guruhda, ularning harakatlarida qahramonlik nima ekanligini muhokama qiling. Qanday huquqiy va axloqiy qadriyatlar ularning harakatlarida aks etgan? Ularning harakatlari erkinlik va adolat tushunchalari bilan qanday bog‘liq?

Qahramonlarning harakatlarini kelajakdagi ofitserlar uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishda qanday misol sifatida ishlatish mumkinligini ko‘rsatuvchi qisqa taqdimot tayyorlang.

Vazifa 2: Sahna ko‘rinishi: «Harbiy kengash».

Maqsad: Vaziyatni tahlil qilish va huquqiy va axloqiy me’yorlarga asoslanib qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Ko‘rsatma: Guruhlarga bo‘ling. Bitta guruh – qo‘mondonlik, ikkinchisi – askarlar.

1https://mytashkent.uz/2018/05/01/geroi-sovetskogo-soyuza-iz-uzbekistana-srazhavshiesya-v-vov/

Harbiy kengashda qahramonlarga mukofot berish bo‘yicha qaror qabul qiluvchi sahnani o‘ynang. Bu yerda nafaqat harbiy yutuqlar, balki shaxsiy axloqiy fazilatlar ham inobatga olinishi kerak. Har bir ishtirokchi uchun eng muhim qadriyatlarni muhokama qiling: shon-sharaf, Vatan oldidagi burch, huquq, tenglik? Ularning harakatlaridan qanday huquqiy me’yorlar kelib chiqadi?

Vazifa 3: Vaziyatli masalani hal qilish.

Maqsad: Huquqiy fikrlashni rivojlantirish, murakkab vaziyatlarda axloqiy-huquqiy qarorlarni qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Ko‘rsatma: Haqiqiy tarixiy voqealarga asoslangan vaziyatli masalani tuzing (masalan, urush davrida tinch aholini qutqarish uchun qaror qabul qilish).

Vaziyatni huquq va axloq nuqtai nazaridan tahlil qiling. Urush sharoitida qanday huquqiy va axloqiy qaror qabul qilish mumkin?

Imkoniyatlar va qarorlar uchun dalillarni tayyorlang. Qanday huquqiy va axloqiy me’yorlar hisobga olinishi kerak?

Vazifa 4: Tadqiqot loyihasi «Qahramonlik va huquqiy madaniyat».

Maqsad: Qahramonlik va huquqiy qadriyatlar haqida bilimlarni tizimlashtirish va bu qadriyatlarni zamonaviy xizmatda qanday qo‘llashni o‘rganish.

Ko‘rsatma: Matnda keltirilgan qahramonlardan birini tanlang (masalan, Raximov Sobir Umarovich yoki Topiboldiyev Mamadali) va uning biografiyasi, qahramonligi va mukofotlarini o‘rganing.

Ularning harakatlarini huquqiy madaniyatni rivojlantirish bilan qanday bog‘liqligini tushuntiring. Qanday axloqiy qadriyatlar ularning qahramonligida aks etgan?

Hisobot yozing, unda ushbu qahramonlarning misollarini kelajakdagi ofitserlar uchun huquqiy madaniyatni tarbiyalashda qanday ishlatish mumkinligini tushuntiring.

Vazifa 5: Interaktiv dars «Qahramonlik va huquqiy madaniyat».

Maqsad: Tarixiy va huquqiy bilimlarni multimedia yordamida oshirish.

Ko‘rsatma: Multimedia taqdimoti tayyorlang, unda uzbek qahramonlarining urushdagi roli va ularning huquqiy madaniyatdagi o‘rni haqida gapiring.

Videolar, fotosuratlar va urush hujjatlaridan iqtiboslar qo‘shing, bu qahramonlarning harakatlarini namoyish etuvchi.

Darsdan so‘ng, ularning harakatlaridan huquqiy va axloqiy qanday saboqlarni olish mumkinligini muhokama qiling.

Xulosa qilib aytganda, bu vazifalar kursantlarga nafaqat tarixiy xotirani yaxshilashga, balki huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga ham yordam beradi. Tarixiy shaxslarni o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlarni o‘tkazish kursantlarning urush haqidagi tasavvurlarini tubdan o‘zgartiradi, quruq faktlarni ma’no va hissiyotlarga boy bo‘lgan jonli qahramonlik tarixiga aylantiradi. O‘zbek xalqining Ikkinchi jahon urushidagi qahramonlari biografiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini jonlantiradi, balki kursantlarning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakdagi zobitlar Sobir Rahimov, Vali Nabiev, Satim Nurmetov, Mamadali Topiboldiev kabi shaxslar namoyon etgan jasorat, fidoyilik va adolat haqidagi haqiqiy voqealarni bilib, burch, sharaf, mas’uliyat va inson huquqlari kabi tushunchalarning asl qadrini chuqurroq anglay boshlaydilar. Bu qahramonlarning taqdirlari orqali xalqning ozodlik uchun kurashi tarixi bilan zamonaviy jamiyatning huquqiy asoslari o‘rtasidagi tirik bog‘liqlik ochib beriladi. Ularning harakatlaridagi huquqiy va axloqiy mazmunni anglash kursantlarda shuni mustahkamlaydiki, huquqiy madaniyat — bu mavhum tushuncha emas, balki qonunga hurmat, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatiga asoslangan aniq hayotiy pozitsiyadir.

Demak, o‘zbek xalqining fashizm ustidan Qozonishda tutgan tarixiy o‘rni bilan bog‘liq mavzularni, ayniqsa, haqiqiy biografiyalar va qahramonliklarga tayanib o‘quv jarayoniga kiritish, kelajakdagi Vatan himoyachilarini nafaqat professionallar sifatida, balki yuksak axloqiy madaniyatga ega huquqiy ong egalari sifatida tarbiyalashning kuchli vositasiga aylanadi.

O‘zbek xalqining fashizm ustidan g‘alabaga qo‘shgan tarixiy hissasi kursantlarning vatanparvarlik va huquqiy tarbiyasining eng muhim manbalaridan biridir. Jasorat, matonat va adolat uchun kurash misollarini tushunish kelajakdagi ofitserlarda yuqori axloqiy yo‘llanmalarning, huquqqa hurmat, fuqarolik mas’uliyati va professional sharafning shakllanishiga yordam beradi. Tarixiy-vatanparvarlik materiallarini o‘qitish jarayoniga kiritish, faol o‘qitish metodlari

yordamida kursantlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshiradi, o‘tgan, hozirgi va kelajakdagi xizmat faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi. Ya’ni bu nafaqat buyuk umumiy tarixning bir qismi, balki yangi avlodlar uchun ma’naviy kuch manbaidir. Kursantlar uchun o‘tgan tarix sahifalarini bilish, qonunga, inson huquqlariga va vatanparvarlik mas’uliyatiga hurmatning asosini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, ajdodlarimizning jasoratiga murojaat qilish, oliy ta’lim muassasalarida huquqiy madaniyatni tarbiyalashning kuchli vositasidir. Ikkinchi jahon urushi (1941-1945 yillar) va xalq qahramonlari, jumladan, o‘zbek urush qahramonlari haqida ma’lumotlarning oliy harbiy o‘quv yurtlarining ta’lim jarayoniga kiritilishi kursantlar orasida nafaqat professional, balki vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishning muhim tarkibiy qismidir. Urush yillarida ajdodlarimiz tomonidan namoyish etilgan jasorat, mardlik va o‘z jonini fido etish misollarida harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, axloqiy ruhni va vatanparvarlik ongini mustahkamlashga yordam beradi.

Demak, har bir kursant faqat Vatan himoyachisi sifatida emas, balki madaniy xotira, ajdodlariga hurmatni saqlovchi shaxs sifatida o‘z rolini anglash kerak. Buyuk Vatan urushi tarixi, qahramonlarning jasorati, o‘zbek askarlari, orqa xizmatchilari, partizanlar va ayollarning kurashi kabi voqealar, faqat o‘quv dasturining bir qismi bo‘lishi emas, balki kelajakdagi ofitserlarni tarbiyalashning asosiy poydevori bo‘lishi kerak. Urush qahramonlarini, ularning misli ko‘rilmagan o‘zini fido etishi, qurbonligi va mardligini bilish, kursantlarga ichki mas’uliyatni shakllantirish va o‘z kasbining ahamiyatini anglashga yordam beradi. Ushbu mavzularni harbiy o‘quv muassasalarining ta’lim jarayoniga kiritish, harbiy xizmatchilarni tarixiy xotiraga hurmat ruhida tarbiyalashga, o‘z mamlakati, xalqiga va armiyasiga nisbatan faxrlanish hissini uyg‘otishga xizmat qiladi. Bu kursantlarda ajdodlarimizning jasoratiga hurmatni tarbiyalaydi va yuqori vatanparvarlikka hamda Vatanga uzoq muddatli xizmat qilishga undaydi. Ular nafaqat qahramonlarning xotirasini e’zozlashlari, balki bu tajriba va axloqiy yo‘llanmalarning yangi avlodlarga o‘tishini ta’minlashlari kerak, shu orqali an’analar uzluksizligini saqlashadi va Vatan himoyachilari avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashadi.

Аннотация. В статье рассматривается исторический вклад узбекского народа в Победу над фашизмом в годы Второй мировой войны и его значение в процессе формирования и развития правовой культуры курсантов. Показано, что осмысление героических страниц истории способствует развитию у будущих офицеров уважения к праву, чувству патриотизма и гражданской ответственности. Делается вывод о необходимости активного использования историко-патриотического материала в образовательно-воспитательной работе с курсантами.

Ключевые слова: узбекский народ, Победа над фашизмом, правовая культура, курсанты, патриотизм, гражданская ответственность, историческая память.

Annotation. The article talks about the historical contribution of the Uzbek people to the victory over fascism during the Second World War and its importance in the process of formation and development of the legal culture of cadets. Awareness of the heroic pages of history has been shown to help future officers develop respect for law, patriotism, and civic responsibility. It is concluded that in educational and educational work with cadets, the active use of historical-patriotic materials is necessary.

Key words: Uzbek people, victory over fascism, legal culture, cadets, patriotism, civic responsibility, historical memory.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://mytashkent.uz/2018/05/01/geroi-sovetskogo-soyuza-iz-uzbekistana-srazhavshiesya-v-vov/

XORIJIY TADQIQOTLARDA II JAHON URUSHIDA O‘ZBEKISTONLIK HARBIYLARNING ICHKI QO‘SHINLAR SAFLARIDAGI ISHTIROKI VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI FAOLIYATINING O‘RGANILISHI VA TAHLILI

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqi ichki qo‘shinlarining front orti hududlarida, xususan O‘zbekiston hududida olib borgan xavfsizlik faoliyati harbiy-siyosiy va ijtimoiy kontekstda tahlil etilgan. Tadqiqotda ichki qo‘shinlarning strategik obyektlarni qo‘riqlash, sabotaj va isyon harakatlariga qarshi kurash, deportatsiya operatsiyalarini amalga oshirish, garnizonlik xizmati va jamoat tartibini saqlashdagi roli kompleks manbashunoslik asosida yoritiladi. Shuningdek, mazkur faoliyatning O‘zbekistonlik harbiylar tomonidan amalga oshirilgan jihatlari tarixiy xotirani tiklash, zamonaviy xavfsizlik siyosatini takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekani asoslab beriladi. Maqolada ichki qo‘shinlarning ikki qirrali funksiyasi – xavfsizlikni ta’minlash va siyosiy repressiyalarning ijrochisi sifatidagi faoliyati obyektiv tarixiy tahlil asosida baholanadi. Natijada, tadqiqot urush yillarida ichki xavfsizlik tamoyillarining shakllanishi va ularning bugungi xavfsizlik siyosatidagi metodologik asoslariga oid muhim xulosalar va amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, ichki qo‘shinlar, jamoat xavfsizligi, front orti faoliyati, O‘zbekiston harbiylari, strategik obyektlar, deportatsiya, repressiya, garnizonlik xizmati, ichki xavfsizlik siyosati, harbiy tarix, zamonaviy xavfsizlik konsepsiyasi.

Bugungi kunda jahon ilmiy hamjamiyatida Ikkinchi jahon urushi yillarida ichki xavfsizlikni ta’minlashga oid masalalar, xususan ichki qo‘shinlarning front orti faoliyati, strategik obyektlarni qo‘riqlash, sabotaj va isyon harakatlariga qarshi kurash, deportatsiya jarayonlaridagi roli chuqur o‘rganilmoqda. AQSh, Rossiya, Germaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari va arxivlari negizida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar ushbu harbiy-siyosiy tuzilmalarni nafaqat repressiv organlar, balki davlat barqarorligini ta’minlovchi xavfsizlik mexanizmlari sifatida tahlil qilmoqda. “Journal of Military History”, “European Security”, “Cold War Studies” kabi nufuzli jurnallarda chop etilayotgan maqolalarda ichki qo‘shinlarning ijtimoiy nazorat, mafkuraviy ta’sir va fuqarolik jamiyati bilan munosabatlari murakkab tarixiy fenomen sifatida yoritilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonlik harbiylarning ichki qo‘shinlar tarkibida olib borgan faoliyatini aynan jamoat xavfsizligi tamoyillari asosida o‘rganish nafaqat milliy tariximizni chuqurlashtiradi, balki global ilmiy diskursda o‘zbek tadqiqotchilarining munosib o‘rnini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida 9 may — Xotira va qadrlash kuni yurtimizda umumxalq ruhida, vatanparvarlik va xavfsizlik g‘oyalarini mujassam etgan tarzda nishonlanadi. Har yili ushbu sana arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “9-may – Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida respublika miqyosida keng ko‘lamli tadbirlar o‘tkazilishi belgilab boriladi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, urush va mehnat fronti faxriylarini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek,

“Vatan fidoyi farzandlarini unutmaydi” shiori ostida shahar va tumanlarda madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish kabi qator tashkiliy chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Shu bilan birga, ushbu hujjatlarda Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan ommaviy tadbirlar chog‘ida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks harakatlar muvofiqlashtirilgan. Mazkur siyosiy-huquqiy yondashuv jamiyatda tarixiy xotirani asrab-avaylash, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash o‘rtasida izchil va barqaror uyg‘unlikni shakllantiradi. Shu bois, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonlik harbiylarning Sovet Ittifoqi ichki qo‘shinlar tarkibida olib borgan faoliyatini aynan jamoat xavfsizligi konsepsiyasi nuqtai nazaridan o‘rganish — nafaqat tarixiy xotirani chuqurlashtiradi, balki zamonaviy xavfsizlik siyosatini ilmiy jihatdan boyitishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning birinchi yarmi insoniyat tarixida o‘zining miqyosi, halokatli oqibatlari va ijtimoiy-siyosiy tizimlarga ko‘rsatgan ta’siri jihatidan misli ko‘rilmagan global mojaroga – Ikkinchi jahon urushiga guvoh bo‘ldi. 1939–1945 yillar oralig‘ida kechgan bu urush nafaqat jangovar frontlarda, balki mamlakatlarning ichki hududlarida ham ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka tahdid solgan omillarni yuzaga keltirdi. Mazkur davrda jamoat xavfsizligini ta’minlash, ichki siyosiy vaziyatni nazorat qilish va fuqarolar orasida barqaror ijtimoiy tartibni saqlab qolish masalalari har bir davlat uchun, xususan Sovet Ittifoqi uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sovet Ittifoqi, o‘zining ko‘p millatli va geografik jihatdan ulkan hududiga ega davlat sifatida, urush yillarida ichki tahdidlar, diversiyalar, sabotaj harakatlari va ijtimoiy notinchlik ehtimollariga qarshi maxsus tizimlarni safarbar etishga majbur bo‘ldi. Ayniqsa, mamlakat ichkarisida tinchlikni saqlash, harbiy harakatlar uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy va logistika resurslarini himoya qilish, aholi o‘rtasida tartib-intizomni mustahkamlash vazifalari favqulodda dolzarblik kasb etdi.

Mazkur kontekstdan kelib chiqib, Sovet Ittifoqining Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (IIXK) tarkibidagi ichki qo‘shinlar institutsional jihatdan davlatning ichki xavfsizlik siyosatida yetakchi o‘ringa ega bo‘ldi.

Shu nuqtada ta’kidlash joizki, X.D. Xaknazarov[1] o‘z tadqiqotlarida harbiy tarixni o‘rganish O‘zbekiston tarixining barcha bosqichlarida ustuvor ahamiyat kasb etganini asoslab bergan. Uning fikricha, harbiy tarixni xolis va har tomonlama tadqiq etish uchun arxiv materiallari, fundamental asarlar, xotiralar, sayohatnomalar, kundaliklar hamda og‘zaki tarixga oid ma’lumotlardan foydalanish zarur. Darhaqiqat, harbiy tarixning mukammal o‘rganilishi tarixiy jarayonlarning keng qamrovli va obyektiv tahlil etilishini ta’minlaydi. Ayniqsa, rasmiy hujjatlar bilan bir qatorda shaxsiy xotiralar va og‘zaki manbalarning tadqiqot jarayoniga jalb etilishi o‘tgan voqealarning nafaqat formal-xronikal, balki ijtimoiy-psixologik qirralarini ham ochib berish imkonini yaratadi. Shu bois, X.D. Xaknazarov tomonidan ilgari surilgan manbashunoslikka asoslangan kompleks yondashuv harbiy tarixni o‘rganishda zamonaviy ilmiy talablarning to‘liq javobini beradi hamda sohaga obyektiv, ko‘p qirrali tahlil qilish uchun zarur metodologik asos yaratadi.

Mazkur ilmiy-metodologik yondashuv, ayniqsa, jamoat xavfsizligi sohasini tadqiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jamoat xavfsizligi masalalarini chuqur o‘rganishda nafaqat rasmiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar, balki shaxsiy xotiralar, voqelik guvohlarining og‘zaki hikoyalari va kundalik hayot tajribasiga asoslangan ma’lumotlarni tahlil qilish talab etiladi. Shunday qilib, harbiy tarixda shakllangan kompleks manbashunoslik yondashuvi zamonaviy jamoat xavfsizligi strategiyalarini ishlab chiqishda ham ishonchli ilmiy-metodologik tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ichki qo‘shinlar front ortidagi tartibni ta’minlash, strategik obyektlarni qo‘riqlash, harbiy asirlarni nazorat qilish, sabotaj harakatlariga qarshi kurashish va ijtimoiy tartibsizliklarning oldini olish kabi keng ko‘lamli vazifalarni bajargan maxsus harbiy-siyosiy kuch sifatida shakllandi.

Xususan, O‘zbekiston hududi ham strategik ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, bu yerda ham ichki xavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi, urush yillarida nafaqat front uchun zaxira kuchlar va iqtisodiy resurslar

bazasi sifatida, balki aholini evakuatsiya qilish, harbiy sanoat korxonalarini joylashtirish va front ortidagi ijtimoiy barqarorlikni saqlash nuqtayi nazaridan ham muhim hudud sifatida xizmat qildi.

Natijada, Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (IIXK) tarkibidagi ichki qo‘shinlarning O‘zbekistondagi faoliyati davlatning harbiy-ma’muriy tartibini ta’minlash, aholi orasida ijtimoiy nazoratni kuchaytirish va harbiy mafkura asoslarini singdirishda muhim instrument sifatida faoliyat yuritdi. Ularning urush yillaridagi faoliyati zamonaviy jamoat xavfsizligi konsepsiyalarining tarixiy ildizlarini tushunishda va harbiy tuzilmalar bilan fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan Sovet Ittifoqining harbiy va ichki xavfsizlik tizimlari favqulodda jangovar va tashkiliy holatga keltirildi. Mazkur vaziyatda IIXK tarkibidagi ichki qo‘shinlar, chegara qo‘shinlari, operativ tuzilmalar va alohida maxsus qismlar front chizig‘i va uning ortida jamoat xavfsizligini ta’minlash hamda davlat mudofaa tizimini qo‘llab-quvvatlash vazifalariga safarbar etildi[2]. Urush sharoitida ichki qo‘shinlar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatlar qatorida ichki xavfsizlikni ta’minlash, strategik obyektlar — harbiy sanoat korxonalari, temir yo‘l tarmoqlari, oziq-ovqat bazalari va logistika infratuzilmasini qo‘riqlash, harbiy asirlar va deportatsiya qilingan aholining nazoratini tashkil etish, shaharlar va aholi punktlarida garnizon xizmatini olib borish, dushman razvedka-diversiya guruhlariga qarshi kurashish va terrorchilik harakatlarini bartaraf etish kabi muhim vazifalar alohida ahamiyat kasb etdi.

Ayniqsa, O‘zbekiston hududida urush yillarida ichki xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida qator harbiy tuzilmalar tashkil etildi. Jumladan, 1941–1942 yillarda 99-, 100-, 101-, 102-, 103-kavaleriya diviziyalari hamda 89-, 90-, 91-, 92-, 93-, 94-, 95-, 96- va 97-aloqchi brigadalar shakllantirilib, ularning faoliyati nafaqat front chizig‘idagi jangovar harakatlarda, balki mamlakat ichkarisida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim o‘rin tutdi. Shu bilan birga, Toshkentda 162- va 389-o‘qchi diviziyalari tashkil topib, keyinchalik ularning shaxsiy tarkibi frontdagi harbiy harakatlar bilan bir qatorda ichki xavfsizlik tadbirlarida ham faol ishtirok etdi[3].

O‘zbekiston hududida IIXK ichki qo‘shinlari yordamida davlatning harbiy resurslari va iqtisodiy infratuzilmasi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatildi. Temir yo‘l tarmoqlari, harbiy yuk tashish koridorlari va oziq-ovqat omborlarining doimiy himoyasi, resurslardan noqonuniy foydalanish, talon-taroj va sabotaj harakatlarining oldini olish maqsadida ichki qo‘shinlar muntazam ravishda nazorat va tezkor tadbirlar olib bordilar. Mamlakat ichkarisida urush sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan beqarorlik, jinoyatchilik va ijtimoiy norozilikni bartaraf etish uchun ichki qo‘shinlar tomonidan profilaktik reydlar o‘tkazilib, tartib-intizomni mustahkamlash, fuqarolar orasida mafkuraviy tarbiya ishlarini olib borish, axborot nazorati tizimini kuchaytirish choralari amalga oshirildi.

Diversiya va terrorchilik faoliyatiga qarshi kurash ham ichki qo‘shinlar zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri bo‘lib, dushman razvedka guruhlarining faoliyatini fosh etish va ularga qarshi operatsiyalar o‘tkazish uchun maxsus guruhlar shakllantirildi. Shuningdek, ichki qo‘shinlar tomonidan harbiy asirlarni saqlash lagerlarini qo‘riqlash, deportatsiya qilingan aholining harakatlarini nazorat qilish va ularning mehnat faoliyatini tartibga solish vazifalari amalga oshirildi. Bunday tadbirlar front orti xavfsizligini mustahkamlash va mamlakat ichki barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Urush sharoitida ichki qo‘shinlarning ushbu faoliyatlari orqali iqtisodiy tarmoqlarning uzluksiz ishlashi, harbiy ta’minot liniyalarining barqarorligi va fuqarolik jamiyatining nisbiy tinchligini saqlab qolishga erishildi. Natijada, ichki qo‘shinlarning o‘z vazifalarini bajarishi nafaqat harbiy harakatlar samaradorligini oshirdi, balki Sovet Ittifoqi mudofaa qudratini ichki tahdidlardan himoya qilishga ham salmoqli hissa qo‘shdi.

Urush yillarida ichki qo‘shinlarning faoliyati faqatgina jamoat tartibini saqlash bilan cheklanib qolmagan, balki Sovet Ittifoqi hukumatining deportatsiya siyosatini amalga oshirishda ham markaziy rol o‘ynagan. 1941–1944 yillar oralig‘ida Sovet hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida nemis, chechen, ingush, qrim-tatar, bolqor, qalmiq, turk va boshqa etnik guruhlarning ommaviy ko‘chirilish jarayonlari

bevosita ichki qo‘shinlarning tashkiliy va harbiy yordami bilan amalga oshirilgan. Bu faoliyatlarning tashkiliy-boshqaruv jarayonlari Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (IIXK) va Davlat Mudofaa Qo‘mitasi (DMQ) topshiriqlari asosida amalga oshirilgan bo‘lib, ichki qo‘shinlar deportatsiya operatsiyalarining asosiy ijrochilari sifatida faol ishtirok etganlar.

Xususan, tarixchi olim V.P. Xozyainovning ta’kidlashicha, IIXK ichki qo‘shinlari DMQ va hukumat ko‘rsatmalariga binoan L.P. Beriyaning bevosita rahbarligi ostida 1941 yil sentyabr-dekabr oylarida Sovet Ittifoqi hududida yashovchi nemis millatiga mansub fuqarolarni, 1943 yil noyabrda qora choy xalqlarini, 1943 yil dekabr va 1944 yil mart oylarida qalmiqlarni, 1944 yil fevralda chechen va ingushlarni, 1944 yil martda bolqorlarni, 1944 yil mayda qrim tatarlarini, 1944 yil noyabrda esa turk, kurd va xemshin xalqlarini ommaviy ravishda deportatsiya qilish operatsiyalarida faol qatnashganlar[4].

V.P. Xozyainovning tadqiqotlari deportatsiya siyosatini ichki xavfsizlikni ta’minlashning radikal shakli sifatida baholashga asos beradi. Unga ko‘ra, deportatsiya choralari rasmiy ravishda mamlakat ichki barqarorligini saqlash va front ortidagi tahdidlarni bartaraf etish zarurati bilan izohlangan bo‘lsa-da, amalda bu jarayonlar ko‘plab etnik guruhlarning asosiy insoniy va ijtimoiy huquqlarining buzilishiga olib kelgan. Ichki qo‘shinlarning deportatsiya amaliyotidagi faol roli ularning urush sharoitidagi ikkiyoqlama vazifasini — bir tomondan, jamoat xavfsizligini ta’minlash, ikkinchi tomondan esa siyosiy repressiyalarni amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qilganligini ochiq ko‘rsatadi.

Mazkur tarixiy tajriba, ichki xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash nomi ostida amalga oshirilgan radikal choralar ijtimoiy barqarorlikka erishishda qanday ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelganini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, deportatsiya operatsiyalari ichki qo‘shinlar faoliyatining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini ochib beradi: ular faqatgina harbiy-siyosiy maqsadlarga xizmat qilmagan, balki davlat ichki siyosatining qudratli instrumentlaridan biriga aylangan.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan Sovet Ittifoqining ichki xavfsizlik tizimi, xususan Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (IIXK) tarkibiga kiruvchi ichki qo‘shinlar va chegara qo‘shinlari zudlik bilan safarbar etilib, dushman bosqiniga qarshi birinchi himoya chizig‘ida faoliyat olib bordilar. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, urushning boshida aynan ichki qo‘shinlar va chegara qo‘shinlari nemis armiyasining dastlabki kuchli zarbalarini o‘z tanalarida qabul qilganlar[5]. Ularning bunday pozitsiyaga chiqishi ichki qo‘shinlarning faqat ijtimoiy barqarorlikni saqlash vositasi emas, balki front liniyasida jangovar qobiliyatga ega harbiy kuch sifatida qaralganini ko‘rsatadi.

Urush davomida va uning oxirgi kunlariga qadar ichki qo‘shinlar nafaqat harbiy harakatlarda, balki jamoat tartibini saqlash, strategik obyektlarni va kommunikatsiya liniyalarini himoya qilish, harbiy asirlar va deportatsiya qilingan aholining nazoratini ta’minlash kabi murakkab ichki xavfsizlik vazifalarida ham faol qatnashdilar. Ularning bu xizmatlari davlat va jamiyat ichkarisidagi barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning izchil faoliyatini ta’minlash va umumiy harbiy g‘alabaga muhim hissa qo‘shish imkonini berdi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, ichki qo‘shinlar urush yillaridagi fidokorona xizmatlari uchun ko‘plab orden va medallar bilan mukofotlangan, jumladan, ko‘plab xodimlar “Sovet Ittifoqi Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgan[6].

Olimlar, xususan M.M. Kozlovning tahlillariga ko‘ra, ichki qo‘shinlarning faoliyati urushning strategik muvaffaqiyati uchun muhim omil bo‘lgan. Ularning nafaqat harbiy front chizig‘idagi qarshilik harakatlarida, balki ichki barqarorlikni ta’minlashdagi roli Sovet Ittifoqining umumiy mudofaa strategiyasida ajralmas o‘rin tutgan.

Biroq zamonaviy tarixiy tahlillar ichki qo‘shinlar faoliyatining faqat ijobiy jihatlar bilan cheklanmaganligini ko‘rsatadi. Ularning siyosiy repressiyalarni amalga oshirishdagi ishtiroki, deportatsiya operatsiyalaridagi faol roli va fuqarolik erkinliklarini cheklash kabi jihatlari ham tarixiy baholashda hisobga olinishi lozim. Ichki qo‘shinlarning Ikkinchi jahon urushi yillardagi xizmatini baholashda bir tomondan ularning qahramonlik va fidoyiligini e’tirof etish, ikkinchi tomondan esa faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy va siyosiy oqibatlarni obyektiv tahlil qilish zarur.

Natijada, ichki qo‘shinlarning Ikkinchi jahon urushidagi roli ikki qirrali tarixiy fenomen sifatida

qaraladi: ular harbiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda beqiyos xizmat ko‘rsatgan bo‘lsalarda, shu bilan birga, totalitar tizimning ichki siyosiy mexanizmlarining ajralmas qismi sifatida ham faoliyat yuritganlar. Bu esa, ularning urush sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini zamonaviy tarixiy konsepsiyalar asosida yanada chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi.

Urush yillarida O‘zbekiston hududida ichki xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham ichki qo‘shinlarning faoliyati doirasida muhim o‘rin egallagan. O‘zbekiston, front ortidagi strategik hudud sifatida, harbiy sanoat korxonalari, evakuatsiya qilingan aholi va korxonalarni qabul qilish, shuningdek, harbiy ta’minot zanjirining uzluksiz ishlashini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etgan. Shu sababli, ichki qo‘shinlarning bu yerda olib borgan faoliyati ikki yo‘nalishda shakllangan: birinchisi — jamoat tartibini saqlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, ikkinchisi — strategik obyektlar va resurslarni himoya qilish.

Shaharlarda va yirik aholi punktlarida komendantlik soatlari joriy etilib, fuqarolarning harakatlari qat’iy tartibga solingan. Bu orqali harbiy ahamiyatga ega obyektlarga hujumlar va diversiya harakatlarining oldi olinishi, ijtimoiy beqarorlikka qarshi choralar ko‘rilishi maqsad qilingan. Ayni vaqtda ichki qo‘shinlar tomonidan ijtimoiy tartibsizliklarning oldini olish uchun tezkor reydlar, aholi o‘rtasida profilaktik tadbirlar, rejalashtirilgan tekshiruvlar va jamoat joylarida muntazam patrullash ishlari olib borilgan.

Tovarlar, oziq-ovqat mahsulotlari va strategik materiallarning noqonuniy aylanmasi va kontrabandaga qarshi kurash ham ichki qo‘shinlarning doimiy vazifalaridan biri sifatida shakllandi. Urush sharoitida resurslarning tanqisligi va ularning front ehtiyojlari uchun zarurati sharoitida ichki bozorda g‘ayriqonuniy savdo va spekulyatsiyaning oldini olish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri edi. Shu boisdan ichki qo‘shinlar tomonidan strategik resurslar ustidan qat’iy nazorat o‘rnatildi va ushbu vazifani buzganlarga nisbatan keskin choralar ko‘rildi.

Bundan tashqari, ichki qo‘shinlar aholi orasida sabotaj va isyon harakatlarini aniqlash va bartaraf etish uchun tezkor javob mexanizmlarini shakllantirdilar. Sabotaj va norozilik ehtimolini kamaytirish uchun axborot agentliklari, mahalliy komendantliklar va fuqarolar o‘rtasida hamkorlik mexanizmlari kuchaytirildi. Aholi orasida ishonchli axborot manbalarini shakllantirish va g‘alabaga ishonchni mustahkamlash maqsadida siyosiy-mafkuraviy ishlar keng ko‘lamda olib borildi.

Urush sharoitida amalga oshirilgan ushbu tadbirlar, ichki xavfsizlikni saqlash va davlat resurslarini muhofaza qilish orqali, mamlakatning umumiy harbiy strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ichki qo‘shinlarning O‘zbekiston hududidagi faoliyati jamiyat barqarorligini saqlashda, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning izchil ishlashini ta’minlashda va urush harakatlariga resurs bazasini yaratishda o‘ziga xos strategik ahamiyat kasb etdi.

Urush yillari davomida ichki qo‘shinlarning jamoat tartibini saqlashdagi roli nafaqat strategik obyektlarni qo‘riqlash va ichki xavfsizlikni mustahkamlash bilan cheklangan, balki aholi yashash punktlarida garnizonlik xizmatini olib borish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va urush natijasida zarar ko‘rgan hududlarni fashistlar bosqinidan ozod etish vazifalarini ham o‘z ichiga olgan. Ichki qo‘shinlar tomonidan shahar va qishloqlarda harbiy-intizomni saqlash, fuqarolik tartibini nazorat qilish, infratuzilmani tiklash va ijtimoiy hayotni normallashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilgan.

Bu boradagi faoliyatlarni ilmiy asosda tahlil qilgan holda, manbaalarda qayd etilishicha, O‘zbekiston hududida ham urush sharoitida ichki qo‘shinlar garnizonlik xizmatini yuritish, shaharlar va qishloqlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash, aholini front ehtiyojlariga safarbar etish hamda fashistlar tomonidan egallangan hududlarni ozod qilish jarayonlarida faol ishtirok etgan[7]. Bu ma’lumotlar ichki qo‘shinlarning faqatgina repressiv va nazorat funksiyalari bilan cheklanib qolmay, balki mamlakat ichkarisida front orti barqarorligini tiklash va saqlashdagi ijobiy xizmatlarini ham ochib beradi.

Ichki qo‘shinlarning garnizonlik xizmati front ortidagi tinch hududlarni harbiy va ma’muriy nazorat ostida ushlab turish, mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda tartib-intizomni mustahkamlash va aholining ruhiy holatini barqarorlashtirishga qaratilgan edi. Shuningdek,

ozod etilgan hududlarda vaqtinchalik harbiy boshqaruvni tashkil etish va fuqarolik tartibini tiklashda ham ichki qo‘shinlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Bu esa, o‘z navbatida, front ortidagi harbiy va iqtisodiy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlashga, aholi o‘rtasida Sovet hokimiyati siyosatini qo‘llab-quvvatlash kayfiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Urush sharoitida ichki qo‘shinlarning faoliyati o‘zining ko‘p qirrali va murakkab tabiatini yanada kengroq namoyon etdi. Ichki xavfsizlikni ta’minlash, strategik obyektlarni qo‘riqlash, ijtimoiy tartibni saqlash kabi vazifalardan tashqari, ular qator maxsus harbiy xizmatlarni ham bajarishga safarbar etilgan edi. Jumladan, ichki qo‘shinlarning muhim vazifalari qatoriga dushman aviadesant kuchlariga qarshi kurash olib borish, harbiy asirlar saqlanadigan lagerlarni va boshqa maxsus lagerlarni qo‘riqlash, shuningdek, hukumat aloqalarining uzluksizligini ta’minlash va ularni turli tahdidlardan himoya qilish kabi strategik ahamiyatga ega funksiyalar kirgan[8].

Dushman tomonidan amalga oshirilgan desant operatsiyalari va diversiya harakatlari front ortidagi strategik ahamiyatga ega obyektlar va aloqalar tizimi uchun jiddiy tahdid bo‘lgan sharoitda, ichki qo‘shinlar bu tahdidlarga qarshi faol kurash olib borish orqali mamlakat ichki xavfsizligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaganlar. Ayni vaqtda harbiy asirlarning saqlanishi, ular ustidan nazorat o‘rnatish va ularning isyon ko‘tarishining oldini olish ham ichki qo‘shinlarning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Hukumat aloqalari tarmoqlarining doimiy faoliyat ko‘rsatishi urush sharoitida davlat boshqaruvi va harbiy boshqaruv tizimlarining samarali ishlashi uchun zaruriy shart hisoblangan. Shu boisdan ichki qo‘shinlar davlat rahbariyati va harbiy boshqaruv markazlari o‘rtasidagi aloqa kanallarini sabotaj va boshqa turli tahdidlardan himoya qilishda o‘zlarining yuqori darajadagi jangovar va tashkiliy salohiyatlarini namoyon etganlar.

Ushbu tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ichki qo‘shinlar faqat jamoat tartibini saqlash yoki repressiv siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida emas, balki front ortidagi strategik xavfsizlikni ta’minlashda, harbiy va siyosiy boshqaruvning uzluksiz faoliyatini kafolatlashda ham hal qiluvchi omil bo‘lganlar. Bu esa, ularning Ikkinchi jahon urushi sharoitidagi rolini nafaqat ichki siyosiy, balki keng qamrovli harbiy-strategik nuqtayi nazardan ham baholashni taqozo etadi.

Urushning dastlabki bosqichlarida ichki qo‘shinlarning maxsus bo‘linmalari — konvoy qo‘shinlari bevosita harbiy harakatlarda va ichki xavfsizlikni ta’minlash operatsiyalarida faol ishtirok etgan. Xususan, konvoy qo‘shinlari tomonidan strategik ahamiyatga ega 120 obyekt va 120 ta rejalashtirilgan marshrutda muntazam qo‘riqlash ishlari amalga oshirilgani, ularning front ortidagi harbiy va strategik resurslarni himoya qilishdagi beqiyos rolini ko‘rsatadi[9]. Bu holat ichki qo‘shinlarning faqat ijtimoiy tartibni nazorat qilish emas, balki harbiy-logistik tizimning uzluksizligini ta’minlashdagi kompleks funksiyalarini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, 1944 yil 17 iyul kuni konvoy qo‘shinlari tomonidan 57600 nafar harbiy asirlarning Moskva shahar ko‘chalari orqali qo‘riqlab o‘tkazilganligi[10] ularning tashkiliy salohiyatini va yirik hajmdagi inson resurslari ustidan nazorat o‘rnatishdagi tajribasini yaqqol ifodalaydi. Bu kabi operatsiyalar urush sharoitida nafaqat harbiy-intizomiy tartibni saqlashga, balki front ortidagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Olimlar tomonidan berilgan baholashlarga ko‘ra, konvoy qo‘shinlari faoliyati davlat ichki xavfsizlik strategiyasining ajralmas va muhim qismi bo‘lgan. V.P.Xozyainov va V.F.Nekrasovlarning tadqiqotlarida konvoy qo‘shinlarining harbiy asirlar va strategik obyektlar ustidan nazorat o‘rnatishdagi roli keng yoritilgan bo‘lib, ular bu tuzilmalarning front ortidagi xavfsizlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini ta’kidlaydilar.

Mazkur yondashuv muhim ilmiy asosga ega bo‘lsa-da, ularning fikrini kengroq tahlil qilar ekanmiz, shuni alohida qayd etish lozimki, konvoy qo‘shinlarining faqat harbiy va siyosiy samaradorlik nuqtayi nazaridan baholanishi ularning faoliyatining ijtimoiy va inson huquqlari bilan bog‘liq oqibatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Asirlar va deportatsiya qilingan aholiga nisbatan harbiy-nazorat siyosatini amalga oshirishda yuzaga kelgan muammolar — sharoitlarning og‘irligi, insoniy huquqlar cheklanishi va majburiy mehnatning qo‘llanishi — tarixiy

adolat nuqtayi nazaridan ham sinchkov tahlilni talab qiladi.

Ta’kidlash joizki, konvoy qo‘shinlarining urush yillaridagi faoliyati front ortidagi xavfsizlikni mustahkamlash va davlat siyosiy-iqtisodiy barqarorligini saqlashga muhim hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, ularning faoliyati zamirida inson huquqlari, erkinliklar va ijtimoiy oqibatlar bilan bog‘liq murakkab muammolar ham mavjud bo‘lgan. Bu esa, zamonaviy yondashuvda tarixiy bahoni yanada obyektiv va ko‘p qirrali yondashuv asosida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ko‘plab tarixiy dalil va misollar O‘zbekiston xalqi buyuk g‘alabaga munosib hissa qo‘shganini yaqqol tasdiqlaydi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, dastlabki hisob-kitoblarga binoan, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan o‘zbekistonliklardan 120 000 dan ortig‘i turli orden va medallar bilan mukofotlangan, jumladan 280 nafari “Sovet Ittifoqi Qahramoni” unvoniga, 32 nafar harbiy xizmatchi esa “Slava” ordenining uchala darajasiga sazovor bo‘lgan[11].

Keyingi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, o‘zbekistonliklarning Ikkinchi jahon urushidagi ulkan hissasi yana kengroq ko‘lamda aniqlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 9-may kuni “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 ming nafardan ziyodi jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan. Jumladan, 301 nafar o‘zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, 70 nafardan ortiq harbiy xizmatchi esa “Slava” ordenining uchala darajasiga sazovor bo‘lgan[12].

Bu ko‘rsatkichlar o‘zbekistonliklarning nafaqat front chizig‘ida, balki front ortida — ichki xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, aholi orasida barqarorlikni mustahkamlash va strategik resurslar himoyasini amalga oshirishda ham faol ishtirok etganligini ko‘rsatadi. Ichki qo‘shinlar tarkibida xizmat qilgan o‘zbekistonlik harbiylar front ortida sabotaj va diversiya harakatlariga qarshi kurashgan, harbiy asirlar va deportatsiya qilingan aholining nazorat ostida saqlanishini ta’minlagan, strategik obyektlarni va hukumat aloqalarini himoya qilgan.

Jamoat xavfsizligini saqlash, fuqarolar tinchligini ta’minlash va urush sharoitida ichki siyosiy barqarorlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ushbu faoliyatlar, o‘zbekistonlik harbiylarning xizmat vazifalarining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning fidokorligi va o‘z burchiga sadoqati, ichki xavfsizlikning doimiy ta’min etilishi orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barqaror rivojlanishiga, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati uchun shart-sharoit yaratishga xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida nafaqat jangovar harakatlar, balki ichki ijtimoiy barqarorlik va jamoat xavfsizligi ham umumiy g‘alabaga erishishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbekistonlik harbiylarning mukofotlar va faxriy unvonlarga sazovor bo‘lgani esa, ularning nafaqat jang maydonlaridagi, balki ichki xavfsizlikni ta’minlash va jamiyat tinchligini saqlashdagi xizmatlarining ham xalqaro darajada e’tirof etilganining dalilidir.

Ikkinchi jahon urushi davrida Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (IIXK) tarkibidagi ichki qo‘shinlar nafaqat Sovet Ittifoqining umumiy mudofaa strategiyasida, balki front orti xavfsizligi, ichki barqarorlik va jamoat tartibini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutgan. O‘zbekiston hududida amalga oshirilgan ichki xavfsizlik tadbirlari ham bu hududning strategik ahamiyatini oshirib, resurslar va aholi xavfsizligini ta’minlashda ichki qo‘shinlarning faoliyati beqiyos xizmat ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

Ichki qo‘shinlarning urush yillaridagi faoliyati ko‘plab ijobiy natijalarga erishgan bo‘lsa-da, ularning ayrim salbiy tajribalari — repressiv usullar, deportatsiyalar va fuqarolik erkinliklari cheklovlari kabi oqibatlar — zamonaviy xavfsizlik tizimi rivojida muhim saboq sifatida tahlil qilinishi zarur.

Ikkinchi jahon urushi yillari Sovet Ittifoqining ichki xavfsizlik tizimi, xususan Ichki Ishlar Xalq Komissarligi tarkibidagi ichki qo‘shinlar faoliyati, o‘zining murakkab va ikki qirrali tabiati bilan ajralib turadi. Ular bir vaqtning o‘zida davlat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolik barqarorligini saqlash va ijtimoiy nazoratni kuchaytirish vazifalarini bajargan bo‘lsalar-da, ayni paytda deportatsiya, repressiyalar va siyosiy tazyiq siyosatining faol ijrochilari sifatida ham tarix sahnasida namoyon bo‘lgan. O‘zbekiston hududida bu tuzilmalarning faoliyati front ortidagi strategik xavfsizlikni ta’minlash, resurslar va iqtisodiy infratuzilmani muhofaza qilish hamda aholi o‘rtasida tartib va intizomni saqlash yo‘nalishida muhim o‘rin tutgan.

Mazkur tadqiqot xulosalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ichki xavfsizlik tarixini mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirish: Harbiy va siyosiy tarix doirasida ichki qo‘shinlar faoliyatini o‘rganish bo‘yicha ixtisoslashgan tadqiqotlar sonini ko‘paytirish, arxiv materiallari asosida fundamental ishlar yaratish zarur.

2. Urush yillaridagi ichki xavfsizlik siyosatining ijtimoiy oqibatlarini tizimli tahlil qilish: Deportatsiyalar, komendantlik nazorati, axborot cheklovlari va harbiy-intizom siyosatining fuqarolar hayotiga ta’sirini multidissiplinar yondashuvlar orqali chuqur o‘rganish lozim.

3. Tarixiy tajriba asosida zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalarini takomillashtirish: Ichki qo‘shinlar faoliyatida qo‘llanilgan strategik himoya va tezkor choralar modellarini zamonaviy xavf-xatarlarni bashorat qilish va oldini olish tizimlari bilan solishtirish foydali bo‘ladi.

4. Xavfsizlik va huquqiy davlat tamoyillari o‘rtasidagi muvozanatni ilmiy asoslash: Urush davridagi ichki xavfsizlikni ta’minlash tajribasi asosida fuqarolik huquqlari va davlat xavfsizligi o‘rtasidagi tarixiy ziddiyatlarni huquqiy-normativ jihatdan tahlil qilish, demokratik nazorat mexanizmlarini chuqur o‘rganish kerak.

5. Jamoat xavfsizligining tarixiy ildizlarini umumta’lim va oliy ta’lim dasturlariga integratsiya qilish: Harbiy tarix, xavfsizlik siyosati va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlikni yosh avlod ongiga singdirish maqsadida maxsus o‘quv modullarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется деятельность внутренних войск Советского Союза в тылу в годы Второй мировой войны, в частности, на территории Узбекистана, в военно-политическом и социальном контексте. В исследовании освещены функции войск по охране стратегических объектов, борьбе с диверсиями и мятежами, участию в операциях по депортации, выполнению гарнизонной службы и обеспечению общественного порядка на основе комплексного источниковедческого подхода. Особое внимание уделено вкладу узбекистанских военнослужащих в укрепление исторической памяти, развитие современной политики безопасности и становление гражданского общества. Деятельность внутренних войск рассматривается с двух сторон — как гарантов безопасности и как исполнителей политических репрессий. В результате обоснованы научные выводы и предложены практические рекомендации по использованию исторического опыта внутренней безопасности в современных условиях.

Ключевые слова: Вторая мировая война, внутренние войска, общественная безопасность, тыловая деятельность, узбекистанские военнослужащие, стратегические объекты, депортация, репрессии, гарнизонная служба, политика внутренней безопасности, военная история, современные концепции безопасности.

Abstract. This article examines the activities of the Soviet Union’s internal troops in rear areas during World War II, particularly in Uzbekistan, within a military-political and social context. The study highlights the internal troops’ roles in protecting strategic sites, combating sabotage and uprisings, carrying out deportation operations, conducting garrison duties, and maintaining public order, using a comprehensive source-based approach. Special emphasis is placed on the contribution of Uzbek military personnel to the preservation of historical memory, the development of modern security policies, and the formation of civil society. The internal troops are assessed as both guarantors of security and agents of political repression. As a result, the study offers scientific conclusions and practical recommendations for applying historical internal security experiences to contemporary security strategies.

Key words: World War II, internal troops, public security, rear operations, Uzbek military personnel, strategic facilities, deportation, repression, garrison service, internal security policy, military history, modern security concepts.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaknazarov X.D. O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlovchi harbiy tuzilmalar tarixi. Monografiya I-qism. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti. 2023 – 223 b.
2. Хозяинов В.П. Обеспечение внутренней безопасности СССР в годы Великой Отечественной войны: на материалах внутренних войск. дисс… канд. истр. наук. СбП. 2005, С. 2.
3. Узбекская ССР в годы Великой отечественной войны (1941-1945 гг.) Том I. Узбекистан в период Великой отечественной войны (1941 – ноябрь 1942 гг.). // Ред. кол. М.А. Ахунова, С.Е. Белоножка, Т.Д. Джураев, Х.З. Зияев и др. Т.: «Фан». 1981. С. 312.
4. Хозяинов В.П. Обеспечение внутренней безопасности СССР в годы Великой Отечественной войны: на материалах внутренних войск. дисс. канд. истр. наук. СбП. 2005. С. 31.
5. Великая отечественная война. 1941-1945. Энциклопедия. Гл. ред. М. М. Козлов. Редколлегия: Ю. Я. Барабаш, П. А. Жилин (зам. гл. ред.), В. И. Канатов (отв. секретарь) и др. М.: Советская энциклопедия, 1985. С. 138.
6. Великая отечественная война. 1941-1945. Энциклопедия. Гл. ред. М. М. Козлов. Редколлегия: Ю. Я. Барабаш, П. А. Жилин (зам. гл. ред.), В. И. Канатов (отв. секретарь) и др. М.: Советская энциклопедия, 1985. С. 139.
7. История строительства внутренних войск 1917-1945 гг. Краткий очерк. Ч. 1. М., 1978, С. 170.
8. Внутренние войска и органы внутренних дел в период Великой Отечественной войны. Л., 1976. С. 47.
9. Хозяинов В.П. Обеспечение внутренней безопасности СССР в годы Великой Отечественной войны: на материалах внутренних войск. дисс. канд. истр. наук. СбП. 2005. С. 19.
10. Некрасов В.Ф., Борисов А.В., Детков М.Г. и др. Органы и войска МВД России. Краткий исторический очерк. М., 1996, С. 320.
11. Узбекская ССР в годы Великой отечественной войны (1941-1945 гг.) Том I. Узбекистан в период Великой отечественной войны (1941 – ноябрь 1942 гг.). // Ред. кол. М.А. Ахунова, С.Е. Белоножка, Т.Д. Джураев, Х.З. Зияев и др. Т.: «Фан». 1981. Б. 9.
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2024 йил 9 май. https://president.uz/uz/lists/view/7224

УЗБЕКСКАЯ ПОЭЗИЯ О ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ

Атаева Рануша Рашидовна,
преподаватели кафедры изучения языков
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Эгамбердиева Гузал Мадияровна,
преподаватели кафедры изучения языков
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация. Статья посвящена отражению событий Второй Мировой войны (1941–1945) в узбекской поэзии. Рассматриваются основные темы, мотивы и образы, характерные для литературных произведений военного времени. Особое внимание уделяется роли поэзии в формировании патриотического духа, поддержании морального настроя народа и сохранении памяти о подвиге фронта и тыла. Показано, как узбекская литература стала частью общего духовного сопротивления фашистской агрессии и культурным свидетельством героической эпохи.

Ключевые слова: узбекская поэзия, Вторая мировая война, узбекская литература, патриотизм, литература военного времени, поэзия и война, культурная память.

«Слово поэта – как штык на поле битвы»

Вторая Мировая война стала тяжелейшим испытанием для всех народов Советского Союза. Отголоски фронтовой борьбы, народной боли и мужества нашли отражение в литературе и искусстве, став духовным оружием наравне с винтовкой и мечом. Узбекская поэзия в эти годы обрела особую силу: через стихи звучали голоса солдат и тружеников тыла, матерей и детей, вставших на защиту Родины. Война изменила тематику узбекской литературы. Главными стали темы героизма, патриотизма, борьбы с врагом, страдания мирных жителей, веры в победу. Многие поэты ушли на фронт добровольцами или трудились в тылу, но все они ощущали свою ответственность перед народом.

Одной из центральных фигур узбекской поэзии военного времени стал Гафур Гулям. «Гафур Гулям – известный писатель Узбекистана. В поэзии и прозе Гафура Гуляма нашла свое художественное воплощение история узбекского народа. Тема защитника страны получает дальнейшее развитие и углубление в творчестве Гафура Гуляма в период войны 1941–1945 гг. Он обращается к людям с призывом вкладывать свой творческий труд, «все терпенье, весь талант» «в стройки, в славные дела», в победу над фашизмом. Поэт воспевает роль женщины-узбечки в экономическом развитии страны в послевоенный период. За военные годы Гафур Гулям создал такие замечательные стихотворения, получившие широкую известность, как «Ты не сирота», «Жду тебя, сын мой!», «Время», «Проводы», «Женщина», «Будет и на нашей улице праздник». В стихотворении «Жду тебя, сын мой!» поэт воспевает стойкость и силу отцов, которые своим героическим трудом в тылу приближали победу над врагом. В послевоенные годы Гафур Гулям издает ряд поэтических сборников: «Новые стихи», «Огни Узбекистана», «Матери», «Гордость узбекского народа», «Песня на рассвете», «Да здравствует мир!», «Это подпись твоя». В стихотворениях, вошедших в эти сборники, поэт стремился ответить на важнейшие вопросы мирного времени, показать успехи узбекского народа на трудовом поприще. Герой его произведений – бывший воин, занятый мирными делами и мирным трудом. Гафур Гулям – страстный борец за мир, дружбу и счастье народов. Поэт создал цикл стихов, посвященных борьбе за мир» [1]. Его стихотворение «Жду тебя, сын мой!» (1942) воспевает стойкость и силу отцов, которые своим героическим трудом в тылу приближали победу над врагом. А в стихотворении «Проводы» изображен любящий отец:

Лети мой сокол, на битву вперед!
Тебе восемнадцать исполнилось лет….

Гафур Гулям создавал образы, где единство фронта и тыла казалось естественным и нерушимым.

Особое место в узбекской поэзии тех лет занимает творчество Зульфии. «Наиболее ярко и полно раскрыл талант Зульфии в трудные годы войны: в ее стихах мощно звучит голос патриота, ощущается лирическое теплое отношение к тем, кто с оружием в руках сражается за независимость своей Родины, и кто в глубоком тылу повседневным изнурительным трудом снабжает фронт всем необходимым. В стихотворении «Фархадом взялся» выражена ненависть к фашистским завоевателям, вера в победу. Призывы к борьбе с врагом сочетаются с материнской песней о сыне солдате, с горькими переживаниями жены за своего мужа – фронтовика и храброго бойца, тоскующего по матери и жене. Любовь к Родине, к своему народу, высокое чувство патриотизма, сочетающиеся с непоколебимой верой в благополучный исход войны – не просто плод фантазии поэтической души Зульфии, а – свойство национального характера узбекского народа, ярко выраженное в стихах поэтессы, которая имела право так сказать за весь народ. Поэтесса не приемлет счастье где-то за пределами Отчизны, даже если там и в самом деле может быть хорошо: «Ведь счастье живо лишь в стране родной». Стихотворения военных лет, отмеченных высоким художественным мастерством, обилием всегда светлых поэтических образов и интонаций, наблюдается органичное слияние фольклорных приемов и народных оборотов речи с элементами сверкающей литературной лексики. Лирический герой, как правило, ярко и недвусмысленно выражает свое, порой оригинальное, неподражаемо неожиданное отношение к явлениям и событиям фронтовой и тыловой жизни» [2]. Её стихи полны искренней боли по погибшим и безмерной любви к родной земле. В сборнике стихов, написанном в годы войны, звучит тревога за судьбу каждого солдата, каждой матери. В стихотворении «Отважным» звучит надежда на победу над врагом, надежда увидеть родных и близких живыми и здоровыми:

Мы вас ждем с победой. Этот час
Снимет с сердца бремя всех тревог.
Будет праздник радости у нас,
Будут розы цвесть у ваших ног!

Женский взгляд позволил узбекской поэзии выразить войну не только как борьбу, но и как личную трагедию миллионов.

Хамид Алимджан, другой выдающийся узбекский поэт, в годы войны писал стихи, полные пламенной любви к Родине. «В годы войны с фашистской Германией были написаны поэма «Слезы Роксаны» (1944), сборник стихов «Возьми оружие в руки» (1942), историческая драма «Муканна» (1942-1943), отмеченные зрелым мастерством. В таких литературоведческих статьях, как «Мухаммад Амин Мукими» (1938), «О поэме «Фархад и Ширин» Навои» (1939), «Навои и наше время» (1940), «Здравствуй, Пушкин!» (1937), «Л. Толстой и узбекский народ» (1938), Алимджан разрабатывал проблемы узбекской классической и современной литературы, взаимосвязи литературы и фольклора, русской и узбекской литератур» [3]. Его строки вдохновляли солдат в окопах и молодежь в тылу:

Нам все равно, где дни влачить на свете,
Где прятаться от холода ночей.
Нам все равно, лишь только б наши дети,
Не видели фашистских палачей.

Хамид Алимджан считал долгом поэта поддерживать моральный дух народа, напоминать о высоких идеалах свободы, чести и любви к Родине.

В поэзии периода 1941–1945 годов заметно звучала тоска по родным краям, тоска по мирной жизни. Многие произведения передают образ дома как символ мира, к которому стремился каждый солдат. В стихах часто встречаются образы матери, невесты, детей – тех, ради кого велась борьба против фашизма. «Плодотворным было творчество Уйгуна – поэта-публициста в годы Великой Отечественной войны. В его произведениях ярко отображены патриотизм советских людей, их гнев и ненависть к врагу, в которых каждая строка призывала к победе над фашистскими захватчиками, светлая вера в победу» [4]. В стихотворении «Воспоминание» поэт верит в победу, выражает надежду на скорое возвращение отцов и сыновей на Родину:

Вы так далеко, мы в разлуке сейчас,
Но скоро наступит день радостных встреч.
Вернетесь домой, - прошумят по стране
Победная песнь и счастливая речь.

Эти строки отражали общее народное чувство ожидания, боли, но и непоколебимой веры в возвращение мира.

Узбекская поэзия сыграла огромную роль в формировании патриотических настроений.

Она помогала сохранить моральный дух, объединяла общество, придавала сил и надежды. Стихи звучали на митингах, в госпиталях, на фронтовых концертах. Поэзия была живым участником войны – оружием сердца. Многие произведения тех лет стали частью золотого фонда узбекской литературы, а образы мужества, долга и любви к Родине сохранили свою актуальность и спустя десятилетия.

В годы Второй Мировой войны узбекская литература стала отражением великого подвига народа. Поэты своим словом и вдохновением внесли бесценный вклад в Победу. Их произведения до сих пор звучат как напоминание о том, что сила духа и единство способны преодолеть самые тяжелые испытания.

А если отталкиваться от эпиграфа статьи «Слово поэта – как штык на поле битвы» – это мощное метафорическое выражение, которое подчеркивает важность поэзии в годы войны. В годы Второй Мировой войны, когда весь народ стоял на защите Родины, слово поэта не уступало оружию в своем значении. Штык – символ мужества, борьбы и решимости. Поэт, как и солдат на фронте, сражался за свою страну, но его оружие было слово. Это слово было не только отражением боли и страха, но и надежды, вдохновляющим на мужество и стойкость. Поэты того времени, такие как Гафур Гулям, Зульфия, Хамид Алимджан, Уйгун использовали стихотворные строки как боевые кличи, которые воодушевляли солдат, укрепляли дух людей в тылу. Их стихотворения помогали осознать важность каждого шага в борьбе за мир, и в то же время показывали незыблемую силу духа. Но, что важно, они не ограничивались только словом: многие из поэтов активно участвовали в военных действиях, работали в тылу, помогали восстановлению страны и поддерживали моральный дух на фронте. Их деятельность была не только в словах, но и в действиях, так как они также могли быть волонтёрами, работать на производстве, а также проводить встречи и выступления для солдат.

Таким образом, метафора «штык на поле битвы» раскрывает глубину роли поэзии в тяжелейшие времена. В условиях войны слово поэта стало не просто выражением чувств, но и важным инструментом борьбы за победу, укрепления морального духа нации и памяти о том, что несмотря на все тяжести, победа будет достигнута. Поэзия в годы войны стала не только источником вдохновения, но и примером того, как слово и дело могут действовать сообща на благо Родины и Победы.

Annotatsiya. Maqola 1941-1945 yillardagi Ulug‘ Vatan urushi voqealarining o‘zbek she’riyatida aks etishiga bag‘ishlangan. Urush davri adabiy asarlariga xos bo‘lgan asosiy mavzular, motivlar, obrazlar haqida fikr yuritiladi. She’riyatning vatanparvarlik ruhini shakllantirish, xalqning ma’naviy kayfiyatini ko‘tarish, front va front ortidagi qahramonlik xotirasini saqlab qolishdagi roliga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek adabiyoti fashistlar tajovuziga qarshi umumiy ma’naviy kurashning bir qismi va qahramonlik davrining madaniy guvohi bo‘lganligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she’riyati, Ikkinchi jahon urushi, o‘zbek adabiyoti, vatanparvarlik, urush davri adabiyoti, she’riyat va urush, madaniy xotira.

Annotation. The article is devoted to the reflection in Uzbek poetry of the events of the Great Patriotic War of 1941-1945. Thoughts are made about the main themes, motives, images characteristic of literary works of the war period. Particular attention is paid to the role of poetry in forming the patriotic spirit, raising the spiritual mood of the people, maintaining the heroic memory behind the front and front. Uzbek literature has been shown to be part of the general spiritual struggle against Nazi aggression and a cultural witness to the Heroic Age.

Key words: Uzbek Poetry, World War II, Uzbek literature, patriotism, wartime literature, poetry and war, cultural memory.

Использованная литература:

1. https://arboblar.uz/ru/people/gafur-gulyam
2. https://idum.uz/ru/archives/category/school_room
3. https://sv.zarnews.uz/post/on-chital-v-serdcax-lyudey
4. https://www.ziyouz.uz/ru/literatura/literatura-sovetskogo-perioda/484--1905-1990.

SHAHAR SHAROITIDA JANGOVAR HARAKATLAR OLIB BORISH TAKTIKASINING TARIXIY ASOSLARI (Stalingrad jangi misolida)


Tulyaganov Farxod Valijanovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikkinchi Jahon urushidagi Stalingrad jangi shahar sharoitidagi harbiy harakatlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Unda nemis armiyasining strategik xatolari va sovet qo‘shinlarining samarali taktik yondashuvlari taqqoslangan. Ishg‘ol guruhlarining tuzilishi, vazifalari va harakat yo‘nalishlari modellashtirilgan holda berilgan.

Kalit so‘zlar: Stalingrad jangi, shahar janglari, harbiy taktika, ishg‘ol guruhi.

Ikkinchi jahon urushi zamonaviy taktika va strategiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o‘tkazib kelinayotgan maxsus operatsiyalar ko‘p jihatdan ikkinchi jahon urushida shahar sharoitida bo‘lib o‘tgan janglarda orttirilgan ulkan tajribaga asoslanadi. Ushbu janglarning taktik epizodlarga boy to‘qnashuvi sifatida, shubhasiz Stalingrad jangini misol qilish mumkin. Stalingrad jangi nafaqat katta strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, balki shahar sharoitidagi harbiy harakatlar taktikasining shakllanishiga ta’sir etgan ulkan tarixiy voqea hisoblanadi[1]. Ayniqsa, Stalingrad shahri ichida va uning atroflarida olib borilgan jangovar harakatlar taktik harakatlanish, mudofaa va hujum operatsiyalarini rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish va kichik ishg‘ol guruhlarini qo‘llash kabi jihatlarni harbiy fan doirasida ilk marta takomillashtirdi. Strategik manyovrlar, muhandislik inshootlaridan foydalanish, va kommunikatsiya nazorati orqali amalga oshirilgan taktik yechimlar zamonaviy maxsus operatsiyalar uchun nazariy asos vazifasini o‘tab kelmoqda. Shu boisdan, Stalingrad jangining tajribasi harbiy doktrinalar, maxsus bo‘linmalar tayyorgarligi va shahar sharoitidagi amaliyotlarda yuksak metodologik ahamiyatga ega.

Shunga alohida urg‘u berish kerakki, muvaffaqiyatli shahar jangining kaliti bu jangni oldindan ko‘ra bilish va unga tayyorgarlik ko‘rishdan iborat. Nemis qo‘mondonligi buni yaxshi tushunardi. Biroq, Stalingradni egallash operatsiyasi boshidan puxta o‘rganilmagan edi. Nemis armiyasi **“Barbarossa” operatsiyasi** (1-rasmga qarang) davrida va 1942-yil yozining boshlarida bir qator shaharlarni, jumladan Belorussiyadagi Minsk, Ukrainadagi Kiyev va Qrimdagi Sevastopolni egallagan holda shahar jangini olib borish bo‘yicha tajriba to‘plagan bo‘lsa-da, Stalingrad shahrini egallashda bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, Sovet qo‘shinlari aksincha, shahar qurilmalaridan samarali foydalangan holda muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilib, dushman ustidan taktik ustunlikka erishgan.



1-rasm. Germaniya qo‘shinlarining Stalingradni egallash rejasi

Tadqiqotda shahar sharoitidagi janglarda qo‘shinlar tomonidan qabul qilingan taktik qarorlarning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash maqsadida biz tomonimizdan tarixiy – qiyosiy tahlil o‘tkazilib, tahlil jarayoni arxiv fotomateriallar bilan vizual asosda boyitilgan.

Bunday yondashuv nafaqat qo‘mondonlikning taktik fikrlashini rivojlantirish, balki qabul qilingan qarorlarning samaradorligini samarali yechimlar bilan solishtirib, xolis baholash imkonini yaratadi deb hisoblaymiz.

1. Sovet razvedkasining imkoniyatlari to‘g‘ri baholanmagan.

Sovet agentlik tarmog‘i nemislarning taktik yo‘nalishlarini aniq belgilab, armiyaga muhim axborotni yetkazib bergan (2-rasmga qarang). Bu, o‘z navbatida, shaharni mudofaa qilishga tayyorgarlik ko‘rish imkonini yaratgan.



2-rasm. Sovet razvedkasining ish faoliyatidan lavha

2. Stalingrad shahridagi zavodlarning konstruktiv xususiyatlari hisobga olinmagan.

Zavodlarning temir-beton konstruksiyalari ularning ichiga tanklarni va boshqa og‘ir qurollarni joylashtirgan holda mudofaa tugunlarini hosil qilish imkonini yaratgan. Germaniya aviatsiyasining zarbalari natijasida hosil bo‘lgan vayronalar mudofalanayotgan qo‘shinlarga qulaylik yaratib, hujum qilayotganlarning tempini tushirishga sabab bo‘lgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. Sovet qo‘shinlari zavod hududini mudofaa qilish jarayonidan lavha

3. Ko‘p sonli turli qo‘shinlarni boshqarish tizimi samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Jang paytida nemis qo‘mondonligi turli bo‘linmalar harakatlarini muvofiqlashtirishda muammolarga duch kelgan. Ayniqsa, cheklangan hududda ko‘p sonli qismlarni boshqarish murakkabligi tartibsiz hujumlarga sabab bo‘lib, vaqt yo‘qotilishiga olib kelgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Germaniya qo‘shinlarini boshqarishdagi muammolar aks etgan lavha

4. Moddiy – texnik ta’minot imkoniyatlari to‘g‘ri hisobga olinmagan. Hujum jarayonida nemislar o‘q-dorilar, yoqilg‘i va oziq-ovqat tanqisligiga duch kelishdi. Qo‘mondonlik ta’minotni yetarli darajada tashkil eta olmadi, bu esa qo‘shinlarning jangovar qobiliyatini jiddiy ravishda zaiflashtirgan (5-rasmga qarang).



5-rasm. Germaniya qo‘shinlarining yordamchi kuchlari

 ISSN 3030-3230

5. Ob – havo sharoitining qo‘shinlarga ta’siri to‘g‘ri hisobga olinmagan. Nemislar qahraton qishga tayyor emasdi (6-rasmga qarang).



6-rasm. Sovuq ob-havoda jangovar qobiliyatini yo‘qotgan nemis qo‘shinlari

Qishki kiyim-kechak, yonilg‘i va o‘q-dorilarning yetishmasligi, texnika bilan bog‘liq muammolar ularning ahvolini yanada og‘irlashtirgan. Ko‘pgina nemis tanklari va mashinalari past harorat sharoitida ishlashga tayyor bo‘lmagan.

6. Vayronalar sharoitida jangovar texnikani qo‘llash va shaxsiy tarkib bilan tezkor manyovrlarni amalga oshirishning murakkabligi e’tibordan chetda qolgan.

Nemislar tor ko‘chalarda va vayronalar sharoitida ko‘p sonli qo‘shinlarini qo‘llashda qiyinchilikka duch kelgan (6-rasmga qarang).



7-rasm. Germaniya qo‘shinlarining vayronalar sharoitida piyoda harakatlanishi

Hujum tempi rejalashtirilganidan past darajada edi. Askarlarning toliqishi natijasida yaxshi himoyalanmagan joylarga to‘planib qolishi holatlari kuzatilgan. Bu omillar sovet qo‘shinlari tomonidan qarshi hujumlar davomida nemislarga katta talafotlar yetkazishga imkoniyat yaratgan.

Stalingrad jangida to‘plangan tajribani zamonaviy jangovar harakatlarni rejalashtirish va olib borishdagi ahamiyatini o‘rganar ekanmiz, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarning fikrlari ham mavzuni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz. Jumladan, rus olimi Gennadiy Kumanyov Stalingraddagi jangini aniq taktik hisob-kitob va dushmanning har bir xatosidan oqilona foydalanish namunasi [3] sifatida baholagan bo‘lsa, ingliz olimi John Erickson ushbu to‘qnashuvni taktik innovatsiya va tayyorgarlik nuqtai nazaridan urushning eng chuqur tahlil qilingan bosqichlaridan biri sifatida izohlagan [4]. Yana bir mashhur xorijiy olim David M. Glantz Sovet qo‘mondonligining operativ manyovr va strategik urushni markazlashgan holda qo‘llagan tajribasini, bugungi zamonaviy harbiy o‘quvlar uchun muhim model ekanligini belgilab o‘tgan [5].

Bizning fikrimizcha, yuqorida zikr etilgan olimlarning Stalingrad jangini baholashdagi nuqtai nazarlari, har biri o‘z o‘rnida muhim va mukammaldir. Biroq, ularni tahlil qilar ekanmiz, mazkur tarixiy voqea nafaqat harbiy strategiya va taktikadagi yutuqlarni namoyon etgan, balki zamonaviy harbiy rejalashtirishga ham nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilganini qayd etish lozim.

Masalan, G. Kumanyovning Stalingrad jangini “aniq taktik hisob-kitob va do‘st-dushman xatolaridan oqilona foydalanish namunasi” sifatida baholashi, voqean ham, mukammal taktik tafakkurning amaldagi ifodasini ko‘rsatadi. Bu nuqtai nazardan kelib chiqib, zamonaviy harbiy operatsiyalarda ham dushmanning zaif tomonlarini tahlil qilish, vaziyatni real vaqtda baholab, tezkor qarorlar qabul qilish zaruriyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, Jon Eriksonning Stalingrad to‘qnashuvini “taktik innovatsiya va tayyorgarlik” nuqtai nazaridan ta’riflashi, jangning ilmiy-nazariy asoslari borligini ko‘rsatadi. Ushbu pozitsiya zamonaviy harbiy amaliyotlarda ilg‘or texnologiyalar, masalan sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va ma’lumotlar tahlili orqali yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rish zarurligini yodga soladi.

Eng muhimi, Devid M. Glans tomonidan

qayd etilgancha, Sovet qo‘mondonligining “operativ manyovr va strategik markazlashuv”ni samarali qo‘llashi, bugungi kundagi harbiy o‘quv va mashq jarayonlari uchun nazariy model sifatida xizmat qiladi. Bugungi sharoitda, global geosiyosiy muammolar va asimmetrik tahdidlar sharoitida strategik darajadagi uyg‘unlik va markazlashgan qaror qabul qilishning ahamiyati yanada ortadi.

Shunday qilib, Stalingrad jangidan chiqarilgan xulosalar va olingan saboqlar bugungi kunda zamonaviy harbiy rejalashtirish va amaliyotni tashkil etishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, mazkur tarixiy voqeaga doir tadqiqotlar nafaqat ilmiy ahamiyatga, balki amaliy qiymatga ham egadir, deb hisoblaymiz.

Shahar sharoitidagi jangovar harakatlarda jangovar tartibni tuzish, ishg‘ol bo‘linmalarini qo‘llashning taktik usullarini o‘rganish va boshqa muhim masalalarni o‘rganish maqsadida biz tomonimizdan sovet qo‘shinlarining Stalingrad jangidagi muvaffaqiyatli harakatlarini tahlil qilishda SSSR bosh shtabining tahliliy ma’lumotlari o‘rganildi.

1942-yil dekabr va 1943-yil yanvar oylaridagi Stalingrad jangi nafaqat Ikkinchi Jahon urushidagi eng hal qiluvchi voqealardan biri, balki shahar sharoitida ishg‘ol qilish taktikasi va maxsus guruhlar faoliyati bo‘yicha yuksak harbiy tajriba maktabi hisoblanadi. Ushbu tahlil “Ishg‘ol guruhlari to‘g‘risida”gi yopiq harbiy hisobot asosida tayyorlangan bo‘lib, unda kichik shturm guruhlarining shakllanishi, vazifalari, qurollanishi, manyovr usullari va dunyodagi zamonaviy shahar jangi bilan bog‘liq o‘xshashliklar tahlil qilinadi.

Ishg‘ol guruhlari, hisobotda ta’kidlanishicha, odatda 6–8 kishidan tashkil topgan va ular 3 qismga bo‘lingan. O‘t bilan qo‘llab-quvvatlash guruhi dushman istehkomlarini bosim ostida ushlab turish va yo‘q qilish vazifasini bajargan bo‘lsa, ishg‘olchi kichik guruhlar binolarga kirib, ularni tozalash bilan shug‘ullangan. Uchinchi kichik guruh – mustahkamlanish guruhlari bo‘lib, ular egallangan binolarga o‘rnashib olib, kuchli avtomatik qurollar yordamida dushmanning yordam kuchlarini obyektga kirib kelishini cheklagan va kommunikatsiya yo‘llarini nazorat qilishni ta’minlagan. Bu guruhlar ishg‘ol guruhi komandiri bevosita rahbarligida harakat qilib, yuqori darajadagi tayyorgarlik va muvofiqlashuvga ega bo‘lgan.

Bino ichida harakat qilish va uni tozalash amaliyoti har bir jangchining aniq vazifasiga ega bo‘lishi bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, birinchi jangchi eshikni ochish uchun javobgar bo‘lsa, ikkinchisi granata tashlashni amalga oshirgan. Uchinchi va to‘rtinchi jangchilar esa tezkor kirishni amalga oshirib, jonli kuchni yo‘q qilish vazifasini bajargan. Ishg‘ol guruhlarining ketidan obyektlarga kirib borgan mustahkamlanish guruhi dangchilari esa, ishg‘olchilarga ortdan hujum bo‘lishini oldini olgan. Barcha harakatlar uyushqoqlik va hamjihatlikda amalga oshirilgan. Ishg‘ol guruhida tartib va intizom hukm surgan.

Ishg‘ol harakatlari amalga oshirilishidan oldin har bir guruhning harakat yo‘nalishi maxsus kuzatuv va razvedka orqali tayyorlangan. Dushmanning pulemyot, minomyot va snayper nuqtalari avvaldan aniqlangan. Qo‘shni binolarning podvallari, tomlari, devorlar orqali yurish imkoniyatlari chuqur o‘rganilgan. Shuningdek, har bir vazifa uchun bir nechta zahira kirish va chiqish nuqtalari tayyorlangan. Portlatuvchi guruhlar esa o‘z navbatida, eshiklarni ochish, devorlarni yiqitish kabi vazifalarni bajargan.

Shahar jangida alohida e’tiborga sazovor holatlardan biri – “Pavlov uyi” tajribasidir. Ushbu obyektda mudofaani egilgan va asosiy kuchlardan uzilgan to‘rt nafar jangchi bir necha hafta davomida butun kvartalni nemis bosqinchilaridan himoya qilgan. Bu yerda ishg‘ol va mudofaa o‘rtasidagi muvozanat, har bir qavatni tozalash, qayta qurollanish va aloqa kanallarini joylashtirish, zahira pozitsiyalar yaratish kabi elementlar namoyon bo‘lgan. Stalingrad jangida amalga oshirilgan manyovrlar, burchaklardan foydalanish taktikasi, aylanib o‘tish yo‘llarini oldindan tayyorlash kabi amaliyotlar zamonaviy taktikaga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Stalingrad tajribasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Individual vazifalarga ega bo‘lgan kichik ishg‘ol guruhlarini qo‘llash, razvedka bo‘linmalari yordamida dushman istehkomlarini oldindan aniqlash, portlovchi qurilmalar va shovqinli granatalar orqali psixologik ta’sir o‘tkazish, egallangan obyektga qayta hujum bo‘lishini cheklash kabi tamoyillar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Zamonaviy maxsus va aksilterror operatsiyalarni o‘tkazish, jangovar tartiblarni tashkil etishda ushbu tajriba asosiy metodik yondashuvga aylangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Shahar sharoitida qo‘llaniladigan ishg‘ol guruhining modellashtirilgan tuzilishi

Tarkibiy qism	Jangchilar soni	Asosiy vazifalar	Harakat yo‘nalishi va manevr tartibi
Komandir	1 nafar	Guruhni boshqarish, aloqa o‘rnatish, qaror qabul qilish	Har bir harakat bosqichini nazorat qiladi
O‘t bilan qo‘llab - quvvatlash guruhi	2 nafar	Dushman nuqtalarini bosim ostida ushlab turish	Ishg‘ol oldidan dushmanni o‘t ochib bostiradi, ishg‘ol guruhini qo‘llab-quvvatlaydi
Ishg‘ol guruhi	6 nafar	Granata uloqtirish,obyektga kirish, dushmanni yo‘q qilish, binoni tozalash	1-jangchi eshikni ochadi, 2-jangchi granata tashlaydi, qolganlari tezkor kirib borib xonalarni tozalaydi
Mustahkamlanish guruhi	2-3 nafar	Ortdan bo‘ladigan tahdidlarni bartaraf etish, kommunikatsiya yo‘llarini himoya qilish	Ishg‘ol guruhi ketidan obyektga kirib boradi, ortdan bo‘ladigan hujumni cheklaydi, zahira kirish-yo‘laklarini nazorat qiladi
Portlatuvchi	1 nafar	Eshik/devor portlatish, zahira kirish nuqtalarini tayyorlash	Zarur hollarda portlatish orqali yo‘laklar ochadi
Harakat bosqichlari		Razvedka –Portlatish – Ishg‘ol – Tozalash – Nazorat – Qayta guruhlanish	

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, strategik nuqtai nazardan Stalingrad jangi shahar sharoitida ishg‘ol harakatlarining maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Nemis armiyasining razvedka, logistika, va shtab boshqaruvida yo‘l qo‘ygan xatolari ularning muvaffaqiyatsizligiga sabab bo‘lsa, sovet qo‘shinlarining manyovrchanligi, muhandislik inshootlaridan samarali foydalanishi va ishg‘ol guruhlarining professional tashkil etilgani urushning borishini o‘zgartirdi.

Shu bois, tarixiy tahlil va uning zamonaviy tatbiqi o‘rtasidagi uyg‘unlik harbiy ilmiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqola, harbiy ta’lim muassasalari, maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarni tayyorlash kurslari va shahar jangini olib boradigan bo‘linmalar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydalanishda xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье проанализирована Сталинградская битва Второй мировой войны с точки зрения боевых действий в городской среде. Рассмотрены стратегические ошибки немецкой армии и эффективные тактические подходы советских войск. В виде модели представлены структура, задачи и направления действий штурмовых групп.

Ключевые слова: Сталинградская битва, уличные бои, военная тактика, штурмовая группа.

Abstract. This article analyzes the Battle of Stalingrad during World War II from the perspective of urban combat operations. It compares the strategic mistakes of the German army and the effective tactical approaches of Soviet forces. The structure, roles, and movement directions of assault groups are presented in a modeled format.

Key words: Battle of Stalingrad, urban warfare, military tactics, assault group.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бешанов В.В. Сталинград: битва на Волге. – Минск: 2005. – 544 с.
2. Генеральний штаб СССР. Доклад об опыте уличных боев в Сталинграде. – М.: Военное изд-во, 1944. – 78 с.
3. Куманёв Г.А. Сталинградская битва и её значение в ходе Великой Отечественной войны // Военно-исторический журнал. – 2005. – №7. – С. 12–19.
4. Erickson J. The Road to Stalingrad: Stalin’s War with Germany. – New York: Yale University Press, 1975. – 880 p.
5. Glantz D.M. The Battle of Stalingrad. – Kansas: University Press of Kansas, 1999. – 430 p.
6. Жуков Г.К. Воспоминания и размышления. – М.: АСТ, 2002. – 752 с.
7. Ерёменко А.И. На южном фронте. – М.: Воениздат, 1961. – 382 с.
8. Сборник архивных материалов Генерального штаба ВС СССР. Штурмовые группы: тактика и структура. – М.: Военная академия, 1987. – 112 с.
9. Милитаристский обзор: уличные бои и штурмовые действия. // Военное обозрение. – 2020. – №4. – С. 44–59.

XOTIRA ABADIY: IKKINCHI JAHON URUSHIDA QOZONILGAN G‘ALABA ORTIDAGI VATANDOSHLARIMIZ JASORATI

Kamolov Abdullo Abdurazzokovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada ikkinchi JAHON urushi yillarida o‘zbek xalqining ko‘rsatgan jasorati, fidoyiligi va front hamda orqa frontda o‘zining fidoyiligi bilan jasorat ko‘rsatgan vatandoshlarimiz faoliyati yoritiladi. O‘zbekistonlik minglab yigit-qizlar urush maydonlarida jon fido qilgan, ko‘plab yurtdoshlarimiz esa mehnat frontida g‘alabaga hissa qo‘shgan. Ularning mardlik namunasi, sabr-toqati va vatanparvarligi jismoniy tarixiy xotira, balki bugungi avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.**

Kalit so‘zlar: front, front orti, jasorat, vatanparvarlik, Sovet Ittifoqi, fashizm, SSSR, IIXK, artilleriya, Bagration operatsiyasi, razvedka.

“Xalqimiz asirlar davomida og‘ir sinovlarda bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib kelgan. O‘z ozodligi, erkinligi yo‘lida kurashib, behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati xotiramizda hech qachon o‘chmaydi” [1]

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) tarixdagi eng dahshatli va qonli urushlardan biri hisoblanib, unda millionlab odamlar azob-uqubatlar girdobida halok bo‘ldi. Biroq, bu urush fashizm va zo‘ravonlikka qarshi kurashda demokratik kuchlarning g‘alabasi bilan yakunlandi. G‘alabaning asosiy sabablari, qahramonliklar va uning ahamiyati haqida gapirganda ko‘plab vatandoshlarimiz ko‘z o‘ngimizdan o‘tadi. Ikkinchi jahon urushi davrida Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston ham millionlab qahramonlarni frontga yubordi. Ularning ko‘pchiligi o‘z hayotini fidokorona fashizmga qarshi kurashga bag‘ishladi. Bu g‘alaba nafaqat butun dunyo, balki har bir o‘zbek oilasi uchun aziz xotira va qadrdon jasorat misolidir.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma’noda yangi davr boshlangani ta’kidlandi. Xususan, yangi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 million 951 minga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlangani, har uch nafar o‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilganini, 451 ming nafar yurtdoshlarimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar davomida e’tibordan chetda qolgani aytib o‘tildi [2].

Dunyo xalqlariga misli sz azob-uqubatlar keltirgan, son-sanoqsiz qurbonlarga sabab bo‘lgan bu urush 1945-yilning 2-sentabriga qadar davom etgan. Olti yil davom etgan dahshatli urush o‘sha vaqtda dunyoda mavjud bo‘lgan 73 ta davlatning 62 tasini, Yer kurrasining 80% aholisini o‘z domiga tortdi. Harbiy harakatlar Yevropa, Osiyo va Afrikadagi 40 ta davlat hududida hamda barcha okeanlarning akvatoriyalarida olib borildi. Qurolli kuchlarga safarbar etilgan 110 million kishidan umumiy yo‘qotish 70 millionni tashkil etdi. Ularadan 27 millioni janggohlarda qurbon bo‘ldi. Eng ko‘p vafot etganlar SSSR (26,6 million), Xitoy (15,5 million), Germaniya (7,4 million), Polsha (6,2 million), Yaponiya (2,5 million) davlatlarga to‘g‘ri kelgan [3].

Bu urushda O‘zbekiston xalqi ham befarq qolmadi. Minglab yurtdoshlarimiz frontga jo‘nab ketdi, yana minglab insonlar orqa frontda tinimsiz mehnat qilib, g‘alabani yaqinlashtirish uchun jonbozlik ko‘rsatishgan. Front ortida qolgan asosiy aholi ayollar, yosh bolalar va nogironlardan iborat bo‘lgan. Urushda jang qilayotgan askarlar uchun asosiy oziq ovqat kiyim kecha ta’minoti uchun ayollar va bolalar

tinimsiz mehnat qilishgan. Urush yillaridagi o‘zbek xalqining jasorati, fidoyiligi va birligi tarixi sahifalarida oltin harflar bilan bitilgan.

Frontda jang qilgan mashhur o‘zbek qahramonlarimizdan – Toshmuhammad Jalilov, Zubayda Qosimova, Sobir Raximov kabi xodimlar, hayotiy faoliyati, urush yillarida xalqimizning birdamligi frontdagi fidokorona mehnati misollar asosida tahlil qilingan. G‘alaba ortidagi insoniy sabr, azob-uqubat va g‘urur bilan to‘la lavhalar tahliliy asosida ko‘rib chiqiladi.

Urush birinchi kunlardanoq O‘zbekistondan 1,5 millionga yaqin yigit-qiz frontga safarbar qilindi. Ular orasida oddiy askardan tortib, generalgacha bo‘lgan jangchilar bor edi. Ulardan biri — Sobir Rahimov , Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga baho bo‘lgan birinchi o‘zbek generali bo‘lib, uning jangovar yo‘li bugun ham ko‘pchilik uchun faxr va ibrat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sobir Rahimov ham bir vaqtlar IIXK domiga tortilib, qamoqqa olingani, so‘roq qilingani va qatag‘on qilinishiga “saal” qolgani haqida ko‘pchilikning xabari bo‘lmasa kerak.

E.Radjapovning arxiv hujjatlariga asoslanib yozishicha, Sobir Rahimov bilan birgalikda 32 nafar harbiy mutaxassis 1937-yilda qamoqqa olingan va O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 57-2, 63, 64 va 67-moddalari bo‘yicha aybdor deb topilgan hamda ishchi-dehqon qizil qo‘shini safidan chetlatilgan. Tergov jarayoni 1938-yilning boshida tugatilib, 1938-yilning may oyida O‘rta Osiyo harbiy okrugi Harbiy tribunali tomonidan ayblov hukmi e’lon qilingan. Qamoqqa olingan 33 nafar o‘zbek harbiylari quyidagi “jinoyat”larni sodir etganlikda ayblanganlar:

artilleriya qismlarini yo‘q qilish;

siyosiy buzg‘unchilik;

harbiy aslahalar va otlarni atayin yaroqsiz holga keltirish;

jangovar mashinalarni qasddan ishdan chiqarish;

artilleriya ombori va snaryadlarni portlatishga tayyorgarlik ko‘rish;

polk otlariga qasddan shikast yetkazish va yuq qilish [4].

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi. Aslida ham shunday bo‘lganmidi? Albatta yo‘q. Bu ham yetilib kelayotgan milliy qahramonlarni ildizini quritish yo‘lidagi navbatdagi hiyla-nayranglardan edi. 1941-yil – Urush boshlanganida, Sobir Rahimov qo‘shinlarga qo‘mondonlik qila boshladi. Uning jasorati nafaqat jang maydonlarida, balki harbiy strategiya va askarlarga rahbarlik qilishda ham namoyon bo‘ldi. 1943-yil – 37-gvardiya otishma diviziyasiga qo‘mondon etib tayinlandi. 1944-yil – Belarusiyani ozod qilish janglarida (Bagration operatsiyasi) alohida jasorat ko‘rsatdi. 1945-yil yanvar – Polshaning Lodz shahri yaqinida nemis qo‘shinlariga qarshi hal qiluvchi hujumni boshqargan. 1945-yilda Vistula-Oder operatsiyasi – Germaniyaga qarshi hujumda diviziyasi birinchi bo‘lib dushman mudofaasini yorib o‘tdi.

O‘zbekistonlik yagona general, Sobir Rahimov, 1945-yil Germaniyaga qarshi janglarda ko‘rsatgan jasorati uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi. Uning nomi Toshkentdagi ko‘chalardan biriga berilgan. Sobir Rahimov nafaqat qahramon general, balki milliy g‘urur ramzidir. Uning nomi har bir o‘zbek yoshiga vatanparvarlik, jasorat va fidokorlik ruhini targ‘ib qiladi.

Frontdagi o‘zbekistonlik jangchilar Ukraina, Belorussiya, Polsha, Germaniya kabi front yo‘nalishlarida shijoat bilan kurash olib borganlar. Ko‘plari dushmanning tanklarini portlatdi, ko‘priklar ostidan suzib o‘tib razvedkada qatnashdi, ozod qilingan joyda tinchlikni tiklashga ko‘maklashdi.

Orqa front — g‘alabaning mustahkam poydevori

Urush yillarida O‘zbekiston xalqi orqa frontda mislsiz fidoyilik ko‘rsatgan. Qishloq xo‘jaligi, sanoat, tibbiyot, fan va madaniyat sohalarida tinimsiz mehnat qilgan yurtdoshlarimiz front uchun qurol, oziq-ovqat, kiyim-kechak tayyorlab, askarlarni moddiy va ma’naviy yordam qo‘llab-quvvatlashgan. Bolalar, ayollar, keksa insonlar ham o‘z yelkasiga urush yukini olgan edi. Front tomonidan, evakuatsiya qilingan bolalar va yarador askarlarga boshpana bergan , ularning o‘z oilasidek qabul qilgan o‘zbek xalqining insonparvarligi butun dunyoga ibrat bo‘ldi. “Yetimni yetim demang, bizning farzandimiz”, degan xalqona mehrning namunasini aynan o‘sha paytda o‘zbek ayoli amalda ko‘rsatgan edi. O‘zbekiston ayollari bu yillar davomida g‘alaba uchun beqiyos fidokorlik namunasini ko‘rsatadilar. Ko‘pchilik paxtakor paxta paxta hosilini yig‘ib olish bilan birga,

front uchun kiyim-kechak, issiq, oziq-ovqat tayyorlashda ham faol qatnashdilar. Fabrika va zavodlarda erkaklarning o‘rnini bosib, mashina detallari, harbiy jihozlar ishlab chiqarishgan. Ularning qo‘li bilan minglab harbiy kiyimlar tikildi, askarlar uchun va konserva mahsulotlari tayyorlandi. Ayollar yelkasi bilan butun hayot yukini ko‘targan: tong saharda dala ishiga, kechqurun esa oilaga, bolalarga, hamma ishga ketgan.

Jasorat — avlodlar xotirasida

Bugun biz tinch osmon, mustaqil yurt va ozod vatanda yashayotgan bo‘lsak, bu, albatta, urush yillarida mardlik, fidoyilik va sabr-toqat evaziga erishilgan ne’matdir. Vatandoshlarimizning jasorati — milliy tarixiy haqiqat, balki yosh avlod uchun ibrat maktabidir. Ularni eslash, xotirasini ardoqlash, jasoratini avloddan-avlodga yetkazish — har birimizning insoniy va vatanparvarlik burchimizdir.

Xulosa o‘rnida “Xotira abadiy” degan iborasi shunchaki so‘z emas — bu yuragimizda abadiy yashaydigan mehr, hurmat va qadriyat timsolidir. Ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan jasorati bilan tarixda mangu iz qoldirgan vatandoshlarimiz xotirasi hech qachon unutilmaydi. Har yili 9-may kuni butun mamlakat bo‘ylab G‘alaba bayrami nishonlanadi. Bu milliy tarixiy sanani eslash, balki jasorat va vatanparvarlik saboqlarini avlodlarga yetkazishdir. Bugungi tinch hayot uchun hayotini fido qilgan yurtdoshlarimizni eslash — burchimizdir. O‘zbekistonda “Xotira va qadrlash kuni”, “G‘alaba bog‘lari”, “Shon-sharaf muzeyi” kabi tashabbuslar ana shu xotirani abadiylashtirishga xizmat qiladi. G‘alaba ortida — inson hayoti, shijoat, mashaqqat va sabr yotadi. Bu xotira — bizni yagona, bardavom va kuchli xalq sifatida saqlab turuvchi kuchli omildir.

Аннотация. В этой статье освещаются подвиги, самоотверженность узбекского народа в годы Второй мировой войны и деятельность наших соотечественников, проявивших самоотверженность на фронте и в тылу. Тысячи узбекских юношей и девушек отдали свои жизни на полях сражений, а многие наши соотечественники внесли свой вклад в победу на трудовом фронте. Их пример мужества, терпения и патриотизма служит не только физической исторической памятью, но и образцовой школой для сегодняшнего поколения.

Ключевые слова: фронт, тыл, отвага, патриотизм, Советский Союз, фашизм, СССР, ИИХК, артиллерия, операция Багратион, разведка.

Annotation. This article will cover the activities of our compatriots who showed courage in the years of World War II with the courage, dedication and self-sacrifice of the Uzbek people on the front and on the rear front. Thousands of young men and women from Uzbekistan gave their lives in the fields of war, while many of our compatriots contributed to victory on the Labor front. Their example of Valor, patience and patriotism serve as a physical historical memory, but also a school of lesson for today’s generation.

Keywords: front, front rear, courage, patriotism, Soviet Union, fascism, USSR, IIXK, artillery, Operation Bagration, intelligence.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тарихий хотира бекиёс [Матн] / Р.Т.Шамсутдинов [ва бошқ.]; нашр учун масъул Б.В.Хасанов. – Тошкент: Encyclopedia world, 2024. – 372 б.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati. 29-aprel 2022-yil.
3. O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi [Matn] – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. 320-b.
4. Тарихга битилган тақдирлар: курашлар, қисматлар ва ҳақиқатлар. Китоб-альбом. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети, 2025.– 348 бет.

НЕОЦЕНИМЫЙ ВКЛАД УЗБЕКСКОГО НАРОДА В ПОБЕДУ НАД ФАШИЗМОМ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ

Ким Светлана Геннадьевна,
преподаватель Института гражданской защиты МЧС РУ

Аннотация. В статье анализируется массовое участие узбекского народа в боевых действиях, тыловая поддержка фронта, эвакуация и приют для беженцев, культурный вклад и моральная поддержка.
Ключевые слова: фашизм, фронт, эвакуация беженцев, боевой дух, героизм.

Великая Отечественная война стала самым трагичным и в то же время героическим событием 20-го века. Народы Советского Союза, включая узбекский, отдали свои силы и жизни для того, чтобы остановить фашизм и обеспечить свободу всему миру. Узбекистан, как важный регион Советского Союза, оказал неоценимый вклад в победу над фашистской Германией, проявив свою стойкость как на фронте, так и в тылу. Эта статья ставит своей целью более подробно рассмотреть участие узбекского народа в событиях Великой Отечественной войны и подчеркнуть его значимый вклад в общую победу.

С самого начала войны Узбекистан стал одним из главных источников пополнения Красной Армии. Призыв на фронт был организован с первых дней нападения фашистской Германии на Советский Союз. Часть призывников, в том числе молодежь и женщины, была отправлена на фронт для участия в боевых действиях. Уже в 1941 году республика предоставила фронту более 200 тысяч солдат. К 1943 году общее количество мобилизованных составило более 500 тысяч человек.

Узбекистанские бойцы сражались на самых разных фронтах — от Подмосковья до Кавказа, от Сталинграда до Берлина. Солдаты из Узбекистана принимали участие в самых крупных сражениях Второй мировой войны, таких как Сталинградская битва, Курская битва, Остромадская операция, Битва за Кавказ, и многие другие. Особенно ярким проявлением мужества и героизма стал бой на Курской дуге, где узбеки сражались бок о бок с другими народами Советского Союза, отражая наступление фашистских войск.

Множество узбеков проявили выдающийся героизм, став героями Советского Союза. Одним из ярких примеров является генерал-лейтенант авиации Курбан Абдурахманов. Он, начиная свою карьеру как летчик-истребитель, стал одним из выдающихся командиров авиационных частей и выполнил многочисленные успешные боевые задания. Его мужество и выдающиеся способности были высоко оценены командованием. Другим известным узбеком, ставшим героем, является танкист Юлдаш Сулейманов, который сражался на Сталинградском фронте и был удостоен звания Героя Советского Союза за его героизм и отвагу в бою.

Помимо отправки бойцов на фронт, Узбекская ССР внесла огромный вклад в обеспечение Советской армии всем необходимым для ведения войны. Уже с первых дней войны республика была перепрофилирована для нужд фронта. Основной задачей стала мобилизация всех материальных и человеческих ресурсов для усиления оборонной мощи страны. Заводы и фабрики, ранее производившие текстиль и изделия народного потребления, начали выпускать военную продукцию: боеприпасы, вооружение, бронетехнику.

Одним из самых важных производств стало создание бронетехники. В Узбекистане был организован выпуск танков и артиллерийских орудий. Это производство было необходимо для обеспечения фронта тяжелой техникой, что стало одним из важнейших факторов в победах Красной

Армии в ключевых битвах.

Однако важнейшую роль Узбекистан сыграл в обеспечении фронта продовольствием. Республика стала крупнейшим поставщиком хлеба, масла, хлопка и других сельскохозяйственных продуктов, которые шли на нужды армии и населения в эвакуированных районах. За годы войны урожай хлопка в Узбекистане обеспечил армию необходимыми тканями и униформой, а также материалами для парашютов и других нужд.

Большую роль в поддержке фронта сыграли не только мужчины, но и женщины и дети. Женщины в Узбекистане активно участвовали в работе на заводах, в поле и в различных учреждениях. Многие из них работали на производстве оружия и боеприпасов, а также на сборе металлолома, который затем использовался для нужд военной промышленности. На многих заводах работали и подростки, которые во времена войны были мобилизованы на трудовую службу.

С началом войны Узбекистан стал важным центром эвакуации и приютом для беженцев. На территорию республики были эвакуированы десятки тысяч людей из тех регионов Советского Союза, которые были захвачены фашистами или находились на передовой. Среди эвакуированных были целые фабрики, научные учреждения, культурные объекты, а также миллионы мирных граждан.

Эвакуированные предприятия продолжили свою работу в Узбекистане, тем самым помогая увеличить объемы производства необходимых для фронта товаров. В то же время жители Узбекистана проявили невероятную гостеприимность и солидарность, приютив беженцев и обеспечив их продуктами питания и необходимыми товарами.

Узбекистан также сыграл важную роль в поддержке морального духа советских солдат и всей страны. В республике активно развивались культурные мероприятия, такие как концерты, театральные постановки, показ кинофильмов. Культработники, актеры, музыканты и художники выступали на фронте, в госпиталях и в тылу. Их работа помогала поднять дух солдат, а также поддерживала моральное состояние граждан в условиях войны.

Примечательно, что в Узбекистане проводились выступления народных артистов, известных по всей стране. Творческие коллективы организовывали музыкальные и театральные представления, которые поднимали боевой дух и укрепляли веру в победу.

Неоценимый вклад узбекского народа в победу над фашизмом заключается не только в массовом участии в боевых действиях, но и в огромном труде, который был вложен в поддержку фронта. Промышленность, сельское хозяйство, эвакуация, моральная поддержка — все эти аспекты сыграли решающую роль в достижении победы над нацистской Германией. Народы Советского Союза, и в частности узбекский народ, проявили высокую стойкость, мужество и преданность своей Родине в эти тяжелые годы.

Вклад Узбекистана в общую победу невозможно переоценить. Множество героев, как среди солдат, так и среди трудящихся, с честью и отвагой исполнили свой долг перед Родиной. И благодаря этому, победа была достигнута — в том числе благодаря тем, кто из Узбекистана стоял на передовой или трудился в тылу, делая свой вклад в освобождение мира от фашизма.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalqining jangovar harakatlarda ommaviy ishtiroki, frontni orqa tomondan qo‘llab-quvvatlash, qochqinlar uchun evakuatsiya va boshpana, madaniy hissa va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: fashizm, front, qochqinlarni evakuatsiya qilish, jangovar ruh, qahramonlik.

Abstract. The article analyzes the massive participation of the Uzbek people in military operations, rear support for the front, evacuation and shelter for refugees, cultural contribution and moral support.

Key words: fascism, front, evacuation of refugees, fighting spirit, heroism.

Использованная литература:

1. Узбекистан в Великой Отечественной войне. – Ташкент, 1985.
2. Абдурахманов К. «Военные и трудовые подвиги узбекского народа во Второй мировой войне.»
3. Халилов Ю. «Судьба Узбекистана в годы войны.» – Москва, 1982.
4. Справочник о героях Советского Союза.

IKKINCHI JAHON URISHIDA QATNASHGAN O‘ZBEKLAR

Tursunov To‘lqinjon Tolibjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

Annotatsiya. Ikkinchi jahon urushi O‘zbekistonning tarixida muhim o‘rin tutadi. 1941-yil 22-iyunida Germaniya Sovet Ittifoqiga hujum qilganidan so‘ng, O‘zbekiston front ortida muhim rol o‘ynadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonliklarning urushdagi faoliyati, ularning frontdagi ishtiroki, front ortidagi mehnat va urushdan keyingi davrda mamlakatning tiklanish jarayoni batafsil tahlil qilinadi. Urush yillarida millionlab o‘zbekistonlik jangchilarning frontga yuborilishi, mehnat frontida ishlashlari va O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda o‘tkazgan yutuqlari yoritiladi. Maqolada shuningdek, urushning O‘zbekiston iqtisodiyotiga, xalqiga va madaniyatiga ta’sirini ham ko‘rib chiqadi. O‘zbekistonliklarning urushdagi jasorati va fidoyiligi hamda ularning yurtiga bo‘lgan sadoqati abadiylashtirilgan.
Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston, frontdagi ishtirok, front ortidagi mehnat, paxta, jangchilar, urushdan keyingi tiklanish, iqtisodiy ta’sir, madaniy meros, mehnat fronti, Sovet Ittifoqi, O‘zbekistonliklar, paxta sanoati, urush qatnashchilari, Sovet Ittifoqi Qahramoni.

Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) insoniyat tarixidagi eng yirik va eng halokatli urush bo‘lib, dunyoning ko‘plab mamlakatlari, shu jumladan O‘zbekiston hududi ham, bevosita ta’sir ko‘rgan. Urushning dastlabki yillarida frontlar uzoq bo‘lgan bo‘lsa-da, 1941-yilning 22-iyunida Germaniya Sovet Ittifoqiga hujum qilganidan so‘ng, urushning ta’siri butun ittifoq hududiga yoyildi. O‘zbekiston esa front ortidagi muhim strategik hudud sifatida, nafaqat urushning ta’sirini his qilgan, balki uning g‘alabasiga katta hissa qo‘shgan. Urushning boshidan oxirigacha O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti juda katta o‘zgarishlarga uchradi. Urush yillarida o‘zbekistonliklar front ortida juda ko‘p muhim ishlarni amalga oshirishdi, ular frontga harbiy materiallar va oziq-ovqat yetkazib berishda faol qatnashdilar. Biroq, faqat ishlab chiqarish emas, balki ko‘plab o‘zbekistonliklar urushning oldingi chizig‘ida, jang maydonlarida o‘z hayotlarini halok qildilar.

O‘zbekistonning urushga tayyorgarligi. Sovet Ittifoqining urushga tayyorgarligi 1941-yilda Germaniya tomonidan hujum boshlanishidan oldin sezilarli darajada kuchaytirilgan edi. Sovet Ittifoqining barcha resurslari mobilizatsiya qilindi, shu jumladan O‘zbekistonning boy tabiiy resurslari ham. O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy salohiyatlari, xususan, paxta sanoati va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari frontning ehtiyojlarini qondirish uchun jalb qilindi. Paxta ekinlari, oziq-ovqat mahsulotlari, mo‘ynali va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari Sovet armiyasini va front ortidagi aholini ta’minlash uchun zarur edi. Respublikaning iqtisodiy va mehnat resurslari frontga yuborildi, shu bilan birga O‘zbekistonning sanoat sohasiga ham katta e’tibor qaratildi. Urush boshida, ko‘plab ishlab chiqarish zavodlari va fabrikalar frontga yaqin bo‘lgan hududlardan O‘zbekistonga ko‘chirildi. Shu tariqa, O‘zbekiston frontga zarur materiallar va texnologiyalarni yetkazib berishda o‘ta muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekistonliklarning frontdagi ishtiroki. Ikkinchi jahon urushida O‘zbekistondan millionlab odamlar frontga jo‘natildi. Ko‘plab yoshlar, erkaklar va ayollar janglarda qatnashish uchun harbiy safarbarlikka chaqirildi. O‘zbekistonliklar, ayniqsa, sharqiy frontda jang qildilar va urushning ko‘plab hal qiluvchi janglarida qatnashdilar. Frontga yuborilgan o‘zbekistonlik jangchilar va partizanlar ko‘plab janglarda jasorat ko‘rsatib, Sovet Ittifoqining g‘alabasiga hissa qo‘shdilar.

Jang maydonlarida o‘zbekistonliklar jangovar birliklar tarkibida faol ishtirok etishgan. Ularning ko‘pchiligi frontda o‘z jonlarini fido qilishgan. Masalan, Mamadali Topvaldiyev nomi bilan tanilgan o‘zbekistonlik partizan, Belorussiya va boshqa hududlarda partizanlar safida jang qilgan va Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini olgan. Zebo Ganiyeva esa frontda

snayper sifatida faoliyat yuritgan va ko‘plab fashistlarni yo‘q qilgan. O‘zbekistondan frontga jo‘natilganlarning ko‘pchiligi janglarda shaxsan qatnashib, faxriy unvonlar bilan taqdirlangan.

Ayollar frontda faqat orqa chiziqda emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri janglarda ham ishtirok etdilar. Ular tibbiyot, aloqa va oziq-ovqat ta’minoti sohalarida faol ishladilar. O‘zbekistonlik ayollar faqat ishlash bilan kifoyalanmay, ko‘p hollarda frontga o‘zlarini yo‘naltirgan va jangovar operatsiyalarda bevosita qatnashgan.

Front ortidagi mehnat. O‘zbekistonning front ortidagi mehnatini hisobga olish zarur. Mehnat fronti tashkil etilib, frontga zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ishchi kuchi jalb qilindi. Paxta va boshqa xom ashyolarni yetkazib berish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, harbiy materiallarni tayyorlashda o‘zbekistonliklar katta yutuqlarga erishdilar. Paxta ishlab chiqarish, ayniqsa, frontni ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. O‘zbekiston paxtasining qimmatli resurslari urush yillarida butun Sovet Ittifoqi iqtisodiyotining asosini tashkil etdi.

Shu bilan birga, respublikadagi sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda yuzaga kelgan tashqi ta’sirlar mehnat resurslari ustida katta bosim yaratdi. Bu jarayonda, ayollar, bolalar va keksalar ham faol ishlashga jalb qilindi. O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida ishlab chiqarish quvvatlari va resurslar qo‘llanilib, maxsus zavodlar va sanoat korxonalari tashkil etildi, bu esa frontga kerakli materiallar va texnikani ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynadi.

Urushning oqibatlari. Ikkinchi jahon urushining oqibatlari juda katta bo‘ldi. Birinchidan, O‘zbekistondan frontga jo‘natilgan millionlab odamlarning ko‘pchiligi janglarda halok bo‘ldi yoki nogiron bo‘ldi. Bu insoniy yo‘qotishlar O‘zbekiston uchun katta zarba bo‘ldi. O‘zbekistonning iqtisodiyoti, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va sanoati urush natijasida jiddiy zarba oldi. Ko‘plab sanoat inshootlari vayron bo‘ldi, bir necha yil davomida iqtisodiy tiklanish jarayoni davom etdi.

Madaniy obidalar, tarixiy yodgorliklar va boshqa me’moriy meroslar ham urushda zarar ko‘rdi. Urush yillarida ko‘plab madaniy yodgorliklar vayron bo‘ldi, shaharlar va qishloqlar jiddiy shikastlandi. Bu vaziyatning barcha oqibatlari O‘zbekistonning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonliklar ko‘plab janglarda qatnashdilar va shu orqali urushning natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatdilar. Ular nafaqat janglarda, balki maxsus operatsiyalarda ham o‘zlarini namoyon etdilar. Misol uchun, O‘zbekistonlik partizanlar front orqasida faoliyat ko‘rsatgan, jiddiy qarshilik ko‘rsatgan va maxfiy maqsadlar uchun muhim operatsiyalarni amalga oshirgan.

Janglarda, o‘zbekistonliklar ko‘plab orden va medallar bilan taqdirlandilar. Ular orasida Sovet Ittifoqi Qahramonlari unvonini olganlar ham bor. Ulardan biri – O‘zbekistonlik Mamadali Topvaldiyev, Belorussiya va boshqa hududlarda partizanlar safida jang qilib, Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini qo‘lga kiritgan.

Urushdan keyingi davrda O‘zbekiston. Urushdan keyin, O‘zbekiston, Sovet Ittifoqining boshqa hududlari kabi, tiklanish jarayonini boshladi. Iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni tiklash uchun ko‘plab sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, urushda yo‘qolgan ishlab chiqarish quvvatlari va resurslar qayta tiklandi. Ko‘plab urushdan qaytgan jangchilar va frontda ishlagan odamlar uchun maxsus yordamlar ko‘rsatilgan, ularning xizmatlari yod etilgan va jamoat tomonidan qadrlangan.

Bundan tashqari, urush qatnashchilariga davlat tomonidan alohida e’tibor berildi. Ularning xizmatlari abadiylashtirilgan, ko‘plab yodgorliklar va monumentlar qurilgan. O‘zbekistonning urushdagi qatnashchilari haqida ko‘plab kitoblar yozildi, ularning xotiralari yosh avlodga yetkazildi.

Ikkinchi jahon urushi O‘zbekiston uchun katta sinov bo‘ldi. Biroq, respublika xalqining jasorati va fidoyiligi tufayli, urushdan g‘alaba bilan chiqildi. Urush davomida frontdagi va front ortidagi o‘zbekistonliklar o‘z hayotlarini halok qilishdi, ammo ular o‘zlarining yurtiga sadoqat va fidoyilik ko‘rsatdilar. Bugungi kunda bu tarixni o‘rganish va yod etish bizning burchimizdir. O‘zbekistonning urushda ko‘rsatgan jasorati va fidoyiligi haqida gapirganda, bu faqat ulug‘vor jangchilarning emas, balki orqa frontdagi mehnatkashlarning ham muvaffaqiyati ekanligini unutmaslik kerak.

Аннотация. Великая Отечественная война занимает важное место в истории Узбекистана. После того как Германия напала на Советский Союз 22 июня 1941 года, Узбекистан сыграл ключевую роль в тылу. В данной статье рассматривается участие узбеков в войне, их деятельность на фронте и в тылу, а также процесс восстановления страны после войны. В статье подробно анализируются миллионы узбекских солдат, отправленных на фронт, их работа на трудовом фронте, а также достижения Узбекистана в экономике и социальной сфере в годы войны. Также освещается влияние войны на экономику, народ и культуру Узбекистана. Подвиг и преданность узбеков во время войны увековечены.

Ключевые слова: Великая Отечественная война, Узбекистан, участие на фронте, трудовой фронт, хлопок, солдаты, восстановление после войны, экономическое воздействие, культурное наследие, трудовой фронт, Советский Союз, узбеки, хлопковая промышленность, участники войны, Герой Советского Союза, роль Узбекистана в войне.

Annotation. The Second World War holds an important place in the history of Uzbekistan. After Germany’s attack on the Soviet Union on June 22, 1941, Uzbekistan played a key role in the rear. This article examines the participation of Uzbeks in the war, their activities on the front and in the rear, as well as the post-war recovery process of the country. The article provides a detailed analysis of the millions of Uzbek soldiers sent to the front, their work on the labor front, and Uzbekistan’s achievements in the economy and social spheres during the war. The article also discusses the impact of the war on the economy, people, and culture of Uzbekistan. The heroism and devotion of the Uzbeks during the war are immortalized.

Key words: Second World War, Uzbekistan, front participation, labor front, cotton, soldiers, post-war recovery, economic impact, cultural heritage, labor front, Soviet Union, Uzbeks, cotton industry, war participants, Hero of the Soviet Union, role of Uzbekistan in the war.

Foydalanilgfan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, M. (2004). Ikkinchi jahon urushida O‘zbekistonliklarning ishtiroki. Tashkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
2. Islomov, K. (2011). O‘zbekiston fronti va front ortidagi mehnat. Tashkent: Yangi O‘zbekiston.
3. Sharipov, B. (2006). O‘zbekistonliklarning Ikkinchi jahon urushidagi roli. Tashkent: Fan va texnologiya.
4. Rakhimov, Z. (1999). Ikkinchi jahon urushi: O‘zbekiston va uning xalqi. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Tarixshunoslik instituti.
5. Yuldashev, A. (2008). Sovet Ittifoqidagi urush qatnashchilari va O‘zbekiston. Tashkent: Sharq nashriyoti.

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA G‘ALABAGA OLIB KELGAN JANGOVAR NUTQ VA UNING MAZMUN-MOHIYATI

Bokiyev Ma’ruf Gafurovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Bakalavriat fakulteti batalon komanidiri o‘rinbosari

Annotatsiya. Harbiy sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq hozirga qadar jangovor chorlov vositalari, jumladan jangovor chorlov tushunchasining mazmun-mohiyati to‘la tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning natijalari bayon etiladi.
Kalit so‘zlar: jangovor chorlov, jangovor nutq, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, mudofaa.

“Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida mudofaani tashkil etish vazifalari, jumladan mudofaaning ilmiy, ilmiy-texnik, ma’rifiy, harbiy-sanoat, iqtisodiy, axboriy va qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurligi belgilab qo‘yilgan. Mazkur vazifalar mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash sohasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

Bugungi kunda harbiy sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borilishiga qaramay, jangovor chorlov vositalari haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Jahon va “Markaziy Osiyo xalqlari ko‘plab harbiy marshlar, milliy vatanparvarlik qo‘shiqlariga ega bo‘lgan, biroq afsuski bu yo‘nalishda tadqiqotlar hali kam (deyarli yo‘q) bo‘lib, tarixiy ma’lumotlarning katta qismi ochiqlanishini kutib turibdi”.

Darhaqiqat, jangovor nutqlar mazmun-mohiyatini o‘rganish masalasi hozirda jangovor harakatlarning yakuni ko‘p jihatdan harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligiga bevosita bog‘liq bo‘lib qolayotgan bir davr uchun juda muhim hisoblanadi.

Eng qadimgi jangovor nutqlar barcha turdagi dushmanlar (inson yoki tabiat kuchlari)ga nisbatan qo‘llanilgan. Ular vaqt o‘tgani sari oddiydan murakkabga qarab rivojlanib borgan. Jangovor nutqlar dastlab qabilaning totemi hisoblangan hayvonga taqlid qilingan holda jonivorlar ovozi shaklida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ular oliy, ilohiy kuch – xudoni ulug‘lash va undan madad so‘rash shaklida rivojlangan.

Bugungi kunda jangovor nutq tushunchasi, uning mazmuni va turlari haqida xorijiy va mahalliy adabiyotlarda ma’lumotlar juda kam uchraydi. Mavjudlari ham tadqiqot obyekti sifatida chuqur o‘rganilgan ilmiy tadqiqotning yaxlit xulosalari emas. Shunga qaramay, jangovor nutqlar bo‘yicha ma’lumotlar qisman xorij olimlaridan K.P.Shukinning “За родину, за Сталина: сборник материалов о боевых эпизодах действующей Красной Армии”, K.V.Dushenkoning “Словарь современных цитат: 5200 цитат и выражений XX и XXI вв”, E.N.Kulkov, M.Yu.Myagkov va O.A.Rjeshevskiylarning “Война 1941-1945: Факты и документы”, Zemsov, Popov va Borodinolarning “Центр И.В.Сталин Сочинения Издателъство “Писателъ”, И.В.Сталин О Великой Отечественной войне Советского Союза”, F.Laroshfukoning “Мемуары Максимы” kitoblarida mavjud bo‘lib, mazkur maqolani tayyorlashda ushbu adabiyotlardan foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jangovar nutqlar har bir xalqda mazkur xalq mentalitetidan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lgan. Lekin, uning turi har xil bo‘lsa-da, asosiy funksiyasi bitta - bu jang oldi va jang vaqtida askarlarda birdamlik, birodarlik tuyg‘usini hosil qilish bo‘lgan.

Jangovor nutqlar harbiy chaqiruvdan farq qiladi. Jumladan, harbiy chaqiruv bu – “harbiy xizmatga chaqiruv, qonun bilan belgilangan, fuqarolarni Qurolli Kuchlar safida harbiy majburiyatlarni o‘tash uchun jalb qilish”ni nazarda tutadi. Harbiy chaqiruv ma’muriy-huquqiy mazmunga ega bo‘lsa, jangovor nutq esa, ruhiy-emotsional mazmun-mohiyat kasb etadi.

Jangovor nutq bu – jang paytida shaxsiy tarkibni rag‘batlantirish, dushmanni qo‘rqitish yoki oliy ilohiy kuch (xudo)dan yordam so‘rash uchun mo‘ljallangan baland ovozli chaqiriq bo‘lib, ayni vaqtda, u jangning qizg‘in paytida do‘stni dushmandan ajratishga imkon beradigan identifikatsiya belgisi hamdir.

Shuni aytish lozimki, jangovor nutqlar tarixan barcha davrlar va xalqlarda turlicha

shakl va mazmunda rivojlangan. Jumladan, jangovor chaqiriqlarning shakli va mazmunini shakllanishiga o‘sha xalqning milliy xis-tuyg‘ulari, e’tiqodi hamda ijtimoiy-siyosiy jihatdan taraqqiyot darajasi kabi omillar ta’sir etgan.

Ta’kidlash kerakki, jangovar nutqlar jang oldi va jang vaqtida yana ko‘plab vazifalarni bajargan. Jumladan, ular askarlarda:

– vatanparvarlik, diniy yoki boshqa (g‘alaba uchun zarur bo‘lgan) tuyg‘ularni uyg‘otish;

– jang vaqtida quroldoshlar bir-birini ruhan qo‘llab-quvvatlash hamda do‘stni dushmandan (identifikatsiya) ajratish;

– jang vaqtida qarshilik, tajovuzkorlik yoki boshqa qiyinchiliklarga qaramay bosh maqsadga ishonchini saqlab qolish;

– dushmanga nisbatan nafrat va tahdidini namoyish qilish;

– axborot uzatish, ya’ni jang taktikasida belgilangan tezkor o‘zgarishlar (hujum, chekinish va boshqalar)ni amalga oshirishga belgi berish vazifalarini bajargan.

Tarixan jangovar nutqlarni aniq va maqsadli tarzda shakllantirgan hamda ulardan unumli foydalana olgan rahbarlar avvalo jangovar va jismoniy kuchni zarur vaqtda qo‘zg‘ata olgan hamda mazkur kuchni butun jang davomida barqaror turishiga xizmat qilgan ruhiy kuch evaziga g‘alabani tayin qilishgan.

Ta’kidlash kerakki tarixan juda ko‘p nomdor jangovar nutq sohiblari mazkur omilni juda yaxshi o‘zlashtirgan shaxslar bo‘lgan. Bir so‘z bilan aytganda ular faqat tili bilan emas, butun tanasi bilan nutq so‘zlaganlar. Binobarin, “har qanday hissiyotning o‘zigagina xos bo‘lgan qo‘l va tana harakati, ohang va mimikasi mavjud bo‘lib, ular uyg‘otgan yaxshi yoki yomon, yoqimli yoki yoqimsiz taassurot odamlarni biz tomon intilishi yoki bizdan qochishlariga sabab bo‘ladi”.

Jangovar nutqlar va hayqiriqlar tarixida “Vatan uchun, Stalin uchun!” iborasi juda mashhur hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar mazkur iborani Ulug‘ Vatan urushi davri (1941-1945 yillar)da Qizil Armiya va Dengiz floti tomonidan qo‘llanilgan, deya hisoblashadi.

“Vatan uchun, Stalin uchun!” jangovar nutqi va hayqirig‘i dastlab front uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, qisqa vaqt ichida u ijtimoiy-siyosiy hayotga ham kirib borgan. Jumladan, 1940-yilda o‘tkazilgan saylovning targ‘ibot plakatlarida mazkur ibora siyosiy chaqiriq sifatida qo‘llanilgan. Keyinchalik u ma’muriy-huquqiy hujjatlar mazmuniga ham kirib borgan. Jumladan, 1943-yil 11-yanvarda 67-armiya Leningrad fronti qo‘mondoni “Iskra” operatsiyasini o‘tkazish to‘g‘risida qabul qilgan buyrug‘ida: “Dushman qamalidan ozod qilingan Leningrad butun mamlakat bilan birlashsin. Jangga, dushman bilan shafqatsiz jangga, jasur jangchilar! Leningrad uchun, Vatan uchun, Stalin uchun! Oldinga!” jangovar nutqi va hayqirig‘ini qo‘llaganini ko‘rish mumkin.

Urush yakunlangan bo‘lishiga qaramay “Vatan uchun, Stalin uchun!” jangovar nutqi va hayqirig‘i sobiq ittifoq hududida to Stalin vafot etgunga qadar harbiy xizmat, saylov va huquqiy hujjatlar, ayni vaqtda, ilmiy va badiiy asarlarning mazmunida ham faol qo‘llanilib kelingan.

Tahlil va natijalar. O‘z hajmiga ko‘ra katta hajmli jangovar nutq deb topilgan jangovar chorlov 1941-yil 3-iyul kuni Stalin tomonidan so‘zlangan.

Ma’lumki, 1941-yil 22-iyun tongida fashistik Germaniya qo‘shinlari 1939-yil sobiq SSSR va Germaniya o‘rtasida imzolangan o‘zaro o‘n yil muddatga urush qilmaslik to‘g‘risidagi “Molotov-Ribentrop pakti”ni bir chetga surib sobiq SSSR chegaralarini buzib kiradi. Ittifoq xalqiga urush boshlanganligini e’lon qilish Stalin tomonidan Tashqi ishlar xalq komissari Molotov zimmasiga yuklanadi.

Qizil Armiya hali urushga to‘liq tayyor bo‘lmagani uchun ham fashistik Germaniya qo‘shinlari tezlik bilan Moskva ostonalariga qadar bosib keldi. Buning natijasida aholi o‘rtasida vahima ko‘tarila boshlaydi. Vaziyatning qaltis ekanligini teran anglagan, odatda xalq oldida kam ko‘rinish beradigan Stalin radioda chiqish qilishga majbur bo‘ldi. Biz quyida tahlil qiladigan jangovar nutq shu tariqa jangovar nutqlar tarixiga kiradi.

Stalin o‘zining jangovar nutqi avvalida, keng xalq ommasi orasida Qizil Armiyaga nisbatan shakllanayotgan ishonchsizlik va shubhalanishga (darhaqiqat, bu davrda, senzura tufayli hech kimsa bunday mavzuda gapira olmasada, lekin kontrrazvedka tomonidan keltirilgan ma’lumotga ko‘ra jamiyatda bu kabi fikrlar keng yoyilayotgan bo‘lib, ularga) qarshi quyidagi savollarni qo‘yadi: “*Qanday qilib, bizning shonli Qizil Armiyamiz bir qancha shahar va viloyatlarimizni fashist qo‘shinlariga topshirdi? Nemis fashist qo‘shinlari chindan ham yengilmas qo‘shinlarmi?*”. O‘zi bergan savolga o‘zi javob berar ekan, nemis propagandasini qoralagan holda real, tarixiy asosga ega bo‘lgan jahon va Rossiya tarixidagi g‘alabalarga yuzlanadi: “*Tarix*

shuni ko'rsatadiki, yengilmas qo'shinlar yo'q va hech qachon bo'lmagan. Napoleon armiyasi yengilmas deb hisoblangan, ammo u rus, ingliz va nemis qo'shinlari tomonidan navbatma-navbat mag'lubiyatga uchragan".

Nutqi davomida Stalin dastlabki vaqtlarda Qizil Armiyaning "dovdirab" qolganligini oqlashga urinadi. So'ngra "*nemis-fashist armiyasining eng yaxshi bo'linmalari bizning Qizil Armiyamiz tomonidan mag'lubiyatga uchradi",* deya maqtashga tushadi. Mazkur maqtov o'sha davr sovet ittifoqidagi o'ziga xos usul, ya'ni "birini maqtash uchun, boshqasini yomonlash" tartibida "*Bu armiya Yevropa qit'asida hali jiddiy qarshilikka duch kelmagan"* deya amalga oshiriladi. Stalin bunday mohirona yondashuv asosida butun Yevropa davlatlarini kuchsizga chiqaradi hamda sobiq SSSR dunyoni fashistlardan qutqara oladigan yagona "kuch" ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Shunga qaramay Stalin butun dunyo va sobiq SSSR xalqi ko'rib turgan voqelikdan qocha olmay "*hududimizning bir qismi fashistik nemis qo'shinlari tomonidan bosib olingani"* ni tan olgan holda bu vaziyatni *"fashistik Germaniyaning SSSRga qarshi urushi nemis qo'shinlari uchun qulay sharoitlarda boshlanganligi va Sovet Ittifoqi uchun noqulay bo'lganligi bilan bog'liq",* deya ko'rsatadi.

Stalin "Molotov-Ribentrop pakti"ga to'xtalar ekan, bu kelishuvdan faqat va faqat sobiq SSSR (garchi yuzaga kelgan qulay imkoniyatdan foydalanib harbiy tizimni takomillashtirmagan va natijada katta qurbonlar berilayotgan bo'lsa-da) yutganligini ta'kidlashga urinadi.

Nutqining keyingi qismida *"mamlakatimizning qahramon xalqlari, Yevropa, Amerika va Osiyoning barcha eng yaxshi odamlari va nihoyat, Germaniyaning eng yaxshi odamlari - bu yolg'on harakatlarni qoralaydilar... biz g'alaba qozonishimiz kerakligini xohlaydilar"*, deya avvalo sobiq SSSR xalqini, qolaversa jahon xalqlarini va eng asosiysi Germaniyadagi urushga qarshi insonlarni xayrixoh bo'lish va oyoqqa turishga undaydi.

Stalin yuzaga kelgan vaziyat o'ta xavfli ekanini anglatish uchun dushman tomonidan *"nonu-yog'imizni tortib olishi...", "ittifoq hududidagi xalqlar milliy madaniyati va milliy davlatchiligini* (garchi sanalayotgan millatlar bolsheviklar ta'sirida milliy davlatchiligidan ayrilgan bo'lsa-da) *yo'qotishi"* mumkinligidan ogohlantiradi. Buning uchun esa, har bir fuqaro *"xavf-xatarning chuqurligini to'liq anglashi, urushdan oldingi davrda mutlaqo tushunarli bo'lgan xotirjamlik, beparvolik va tinch qurilish kayfiyatidan voz kechishi zarur"* ligini ta'kidlaydi.

Jangovar nutq davomida Stalin tomonidan g'alabani ta'minlash uchun:

"miltiqlar, pulemyotlar, qurollar, patronlar, snaryadlar, samolyotlar ishlab chiqarish, zavodlarni himoya qilish, elektr stantsiyalari, telefon va telegraf aloqalari, mahalliy havo mudofaasini o'rnatish;

front ortidagi har xil tartibbuzar, dezertir, mish-mish tarqatuvchilarga qarshi shafqatsiz kurashish, ayg'oqchi, diversant va dushman desantlarini yo'q qilish;

qo'rqoqligi bilan mudofaa ishlariga aralashganlarni kim bo'lishidan qat'iy nazar Harbiy tribunalga tortish;

chekinish vaqtida dushmanga bir kilogramm non yoki bir litr yoqilg'i, bitta lokomotiv va bitta vagon ham qoldirmaslik;

chiqarib bo'lmaydigan qimmatbaho mulklar, shu jumladan rangli metall, don va yoqilg'ini so'zsiz yo'q qilish;

dushman tomonidan bosib olingan hududlarda otliq va piyoda partizan otryadlari, sabotaj guruhlarini yaratish;

partizanlar urushini tashkil etish orqali ko'priklar va yo'llarni portlatish, telefon va telegraf aloqalarini buzish, o'rmonlar, omborlar va konvoylarga o't qo'yish" bo'yicha qat'iy topshiriqlar beriladi.

Stalin o'z nutqida bu urushni *"nemis fashizmi bo'yinturug'i ostida nola qilayotgan Yevropaning barcha xalqlariga yordam berish"* ga qaratilgan *"buyuk urush"* deya ataydi. Ayni vaqtda butun dunyo sobiq sovet xalqi va Qizil Armiya bilan birga ekanini ta'kidlash uchun ittifoqchilarni ham eslab o'tadi. Jangovar nutq yakuni birlashuvga da'vat bilan tugallanadi.

Xulosa va takliflar. Jangovar nutqi orqali Stalin, xalq boshiga tushgan ulkan musibatni bor bo'y basti bilan ko'rsatish orqali xalqqa endilikda ularni nimalar kutayotganini, bor kuch va g'ayrat bilan barcha qiyinchiliklarga tayyor bo'lish lozimligini uqtirgan, nutqi davomida vaziyat og'ir va murakkab bo'lishiga qaramay Qizil Armiya askarlari hamda sobiq Ittifoq xalqiga ruhiy ko'tarinkilik berishni unutmagan, shu ma'noda jangovar nutq mazmunida qo'rqitish, dushmandan nafratlanish, ogoh bo'lish kabi tuyg'ular bilan birga g'ururlanish va g'alabaga bo'lgan ishonch kabi tuyg'ular balansini ta'minlagani ayon bo'ldi.

Stalinning faoliyati jangovar nutqda qo'rqituvchi, ogohlantiruvchi

va ruhlantiruvchi tuyg'ular balansini ta'minlash zarurligini ko'rsatdi.

Shu o'rinda jangovar nutq hajman katta bo'lsa-da undan asosli maqsadni ko'zlaganini ta'kidlash lozim. Ya'ni, keng xalq ommasiga rasmiy shaklda - huquqiy hujjatlar orqali yetkazib bo'lmaydigan muammo va uni bartaraf etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar hissiy yo'l ya'ni, hajmi katta bo'lsa-da jangovar nutq orqali yetkazilishi ta'minlangan.

Bugungi kunga qadar, tarixiy va zamonaviy harbiy vosita va usullar ko'p o'rganilgan. Biroq, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi jangovor chorlov vositalari, jumladan jangovor nutqlar masalasi haligacha to'la qonli tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Bugungi jangovor vaziyatlarda harbiy texnologiyalardan ham ko'ra ko'proq harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi muhim bo'lib borayotgan bir davrda jangovor chorlov vositalari, jumladan jangovor nutqlarni chuqur o'rganish juda muhim hisoblanadi.

Bizningcha, bugungi kunda jangovor chorlov vositalari, jumladan jangovor nutqlarni tadqiqot obyektiga aylantirish avvalo, ularning xorijiy namunalari, qolaversa milliy tariximizdagi namunalarni o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

Ikkinchidan, bugungi ilmiy iste'mol uchun jangovor chaqiriq tushunchasining mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritish hamda uni ilmiy ta'rifini shakllantirish lozim bo'ladi;

Uchinchidan, ilmiy tadqiqotlar orqali jangovor chaqriqlarning turlariga aniqlik kiritish hamda ularni klassifikatsiya qilish zarur hisoblanadi;

To'rtinchidan, tadqiqot orqali mazkur masalada qo'lga kiritilgan ilmiy natijalarni amaliyotga, ya'ni harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish jarayoniga joriy etish muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda harbiy harakat ishtirokchilari o'z tarkibida umumiy harbiy arsenalga nisbatan gibrid va kibr hujumchilarni katta ulushda shakllantirganligi bilan klassik harbiy harakatlardan farq qiladi. Mana shunday sharoitda harbiy xizmatchilarni axborot hamda gibrid urushlar ta'siriga tushishini oldini olish hamda axloqiy-ruhiy tayyorgarligini yanada mustahkamlab borishda jangovor chorlov vositalari, jumladan jangovor nutqlarning o'rni beqiyosdir.

Аннотация. Несмотря на значительное количество исследований в военной области, средства боевого клича, включая определение самого понятия, остаются недостаточно изученными. В данной статье представлены результаты научных исследований, посвященных этому направлению.

Ключевые слова: боевой клич, боевая речь, морально-духовная подготовка, оборона.

Annotation. Although a lot of research has been carried out in the military field, the means of a battle cry, including the meaning of the concept of a battle cry, have not been fully explored. This article describes the results of scientific research conducted in this direction.

Key words: battle cry, battle speech, moral and spiritual preparation, defense.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Душенко К.В. Словарь современных цитат: 5200 цитат и выражений XX и XXI вв., их источники, авторы, датировка. - 4-е изд., испр. и доп. - М.: Эксмо, 2006. - С. 575.
2. Кульков Е.Н., Мягков М.Ю., Ржешевский О.А. Война 1941-1945: Факты и документы. - М.: Олма-пресс, 2001. - С. 398.
3. Щукин К.П. За родину, за Сталина: сборник материалов о боевых эпизодах действующей Красной Армии. - Л., 1941; За Родину, за Ленинград. - Л., 1944; Тичина П.Г. За Сталина, за Родину, за мир! - М.: Советский писатель, 1951.
4. Земцов В.Н., Попов А.И. Бородино. Центр. - М.: Книга, 2010. - 104 с.
5. Сталин. И.В.Сочинения –Т-15. - М. Издателъство "Писателъ". 1997. - 56-61 с.
6. Сталин И В. О Великой Отечественной войне Советского Союза. Изд. 5-е. -М.: Госполитиздат, 1945. 56 с.
7. Ларошфуко Ф. Мемуары. Максимы. – М.: 1993. 93 с.

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA HARBIY TA’LIM MUASSASALARINING TARIXIY AHAMIYATI

To‘laboyev Shavkatjon G‘ayratjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti

Yunusov Davronbek Bekmirza o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston SSR hududida faoliyat yuritgan harbiy ta’lim muassasalarining front uchun harbiy kadrlar tayyorlashdagi strategik ahamiyati tarixiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Harbiy bilim yurtlari faoliyati, evakuatsiya qilingan ta’lim muassasalari, professor-o‘qituvchilarning hissasi yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston SSR, harbiy ta’lim, ofitser, evakuatsiya, Chirchiq, Toshkent, kursant.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng dahshatli va qonli mojarolardan biri bo‘lib, uning jahon siyosiy xaritasiga ta’siri beqiyosdir. 1941 –1945-yillarda bo‘lib o‘tgan urush davlatlar va xalqlar tarixida chuqur iz qoldirdi. SSSR tarkibidagi O‘zbekiston SSR urush yillarida nafaqat iqtisodiy va demografik jihatdan, balki harbiy kadrlar tayyorlash markaziga aylanishi bilan ham muhim rol o‘ynadi. Front uchun malakali harbiy mutaxassislar tayyorlash masalasi davlat mudofaasining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda O‘zbekiston hududida faoliyat yuritgan va evakuatsiya qilingan harbiy ta’lim muassasalarining faoliyati, ularning front uchun kadrlar tayyorlashga qo‘shgan hissasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Chunki harbiy ta’lim tizimining murakkab sharoitlarda samarali faoliyat ko‘rsatishi, zamonaviy tahdidlarga tezkor moslashuvi masalasida tarixiy tajribani o‘rganish bugungi harbiy ta’lim tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan SSSR hududida harbiy kadrlar tanqisligi yuzaga keldi. Xususan, frontda malakali qo‘mondon va ofitserlar zudlik bilan zarur edi. Bu vaziyatda ittifoqdosh respublikalarning, xususan O‘zbekiston SSRning harbiy ta’lim tizimi davlat mudofaasining ajralmas qismi sifatida safarbar qilindi. Respublikada joylashgan va evakuatsiya yo‘li bilan keltirilgan harbiy bilim yurtlari minglab yoshlarni qisqa muddatda harbiy kasb egasiga aylantirish orqali front ehtiyojlarini qondirdi [1].

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Urushning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekistonning butun moddiy va ma’naviy kuchlari fashizmga qarshi kurashga safarbar etildi, respublikaning hayoti harbiy izga tushirildi. O‘zbekistonning o‘sha vaqtdagi yaroqli aholisining 50 foizidan ko‘prog‘i, ya’ni 1 million 951 ming kishi frontga jo‘natildi. Urush yillarida Sovet Ittifoqining g‘arbiy hududlaridan minglab aholi, badarg‘a qilingan xalqlar O‘zbekistonga ko‘chirib keltirildi. O‘zbek xalqi ularga qo‘lidan kelgan g‘amxo‘rlikni ko‘rsatdi”[2] – deb ta’kidlaganlar.

Urush boshlangan dastlabki oylaridanoq O‘zbekistonda faoliyat yuritgan harbiy bilim yurtlari frontga ofitserlar yetkazib berishda muhim rol o‘ynadi. Xususan, 1941-yil iyun–iyul oylarida Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti bitiruvchilari 310, 312, 314 va 316 – o‘qchi diviziyalar tarkibiga turli komandirlik lavozimlariga yollandi. Jumladan, 316 – o‘qchi diviziyaga 170 nafar, 312 va 314 – o‘qchi diviziyalarga esa har biriga 196 nafardan ofitser-bitiruvchi tayinlandi. Yosh ofitserlar bilan birga, harbiy qismlar va birlashmalar tajribali, jangovar tayyorgarlikka ega kadrlar — komandirlar va o‘qituvchilar bilan to‘ldirildi. Ular orasida maktab komissari S.I. Shamanin 310 – o‘qchi diviziya komissari etib tayinlandi. O‘quv bo‘limi boshlig‘i polkovnik M.I. Krujkov ushbu diviziya shtabi boshlig‘i lavozimiga tayinlandi. Boshqa mas’ul kadrlar

qatorida batalyon komandirlari A.G. Yurtov va podpolkovnik SH.I. Melkadze 310 – o‘qchi diviziya polklariga komandir etib, batalon komandiri mayor N.V. Zaykovskiy 213 – o‘qchi diviziya polki komandiri lavozimiga yuborildi. O‘quv bo‘limi boshlig‘ining yordamchisi mayor K.N. Gofman 316 – o‘qchi diviziya shtabi boshlig‘i etib tayinlandi. Shu diviziya tarkibidagi polk shtabiga esa o‘quv bo‘limi ofitseri katta leytenant I. Mamonov rahbar etib yuborildi.

1941-yil bitiruvidan so‘ng barcha darslar urush davri talablariga muvofiq ravishda qayta tashkil etildi. Ofitserlarni yangi dastur asosida tayyorlashga o‘tgan o‘quv yurti 1941-yilning o‘zida frontga katta sonda yosh ofitserlar yetkazib berdi. Oktabr oyida tank qo‘shinlari uchun ofitserlar guruhi, shuningdek, milliy kavaleriya qismlari uchun mahalliy millat vakillaridan tashkil topgan ofitserlar guruhi bitirildi. Shu yili o‘quv yurti frontga minglab ofitserlar tayyorlab berdi. Yangi kursantlar qabul qilingach, o‘quv yurti ta’lim muddatini olti oylik tezlashtirilgan dasturga muvofiq qisqartirdi. Shu qisqa muddat ichida kelajakdagi komandirlarga zarur bilim va ko‘nikmalar berish uchun o‘quv vaqti kuniga 10 soatga uzaytirildi. O‘quv jarayonining asosiy mazmuni siyosiy tayyorgarlik hamda faqat harbiy fanlardan iborat edi. Ayniqsa, taktik va otish tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratildi. O‘qituvchilar soni qisqartirildi, maxsus fanlar rota va vzvod komandirlari tomonidan o‘qitildi.

V.I. Lenin nomidagi Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti bitiruvchilari va o‘qituvchilari Ulug‘ Vatan urushida katta hissa qo‘shdilar. Urush yillarida o‘quv yurti Qizil Armiya uchun taxminan sakkiz ming nafar komandirlar tayyorladi. Ular 1941-yilda Moskva mudofaasida, Kursk bo‘g‘ozidagi janglarda, Dneprni kechib o‘tishda, Ukraina, Belarus, Moldova, shuningdek, Polsha, Vengriya, Chexoslovakiya va Ruminiyani ozod etishda qatnashdilar; Berlin va Praga operatsiyalarida ishtirok etdilar.

Yurtning faxriga aylangan ko‘plab harbiy rahbarlar aynan shu o‘quv yurtida tarbiyalangan. Ular qatorida armiya generallari A.A. Luchinskiy, N.G. Lyashenko, artilleriya general–polkovnik M.A. Parsegov, general–leytenantlar P.S. Kurbatkin, Fayzulla Narxodjayev, general–mayorlar M. O‘zakov, I.K. Kolodyajniy va boshqalar bor.

Galabaga hissa qo‘shgan boshqa taniqli harbiylar qatorida generallar I.Ye. Petrov, V.K. Baranov, I.F. Kus, A.I. Balayev, N.S. Peredelskiy, S.A. Tovstoles, A.F. Chudesov, A.I. Baksov, podpolkovnik P.I. Xoroshev va boshqa o‘qituvchi hamda komandirlarning ham nomi ulug‘lanadi.

V.I. Lenin nomidagi o‘quv yurtining 40 nafardan ortiq tarbiyalanuvchilariga “Sovet Ittifoqi Qahramoni” unvoni berilgan, minglab ofitserlar esa SSR Ittifoqi orden va medallari bilan taqdirlanganlar. Toshkent Qizil Bayroqli piyodachi o‘quv yurtiga Vatan uchun janglarda faol ishtirok etgani hamda Qizil Armiya uchun komandir kadrlar tayyorlashda erishgan yuksak natijalari munosabati bilan, 1943-yil 30-avgust kuni SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan “Qizil Yulduz” ordeni berildi hamda 1944-yil 13-avgustdan 1945-yil may oyigacha o‘quv yurtiga 316 – o‘qchi diviziyaning 1075 – o‘qchi polki sobiq komandiri, keyinchalik 8 – gvardiya diviziyasida xizmat qilgan polkovnik I.V. Kaprov rahbarlik qildi. Uning jangchilari 1941-yil Moskva mudofaasida katta jasorat ko‘rsatgan edilar.

1945-yilda o‘quv yurti tinchlik davri ta’lim dasturiga o‘tdi: ikki batalondan iborat yangi tuzilma joriy etildi va o‘quv muddati bir yil qilib belgilandi. Bundan so‘ng ta’lim jarayoni tinchlik sharoiti talablariga mos ravishda qayta yo‘lga qo‘yildi [3].

1941-yil sentabr oyida Xarkov front chizig‘iga yaqinlashganligi sababli 1-Xarkov tankchilar bilim yurti Toshkent viloyatining Chirchiq shahriga ko‘chirildi va “Toshkent tankchilar bilim yurti” deb nomlandi [4].Ushbu muassasa qisqa muddatli – bir yillik intensiv o‘quv dasturiga o‘tib, harbiy kadrlar tayyorlashni davom ettirdi.

Urushada komandirlar tanqisligi keskin tus olgani sababli, 1941-yil iyun oyida 1-Xarkov tankchilik bilim yurtida navbatdan tashqari ofitserlar bitiruvi amalga oshirildi. Bu bitiruv doirasida 252 nafar leytenant front chiziqlariga yuborildi.

1941-yil iyul oyida, boshqa sovet harbiy o‘quv muassasalari singari, 1-Xarkov tankchilik bilim yurti kursantlar batalyonlarini shakllantirishga kirishdi. Bilim yurtida mayor Grishin qo‘mondonligida T-34 rusumli 29 ta va KV-1 rusumli 4 ta tankdan iborat Qo‘shma kursantlar hujumchi tank batalyoni tashkil etildi. U 1941-yil 4-iyulda 7-mexanizatsiyalashgan korpusning 14-tank diviziyasiga qarashli 27-tank polki tarkibiga kiritildi va Belorussiya SSRning Vitebsk viloyatida og‘ir janglarda ishtirok etdi.

Diviziya qurshovga tushgan bo‘lsa-da, qattiy janglar orqali qurshovdan chiqib ketdi va 1941-yil avgust oyida rasmiy ravishda tarqatib yuborildi [5].

1941-yil sentabrga kelib front Xarkovga yaqinlashdi. 1-Xarkov tankchilik bilim yurti Xarkovni uzoq yo‘nalishlarda himoya qilishga jalb etildi. Kursantlarga Xarkov piyodachilik bilim yurti kursantlari bilan hamkorlikda Burin temir yo‘l stansiyasi va Mixaylovskiy xutori atrofida mudofaa tashkil etish buyrug‘i berildi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston SSR hududida joylashgan va evakuatsiya qilingan harbiy ta’lim muassasalarining faoliyati harbiy mudofaa tizimining ajralmas qismi sifatida strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Harbiy ta’lim muassasalarining front uchun kadrlar tayyorlashdagi faoliyatini o‘rganish, birinchidan, O‘zbekistonning urushga qo‘shgan hissasini xolisona baholash, ikkinchidan, zamonaviy harbiy ta’lim tizimini rivojlantirishda tarixiy tajriba asosida samarali yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Bugun ushbu tarixiy tajriba, yoshlarni vatanparvarlik ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В данной статье анализируется стратегическое значение военных учебных заведений, действовавших на территории Узбекской ССР в годы Великой Отечественной войны, для подготовки военных кадров для фронта. Рассматривается деятельность военных учебных заведений, эвакуированные учебные учреждения и вклад профессорско-преподавательского состава, опираясь на исторические документы, статистические данные и научную литературу.

Ключевые слова: Великая Отечественная война, Узбекская ССР, военное образование, офицер, эвакуация, Чирчик, Ташкент, курсант.

Annotation. This article analyzes the strategic significance of military educational institutions operating in the territory of the Uzbek SSR during the Great Patriotic War for the preparation of military personnel for the front. The activities of military educational institutions, the evacuated institutions, and the contribution of the academic staff are examined based on historical documents, statistical data, and scientific literature.

Keywords: Great Patriotic War, Uzbek SSR, military education, officer, evacuation, Chirchik, Tashkent, cadet.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Собрание документов Центрального Архива Министерства Обороны Российской Федерации. Ф. 1234. Оп. 1. Д. 56.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk G‘alabaning 75 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi”dan. 2020-y 9-may.
3. http://www.tvoku.ru/lib/tvoku_1988/index.html.
4. O‘zbekiston Milliy Arxivi. F. R-245. Op. 1. D. 126. 27-bet.
5. Журнал боевих действий 14-й танковой дивизии. Дата обращения:
26 июлья 2016. Архивировано 16 апрелья 2016 года.

IKKINCHI JAHON URISHIDA HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY HIMOYASI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL

Baqoyev Shahzod Hasan o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktaranti

Annotatsiya. **Mazkur maqola Ikkinchi jahon urushida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish masalalari tarixiy-huquqiy jihatdan o‘rganilgan. Urush yillaridagi normativ huquqiy hujjatlar, ijtimoiy dasturlar shuningdek, xalqaro tajriba tahlil qilingan.**
Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, harbiy xizmatchi, davlat siyosati, huquqiy tahlil, tarixiy yondashuv. Kalit so‘zlar: front, front orti, jasorat, vatanparvarlik, Sovet Ittifoqi, fashizm, SSSR, IIXK, artilleriya, Bagration operatsiyasi, razvedka.

Ikkinchi jahon urushi davri ko‘pchilik mamlakatlar uchun eng og‘ir va murakkab davrlardan biri bo‘lgan. Bu davr inson huquqlari, ijtimoiy adolat va davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyati borasidagi qarashlarini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Ikkinchi jahon urushi tarixda eng halokatli to‘qnashuv bo‘lib, urushda 72 ta davlat qatnashdi va umumiy 62 million kishi (shu jumladan 27 million SSSR fuqarolari) halok bo‘ldi [1].

Urush yillarida millionlab harbiy xizmatchilar frontga jo‘natildi, ularning oila a’zolari esa og‘ir ijtimoiy muhitda, psixologik bosim ostida qolishdi. Bunday holat davlat oldiga urushni har tomonlama ta’minlash bilan birga, harbiy xizmatchilarning oial a’zolarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish mas’uliyatini ham yuklatgan. Shu bois, davlat siyosati va qonunchiligida ijtimoiy himoya masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishiga sabab bo‘ldi.

Sovet Ittifoqi Ikkinchi jahon urushida eng ko‘p yo‘qotishga uchraganligi sababli harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini isloh qilish zaruriyati paydo bo‘lgan. SSSR Oliy kengashi Prezdiumining 1941-yil 26-iyundagi farmoniga ko‘ra urush qatnashchisi bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolariga bir martalik nafaqa tayinlanishi joriy etildi, O‘zSSSR Xalq komissarlari kengashining 1941-yil 9-avgustdagi Farmoyishi bilan mobilizatsiya qilingan harbiylarning bolalarini bolalar bog‘chalariga navbatdan tashqari qabul qilish yo‘lga qo‘yilgan. SSSR XKSning 1942-yil 6-maydagi “Urush nogironlarini ishga joylashtirish to‘g‘risida”gi Qarori bilan esa birinchi marotaba urushdan qaytgan nogiron shaxslarni ish bilan ta’minlash choralari ishlab chiqilgan [2].

Shuningdek, urush faxriylariga 1943-yildan boshlab uy-joy imtiyozlari, oziq-ovqat kartochkalari va kommunal to‘lovlarga chegirma berish imtiyozlari belgilandi.

AQSH tomonidan 1944-yil 22-iyunda “G.I. Bills of Right” deb nomlangan urushdan qaytgan va halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilishga oid qonun qabul qilindi [3]. Bu AQSHda urush ishtirokchilari uchun eng muhim huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatda:

- Urushdan qaytgan harbiy xizmatchilar uchun bepul oliy ta’lim olish imkoniyati;
- Uy-joy sotib olish uchun past foizli ipoteka kreditlari;
- Tibbiy sug‘urta va maxsus tibbiy xizmatlardan foydalanish imtiyozlari yaratildi.

Bu qonun bilan AQSH urushdan qaytgan fuqarolarini jamiyatga moslashtirishda katta natijalarga erishdi.

Urushdan so‘ng va urush yillarida Buyuk Britaniya harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi 1948-yilda qabul qilingan “National Assistance Act” saosida amalga oshirildi [4].

Ushbu hujjat asosida davlat:

- Urushdan qaytgan askarlar uchun maxsus tibbiy xizmatlar (sog‘liqni saqlash tizimi (NHS)) joriy etildi;
- Urushda halok bo‘lgan va bedarak yo‘qolgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolariga moddiy yordam ajratish dasturlarini yo‘lga qo‘ydi;

- “War pensions Scheme” [5] orqali jarohat olgan va vafot etgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolariga nafaqa tayinlash tartibini joriy etdi.

Urush yillarida mamlakatdagi ayrim muammolar xususan, yolg‘iz qolgan ayollar, keksalar va bolalar ham o‘zlari uchun ham urushdagi jigargo‘shalari uchun mehnat qilishlari, vaqtinchalik boshqa hududlarga ko‘chirilganlarning yashash joyi, ish va tibbiy xizmat muammolari, qonunchilik asosida yaratilgan imtiyozlar hamma joyda bir xilda ishlamasligi (ayniqsa chekka hududlar va qamaldagi shaharlarda) davlatning ijtimoiy siyosatdagi muvozanatni saqlab qolish uchun favqulodda qarorlar chiqarishga majbur etgan.

Ikkinchi jahon urushi tarixda davlatlarga eng ko‘p qurbonlar va talafot yetkazgan bo‘lishiga qaramay, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish, inson huquqlari va davlatning o‘z mas’uliyatiga yangicha yondashuvini shakllantirgan desak adashmaymiz.

Urushdan so‘ng 1945-yilda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tizimidagi ixtisoslashgan tashkilotlar ijtimoiy himoya masalalarini xalqaro darajada muvofiqlashtirishga kirishdi. Bu yo‘nalishda, 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [6]ning qabul qilinishi katta qadam bo‘ldi. Ushbu hujjatda umumiy ijtimoiy himoyaning kafolatlari mustahkamlab berildi.

Shundan so‘ng, urush davrida jabr ko‘rganlarni ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun 1949-yilda bo‘lib o‘tgan Jeneva konvensiya [7]lari o‘tkazildi. Ushbu konvensiyalar:

- *harakatdagi armiya hisobidagi yarador va kasallar ahvolini yaxshilash;*
- *dengiz qurolli kuchlari tarkibidagi yaradorlar, kasallar va kema halokatiga uchraganlar ahvolini yaxshilash;*
- *harbiy asirlar bilan muomala qilish;*
- *urush davrida aholini muhofaza etish masalalarini o‘z ichiga oladi.*

Ikkinchi jahon urushi asosida shakllangan muhim saboq shundan iboratki, har bir davlat o‘z fuqarolarini ayniqsa harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini har jabhada ijtimoiy himoya qilishi shart. Ushbu masalada mamlakatimizda ham mustaqillikdan so‘ng ko‘pgina normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Aholiga sifatli hamda manzilli ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2023-yil 1-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Bu ijtimoiy himoya sohasida davlat siyosatini yurituvchi yagona organ yaratilganligining misoli bo‘ldi. Ijtimoiy himoya tizimiga 2024-yilda Respublika budjetidan 20,3 trillion so‘m sarflandi [8].

Shuningdek, har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida Prezidentimizning farmoni imzolanadi. Xususan joriy yilning 19-fevral kungi farmoni bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 000 (o‘n ming) AQSH dollari miqdorida, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarning har biriga 25 000 000 (yigirma besh million) so‘m miqdorida, 1941-1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilarining har biriga 3 000 000 (uch million) so‘m miqdorida moddiy rag‘batlantirildi.

Fikrimizning yakunida ikkinchi jahon urushi jarayonida shakllangan ijtimoiy himoya choralari amalda zamonaviy davlat tamoyillarining asosiy g‘oyaviy va huquqiy negizini yaratdi. Davlatning fuqarolariga, xususan, harbiy xizmat bilan bog‘liq aholiga nisbatan ijtimoiy mas’uliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurati aynan urush davridagi og‘riqli tajribalardan kelib chiqdi. Professor Sh.M.Gaziyev ta’biri bilan aytganda, ijtimoiy ta’minot va harbiy qonunchilik asoslarining rivojlanishi o‘rtasida mutanosiblik va muayyan tizimni ta’minlashda Oliy Majlis va tegishli Qurolli Kuchlar idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash kerak. Sirtdan qaraganda, Oliy Majlis tarkibida uzoq yillar harbiy xizmatda bo‘lgan deputatlar salmog‘i kamligi, qonunchilikka asosan harbiy xizmatchilar siyosiy partiyalarga a’zo bo‘la olmasligi muayyan ma’noda harbiy qonunchilik rivojiga ta’sir qilmoqda [9].

Ikkinchi jahon urushi nafaqat geosiyosiy jarayonga, balki ijtimoiy-huquqiy tafakkurning evolutsiyasiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы социальной защиты военнослужащих и членов их семей во время Второй мировой войны с историко-правовой точки зрения. Проанализированы нормативно-правовые акты, социальные программы военных лет, а также международный опыт.

Ключевые слова: Вторая мировая война, военнослужащий, государственная политика, правовой анализ, исторический подход.

Abstract. This article examines the issues of social protection of military personnel and their family members during the Second World War from a historical and legal perspective. Normative legal acts, social programs of the war years, as well as international experience, were analyzed.

Key words: World War II, military personnel, state policy, legal analysis, historical approach.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikkinchi Jahon urushi - Vikipediya
2. Узбекская ССР в годы Великой отечественной войны (1941-1945 гг). Т.1. Ред.кол. М.Ахунова, С.Белоножка, Т.Джураев, Х.Зияев, Х.Иноятов, Ф.Норходжаев, М.Нурмухаммедов, Х.Турсунов, Юсупов Э. – Ташкент: Издателство "Фан" 1981. – С.294-295.
3. https://www.britannica.com
4. https://www.gov.uk
5. War Pension Scheme (WPS) - GOV.UK
6. https://constitution.uz
7. Jeneva konvensiyalari - Vikipediya
8. https://ihma.uz/
9. Gaziyev Sh.M. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari ijtimoiy-huquqiy himoyasini takomillashtirish: yurid.fan.doktori.diss. avtoref – Toshkent, 2022-yil.

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA HARBIY XIZMATCHILAR INTIZOMIY JAVOBGARLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada urush davrida SSSR harbiy xizmatchilarining intizomiy javobgarligi, harbiy intizomni saqlashga doir qo‘llanilgan yondashuvlar, normativ-huquqiy asoslar, intizomiy jazo turlari va ularning harbiy xizmatchilar faoliyatiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, intizom, intizomiy nojo‘ya xatti-harakat, intizomiy javobgarlik, intizomiy jazolar, jinoiy jazo, jazo batalonlari, Intizom nizomi.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng keng ko‘lamli va halokatli harbiy to‘qnashuv bo‘lib, u nafaqat harbiy strategiya va texnikaning rivojlanishiga, balki harbiy xizmatda tartib va intizomning yanada takomillashishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu davrda harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarligi masalasi davlat xavfsizligi, harbiy qudrat va armiyaning jangovar qobiliyatini saqlab qolish nuqtayi nazaridan alohida dolzarblik kasb etgan. Ushbu davrdagi SSSR harbiy xizmatchilarining harbiy-huquqiy mexanizmlar doirasida intizomiy javobgarlikning huquqiy asoslari, turlari, uni qo‘llash amaliyoti va ijtimoiy-huquqiy oqibatlari jangovar vaziyat holatidan kelib chiqqan holda turlicha ahamiyat kasb etgan.

SSSR (Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi) Qizil armiyasi harbiy xizmatchilarining intizomiy javobgarligiga oid munosabatlar 1940 yil 12 oktabrda qabul qilingan “Qizil Armiya Intizom nizomi” [1] bilan tartibga solingan.

Unga ko‘ra “intizomiy jazo - harbiy xizmatchilarga doimiy yoki vaqtincha bo‘ysunadigan bevosita yoki bevosita boshlig‘ining vakolati bilan qo‘llaniladigan jazo.” [1] sifatida belgilangan va ularning quyidagi turlari mavjud:

Oddiy askarlarga nisbatan:

a) shaxsiy hayfsan;

b) saf oldida hayfsan;

v) qism joylashgan joydan 6 haftagacha muddatga chiqishdan mahrum qilish;

g) navbatdan tashqari *(8 tadan ko‘p bo‘lmagan)* naryadga tayinlash;

d) gauptvaxtada 20 sutkagacha saqlash sharti bilan oddiy qamoqqa olish;

e) 10 sutkagacha gauptvaxtada saqlash sharti bilan qattiq qamoqqa olish;

j) qizil askarlar o‘rtoqlik sudiga topshirish.

Haqiqiy xizmatning kichik boshliqlar tarkibiga:

a) shaxsiy hayfsan;

b) qism joylashgan joydan 1 oygacha muddatga chiqishdan mahrum qilish;

v) navbatdan tashqari *(8 tadan ko‘p bo‘lmagan)* naryadga tayinlash;

g) buyruqda e’lon qilingan hayfsan;

d) gauptvaxtada 20 sutkagacha saqlash sharti bilan oddiy qamoqqa olish;

e) 10 sutkagacha gauptvaxtada saqlash sharti bilan qattiq qamoqqa olish;

j) kichik komandirlarni o‘rtoqlik sudiga topshirish;

z) harbiy unvonda pasaytirish;

i) lavozimda pasaytirish;

k) oddiy askarlar tarkibiga bo‘shatish sharti bilan lavozimdan chetlashtirish.

Muddatdan tashqari xizmatning kichik boshliqlar tarkibiga:

a) shaxsiy hayfsan;

b) navbatdan tashqari *(ko‘pi bilan 4 ta naryad)* naryadga tayinlash (starshinalar bundan mustasno);

v) buyruqda e’lon qilingan hayfsan;

g) navbatdagi ta’tildan 15 sutkagacha muddatga mahrum qilish;

d) xizmat vazifalarini bajarib va qamoqqa olingan har bir kun uchun kunlik ish haqining 25 foizini asosiy maoshdan ushlab qolgan holda 15 sutkagacha gauptvaxtada oddiy qamoqqa olish;

e) xizmat vazifalarini bajarmasdan qamoqqa olingan har bir kun uchun asosiy maoshdan 50% ushlab qolish sharti bilan 10 sutkagacha gauptvaxtada qat'iy qamoqqa olish *(starshinalar bundan mustasno)*;

j) kichik komandirlarni o'rtoqlik sudiga topshirish;

z) harbiy unvoni bir pog'ona pasaytirilganda;

i) lavozimda pasaytirish;

k) zaxiraga bo'shatish.

O'rta va katta boshliqlar tarkibiga:

a) shaxsiy hayfsan;

b) buyruqda e'lon qilingan hayfsan;

v) navbatdagi ta'tildan 15 sutkagacha muddatga mahrum qilish;

g) xizmat vazifalarini bajarish va qamoqning har bir kuni uchun asosiy ish haqidan 50% ushlab qolish sharti bilan 15 sutkagacha muddatga uy qamog'i;

d) xizmat yillari bo'yicha navbatdagi harbiy unvon berishni 1 yilga kechiktirish;

e) o'rtoqlik or-nomus sudiga topshirish;

j) ko'p yillik xizmati uchun ish haqiga qo'shiladigan foizli ustamadan 6 oygacha muddatga mahrum qilish;

z) qo'mondonlikdan chetlashtirish;

i) harbiy unvoni bir pog'ona pasaytirish;

k) lavozimda pasaytirish;

l) zaxiraga bo'shatish yoki iste'foga chiqarish.

Oliy boshliqlar tarkibiga:

a) ogohlantirish;

b) shaxsiy hayfsan;

v) buyruqda e'lon qilingan hayfsan;

g) ko'p yillik xizmati uchun ish haqiga qo'shiladigan foizli ustamadan 6 oygacha muddatga mahrum qilish;

d) qo'mondonlikdan chetlashtirish;

e) zaxiraga bo'shatish yoki iste'foga chiqarish [1].

SSSR Qizil Armiya harbiy xizmatchilari uchun ikkinchi jahon urushi davrida harbiy tribunallar ham tashkil qilingan bo'lib, Qizil Armiya intizomiy Nizomining 15-bandiga ko'ra "harbiy tribunallarda o'rta, katta va yuqori mansabli zobitlarni sudlash faqat Mudofaa xalq komissarining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin"ligi [1] belgilangan.

SSSR Qizil Armiya intizomiy Nizomiga ko'ra harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari intizomiy vakolatli mansabdor shaxslar toifalariga ko'ra taqsimlangan.

Qizil armiya harbiylarining intizomiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri intizomiy jazolarni ijro etishni kechiktiruvchi holatlarning belgilanganligi bo'lib, unga ko'ra harbiy xizmatchilarning *kasalligi va uning oilasidagi og'ir sharoitlar* [1] intizomiy jazolarni ijro etishni kechiktiruvchi holatlar sifatida belgilangan.

1941-yil 15-iyulda Qizil Armiya Bosh Siyosiy Boshqarmasi 081-sonli direktivasida urushning uch haftasidagi partiyaviy-siyosiy ishlarning natijalarini sarhisob qilib, qo'mondonlar va siyosiy idoralardan *"komandirning buyrug'isiz xizmat joyini tark etish jinoyat ekanligini har kuni tushuntirilishini talab qildi ..."vahima qo'zg'atuvchilar, qo'rqoqlar, qochqinlar va provokatsion mish-mishlarni tarqatuvchilarga... Qo'mondonlardan Intizom nizomining 7-bandiga asosan zarur hollarda qurol qo'llashni talab qilsinlar"* [2]

Ta'kidlash joizki, SSSR Qizil Armiya intizom Nizomining 7-bandiga ko'ra "*Agar komandir buyruqqa bo'ysunmaganlarni majburlash hamda intizom va tartibni tiklash uchun kuch yoki qurol ishlatishga majbur bo'lsa, buning oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday hollarda qat'iylik va keskinlik ko'rsatmagan va buyruqni bajarish uchun barcha choralarni ko'rmagan komandir harbiy tribunal sudiga topshiriladi*" [2] deb belgilangan bo'lib, urush davrida harbiy xizmatchilar orasida intizomni saqlash maqsadida kuch yoki qurol ishlatishning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

Tarixiy ma'lumotlar urushning dastlabki davrida Intizom Nizomining 7-bandiga ko'ra qo'mondonlar tomonidan intizomiy jazolar o'rniga qurol ishlatish holatlari ancha ko'p kuzatilganligini ko'rsatmoqda.

Masalan, Janubi-G'arbiy front Siyosiy targ'ibot boshqarmasining 1941-yil 26-iyundagi ma'lumotnomasida shunday deyiladi: *"Ayrim komandirlar va qizil askarlar orasida vahima faktlari to'xtamayapti... Chaqiriluvchilarning intizomi va jangovar ko'nikmalarini oshirish uchun bir qator shoshilinch tadbirlar o'tkazilmoqda, dezertirlarga nisbatan urush davri choralari qo'llanilmoqda. 41-o'qchi diviziyada 1941-yil 22-iyundan 25-iyungacha qo'rqoqligi va dezertirligi uchun boshliqlar tomonidan 10*

nafar qizil askar otib tashlandi. Bu harakatlar shaxsiy tarkibning umumiy ma’qullashiga sabab bo‘ldi. Jangchilar va komandirlar: dushmanlar va qo‘rqoqlarni shafqatsizlarcha yo‘q qilish kerak, deb da’vo qilmoqdalar”.[3]

Biroq, urush boshlanganidan bir necha oy o‘tgach, majburlov choralarini qo‘llashning ommaviy amaliyoti va harbiy intizomga ta’sir ko‘rsatishning boshqa intizomiy shakllarining deyarli yo‘qligi yomon oqibatlarga olib kela boshladi. Shu sababli 1941-yil 4-oktyabrda *“ayrim qo‘mondonlar va komissarlar tomonidan o‘z qo‘l ostidagilarga nisbatan noqonuniy qatag‘onlar va hokimiyatni qo‘pol ravishda suiste’mol qilish”* holatlari ko‘payib borayotgani munosabati bilan Mudofaa xalq komissarining “Tarbiyaviy ishlarni qatag‘onlar bilan almashtirish faktlari to‘g‘risida”gi 0391-sonli buyrug‘i chiqarildi.[4]

Ushbu hujjatda asossiz qatag‘on holatlari qayd etilib, noqonuniy otuvlar, o‘zboshimchalik va qo‘mondonlar va komissarlar tomonidan qo‘l ko‘tarish irodasizlikning namoyon bo‘lishi, harbiy intizom va qo‘shinlarning siyosiy-axloqiy holatining pasayishiga olib kelishi ta’kidlangan. Harbiy bo‘linmalarda tarbiyaviy ishlarni tiklash, kundalik tushuntirish ishlarini ma’muriyatchilik va qatag‘onlar bilan almashtirmaslik, noqonuniy qatag‘onlar, qo‘l ko‘tarish va samosud qilish hodisalariga qarshi qat’iy kurashish talabi ilgari surildi.

Shuningdek, bunday hodisalar “Qizil Armiyada intizomiy amaliyotni buzish, berilgan huquqlar va hokimiyatni suiiste’mol qilishning chidab bo‘lmas usullari” deb e’lon qilindi. Janubi-G‘arbiy frontda 1941-yil 12-dekabrdagi 0029-sonli “Ayrim qism komandirlari tomonidan o‘z qo‘l ostidagilarga nisbatan hokimiyatni suiiste’mol qilish, o‘zboshimchalik bilan otish va kuch ishlatish holatlari to‘g‘risida”gi buyruq chiqarildi va unda ko‘rsatilgan jinoyatlar harbiy intizomni buzish sifatida belgilandi.[3]

Ichki ishlar xalq komissari o‘z navbatida *“SSSR Xalq Komissarligining 1941-yil 4-oktyabrdagi 0391-sonli “Tarbiyaviy ishlarni qatag‘onlar bilan almashtirish faktlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i qat’iy bajarilishini e’lon qildi.”[3]*

Ushbu buyruqlardan ko‘zlangan asosiy maqsad harbiylar orasida intizomiy huquqiy munosabatlarni yanada mustahkamlash, ularga nisbatan qonuniy intizomiy jazo choralarini qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish edi.

N.V.Borodinning fikricha. *“0391-sonli buyruq talablari 1940-yilgi Intizom nizomiga muvofiq intizomiy amaliyotni qayta tiklagan”*[5].

Ushbu buyruqdan keyin Qizil Armiya harbiylari orasida 1940-yilgi Intizom Nizomi talablari asosida rag‘batlantirish va intizomiy jazolar qo‘llanilganligini kuzatishimiz mumkin.

Masalan, “324-o‘qchi diviziyaning 1043-o‘qchi polkida 1942-yil mart oyida shaxsiy tarkibga quyidagi jazolar qo‘llanilgan: hayfsan - 29, navbatdan tashqari naryad - 13, hibsga olish – 105 ta”.[3] “31-o‘qchi brigadada 1942-yil yanvar-aprel oylari uchun e’lon qilingan 492 ta jazodan: hayfsan - 132, navbatdan tashqari naryad - 180, hibsga olish - 171 ta [3].”ni tashkil qilgan.

Lekin keyinchalik frontda vaziyatning keskin o‘zgarib borishi, nemis harbiylarining Moskva ostonalariga yetib kelish xavfining mavjudligi harbiylar orasida intizomni mustahkamlash maqsadida keskin choralar ko‘rishni taqozo qilaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, Mudofaa xalq komissarligining 1942-yil 28-iyuldagi 227-sonli *“Qizil Armiyada intizom va tartibni mustahkamlash hamda jangovar pozitsiyalardan o‘zboshimchalik bilan chekinishni taqiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi mashhur buyrug‘ini chiqarildi. Adabiyotlarda bu buyruq ko‘pincha *“Bir qadam ham orqaga chekinmang!”* deb atalgan.[6]

S.G. Lisenkovning fikriga [7] ko‘ra Mudofaa xalq komissarligining 227-sonli buyrug‘i intizomiy va jinoiy javobgarlik belgilarining yaqinlashishini yaqqolroq ko‘rsatdi. Muallifning fikricha, mazkur buyruq harbiy-siyosiy rahbariyatning harbiy intizomni buzuvchilarga nisbatan keskin jinoiy jazo choralarini qo‘llashdan chekinish yo‘lidagi navbatdagi qadami bo‘lib, dushman tajribasiga ko‘ra, “qo‘rqoqlik yoki beqarorlik tufayli intizomni buzishda aybdor bo‘lgan” harbiy xizmatchilar uchun maxsus jarima bo‘linmalarini joriy etish orqali amalga oshirilgan.

227-sonli buyruqda shunday deyilgan edi: *“Qizil Armiya tazyiqi ostida qishki chekinishdan so‘ng, nemis qo‘shinlarida tartib-intizom zaiflashganda, nemislar tartib-intizomni tiklash uchun ba’zi qattiq choralarni ko‘rdilar, bu esa yaxshi natijalarga olib keldi. Ular qo‘rqoqlik*

yoki beqarorlik tufayli intizomni buzishda aybdor bo'lgan jangchilardan 100 dan ortiq jazo rotalarini tuzib, ularni frontning xavfli uchastkalariga joylashtirdilar va ularga o'z gunohlarini qon bilan yuvishni buyurdilar. So'ngra ular qo'rqoqligi yoki beqarorligi tufayli intizomni buzgan komandirlardan o'nga yaqin jazo batalonlari tuzdilar, ularni ordenlaridan mahrum qilib, frontning yanada xavfliroq uchastkalariga joylashtirdilar va o'z gunohlarini qon bilan yuvishni buyurdilar... Ma'lumki, bu tadbirlar o'z ta'sirini ko'rsatdi va endi nemis qo'shinlari qishda jang qilganlaridan ko'ra yaxshiroq jang qilmoqdalar..."[8]

Tarixiy manbalarga tayanadigan bo'lsak, Qizil Armiyada tuzilgan jazo batalonlari aslida ikkinchi jahon urushi davrida tuzilgan nemislarning "Strafbataillon" [10] ("999" batalon)lari modelida tuzilganligini ko'rishimiz mumkin.

1942-yil 26-sentabrdagi "Harakatdagi armiyaning jazo batalonlari va rotalari to'g'risidagi" nizomga muvofiq, *"qo'rqoqlik yoki beqarorlik tufayli intizomni buzishda"* aybdor bo'lgan harbiy xizmatchilar yozma buyruq asosida bir oydan uch oygacha bo'lgan muddatga [6] intizomiy tartibda ushbu bo'linmalarga yuborilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, urush davrida harbiy xizmatchilarni jazo batalonlariga yuborish jazo chorasi uchun asos harbiylarning "qo'rqoqlik yoki beqarorlik tufayli intizomni buzish" deb belgilangan bo'lsa-da, bu harbiy boshqaruv organlari mansabdor shaxslari tomonidan turlicha talqin qilinganligi, askar yoki serjantlar harbiy intizomni arzimas darajada buzganligi uchun *("safda qimirlash" "sifatsiz tushlik tayyorlash" va shu kabilar)* jazo batalyonlariga yuborilganligiga oid ma'lumotlar tarixiy manbalarda aks etgan.

Masalan, Qizil Bayroqli Boltiq floti tashkiliy-saf boshqarmasi boshlig'ining 1943-yil 20-apreldagi sirkulyarida harbiy xizmatchilar *"muntazam intizomsizligi va halol xizmat qilishni istamasligi uchun"* jazo rotalariga yuborilayotganiga e'tibor qaratilgan [10].

S.G. Lisenkovning fikriga ko'ra, jarima bo'linmalariga jo'natish shaklidagi intizomiy javobgarlikning rasmiy qo'llanilishi deganda ko'proq harbiy xizmatchilarning jinoiy javobgarligi nazarda tutilgan, jarima bo'linmalari esa harakatdagi armiyada intizom va tartibni saqlash uchun mo'ljallangan davlat jazo tizimining tarkibiy elementi bo'lgan.[7]

G.F. Krivoshev boshchiligidagi mualliflar jamoasining statistik tadqiqotiga ko'ra, butun urush davomida 427 910 kishi jarima batalonlari va rotalariga yuborilgan, [11] V.P. Zakolodniy ma'lumotlariga ko'ra, 1942-yilning ikkinchi yarmidan urush tugagunga qadar 284 172 kishi hukmni kechiktirib ijro etish bilan ozodlikdan mahrum etilganligini [12] ko'rishimiz mumkin.

Keyinchalik harbiy xizmatchilarning intizomiy nojo'ya xatti-harakatlari uchun jinoiy ta'sir ko'rsatishning urush boshida hukmron bo'lgan amaliyotidan voz kechish maqsadida bir qator choralar ko'rilgan. Jumladan, 1942-yil 26-avgustda Adliya xalq komissari "Harbiy tribunallarning 1942-yil 28-iyuldagi 227-sonli buyrug'ni hayotga tatbiq etish bo'yicha vazifalari to'g'risida" buyruq chiqardi. Buyruqda harbiy tribunallarning raislari va a'zolaridan *"intizomiy ta'sir choralari va 227-sonli buyruqda nazarda tutilgan choralar (jazo rotasiga yuborish va boshqalar) ko'rilishi mumkin bo'lgan ko'plab shaxslarni umumiy hukm qilish amaliyotini tugatish"* talab qilingan.[13]

Urushning 2-davrida jazo batalonlariga yuborish asoslariga aniqlik kiritilib, uning huquqiy asoslari qat'iy belgilab berildi va bunday toifadagi jazo chorasini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar doirasi qisqartirildi.

Jumladan, 1943-yil 21-avgustda Mudofaa xalq komissarining 0413-sonli buyrug'i bilan *"harakatdagi armiya polk komandirlariga va harbiy okruglardagi va harakatsiz frontlardagi diviziya komandirlariga bo'ysunuvidagi serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi shaxslarni "o'zboshimchalik xizmat joyini tashlab ketish, dezertirlik, buyruqni bajarmaslik, harbiy mulkni talon-toroj qilish va o'g'irlash, qorovul xizmatining ustav qoidalarini buzish va boshqa harbiy jinoyatlar uchun, agar bu qilmishlar uchun odatdagi* ***intizomiy ta'sir choralari yetarli bo'lmasa,*** *intizomiy tartibda jarima rotalariga yuborish"* [6] jazosini qo'llash vakolati berildi. Garnizon boshliqlari qo'lga olingan serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi qochoqlarga nisbatan ham xuddi shunday huquqlarga ega bo'ldilar.

S.A.Pogorelovning fikricha, urushning dastlabki davrlarida harbiy xizmatchilarning intizomiy huquqiy munosabatlari tizimida

intizomiy javobgarlikni amalga oshirishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- frontda harbiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashda qo‘mondonlik tarkibining harbiy xizmatchilarning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatishning cheklangan miqdordagi huquqiy shakllari va vositalaridan foydalanish o‘rniga keskin majburlov choralarini qo‘llashga moyilligi;

- vahima, dezertirlik, qo‘rqoqlik, o‘z a’zolariga shikast yetkazish, jangovar faoliyatdan bo‘yin tovlash holatlariga ommaviy otishlarni qo‘llash orqali chek qo‘yish, jazoni ijro etish vaqtini huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtga imkon qadar yaqinlashtirish;

- dastlab jinoiy javobgarlikning intizomiy javobgarlikdan ustuvorligi, harbiy harakatlar maydonida jangovar vaziyat barqarorlashgani sayin asta-sekin “huquqlarining tiklanishi”;

- harbiy intizom darajasini huquqiy tartibga solishda harbiy boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qilish organlarining vakolatlarini favqulodda tarzda sezilarli darajada kengaytirish, ularga suddan tashqari tartibda alohida yuridik javobgarlik choralarini belgilash va qo‘llash huquqini berilishi [14] kuzatilgan.

Bundan tashqari S.A.Pogorelovning ta’kidlashicha, “ikkinchi jahon urushining 2-davrida harbiy intizomni mustahkamlash va intizomiy huquqiy munosabatlarni barqarorlashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- urush boshida hukmron bo‘lgan jinoiy jazo amaliyotidan voz kechish;

- ayrim huquqbuzarliklarni intizomiy nojo‘ya xatti-harakatlar yoki harbiy jinoyatlar qatoriga kiritish va jazolash tartibini belgilash masalalarini hal qilishda harbiy qo‘mondonlikning huquqlarini kengaytirish;

- oddiy askarlar va kichik boshliqlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarni jarima bo‘linmalariga, shu jumladan intizomiy tartibda yuborishning qonuniy asoslarini kengaytirish, shu munosabat bilan armiyada sudlanganlik holatlarini kamaytirish;

- urushning birinchi davri qiyinchiliklarini yengib o‘tish bilan jazoning sodir etilgan huquqbuzarlikka mutanosibligi tamoyilini izchillik bilan hayotga tatbiq etish”. [14]

Xulosa qilishimiz mumkinki, Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarligi bilan bog‘liq munosabatlar bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan,

- urush davrida harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarligiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normalar (Intizom nizomi) talablaridan chetga chiqish holatlarining kuzatilishi, jazo choralari qonuniylik va insonparvarlik prinsiplariga zid tarzda qo‘llanilganligi;

- jangovar vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning intizomiy nojo‘ya xatti-harakatlari uchun jinoiy jazo elementlaridan ommaviy tarzda foydalanilganligi;

- urush davrida intizomiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning urush maydonida yuzaga kelgan jangovar vaziyatning xususiyatiga bog‘liq holda qabul qilinganligini kuzatishimiz mumkin.

Аннотация. В статье анализируются дисциплинарная ответственность военнослужащих СССР в военное время, подходы, применявшиеся для поддержания воинской дисциплины, нормативно-правовые основы, виды дисциплинарных взысканий и их влияние на деятельность военнослужащих.

Ключевые слова: Вторая мировая война, дисциплина, дисциплинарный проступок, дисциплинарная ответственность, дисциплинарные взыскания, уголовное наказание, штрафные батальоны, Дисциплинарный устав..

Annotation. The article analyzes the disciplinary accountability of USSR military personnel during wartime, examining the approaches applied to maintain military discipline, the regulatory and legal foundations, types of disciplinary punishments, and their impact on the activities of service members.

Key words: World War II, discipline, disciplinary misconduct, disciplinary responsibility, disciplinary punishments, criminal punishment, penal battalions, Disciplinary Statute,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дисциплинарный Устав Красной Армии. – М.: Воениздат НКО СССР, 1941. – 32 с.
2. Русский архив: Великая Отечественная. – Т. 17-6 (1-2). – М.: Терра, 1996. – 672 с.
3. Центральный архив Министерства обороны Российской Федерации.
4. Русский архив: Великая Отечественная: Приказы народного комиссара обороны СССР 22 июня 1941 г. – 1942 г. – Т. 13 (2-2). – М.: Терра, 1997. – 448 с.
5. Бородин, Н. В. Укрепление воинской дисциплины в отечественной армии (исторический опыт). – М.: Изд-во Военного университета, 2000. – 184 с.
6. Русский архив: Великая Отечественная: Приказы народного комиссара обороны СССР 22 июня 1941 г. – 1942 г. – Т. 13 (2-2). – М.: Терра, 1997. – 448 с.
7. Лысенков, С. Г. Правовой статус военнослужащих в период Великой Отечественной войны (историко-правовое исследование) : дис. … докт. юрид. наук. – СПб., 2005. – 472 с.
8. Живая память: Великая Отечественная: Правда о войне : в 3 т. – Т. 1. – М., 1998.
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Strafbataillon
10. Центральный военно-морской архив Российской Федерации.
11. Россия и СССР в войнах XX века. Потери Вооруженных сил (статистическое исследование) / под общ. ред. Г.Ф. Кривошеева. – М., 2001. – 415 с.
12. Заколодный, В. П. Деятельность политорганов в Красной Армии по укреплению военной дисциплины в действующей армии в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.) : дис. ... докт. ист. наук. – М., 1990. – 524 с.
13. Военные трибуналы – органы правосудия в Вооруженных Силах / отв. ред. С.С. Максимов. – М., 1988. – 143 с.
14. С.А. Погорелов Реализация дисциплинарной ответственности военнослужащих в годы Великой Отечественной войны, УДК 344.145, Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России № 1 (65) 2015

О ПОБЕДЕ НАД ФАШИЗМОМ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: ВОСПИТАНИЕ ПАТРИОТИЗМА И СОХРАНЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ

Атаева Рануша Рашидовна,
преподаватели кафедры изучения языков
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Туйчибаева Шахноза Шакировна ,
преподаватели кафедры изучения языков
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается роль преподавания русского языка в высших военных образовательных учреждениях как важного элемента не только образовательного, но и воспитательного процесса. Особое внимание уделяется формированию у курсантов чувства патриотизма, гордости за подвиги предков, передаче исторической памяти о войне 1941–1945 годов, а также преемственности поколений.

Ключевые слова: патриотизм, чувство гордости, подвиги предков, историческая память, преемственность поколений.

Русский язык как учебная дисциплина в высших военных образовательных учреждениях выполняет не только традиционные задачи – развитие четырех видов речевой деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо), – но и служит мощным средством воспитания.

Одной из приоритетных задач преподавателя является формирование у курсантов высоких нравственных качеств, уважительного отношения к истории своей Родины, чувства гордости за героическое прошлое и ответственности за её будущее. Здесь отметим, что особое место в этом процессе занимает тема Победы над фашизмом во Второй мировой войне, которая органично вплетается в структуру учебных занятий по русскому языку. Данная тема имеет образовательно-воспитательный потенциал и предоставляет преподавателю широкие возможности для комплексного развития курсантов, а именно: развитие речевых умений через обсуждение исторических событий, анализ текстов мемуарной и художественной литературы о войне, создание собственных устных и письменных высказываний на военно-патриотические темы, формирование патриотических чувств на основе глубокого осмысления героизма, мужества и самопожертвования защитников Родины, воспитание уважения к истории через передачу исторической памяти молодому поколению, подчеркивание преемственности поколений, где курсанты ощущают себя достойными продолжателями славных традиций старших поколений.

Следовательно, занятия по русскому языку становятся неотъемлемой частью целостного образовательно-воспитательного процесса.

Воспитательный эффект особенно усиливается при использовании различных форм и методов обучения: здесь речь идет как о традиционных, так и современных способах и формах работы. Например, создание презентаций и докладов о героях войны, в том числе о родственниках курсантов; дискуссии и круглые столы на темы: «Что значит быть патриотом сегодня?», «Уроки Великой Победы для современности»; инсценировки и чтение вслух отрывков из произведений о войне; творческие задания: написание эссе «Мой прадед – герой», «Почему я горжусь своей страной», подготовка роликов, выездные мероприятия, походы в музеи.

Такие виды работ позволяют курсантам

не только совершенствовать владение русским языком, но и глубже осознать значение Победы для судьбы страны и мира. Передача исторической памяти о войне – важнейшая миссия преподавателя русского языка, поскольку через язык формируется понимание исторических фактов, эмоциональное сопереживание, осознание масштабов подвига народа.

Особое значение на занятиях имеет учет личностного подхода: привлечение рассказов о родных курсантов, участие в проектах об узбекских героях войны укрепляет связь поколений. Курсанты начинают воспринимать Победу не как абстрактное событие прошлого, а как часть своей личной истории. Другими словами, занятия по русскому языку становятся пространством формирования гражданственности, патриотизма, ответственности за будущее Отечества.

В современных условиях преподаватель русского языка в высшем военном образовательном учреждении несёт особую миссию: обучая неродному языку, передавать молодому поколению духовные ценности, укреплять преемственность поколений, воспитывать чувство гордости за подвиги предков и готовность служить Родине с честью и достоинством.

Предлагаем методические рекомендации по организации занятий на тему войны, в частности – «Победа над фашизмом на занятиях русского языка в высших военных образовательных учреждениях».

Образовательно-воспитательные цели: развитие всех видов речевой деятельности на материале военно-патриотической тематики; воспитание у курсантов патриотизма, чувства гордости за героизм своего народа; передача исторической памяти о Второй мировой войне; формирование у курсантов уважительного отношения к подвигу предков и готовности служить Родине.	**Основные принципы:** личностно-ориентированный подход (акцент на связь с семьей, родными героями); опора на аутентичные источники (фронтовые письма, мемуары, воспоминания); интеграция развития речевых умений и воспитательных задач; эмоциональное вовлечение курсантов через сопереживание.	**Формы и методы работы:** работа с текстами и аудио/видео материалами о войне; круглые столы; сочинение, эссе, творческие работы; проектная деятельность; устные рассказы о героях своей семьи; инсценировки фрагментов произведений.

Примерные задания:

1. Прочитайте тексты [1]: Герои Советского Союза из Узбекистана. Выполните следующие задания: а) Подчеркните ключевые слова; б) Сформулируйте 3 вопроса; в) Составьте план пересказа.

Тураев Джуракул. Родился в 1922 году в кишлаке Калия Джизакского района. Узбек. В Советской Армии с 1941 года. Призван Джизакским райвоенкоматом Самаркандской области. Младший сержант, наводчик орудия 2-й батареи 1007-го легкого артиллерийского полка 46-й легкой артиллерийской бригады. Награжден медалью «За отвагу». За отвагу и героизм в боях Великой Отечественной войны, Указом Президиума Верховного Совета СССР от 29 марта 1944 года младшему сержанту Тураеву Джуракулу было присвоено звание Героя Советского Союза.

Рудаков Николай Яковлевич. Родился в 1906 году в Коканде. Русский. В Советскую Армию призван в 1941 году Московским горвоенкоматом. Гвардии майор, командир 202-го гвардейского стрелкового полка 58-й гвардейской стрелковой дивизии. Награжден орденом Красного Знамени.

За умелое форсирование реки Днепр, Указом Президиума Верховного Совета СССР от 23 октября 1943 года присвоено звание Героя Советского Союза.

Саидбеков Амир-Али. Родился в 1920 году в Раване Сохского района Ферганской области. Таджик. Работал учителем в Сохском районе. В Советской Армии с 1939 года. Гвардии старший лейтенант, командир стрелковой роты 325-го гвардейского стрелкового полка 129-й гвардейской стрелковой дивизии. Награжден двумя орденами Отечественной войны I и II степени, орденом Красной Звезды. За отвагу и смелость за бесстрашие в бою и самоотверженное служение Родине Указом Президиума Верховного Совета СССР от 29

июля 1945 года гвардии старшему лейтенанту Саидбекову Амир-Али было посмертно присвоено звание Героя Советского Союза.

Салихов Гатаулла. Родился в 1924 году. Татарин. В Советскую Армию призван в 1942 году Ургенчским райвоенкоматом Хорезмской области. Сержант, командир стрелкового отделения 518-го стрелкового полка 129-й стрелковой дивизии. За личную отвагу, инициативу, мужество и героизм Указом Президиума Верховного Совета СССР от 27 августа 1943 года сержанту Салихову Гатаулле был присвоено звание Героя Советского Союза.

2. Творческие задания: а) Напишите письмо ветерану Второй Мировой войны, выразив благодарность за Победу и рассказав, почему вы гордитесь своим народом; б) Напишите эссе на тему «Что значит для меня быть патриотом сегодня?»

3. Проектная деятельность: «Герои моей семьи» – а) Найдите информацию о родственниках, участвовавших в войне; б) Подготовьте презентацию; в) Напишите небольшой рассказ о герое своей семьи. (Если сведений о родных нет, можно выбрать любого героя войны из числа узбекских участников и рассказать о нём); в) Подготовьте видеоролик на тему «Экскурсия в Парк Победы».

В условиях современного образования особенно важным является подход, при котором систематическая работа является основой воспитания и обучения курсантов. Изучение истории на неродном языке – на занятиях русского языка – в высших военных образовательных учреждениях должно быть не разовым, эпизодическим процессом, а планомерной и последовательной деятельностью, направленной на развитие не только языковых навыков, но и на формирование высоких нравственных качеств, патриотического сознания и уважения к историческому наследию своей страны. Систематическая работа в данном контексте включает в себя несколько ключевых элементов:

занятия должны быть организованы так, чтобы они охватывали не только различные аспекты языка (слушание, говорение, чтение и письмо), но и были направлены на воспитание у курсантов чувства гордости за свою страну, её героическое прошлое и стремление служить Родине. Включение военно-патриотической тематики в учебные занятия должно происходить на протяжении всего курса, а не только в отдельных случаях;

преподавание должно быть органично интегрировано в учебный процесс, где русский язык выступает не только как средство общения, но и как инструмент передачи моральных и патриотических ценностей. Это означает, что преподаватель должен систематически и последовательно использовать темы, связанные с историей Второй Мировой войны, подвигами героев, сохранением исторической памяти и преемственностью поколений;

на каждом занятии курсант должен получать возможность для глубокой рефлексии, сопереживания и осознания значимости Победы, значения исторической памяти для будущих защитников Отечества.

Использование различных форм обучения: разнообразие методов позволяет более эффективно охватывать различные аспекты образовательного и воспитательного процесса: методы, которые включают инсценировки, чтение произведений о войне, подготовку презентаций и видеороликов, способствуют не только развитию речевых навыков, но и эмоциональному вовлечению курсантов в процесс осмысления исторических событий. Эмоциональное восприятие информации усиливает её запоминаемость и способствует более глубокому восприятию; работа с реальными текстами (фронтовыми письмами, воспоминаниями, мемуарами) помогает курсантам проникнуться атмосферой тех времен. Аутентичные материалы создают особую связь с историей и помогают понять её не через абстрактные данные, а через реальные человеческие судьбы; задания, такие как написание эссе, проектная работа на темы «Герои моей семьи» или создание презентаций о героях войны, позволяют курсантам работать с материалом глубже и личностно. Это способствует лучшему осмыслению значимости Победы и вовлекает курсантов в активную работу по передаче исторической памяти. Такие задания способствуют не только патриотическому воспитанию, но и развитию творческих способностей.

Таким образом, названные в статье методы и формы работы, такие как использование аутентичных исторических

источников, проектная деятельность, творческие задания, а также эмоциональное вовлечение курсантов, являются наиболее эффективными, поскольку они способствуют не только улучшению языковых навыков, но и формированию у курсантов высокой правовой культуры, патриотизма и ответственности за будущее своей страны. Важно, чтобы эта работа систематической, только тогда она принесет положительный результат.

В заключение можно отметить, что преподавание русского языка в высших военных образовательных учреждениях не только способствует развитию речевых навыков, но и играет важнейшую роль в воспитании у курсантов патриотизма и уважения к историческому наследию своего народа. Тема Победы над фашизмом, освещенная через биографии героев, позволяет передавать историческую память, углублять понимание таких понятий, как долг, честь и ответственность перед Родиной. Процесс изучения русского языка становится неотъемлемой частью общего воспитательного процесса, в котором значительное место занимает вовлечение курсантов в анализ и осмысление подвигов предков. Это не просто развитие лексических и грамматических навыков, но и формирование глубокой гражданской позиции, основанной на уважении к законам и моральным ценностям.

Итак, использование исторической тематики в преподавании русского языка позволяет развивать у курсантов навыки общения, способствует укреплению их патриотического сознания, формированию правовой культуры и ответственности за будущее своей страны. Задания, связанные с изучением героического прошлого, развивают речи, помогают почувствовать единство с историей, стать настоящими патриотами и защитниками своей Родины.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalarida rus tilini o‘qitishning nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy jarayonning muhim elementi sifatidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, kursantlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, ajdodlar qahramonliklari bilan faxrlanish, 1941–1945 yillardagi urush haqidagi tarixiy xotirani uzatish va avlodlar davomiyligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi.
Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, faxr tuyg‘usi, ajdodlar qahramonliklari, tarixiy xotira, avlodlar davomiyligi.
Annotation. This article will consider the role of teaching the Russian language in higher military educational institutions as an important element of not only the educational, but also the educational process. Particular attention is paid to the formation of a sense of patriotism in cadets, pride in ancestral heroism, the transmission of historical memory of the war of 1941-1945 and the continuity of generations.
Key words: patriotism, sense of pride, ancestral heroism, historical memory, continuity of generations.

Использованная литература:

1. https://mytashkent.uz/2018/05/01/geroi-sovetskogo-soyuza-iz-uzbekistana-srazhavshiesya-v-vov/

MUSODARA ETILGAN JINOIY AKTIVLARNING QAYTARILISHI: IKKINCHI JAHON URUSHIDAN ZAMONAVIY XALQARO AMALIYOTGACHA

Zokirov Botirjon Pulatxo‘jayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada musodara etilgan jinoiy aktivlarni qaytarish va qayta taqsimlash jarayonlari huquqiy hamda tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan va noqonuniy olib chiqilgan jinoiy aktivlarni mamlakatga qaytarish masalalari, hozirga qadar ular bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ushbu jarayonlarning shaffofligi, fuqarolik jamiyatining o‘rni, kelgusida soha samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, Nyurenburg tribunal, state-sponsored plunder, kompensatsiya, jinoiy aktiv, restitutsiya, musodara qilingan aktivlarni bo‘lish, Shveysariya tajribasi, shaffoflik va hisobdorlik, benefitsiari, fuqarolik jamiyati.

Ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyingi yillarda katta miqdordagi mol-mulk, san’at asarlari va boshqa boyliklar natsistlar tomonidan talon-toroj qilingan va boshqa davlatlarga olib ketilgan. Urushdan keyin bu aktivlarning qaytarilishi xalqaro huquq amaliyotida birinchi bor keng ko‘lamda ko‘rib chiqilgan va hozirgi zamonaviy aktivlarni qaytarish mexanizmlariga asos bo‘lgan.

Jumladan, 1945–1946 yillarda o‘tkazilgan Nyurnberg tribunali — Ikkinchi jahon urushi davridagi eng yirik xalqaro sud jarayoni bo‘lib, natsistlar Germaniyasining yuqori martabali rahbarlari ustidan adolat qaror topgan tarixiy voqea hisoblanadi. Tribunalda urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar, tinchlikka qarshi jinoyatlar va talon-toroj (ya’ni, bosib olingan hududlardagi mol-mulkni noqonuniy musodara qilish) [14] masalalari ko‘rib chiqilgan.

Nyurenburg tribunalida bosib olingan hududlarda olib borilgan iqtisodiy ekspluatatsiya va ommaviy talon-toroj amaliyotlari urush jinoyatlari tarkibiga kiritilgan. Natsistlar tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va moddiy boyliklarni o‘zlashtirish – fuqarolar, davlatlar va diniy tashkilotlarga qarashli mulklarning noqonuniy musodara qilinishi qat’iy qoralangan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra san’at asarlari, qimmatbaho metallar, valyuta va bank aktivlari Fransiya, Belgiya, Polsha, Niderlandiya kabi bosib olingan davlatlardan Germaniyaga olib ketilgan. Tribunal qarorida bunday turdagi aktivlar “davlat homiyligidagi o‘g‘irlik” (state-sponsored plunder) sifatida baholangan.[13]

Tribunal qarorlarida ilk marotaba “restitutsiya” va “kompensatsiya” tushunchalari tarixda ilk marotaba xalqaro huquqiy amaliyotga kiritildi. [12]

1944-yilda tashkil qilingan Inter-Allied Commission on the Restitution of Cultural Material (Madaniy merosni muhofaza qilish va tiklash komissiyasi) tribunal qarorlari asosida faoliyat yurita boshladi.[11]

Nyurenburg tribunalida talon-toroj qilingan aktivlarga doir qabul qilingan qarorlar nafaqat tarixiy adolatni tiklashga xizmat qildi, balki keyingi yillarda jinoyiy aktivlarni qaytarish va musodara qilish bo‘yicha xalqaro huquqiy mexanizmlarning shakllanishiga asos bo‘ldi. Bugungi kunda korrupsiya va boshqa transmilliy jinoyatlar natijasida orttirilgan aktivlarning qaytarilishi aynan Nyurenburg tribunalida yaratilgan tamoyillarga asosida olib borilmoqda.

Korrupsion jinoyatlar oqibatida talon-toroj etilib, legallashtirilgan, xorijiy davlatlarga chiqarilgan aktivlarni musodara qilish va ularning restituitsiyasi BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Konvensiyasining asosiy vazifalaridan biri ushbu aktivlarni musodara qilish va talon-toroj etilgan mamlakatga qaytarishdir. Shu sababli, aktivlarni qaytarishda, ularni qayta korrupsion sxemalar ta’siriga tushib qolishini oldini olish maqsadida, realizatsiya jarayonlarida shaffoflikni ta’minlash lozim. Chunki jinoyatlarning asl jabrlanuvchilari mamlakatlarning xalqidir. Xalqaro fuqarolik jamiyatlari mazkur yo‘nalishda ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishgan. Xususan, 2017-yilda 25 yurisdiksiya davlatlari ishtirokida o‘tkazilgan aktivlarni qaytarish bo‘yicha global forumida (GFAR) aktivlarni qaytarish jarayonlarida

shaffoflikni ta'minlovchi 10 ta prinsip qabul qilingan bo'lib, ular asosiylari quyidagilardan iborat [4]:

4-prinsip: shaffoflik va hisobdorlik. Aktivlarni qaytarayotgan va qabul qilayotgan davlatlar qaytarish jarayonlari va mablag'larni sarflanishida shaffoflik va hisobdorlikni kafolatlaydilar. Aktivlarni qaytarish va ularni taqsimlash jarayonlari haqida ma'lumotlar qaytarayotgan va qabul qilayotgan davlatlarda ham barcha uchun ochiq bo'lishi lozim. Qaytarilgan aktivlarni noqonuniy sarflanishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

5-prinsip benifitsiarlar: korrupsion jinoyatlar oqibatida orttirilgan va qaytarilgan mablag'lar ushbu davlatlar xalqiga foyda keltirishi lozim.

6-prinsip: korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish va rivojlantirish masalalari: musodara etilgan mablag'lardan foydalanishda BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi prinsiplarini bajarilishiga mos kelishini ham e'tiborga olish lozim.

9-prinsip: jinoyatchilarga foyda keltirishni oldini olish lozim: Musodara etilib, qaytarilayotgan aktivlar mazkur jarayonlarda noqonuniy boylik orttirishni ko'zlaganlar qo'liga tushishini oldini olish lozim.

10-prinsip: hukumatdan tashqari manfaatdor tomonlarni jalb etish: aktivlarni qaytarish va tasarruf etish jarayonlari shaffof va qonuniy amalga oshirilishi ta'minlash maqsadida, hukumatdan tashqari, fuqarolik jamiyatining vakillari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, shu kabi shaxslarni qonun doirasida jalb etishni doimiy rag'batlantirish lozim.

Mazkur prinsiplarni amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekiston Respublikasidan chiqarilgan taxminiy qiymati 1.2 mlrd. AQSh dollarini qaytarishda foyda keltirishi mumkin. Ushbu aktivlarning asosiy qismi Shveysariya banklariga joylashtirilgan bo'lib, hozircha Shveysariya tomonidan 340 mln. AQSh dollari musodara qilinib, shundan 313 mln AQSh dollari bo'yicha repatriatsiya jarayonlari ketmoqda [5].

G.Karimovaning ishi bo'yicha Shveysariyada jami 800 mln frank mablag'lar muzlatilgan bo'lib, shundan 340 mln franki bugungi kunda musodara qilingan. Bundan tashqari, AQSh Adliya Departamentining da'vosi bilan 300 mln AQSh dollari Irlandiya, Belgiya va Luksinburg banklarida muzlatilgan. Ushbu da'vo doirasida Latviyada 100 mln AQSh dollarlik, Gonkongda 275 mln. AQSh dollarlik, Buyuk Britaniyada 97 mln. AQSh dollarlik bank hisob raqamlari muzlatilgan [3]. Qayd etilgan holatlar bo'yicha jinoyat ishlari yakunlanmaganligi sababli, ushbu aktivlar musodara etilmagan.

Shveysariya noqonuniy orttirilib, xorijga chiqarilgan aktivlarni qaytarish bo'yicha Global forumning (GFAR) faol ishtirokchisi bo'lib, yuqoridagi qayt etilgan 10 ta prinsiplarning qabul qilinishi tashabbuskorlaridan biridir[6]. Shveysariya mazkur sohada ko'plab davlatlardan oldinda bo'lishiga qaramay, 2005 yilda Shveysariyada Nigeriyaga qaytarilgan 700 mln AQSh dollari va Qozog'istonga qaytarilgan 48 mln. AQSh dollari bo'yicha restitutsiya jarayonlari fuqarolik jamiyatida ko'plab tanqidlarga sabab bo'ldi. Ushbu jarayonlarda dastavval Shveysariya hukumati aktivlarni qaytarish va tasarruf etish masalalarini yuritishni topshirgan Jahon bankining faoliyati tanqidga uchradi [7].

2007 yilda "Kazaxgeyt" ishi bo'yicha musodara qilinib, qaytarilgan 115 mln AQSh dollari bo'yicha aktivlarni qaytarish masalalariga nisbatan fuqarolik jamiyati tomonidan ijobiy tasniflangan bo'lib, ushbu jarayonlarga o'sha vaqtda Qozog'iston prezidenti N.Nazarbaoev boshchilik qilgan. Mazkur repatriatsiya jarayonlari bo'yicha Jahon banki tomonidan "Bota" fondi tashkil etilib, o'tkazilgan tandirlar asosida ikki nodavlat tashkilotlar "Save the Children" va "IREX" qaytarilgan aktivlarni qayta taqsimlanishi amalga oshirdi. Qaytarish jarayonlarining kamchiliklaridan biri bu ma'muriy va tashkiliy masalalardagi foiz ko'rsatkichi baland bo'lganligi bo'lib, umumiy qaytarilayotgan summaning 20% ni qayd etilgan ikki nodavlat tashkilotlar va Jahon banki hissasiga to'g'ri kelgan. Lekin asosiy mablag'lar aholining ijtimoiy nochor qismi va nochor oilalardagi bolalar ta'minoti uchun sarflangan. Bevosita joylardagi qayta taqsimlash masalalariga esa mahalliy nodavlat tashkilotlar ham jalb etilgan[8].

Ikkinchi marotaba Qozog'istonga qaytarilgan 48 mln. AQSh dollari musodara qilgan aktivlarning egasini nomini oshkor qilmaslik sharti bilan tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan xatlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, noqonuniy orttirilgan aktivlarning egasi Nazarboyev klaniga taalluqli shaxslar bo'lishi mumkin. Mazkur mablag'larni qaytarish masalalariga ham Shveysariya hukumatining topshirig'i bilan Jahon banki boshchilik qilgan bo'lsa ham, lekin oldingi safargidek taqsimlash va tasarruf etish masalalariga mas'ul fond tashkil etilmadi. Buning asosiy sabablaridan biri Qozog'iston hukumatining tashabbusi edi [9]. Shundan so'ng, Shveysariya hukumati va Jahon banki Dariga Nazarboeva tomonidan nazorat

qilinuvchi “Gongo” tashkilotini qaytarish va taqsimlash masalalariga mas’ul qilib belgilashdan boshqa iloji qolmadi. Mazkur tashkilot bevosita joylarda qayta taqsimlash masalalarini hukumat tomonidan nazorat qilinuvchi o‘ziga aloqador bo‘lgan mahalliy tashkilotlarga topshirdi. Natijada manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga keldi, ya’ni qaytarilgan mablag‘lar ularni talon-toroj qilgan shaxslarga aloqador bo‘lganlar qo‘liga tushib qoldi. Mazkur holat Global forum (GFAR) tomonidan qabul qilingan 9 prinsipga zid bo‘lib, musodara qilingan mablag‘larini qaytarish jarayonlarida aktivlarni talon-toroj qilganlarning qo‘liga tushib qolmoqda.

Mazkur holatdan so‘ng Kristian Lasslett va Tom Meynlar tekshiruv o‘tkazishib, natijalarni tegishli chora-tadbir belgilash bo‘yicha Shveysariya hukumatiga taqdim etishgan.

Shundan so‘ng, Shveysariya hukumati G.Karimova tomonidan xorijga chiqarilgan mablag‘larni qaytarishda Qozog‘iston bilan bog‘liq oldingi holatlarni inobatga olib, musodara etilgan aktivlarni qaytarishni Jahon bankiga topshirmadi. Shveysariya hukumati kelgusida qayd etilgan quyidagi prinsiplarni inobatga oldi:

- mablag‘larni ishlatilishida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash;
- mablag‘larni aholining ehtiyojlariga sarflanishi;
- aktivlar repatriatsiyasi va tasarrufida fuqarolik jamiyatini vakillarini jalb etish.

Shundan so‘ng, O‘zbekistonga aktivlarni qaytarish masalalari BMT qoshida tashkil etilgan “Ishonch” fondiga topshirildi.

Qayd etilganidan dastlabki musodara qilingan 131 mln AQSh dollari “Ishonch Fondi” shafeligida O‘zbekitsonga qaytarildi. Bugungi kunda ushbu mablag‘larning 67 mln AQSh dollarini sarflanganligi haqida hisobotlar e’lon qilingan, ular :

- ona va chaqaloq o‘limini kamaytirish uchun 43.5 mln AQSh dollari;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan ta’limni rivojlantirishga 23.5 mln AQSh dollari [10].

Qolgan 64 mln. AQSh dollari bo‘yicha Ishon fondi saytida hali biror bir ma’lumotlar joylashtirilmagan. Ishonch fondi saytida 2022 va 2023-yillarda qaytarilgan mablag‘lar bo‘yicha hisobotlar joylashtirilgan bo‘lib, insayderlik ma’lumotlariga ko‘ra, qolgan mablag‘lar o‘rta ta’lim maktablarida gigiena uchun sarflanganligi ta’kidlanib, ular 2024-yil hisobotlarida joylashtirilishi kutilmoqda.

Ayni vaqtda Shveysariya tomonidan O‘zbekistonga musodara etilgan 182 mln. AQSh dollarini qaytarish bo‘yicha kelishuv imzolandi. Mazkur qabul qilingan qaror dolzarb do‘lsa-da, lekin oldingi 131 mln. AQSh dollarining qaytarilishi, taqsimlanishi bo‘yicha amalga oshirilgan batafsil ma’lumotlar yo‘qligi, fuqarolik jamiyati vakillarida ko‘plab savollarga sabab bo‘lmoqda. Qayd etilganidek, Ishonch Fondi saytida mablag‘larning yo‘naltirilgan sohalaridan boshqa ma’lumotlar yo‘q.

Fikrimizcha, noqonuniy chiqarilgan mablag‘larni musodara etish va O‘zbekistonga qaytarish nafaqat iqtisodiy, balki mamlakatimizning siyosiy manfaatlarini ko‘zda tutganligi sababli, kelgusida qaytarilishi lozim bo‘lgan aktivlar korrupsion sxemalarga ta’siriga tushishini oldini olish maqsadida, ularni GFAR prinsiplariga mos ravishda qaytarilayotganligi hamda mazkur jarayonlarda BMT qoshida qaytarishga mas’ul tashkilotlar hamda mahalliy vakillarning harakatlarini shaffofligiga baho berish yuzasidan xalq oldida tegishli hisobdorlik bo‘lishi lozim.

Shu jihatdan muqaddam qaytarilgan 131 mln. AQSh dollari bo‘yicha olingan ma’lumotlardan kelib chiqib, ularning ijobiy va boshqa jihatlarini tahlil etildi.

Ijobiy jihatlar:

- qaytarilgan mablag‘larining 67 mln. AQSh dollari aniq mavjud bo‘lgan xalqning ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratildi (ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish);
- qaytarilgan mablag‘larning qancha qismi qaysi yo‘nalishlarga sarflanayotganligi to‘g‘risida “Ishonch” Fondi orqali ommaga tegishli ma’lumotlar ochiqlandi (shaffoflik prinsipi);
- qaytarish masalalarida fuqarolik jamiyatidan kuzatuv kengashi vakillarining tashkil etildi (fuqarolik jamiyati vakillarining ishtiroki).

Savol tug‘dirishi mumkin bo‘lgan jihatlar:

- Musodara etilgan mablag‘larni qaytarish masalalari ochiq tenderlarsiz, BMTning tegishli tashkilotlari Rivojlanish dasturi (PROON), Bolalarga yordam ko‘rsatish (YuNISEF), Sog‘liqni saqlash (VOZ) va fan va madaniyat bo‘yicha (YuNESKO) tegishli tashkilotlari o‘rtasida taqsimlandi.

Mazkur tashkilotlar xodimlari yuksak tajriba va bilimga ega bo‘lsa-da, lekin aktivlarni qaytarish jarayonlarining administratsiyasi tender orqali o‘tkazilganda, bilim va tajriba ega hamda sifatli va arzon xizmat ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa tashkilotlarning vakillari ham qatnashishi mumkin bo‘lar edi (Qozog‘iston tajribasi - Save the Children va IREX)

- Ishonch fondi saytida 2022 va 2023-yillarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlarda aktivlarni qayta realizatsiyasi bo‘yicha mahalliy darajada tenderlar o‘tkazilganligi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, lekin tender jarayonlari qachon o‘tkazilganligi, kimlar qatnashganligi yoxud tenderlar umuman o‘tkazilganmi yoki yo‘qmi degan savollarga javob yo‘q;

- Fuqarolik jamiyati vakillaridan iborat kuzatuvchilar kengashi vakillarining faoliyati yopiqligi yoki mavhumligi. Ya’ni mazkur jarayonlarda fuqarolik jamiyati vakillarini ishtiroki haqida to‘liq ma’lumotlar topish qiyin. Yoxud ularning faoliyatini omma tomonidan kuzatib borishga qaratilgan veb-sahifalar tashkil etilmagan. Vaholanki bugungi kunda “telegram” yoki “Facebook”da bepul sahifa ochib, FJVKKA faoliyati haqida ma’lumotlarni joylab borish mumkin edi.

Bugungi kunda Ishonch fondining faoliyatini yoritib boruvchi veb-sahifada Fuqarolik jamiyati vakillaridan iborat kuzatuvchilar kengashi vakillari to‘g‘risida deyarli ma’lumotlar yo‘q. Birgina ushbu vakillar ro‘yxatini BMTning saytida topish mumkin.

Ochiqlanayotgan ma’lumotlarda ko‘plab mavhumliklar sababli, amalga oshirilgan ishlarda samaradorliklar darajasi ancha past bo‘lib, kelgusida bu kabi ijtimoiy xavfli qilmishlarning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy-profilaktik jarayonlar yoki mamlakatimizning xalqaro imidjiga ta’sir ko‘rsatuvchi masalalar ortda qolmoqda.

- ma’lumotlar yetarli darajada emasligi sababli, hisobdorlik prinsipining amaliyotga tatbiq etilganligi haqida ham biror nima deyish qiyin.

Kelgusida, bu kabi noaniqlarni oldini olish hamda GFAR prinsiplariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida, quyidagilarni tavsiya etish mumkin..

1. 182 mln dollarlik navbatdagi transhni o‘tkazishdan oldin avval birinchi transhdan foydalanish natijalarini tahlil qilish, bunda birinchi transhdan foydalanishda ekspertlar, faollar va umuman jamiyat ushbu natijalarni baholashi va o‘z fikrini bildirishi kerak. Ushbu tahlil GFAR tamoyillari nuqtai nazaridan nima yaxshi va nima yomon ishlashini aniqlashi kerak.

2. “Ishonch” jamg‘armasining veb-saytidagi loyihalar ishlarining borishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar joriy hisobotlar, Kotibiyat va Kuzatuv kengashi majlislarining bayonnomalari, shuningdek, tenderlarning batafsil materiallarini o‘z ichiga olgan holda boyitilishi lozim. Bularning barchasi jamiyat uchun ochiq bo‘lishi kerak.

3. Fuqarolik jamiyati kuzatuv kengashi Jamg‘arma Kotibiyatidan ruxsat olish zaruratisiz mustaqil ravishda boshqaradigan o‘z veb-saytini yaratilishi lozim.. Ushbu veb-saytda kengash faoliyati haqida batafsil ma’lumot joylashtirish kifoya.

4. Kuzatuv kengashining ba’zi a’zolari asosiy ish bilan juda band bo‘lganliklari sababli, Fond Kotibiyati tomonidan maslahat va baholash uchun taqdim etilgan barcha hujjatlar, ayniqsa, o‘tkazilayotgan tenderlarga tegishli hujjatlar bilan tanishish uchun har doim ham yetarli vaqt topa olmaydi. Kengash a’zolarining vaqtini tejash, shuningdek, ularga tenderlar o‘tkazish va korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik masalalarida, loyihalar mavzulariga oid o‘ziga xos masalalarda, Kengashga yordamchi ekspertlar kengashini tuzish uchun imkoniyat va tegishli resurslarni taqdim etish lozim. Bu Kengashga zarur malaka talab qiladigan materiallarni tahlil qilish va baholashda yordam beradi.

5. Shuni ta’kidlash kerakki, Shveysariyaning chet ellik siyosiy ahamiyatga ega shaxslarning mol-mulkini musodara qilish va repatriatsiya qilish bo‘yicha majburiyatlari, shu jumladan, qaytarilgan mablag‘lardan ular kelib chiqqan mamlakatda qonun ustuvorligi va odil sudlovni ilgari surish uchun foydalanishni ham o‘z ichiga oladi.

Biroq “Ishonch” jamg‘armasi materiallarida ushbu majburiyat amalda faoliyat olib borayotganligi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Ko‘rinib turibdiki, Shveysariya va O‘zbekiston o‘rtasida 2022-yil avgust oyida imzolangan qaytarilgan aktivlarni BMT Trast fondi boshqaruviga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimda ham bu haqda hech narsa ko‘zda tutilmagan.

Natijada ikki tomonlama vaziyat yuzaga keldi:

bir tomondan, qaytarilgan mablag‘lar amalga oshirilishiga yo‘naltirilgan BMT dasturi O‘zbekiston aholisining ma’lum ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘z-o‘zidan ma’qullamasdan qolmaydi;

boshqa tomondan, ushbu dastur hozirda qonun ustuvorligini o‘rnatish yo‘lida qadam tashlash deb baholash qiyin. Shuning uchun ham mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan va rejalashtirilgan barqaror deb baholash mushkul. Tegishli institutsional sharoitlar yaratilgandagina bu natijalar shunday bo‘ladi. Buning uchun esa, yeng avvalo, qonun ustuvorligini qaror toptirishga erishish va korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rish zarur.

Аннотация. В данной статье с правовой и исторической точки зрения проанализированы процессы возврата и перераспределения конфискованных преступных активов. Рассмотрены вопросы возвращения в страну незаконно вывезенных преступных активов, проделанная до настоящего времени работа по их возврату, прозрачность этих процессов, роль гражданского общества. Представлены рекомендации, направленные на повышение эффективности данной сферы в будущем.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Нюрнбергский трибунал, государственное расхищение, компенсация, преступные активы, реституция, распределение конфискованных активов, швейцарский опыт, прозрачность и подотчетность, бенефициар, гражданское общество.

Annotation. This article analyzes the processes of returning and redistributing confiscated criminal assets from legal and historical perspectives. It addresses the issues of repatriating illegally exported criminal assets to the country, examines the work accomplished in this area to date, discusses the transparency of these processes, and explores the role of civil society. The article also presents recommendations aimed at enhancing the effectiveness of this field in the future.

Key words: World War II, Nuremberg Tribunal, state-sponsored plunder, compensation, criminal asset, restitution, division of confiscated assets, Swiss experience, transparency and accountability, beneficiary, civil society.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Information on the “Agreement regarding the sharing of forfeited assets” between the Swiss Federal Council and the Government of the Republic of Uzbekistan. Press-release, 06.02.2025, Confédération Suisse;
2. Restitution of illicit assets: Switzerland and Uzbekistan sign agreement, Press releases, 16.08.2022, Confédération Suisse;
3. Только в одной Ирландии было заморожено $285 миллионов/ Department of Justice Case 1:15-cv-05063 Document 1, Filed on 06/29/2015;
4. Global Forum for Asset Recovery Communique, Washington D.C., December 4-6, 2017;
5. Miranda Patrucic. How The President’s Daughter Controlled The Telecom Industry, Organized Crime and Corruption Reporting Project, March 22, 2015;
6. François Membrez and Matthieu Hösli. How To Return Stolen Assets: The Swiss policy pathway, Centre for Civil and Political Rights, 202;
7. Asset Recovery in Cases of Foreign Politically Exposed Persons (PEPs), Swiss Federal Department of Foreign Affairs;
8. The BOTA Foundation: Final Summative Report, Submitted February 12, 2015. IREX and Save the Children, Note on World Bank FIF Fees and Charges. October 20, 2023. The World Bank;
9. Kristian Lasslett and Thomas Mayne. A Case of Irresponsible Asset Return? The Swiss-Kazakhstan $48.8 million. Quinn Mary University of London, Ulster University, 2018;
10. Civil Society Advisory Council – Terms of Reference Uzbekistan Vision 2030 Fund. Adopted by the Management Committee on 7 February 2023.
11. https://discovery.nationalarchives.gov.uk/details/r/C11645559
12. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi.2009 — 385-bet-bet.
13.. Feliciano, Hector (2001), «The Great Culture Robbery: the Plunder of Jewish-Owned Art», The Plunder of Jewish Property during the Holocaust, London: Palgrave Macmillan UK, pp. 164–176,
14. https://en.wikipedia.org/wiki/Nuremberg_trials

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMIGA KADRLAR TAYYORLASH

Vaxidov Fazliddin Raufovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar, harbiy harakatlarda mazkur tuzilmaning harbiy xizmatchi va xodimlarining ishtiroki hamda sohaga kadrlar tayyorlash masalalari tegishli manba va adabiyotlar asosida tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, kadrlar tayyorlash, harbiy kadrlar, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, ichki xavfsizlik.

Mamlakatimizda Vatan ozodligi, tinchligi va himoyasi yo'lida kurashgan ota-bobolarimiz faoliyatini chuqur o'rganish, bu borada doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, asoslangan yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritish va keng ko'lamda targ'ib qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ikkinchi jahon urushi yillarida front va front ortida chinakam qahramonlik ko'rsatgan harbiy xizmatchi va xodimlarimiz taqdirlarini o'rganish masalalari ham ustuvor ahamiyatga ega.

Ikkinchi jahon urushi arafasida, urush yillari va undan keyingi davrlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga kadrlar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etib, ayniqsa kadrlarga bo'lgan ehtiyoj har tomonlama ortib borgan. Mazkur mavzular doirasida so'nggi yillarda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, xususan, O'zbekistonda sohaga kadrlar tayyorlash masalasi muhim obyektlardan biriga aylangan.

Masalan, A. Yermetov tadqiqotlarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyatining 1925-1991-yillar davr oralig'iga bag'ishlangan bo'lib, unda sovet davrida O'zbekistonda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi, ularning tarkibiy tuzilishi va vazifalari, o'lkaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi ishtiroki, tizimdagi ziddiyatli holatlar, urush yillarida ichki ishlar organlari xodimlarining fashizmga qarshi kurashi, urushdan keyingi yillarda jamiyatda amalga oshirilgan o'zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlari xodimlarining ishtiroki, Ichki ishlar xalq komissarligining nomi Ichki ishlar ministrligiga o'zgartirilishi, ichki ishlar organlarining O'zbekistonda Markaz siyosatini amalga oshirish va jamiyatda tartib-osoyishtalikni ta'minlash borasidagi faoliyati, qayta qurish yillarida ichki ishlar organlari tizimida yuzaga kelgan murakkab va ziddiyatli holatlar birlamchi manbalar yordamida tadqiq etilgan [1].

Mazkur mavzuni alohida tarixiy davr va hudud asosida o'rganishga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, bu borada ayniqsa birinchi va ikkinchi jahon urushlari, urushlardan oldingi va keyingi davrlar, urush vaqtidagi tarixiy davrlar bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, O.G. Ivanova 1917-1941-yillarda Mari o'lkasida jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha davlat organlari faoliyatining tarixiy jihatlarini tadqiq etib, ishda mazkur avtonom viloyatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini joriy etilishi, viloyatda kadrlar siyosati va ularni tanlab olishning o'ziga xos jihatlari, viloyatda jamoat tartibini saqlash faoliyatining yo'lga qo'yilishi tarixiy hujjatlar yordamida asoslantirilgan [2]. Shuningdek A.A.Makeyev tadqiqotida mazkur o'lkada jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hududiy bo'linmalarning tashkil etilishi va tizimga kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilgan [3, 230].

Tan olish lozimki mazkur davrlarda, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi arafasida va urush yillarida jamoat xavfsizligini ta'minlovchi organlar xodimlari, xususan militsionerlarning umumiy ta'lim darajasi nisbatan pastroq bo'lib, xususan, 1945-yilning o'rtalarida militsiya Toshkent garnizonining shaxsiy tarkibi orasida militsionerlarning salkam 2 foizi butunlay savodsiz bo'lsa, ofitserlarning 32 foizi 7-sinf hajmida va undan ham kamroq ma'lumotga ega edi [4, 89]. Shundan kelib chiqqan holda viloyatlarning ichki ishlar boshqarmalarida maxsus kechki o'rta maktablar yoki maxsus sinflar

tashkil etilib, ularda ichki ishlar idoralarining xodimlari o‘qib, o‘rta ma’lumot olishgan.

1932-yil OGPUning O‘rta Osiyodagi vakolatxonasining 1932-yil 25-maydagi 986/s-raqamli va 1932-yil 14-avgustdagi 776/s-raqamli buyruqlariga binoan Qo‘qon katta boshliqlar tarkibi maktabi tashkil etiladi [5]. Uning vazifasi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston uchun milliy militsiya kadrlarini tayyorlash edi. Keyinchalik Samarqand maktabi tugatilgach, Qo‘qon maktabi Toshkent shahriga ko‘chirib keltirilgan va uning negizida Qo‘qon militsiya maktabining vorisi bo‘lmish Toshkent maxsus militsiya o‘rta maktabi barpo etilgan [6, 439].

Qo‘qon militsiya maktabiga birinchi qabul mavsumida 110 ta tinglovchi bo‘lib, ta’lim oluvchilar ichida 15 millat vakillari bo‘lgan. Maktabda o‘qish muddati bir yil etib belgilangan edi. Shu vaqt ichida tinglovchilar to‘rt o‘quv majmuini: maxsus fanlar, siyosiy darslar, harbiy va umumta’lim fanlarini o‘rganib olishlari lozim edi. Birinchi bitiruvchilardan O‘zbekiston uchun – 38 nafar, Turkmaniston uchun – 14 nafar, Tojikiston uchun – 9 nafar, Qirg‘iziston uchun – 28 nafar mutaxassislar tayyorlandi.

Keyinchalik ikkinchi jahon urushi davrida maktab faoliyatida vaqtinchalik uzilishlar kuzatilib, urushdan keyingi yillarda, aniqrog‘i 1967-yilda sobiq Ittifoq Jamoat tartibini saqlash vazirligining Toshkent oliy militsiya maktabi tashkil etildi. Mazkur ta’lim muassasasi O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston SSR Ichki ishlar vazirligi uchun oliy yuridik ma’lumotli xodimlarni tayyorlagan. O‘quv dargohiga general-mayor Tojiddin Azimovich Jalilov boshliq etib tayinlandi. O‘quv muddati to‘rt yilni tashkil etib, ilk o‘quv yilida 85 kishi qabul qilingan.

80-yillar o‘rtalariga kelib maktabda kunduzgi va sirtqi ta’lim hamda malaka oshirish fakultetlari, dariy (forsiy) tili tarjimonlarini tayyorlash maxsus fakulteti, yong‘inga qarshi texnika xavfsizlik muhandislari fakulteti faoliyat ko‘rsata boshladi. Keyinchalik yong‘inga qarshi texnika va xavfsizlik muhandislari fakulteti maktab tarkibidan chiqarildi [7, 81].

Ikkinchi jahon urushi yillarida militsiyaning eng muhim vazifalaridan biri aholini oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta’minlashdagi qiyinchiliklardan foydalanib, boylik orttirishga berilgan shaxslarga qarshi kurashishdan iborat edi. Bundan tashqari evakuatsiya qilingan aholini, davlat mulkini, uskunalarni qo‘riqlash, front ortida fashist josuslaridan tozalash ishlari bilan shug‘ullangan.

Agar 1962-yilda O‘zbekiston jamoat tartibini saqlash idoralariga oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli 180 ga yaqin yosh mutaxassis qabul qilingan bo‘lsa, 1963-yilda ikki yuzdan ortiq yosh mutaxassis – RSFSR jamoat tartibini saqlash vazirligi oliy maktabi doimiy bo‘limini, O‘zbekiston va boshqa respublikalar jamoat tartibini saqlash vazirliklarining maxsus o‘rta o‘quv yurtlarini, Toshkent davlat universitetini, politexnika to‘qimachilik institutlarini, Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlarini, Toshkentdagi hisob-buxgalterlik, qurilish, savdo, politexnika texnikumlarini, tibbiyot bilim yurtini, Qo‘qon avtomobil yo‘llari texnikumini bitirgan kadrlar respublika militsiyasi saflariga qabul qilingan.

Umuman olganda 1966-yilga kelib jamoat tartibini saqlash sohasi xodimlari, xususan, militsiya ofitserlarining 94,7 foizi oliy va o‘rta ma’lumotli bo‘lishgan. Agar 1958-yilgi ko‘rsatkich bilan solishtirilsa unda faqatgina 56 foizni tashkil etar edi. Oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli olimlar esa 1958-yilgi 21,5 foizdan 1966-yilda 49 foizga yetgan.

Mudofaa ishlari vazirligi zimmasiga harbiy safarbarlik tadbirlari, Milliy gvardiyani tuzish va ta’lim berish, fuqarolar mudofaasini amalga oshirish, harbiy bilim yurtlarini butlash, oliy o‘quv yurtlaridagi harbiy kafedralar va kuchaytirilgan harbiy tayyorgarlik maktablarini boshqarish, muqobil xizmatni tashkil qilish, urush qatnashchilari va baynalminal jangchilar bilan ishlash, harbiy xizmatga chaqirish, qo‘shinlarni joylashtirish, harbiy mashqlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish, qo‘shin va harbiy obyektlarni yangi joyga ko‘chirib, joylashtirish, shuningdek, harbiy texnika va qurol-yarog‘larni chetga chiqarish va tashqaridan olib kelish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalari yuklatildi [8, 15].

Shundan kelib chiqqan holda so‘nggi yillarda ikkinchi jahon urushi qatnashchilarni faoliyati chuqur o‘rganilib doimiy ravishda tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi jahon urushida mardlik va jasorat, front ortida matonat hamda insonparvarlik namunalarini ko‘rsatgan ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan buyuk G‘alabani ta’minlashga qo‘shgan munosib hissasini keng miqyosda yoritish, Ikkinchi jahon

urushi qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizning nomlarini abadiylashtirish, ularning beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Toshkent shahrida “Shon-sharaf” davlat muzeyi, “Mangu jasorat” va “Matonat madhiyasi” monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni o‘z ichiga olgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi barpo etildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki “G‘alaba bog‘i” majmuasi tomonidan aholi bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatilib, mazkur muassasa doimiy ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladigan va muntazam ravishda ma’lumotlar yangilanadigan, asosli ma’lumotlar asosida “Shon-sharaf” muzeyi fondlari yangilanadigan yirik markazga aylandi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, bugungi notinch va tahlikali hayotning o‘zi Ikkinchi jahon urushining qonli fojialaridan xulosa va saboq chiqarib yashashni butun dunyo xalqlaridan talab etayotgan bo‘lib, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni qadriga yetgan holda uni himoya qilishda har birimiz ishtirok etishimiz hamda ota-bobolarimizning mislsiz qahramonliklarini kelajak avlodlarga yetkazish muqaddas vazifamizdir.

Аннотация. В статье на основе соответствующих источников и литературы анализируются реформы, проведенные в системе общественной безопасности в годы Второй мировой войны, участие военнослужащих и сотрудников этой структуры в боевых действиях, а также вопросы подготовки кадров для этой сферы.

Ключевые слова: Вторая мировая война, подготовка кадров, военнослужащие, общественный порядок, общественная безопасность, обеспечение общественной безопасности, поддержание общественного порядка, внутренняя безопасность.

Annotation. The article, based on relevant sources and literature, analyzes the reforms carried out in the public security system during the Second World War, the participation of military personnel and employees of this structure in military operations, as well as issues of training personnel for this area.

Key words: World War II, training, military personnel, public order, public safety, ensuring public safety, maintaining public order, internal security.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ерметов А.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925 – 1991 йиллар) тар. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. Тошкент. 2019, 58 б.

2. Иванова О.Г. Деятельность государственных органов по обеспечению общественного порядка в Марийском крае в 1917-1941 годах: Исторический аспект. Дис. ... канд. истор.. наук, СПб., 1998. 226 с.

3. Макеев А.А. Правовое регулирование деятельности региональных государственных органов по обеспечению общественного порядка в 1917-1941 годах (На материалах Марийского края. Историко-правовой аспект). Дис. ... канд. юрид. наук. Санкт-Петербург, 2003. 230 с.

4. Раҳимов Ғ., Ҳайдаров М., Мавлонов Ш., Хакимов Р. ва бошқалар. Халқ хизматида 75 йил. 75 лет на службе народа. Т.: Ўзбекистон. Б. 89.

5. Ташкентская ВШМ МВД СССР. http://nkao.ru/plg/forum/forum_viewtopic.php?968 (oxirgi murojaat: 18.03.2025).

6. Matlyubov B.A. “O‘zbekistonda jamoat tartibini va xavfsizlikni ta’minlash tarixi” – Monografiya. T.: 2021, B. 439.

7. Матлюбов Б.А. Норматов К. “Ўзбекистон Республикаси ички ишлар академияси тарихи (25 йил академияга)” –. 2019, Т.: Тасвир нашриёт уйи. Б. 81.

8. Ватан ҳимояси – муқаддас бурч. Тузувчилар: И.Ю.Иноятов, М.Х.Абилов. Қ.Мамедовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон. 2001. Б. 15.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: info@mgjxu.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 9. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 05.05.2025 y. Buyurtma № 504.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024

O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universitetining

YANGI ADABIYOTLARI














SURISHTIRUV










t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

@jamoatxavfsizligiuniversiteti2



9 773030 323005

TAHRIRIYAT MANZILI:
100211, Toshkent viloyati, Chorsu qo'rg'oni.
Tel: (71) 230-32-71
Faks: (71) 230-32-50
E-mail: mg_hti@umail.uz